

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**B. Mustafoyev**

**MUSIQA O'QITISH METODIKASI**  
(5111100- musiqa ta'lifi yo'nalishi talabalar uchun)

**Buxoro-2021**

**UDK.**

Mustafoyev B.I.

Musiqa o‘qitish metodikasi [ Matn]: o‘quv qo‘llanma/ B. Mustafoyev-Buxoro:  
OOO “Sadiddin Salim Buxoriy” Durdonashriyoti, 2021. - b. **KBK**

**74.263ya73**

O’quv-qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 18 avgustdagи 356-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan. Ro‘yxatga olish raqami 356-068.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 5111100-musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining “Musiqa madaniyati” fani o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda fanning maqsad va vazifalari metodologik asoslari, didaktik asoslari ta’lim metodlarining ta’rifi, fanni o‘qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyayalardan foydalanish kabi metodik masalalar yoritilgan.

**Mas’ul muharrir:**

**Xodjaev B.Q.**, Buxoro davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

**Taqrizchlar:**

**Qodirov R.G.**, O‘zbekiston davlat Konservatoriysi professori.

**Madrimov B.X.**, Buxoro davlat universiteti professori.

## KIRISH

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yoshlarning aqliy qobiliyatlari, iqtidorini namoyon etishi va jismoniy hamda ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan. Ushbu dolzarb vazifalarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni”, Davlat ta’lim standartlari, umumiy o‘rta ta’limning “Milliy o‘quv dasturi” muhim ahamiyatga ega hujjatlardir.

Mazkur o‘quv qo‘llanma talablar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, oliy pedagogik ta’lim yo‘nalishidagi muassasalarning musiqiy ta’lim sohasida tahsil olayotgan talabalari hamda umumiy o‘rta ta’lim tizimi musiqa madaniyati fani o‘qituvchilari uchun tavsiya qilinadi.

O‘quv qo‘llanmada “Davlat ta’lim standarti” (DTS), “Milliy o‘quv dasturi” talablariga muvofiq musiqa madaniyati faniga qo‘yilgan talablar, fanni o‘qitish metodikasi va mazmuni, predmetning malaka talablari, o‘qitish shakllari, metod, uslub, vositalari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda, musiqiy - ijodiy bilim, ko‘nikma va malakalarini chuqurroq o‘zlashtirishda, musiqiy - pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda mahoratlarini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Musiqa ta’lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan “Musiqa o‘qitish metodikasi”, deb nomlangan o‘quv qo‘llanmada fanning o‘qitish sohasi, maqsadi, vazifalari, o‘qitish tamoyillari va metodlari tasnifi hamda ularning o‘ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda 1-7 sinflarda musiqa darslarini tashkil etish mazmuni, metodikasi, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda musiqa ta’limi tizimi to‘g‘risida ilmiy-metodik va didaktik masalalar bayon etilgan.

Shuningdek, qo‘llanmada mamlakatimizda musiqa madaniyati ta’limiga oid olib borilayotgan islohotlar, musiqa ta’lim-tarbiyasi masalalariga doir qabul qilingan me’yoriy-uslubiy hujjatlar, ta’lim muassasasida bo‘lishi lozim bo‘lgan musiqa madaniyati fani o‘quv xonasi hamda uning jihozlanishi haqidagi ham ma’lumotlar kiritilgan.

## **MUSIQA MADANIYATI TA'LIMI ISLOHOTLARI**

### **Musiqa ta'lim- tarbiyasiga doir me'yoriy va o'quv-uslubiy hujjatlar**

Hozirgi zamon musiqa pedagogikasi fani oldida turgan muhim muammolardan biri – ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish hisoblanadi. Zero, musiqa ta'lim-tarbiyasi ma'naviy kamolotini ta'minlovchi muhim omillaridan biri bo'lib, inson tuyg'ulariga ta'sir etish bilan uni ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalaydi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda musiqiy ta'lim-tarbiyani rivojlantirish borasida qator me'yoriy va o'quv-uslubiy hujjatlar qabul qilindi, dasturlar tayyorlanib, darsliklar nashr ettirildi, o'quv-metodik adabiyotlar chop etildi.

Umumta'lim maktabida musiqa ta'limi mazmunini yanada oshirish, tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda Davlat ta'lim standartining ahamiyati katta. 2017 yil 6 apreldagi "Umumi o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-sonli qaror bilan Musiqa madaniyati fanidan Davlat ta'lim standarti tasdiqlandi. Unda umumi o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o'qitishning maqsadi - o'quvchilarning ma'naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish, milliy g'urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini o'stirish, o'zbek hamda jahon kompozitorlari asarlarini tinglab tushunish va undan zavqlanishga o'rgatishdan iborat, deb belgilandi.

Hujjatda maktabda boshlang'ich ta'limning muhim jihatlaridan biri- o'quvchilarda musiqiy savodxonlik malakalarini shakllantirishdan iboratligi e'tirof etildi. Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati o'quv dasturiga taalluqli musiqa savodi malakalarini mustahkam o'zlashtirilishi, o'quvchilar ongi va shuurida uzoq vaqt saqlanib qolishi, ular mavjud musiqiy bilim, malaka va ko'nikmalardan kundalik faoliyatda qo'llay olishlariga erishish lozimligi qayd etildi.

Musiqa madaniyati fanini o'qitishning oldiga esa o'quv fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash orqali o'quvchilarda kuzatuvchanlikni, musiqiy xotirani, obrazli tasavvur qilishni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish asosida fikr doirasini kengaytirish, o'zbek va jahon kompozitorlari asarlarini hamda turli musiqiy janrlarni bir-

biridan farqlay olish, tayanch va umumiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirish kabi vazifalar qo‘yildi<sup>1</sup>.

Yoshlarni milliy musiqa san’atiga qiziqtirish, musiqiy merosimiz bilan tanishtirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrda “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim ahamiyat ega. Unda xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san’ati o‘zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an’analari bilan ma’naviy hayotimizda muhim o‘rin egallayotganligi ta’kidlab o‘tildi. Qarorda o‘zbek milliy maqom san’ati markazining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi: jumladan, xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom san’ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish, ta’lim muassasalariga mohir maqomchi san’atkorlarni biriktirish va shu asosda “Ustoz-shogird” maktablarini tashkil etish vazifasi topshirildi<sup>2</sup>.

Qarorga binoan Shahrисабз shahrida 2018 yilning 6-10 sentabr kunlari o‘tkazilgan Xalqaro maqom san’ati anjumanida Prezidentimiz so‘zlagan nutqida: “Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarurligi alohida ta’kidlanib: “Agar biz asl, haqiqiy san’atni bilmoqchi, o‘rganmoqchi bo‘lsak, avvalo, mumtoz maqom san’atini bilishimiz, o‘rganishimiz kerak”, “Agar biz san’atni, madaniyatni ko‘tarmoqchi bo‘lsak, avvalo, mumtoz maqom san’atini ko‘tarishimiz kerak” ligi alohida e’tirof etildi<sup>3</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2019 yil 19 martdagi “Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o‘qishga qiziqishini oshirish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to‘g‘risida” o‘tkazilgan videoselektor majlisida esa

<sup>1</sup> “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 187-sonli qarori. (Musiqa madaniyati fanidan Davlat ta’lim standarti). 2017 y. 6 aprel

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ - 3391-sonli qarori //Xalq so‘zi. 2017. - 18 noyabr

<sup>3</sup> Prezident Shavkat Mirziyoevning “Xalqaro maqom san’ati anjumani” ning ochilish marosimidagi nutqi”. //Xalq so‘zi. 2018 y. - 7 sentabr

yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida ularni madaniyat va san'atga jalb etish, sportga qiziqtirish, kitob o'qishga chorlash, axborot texnologiyalariga o'qitish va xotin-qizlarga ishchi o'rinalar yaratish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi. Albatta, 5 ta tashabbus mazmun va g'oya jihatidan bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirilmoqda. Birinchi tashabbus- yoshlarning musiqa, tasviriylar san'at, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga qaratilgan.

Har bir tashabbusning maqsadi aniq belgilangan bo'lib, ushbu tashabbus yosh avlodni ma'naviy jihatdan kamol toptirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli va samarali o'tkazish ishlarini qamrab olishi, san'at va madaniyat sohasi ishtirokida amalga oshirib borilishi bilan ahamiyatlidir. Bu esa maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida amaliy fanlarni o'qitishni yanada takomillashtirishga asos bo'ladi.

Bugungi kunda pedagogik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish zamонавија yoshdashuvlarni taqozo etmoqda. "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", deya ta'kidlanishi mamlakat yoshlarini kelajakda yuqori malakali mutaxassislar etib tarbiyalashda alohida e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir<sup>1</sup>.

Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasi asosiy jihatlarida amaliy fanlarni o'qitish, bu yo'nalishda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash borasida alohida ta'kidlab o'tildi.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldag'i PQ 4623-sonli "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Qarorga asosan musiqiy ta'lim tasviriylar san'at va muhandislik grafikasi, texnologiya ta'limi, jismoniy madaniyat, chaqiriqqacha harbiy ta'lim hamda maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport yo'nalishlari bo'yicha 3 yillik bakalavrlik ta'limi joriy

---

<sup>1</sup> Mirziyoev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- Toshkent. O'zbekiston, 2016 y. – B. 14.

etildi. Oliy pedagogik ta’lim tizimida mutaxassis-o‘qituvchilar tayyorlash ishi yo‘lga qo‘yildi.

Umumiy o‘rta ta’limda “Milliy o‘quv dasturi”ning ishlab chiqilishi va bosqichma-bosqich amaliyatga joriy etilishi muhim ahamiyatga molik masalalardan biridir. Unda musiqa madaniyati fanini o‘qitishning Konsepsiysi 8-bobdan iborat bo‘lib, quyidagicha nomlanadi:

1-bob- Umumiy qoidalar.

2-bob- Musiqa madaniyati fanini o‘qitishning joriy holati va mavjud muammolar.

3-bob- Musiqa madaniyati fanining maqsad va vazifalari.

4-bob- Musiqa madaniyati fanining o‘quv-metodik ta’minotini rivojlantirish.

5-bob- Musiqa madaniyati fanining moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash.

6-bob- Musiqa madaniyati fanini o‘qitish metodologiyasi.

7-bob- Konsepsiyanı amalga oshirish mexanizmi.

8-bob-Yakuniy qoidalar.

Birinchi bobda - O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimida musiqa madaniyati fanini o‘qitishni rivojlantirish Konsepsiysi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilganligi bayon etilgan. Shuningdek, Konsepsiya umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o‘qitishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari belgilab berilgan.

O‘zbekistonda san’at, ma’naviy, estetik va badiiy an’analarni avloddan-avlodga yetkazish, yoshlarni san’at asarlarini idrok etishga o‘rgatish orqali badiiy madaniyatini rivojlantirish, ma’naviy-intellektual salomatligini asrash, o‘quvchilarda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish kabilar asosiy vazifa ekanligi qayd etilgan.

Ushbu fanni o‘qitishda uzviylik va uzlusizlikni ta’minlash orqali o‘quvchilarda madaniy qadriyatlarga asoslangan ijodiy va shaxsiy fazilatlar shakllantirilishi lozim bo‘lsa-da, mazkur fan

mazmuni hamda o‘qitishda mavjud bo‘lgan ayrim muammolar ham sanab o‘tilgan.

Uchinchi bobda musiqa madaniyati fanining maqsadi-o‘quvchilarga san’at, badiiy-estetik va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar, milliy, umummadaniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy fazilatlar, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishdir, deb belgilangan hamda musiqa madaniyati fanining vazifalari yoritilgan.

To‘rtinchi bobda musiqa madaniyati fanining ilmiy-metodik ta’minotini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar bayon etilgan. Musiqa madaniyati fani bo‘yicha sinflar kesimida o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqish prinsiplari asosida amalga oshirilishi ta’kidlanib, o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqishda qo‘yiladigan talablar o‘z ifodasini topgan.

Musiqa madaniyati fani moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbir haqida tushunchalar keltirilgan.

Musiqa madaniyati fanini o‘qitishning asosiy tamoyillari, fanning aniq maqsadga qaratilganligi, musiqa madaniyati fani bo‘yicha o‘quvchilar faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar, fan mashg‘ulotlarini o‘tkazish jarayoni o‘qitishning ilg‘or metodikalari, mакtab, oila va madaniy muassasalarning o‘zaro hamkorligidagi faoliyatga asoslangan holda tashkil etilishi lozimligi ta’kidlangan. Shuningdek, musiqa madaniyati fani bo‘yicha o‘quv dasturlari ishlab chiqishda malaka talablari va ilg‘or tajribalarni hisobga olish muhimligi, darsliklarga qo‘yiladigan talablar ko‘rsatilib o‘tilgan.

Konsepsiyanı amalga oshirish mexanizmi, chora-tadbirlari belgilangan.

Musiqa madaniyati fani bo‘yicha ishlab chiqiladigan me’yoriy hujjatlar mazkur Konsepsiada belgilangan qoidalarga muvofiq bo‘lishi, Konsepsiyanı amaliyotga joriy etishda ta’lim sohasidagi xalqaro tashkilotlar, vazirlik va idoralar, muassasalar, davlat hamda nodavlat korxona tashkilotlar, fuqarolik jamiyati instituti, jamoatchilik bilan o‘zaro kelishilgan holda amalga oshirilishi qayd qilingan.

# **1-MAVZU. MUSIQA O'QITISH METODIKASI KURSI**

**Tayanch so‘zlar:** *musiqa ta’limi, tarbiya metodikasi, milliy ruhda tarbiyalash, musiqiy dunyoqarash, fanning xususiyat va vazifalari, musiqa vositasida tarbiya, musiqa pedagogikasi, musiqashunoslik nazariyasi, musiqaning tarbiyaviy tavsifi, metodologik fanlar, tadqiqot metodlari, kasb mahorati, musiqiy taassurot, ijodiy jarayon.*

## **1.1. Maktabda musiqa metodikasi fanining ahamiyati va mohiyati**

Musiqa madaniyati darslarida san’atning bu turi bilan oshno bo‘lish maktab o‘quvchilarini milliy musiqiy ruhda tarbiyalashda, ularning dunyoqarashi, ma’naviy ehtiyojlarini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega.

Musiqaning keng tarbiyaviy imkoniyatlarini o‘qituvchi amaliyotda faol tatbiq eta olsagina, u bolalar musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning san’at asarlarini to‘gri anglash, idrok etish va baholay olishga o‘rgatishi mumkin.

Albatta, jamiyat tomonidan maktab oldiga qo‘yilayotgan vazifalarni amalga oshirish fan oldida katta mas’uliyatni qo‘yadi. Musiqa tarbiyasini hayot bilan bog‘lash, bolalar musiqiy-badiiy qiziqishlarini rivojlantirish, mashg‘ulotlar tarbiyaviy ta’sirini oshirish kabi muhim vazifalar musiqa madaniyati fani o‘qituvchisidan o‘z fanini chuqur bilishni va o‘quvchi shaxsiga doimiy e’tibor bilan qarashni taqozo etadi.

Musiqa o‘qitish metodikasi-bo‘lg‘usi maktab musiqa o‘qituvchisi kasbiy tayyorgarligida muhim ahamiyatga ega fandir. Ushbu fan musiqa vositasida bolalarning ta’lim–tarbiyasini amalga oshirish masalalarini o‘rganadi. Musiqa tarbiyasi metodikasini egallash uchun maktab dasturida musiqa fanining kiritilishi, uning o‘rni, ahamiyati musiqa san’atining tarbiyaviy imkoniyatlarini, tarbiya ob’ekti sifatida zamonaviy o‘quvchi shaxsini yaqqol tushunish talab etiladi.

Musiqa tarixini bilish, uni rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilay olish, bastakorlik ijodiyoti, musiqa merosi xususidagi tushuncha va malakalar - o‘quvchilar musiqiy didlarini tarbiyalashga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularning dunyoqarashlarini kengaytiradi, musiqa san’atining o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishga, musiqiy obrazlarda hayot voqealarining aks ettirilishini, musiqa ifoda vositalarini hissiy anglashga yordam beradi.

Psixologik-pedagogik, metodologik fanlar esa hozirgi davrda maktabga o‘qituvchiga o‘quv-tarbiyaviy jarayonning mazmunini, tamoyillari va shakllari tuzilishini bilishga, turli yoshdagi o‘quvchilarning yosh, pedagogik-psixologik va fiziologik xususiyatlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu jihatlarsiz maktabda musiqa tarbiyasi maqsad–mohiyati, mazmun va tuzilishini tasavvur qilish qiyin.

Oliy musiqa pedagogik ta’limida o‘qitish metodikasi fani o‘quv rejasiga asosan 3-kursda 5-6 semestr davomida o‘qilib, u 84 o‘quv soatlarini o‘z ichiga oladi. O‘zlashtirilgan nazariy bilim, malaka va ko‘nikmalar keyingi yilda bitiruvchi talabalarning Davlat pedagogik amaliyoti davrida mustahkamlanadi.

Musiqa o‘qitish metodikasi pedagogik fanlar tizimiga kiradi va o‘zining mustaqil o‘rniga ega bo‘lib, musiqa tarbiyasining mazmun va metodlarini takomillashtirish maqsadida uning qonuniyatlarini o‘rganadi.

Musiqa o‘qitish metodikasining mohiyati yosh avlod tarbiyasida musiqa san’atining muhim roli va ahamiyatini anglatish bilan belgilanadi. Musiqa tarbiyasining metodik fan sifatida rivojlanishi jamiyatda madaniyat, musiqa san’ati, ta’lim, maorif va maktablarning takomillashuvi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Musiqa pedagogikasi umumiyligi pedagogikaning bir qismi sifatida o‘ziga xos xususiyati, ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari, his-tuyg‘ular olami va musiqiy badiiy obrazlari bilan insonning ma’naviy-estetik qarashlarini kengaytirishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Bola shaxsini ma’naviy rivojlanishida musiqa san’atining o‘rni, roli va pedagogik ahamiyati musiqachi-pedagog olimlar E.B.Abdullin, Y.B.Aliev, O.A.Apraksina, B.V.Asafev, T.I.Baklanova, L.A.Barenboym, N.Y.Bryusova, N.A.Vetlugina, D.B.Kabalevskiy, V.I.Petrushin, N.M.Mixaylovskaya, Y.N.Nazaykinskiy, Y.V.Nikolaeva, O.P. Radshovalarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan.

Mamlakatimizda musiqa pedagogikasi bo‘yicha XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida mamlakatimizda H.Nurmatov, A.Hasanov, F.Jo‘rayev, R.Qodirov, Q. Mamirov, S.Annamuratova, T. Tursunov, F. To‘rayev, S. Do‘stov, A. Qo‘shayev va boshqa ko‘pgina musiqachi-pedagog olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarda musiqiy ta’limning maqsad va vazifalari, mazmun-mohiyati, musiqiy faoliyat turlari, musiqa ta’limida qo‘llaniladigan qator an’anaviy usullar tadqiq etilgan. Musiqaning juda katta tarbiyaviy imkoniyatlari, musiqa

o‘qituvchisining tayyorgarlik darajasi, kasbiy mahorati, o‘quvchi shaxsiga hamda uning musiqiy-badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lmog‘i bilan-gina ta’lim–tarbiyada samarali ijobiy natijaga erishish mumkinligi e’tirof etilgan. Muhimi, ilmiy izlanishlarda musiqa ta’limi samaradorligini belgilovchi omillardan biri-musiqiy-metodik masalalarning nazariy jihatdan ishlab chiqilganligi va uning amaliyot bilan bog‘liqligi asnosida yechimi masalalaridir.

## **1.2. Musiqa o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan o‘zaro bogliqligi**

Musiqa o‘qitish metodikasi boshqa fanlar bilan o‘zaro uzviy bog‘liqlikda rivojlanadi. Jumladan, metodika musiqashunoslik fani, uning yutuqlarini tadqiq etib, ta’lim-tarbiya jarayonlarida undan samarali foydalanadi. Shu o‘rinda so‘nggi paytlarda o‘quvchi–yoshlar orasida musiqa asarlarini tinglash, idrok etish va tahlil qilishni rivojlantirish masalasiga yana ham ko‘proq e’tibor berilayotganligini ta’kidlash o‘rinli. Musiqashunoslik nazariyasi musiqa tarbiyasining mazmun-mohiyati hamda metodlari ishlanmalarini yanada takomillashtirishda samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Musiqa o‘qitish metodikasi pedagogikaga, uning asoslariga tayanadi. Metodlar ishlanmasi quyidagi muammolar bilan bog‘liq: musiqa tarbiyasining ta’lim mazmuni bilan o‘zaro uyg‘un bog‘liqligi, o‘quvchilar ijodiy va musiqiy qobiliyatlarining rivojlanishi, musiqiy did, qiziqish, ehtiyoj, xotira hamda ovoz, musiqani idrok etishda yosh–individual xususiyatlarni inobatga olish, o‘quvchilar ma’naviy rivojlanishidagi turli musiqiy faoliyatlarning imkoniyatlari va boshqalar.

Tarbiya ko‘pgina omillar bilan bog‘liq jarayondir. Kishining musiqa madaniyati asoslari nafaqat maktab ta’sirida shakllanadi, balki unda oila, ommaviy axborot, ijtimoiy munosabatlar tizimi ham katta rol o‘ynaydi. Shu bilan birga ta’kidlash o‘rinligi, aynan maktab o‘quvchilari musiqiy qiziqish va qobiliyatlarining tarkib topishi hamda rivojlanishida maktab hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Albatta, musiqa pedagogikasi va amaliyotida mavjud barcha musiqiy bilimlarni o‘quvchiga berishning imkoniyati ham, hojati ham yo‘q. Biroq metodika vazifasiga o‘quv-tarbiyaviy jarayonning turli shakllarini jumladan, musiqa darslari, musiqadan fakultativ

mashg‘ulotlar, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar, to‘garaklar, bayramlar mazmunini yanada takomillashtirishni nazarda tutish lozim.

Musiqa o‘qitish metodikasi pedagogika fanining bir tarmog‘i sifatida o‘z vazifalari va tadqiqot metodlariga ega. Musiqiy ta’lim shu jarayon bilan bog‘liq barcha jihatlarni, jumladan:

- o‘quv materialining mazmuni, o‘qitish metodlari, o‘quvchilarning o‘quv- biluv faoliyati, ta’lim natijalari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

-bu jarayonlarning barcha tomonini puxta o‘rganish, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

O‘zining muammolarini hal etishda metodika psixologiya faniga yondashadi. O‘quvchilarda musiqani tinglash, uni idrok etilish malakalarini rivojlantirish, ijodiy, musiqiy qobiliyatlarining o‘sish darajasi, bola ruhiyati qonuniyatlarini bilishda psixologiya fanining ahamiyati nihoyatda katta. Bola psixologiyasi qonuniyatlarini bilmay turib, uning musiqani idrok etish qobiliyatining rivojlanishini, ijodiy, musiqiy qiziqishi va ehtiyojlarini anglab bo‘lmaydi. Shuningdek, metodika o‘quvchilarga u yoki bu musiqiy materialning hajmi, metodlaridan foydalanish samaradorligi masalalarini psixologiya fani bilan bog‘liq holda hal etadi.

Musiqashunos olimlarning ta’kidlashicha, musiqa psixologiyasi insonning musiqaviy tinglash qobiliyati, eshitish sezgisining chegaralari, musiqaning lad, ritmini emotsiional his qilishi, musiqani anglashi, xotirada saqlashi, iじro etishi hamda undan bahramand bo‘lishi kabi masalalar doirasini qamrab oladi.

Musiqa ta’lim-tarbiyasida bolalar fiziologiyasi fani ham o‘zining o‘rniga ega. O‘quvchilarda ijrochilik faoliyatini amalga oshirish, kuylash malakalarini shakllantirishda ovoz apparatining o‘rni, tuzilishi, funksiyasi hamda o‘ziga xos rivojlanish jihatlarini o‘rganishda metodika fiziologiya fani sohasining tadqiqotlariga asoslanadi.

Musiqa bilan shug‘ullanish - murakkab psixologik-fiziologik jarayon hisoblangani bois, musiqa madaniyati darslari vokal-xor ishlari, o‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashda ta’limning eng faol va qulay shakli sanaladi. Musiqani tinglashda o‘quvchining diqqat-e’tibori kuchayadi, qiziqish va xotirasi, nutqi rivojlanib, dunyoqarashi kengayib boradi, faolligi oshib yoqtirgan musiqalarini tinglashda zavqlanish, hayratlanish tuyg‘ulari paydo bo‘ladi.

Xullas, mактабда мусиқани о‘qитиш методикасининг бoshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash bo‘lg‘usi мусиқа о‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash tizimida o‘ziga xos o‘rin va ahamiyatga ega. Мусиқа ta’limi yangilanish yo‘liga kirayotgan ekan, jamiyatda bu fanning o‘rni, mazmun-mohiyati, tarbiyaviy ahamiyati yanada oshib borishi, tabiiydir.

### **1.3. Мусиқа о‘qитиш методикаси мазмuni va fanning oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar**

Мусиқа madaniyatini o‘qитиш методикаси fanining maqsadi talablarini umumiy o‘rta ta’lim mакtablarining “Мусиқа madaniyat” fanini Davlat ta’lim standarti, Milliy o‘quv dasturi asosida tashkil etish va o‘qитиш, pedagogika, psixologiya hamda мусиқа ta’limiga oid maxsus fanlardan olgan bilimlarini mujassamlashtirgan holda ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishni o‘rgatish, amalga oshirish yo‘llarini tushuntirish, bo‘lajak мусиқа o‘qituvchilarini metodikaga oid mukammal bilim, ko‘nikma va malakalar bilan ta’minlashdan iborat.

Мусиқа о‘qитиш методикаси fanidan talabalar ta’lim tamoyillari va mazmuni, shakli, metodlari, “Milliy o‘quv dasturi” tuzilishi, mazmun-mohiyati, o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini oshirish maqsadida metodik adabiyotlarni o‘rganish hamda tahlil qilish, мусиқа xonalarining jihozlanishi va boshqa masalalar bilan tanishadilar.

#### **Vazifalari:**

- pedagogik-psixologik, мусиқиي metodik bilimlarni o‘quvchilarning umummusiqiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish jarayoniga tatbiq etish;

- talabalarni umumiy o‘rta ta’lim mакtablarida мусиқа ta’limi fanining maqsadi hamda vazifalari, o‘quv rejasida tutgan o‘rni bilan tanishtirish;

- pedagogik-psixologik bilimlar, bevosa та’limi sohasiga oid ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish yo‘llarini o‘rgatish;

- mактабда мусиқа ta’limini o‘qitishni tashkil etish hamda uni samarali amalga oshirish metodikasini o‘rgatish;

- musiқa ta’limida qo‘llaniladigan didaktik tamoyillar, o‘qitish metodlari, shakllari va usullari bilan tanishtirish;

- musiқa madaniyatni darslarini tashkil qilishni rejalshtiruvchi hujjatlarni ishlab chiqishni va tahlil qilishni o‘rgatishdan iborat.

Dars musiqa tarbiyasi tizimida yetakchi omil hisoblanadi zero, unda bolalar ommaviy tarzda qamrab olinadi. Musiqa darslari boshqa fanlardan o‘zining badiyiligi, qiziqarliligi va bolalarda ko‘proq ijodiy zavq, emotsiyal tuyg‘ular, obrazli kechinmalar uyg‘otishi bilan ajralib turadi.

Musiqa, ayniqsa, bolalarning axloqiy va intellektual rivojlanishiga katta ijobjiy ta’sir ko‘rsatadigan badiiy vosita. Zero, musiqa tarbiyasisiz bolalarga aqliy tarbiyani musiqiy tarbiyasiz yetarli darajada amalga oshirib bo‘lmashligi ham ayni haqiqatdir. Shuning uchun musiqa eng avvalo, tarbiya darsidir. Badiiy tarbiya uning umumlashgan mantiqiy mazmunidir.

Musiqa darsi o‘zining shakl va mazmuni, tuzilmasi bilan ham o‘ziga xoslikni namoyon etadi. Musiqa ifodaviylik vositasi va faol ruhiy ta’siri bilan ajralib turadi. Shunday ekan, musiqa ta’lim-tarbiyasi – yosh avlod ma’naviy dunyoqarashining shakllanishida muhim vosita bo‘lishi, shubhasiz.

Musiqa madaniyati ta’limida alohida emotsiyal muhit, ruhiy holat va shart-sharoit xarakterlidir. Chunki, musiqa bola ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatib, muayyan kayfiyat paydo qiladi. Shakllangan musiqiy-badiiy taassurotlar nafaqat o‘qituvchi ta’siri va ijrosida, balki badiiy so‘z san’ati, chehra ifodasi, turli musiqiy ifodaviy harakatlar yordamida yanada mustahkamlanadi. O‘quvchilar diqqat-e’tibori yangrayotgan musiqaga jalb etiladi. ular musiqiy obrazlar yordamida musiqadagi badiyilik, ifodalilikni aniq his etishlariga erishiladi.

Umumiyl jihatlariga qaramay har bir dars ijodiy jarayon bo‘lib, o‘ziga xos tomonlari bilan ham farq qiladi. Ma’lumki, har bir ishni puxta o‘ylab to‘g‘ri tashkil etilishi uning yutug‘ini ta’minlaydi. Musiqa madaniyati dars loyihasida barchasi o‘ylangan bo‘lishi kerak-maqsad va vazifalar, mazmun, tuzilma, vosita hamda metodlar. Bu esa ta’limda ijobjiy natijani ta’minlovchi omildir.

Darsni loyihalashtirish, unga tayyorgarlik o‘qituvchining pedagogik malakasi, mahorati, kompetentligiga bog‘liq. Ushbu jihatlar musiqa materialining tarbiyaviy, ta’limiy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini, shuningdek ularni tatbiq etish yo‘llarini ta’minlaydi.

Musiqiy tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish-asarni chuqur o‘rganishni talab etadi. Musiqiy asarlarni to‘g‘ri tanlab olish esa o‘quvchilar musiqiy tayyorgarligi, qiziqishi, musiqiy ehtiyojlari hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Dars mazmunida turli xil tabiatdagi, kayfiyatdagi musiqa asarlari bo‘ladi. Ularning yaxlitligini ta’minlash uchun dars tuzilmasini aniqlab olish zarur. Bunda turli musiqiy faoliyatlarning mazmun-mohiyatiga ko‘ra birin-ketinligiga va o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Darsning emotsiyonal tuzilmasini o‘ylab o‘qituvchi bir asardan boshqasiga o‘tish jarayoniga o‘quvchilarining muhim ruhiy-hissiy holati, kayfiyatini saqlab qolishi va ularning diqqatini jalb etishda samarali usullarni tatbiq etishi lozim.

Shuningdek, dars tuzilmasini tuzishda bolalar jismoniy, aqliy va emotsiyonal holatlarini, har bir sinf o‘quvchilarining o‘ziga xos xususiyatlarni inobatga olishi maqsadga muvofiq bo‘lib hisoblanadi. Masalan, kichik yoshdagi o‘quvchilar diqqatini uzoq vaqt barqaror saqlay olishmaydi. Ularning musiqiy faoliyatini o‘z vaqtida almashtirib turish maqsadga muvofiq. Murakkab qo‘sinqni, raqs harakatlarini bir necha dars davomida o‘rgatish ma’qul. Murakkab musiqiy–ritmik harakatlar mashqlaridan so‘ng qo‘sinq kuylashga o‘tish ham o‘quvchilarga qiyinchilikni shakllantiradi.

Shuningdek, o‘quv jadvalida musiqa mashg‘ulotining o‘rni, ya’ni o‘sha kunda bu mashg‘ulot nechanchi soatda o‘tilishini ham ahamiyati bor. Agar musiqa madaniyati mashg‘ulotlari texnologiya ta’limi yoki jismoniy tarbiya darslaridan keyin o‘tiladigan bo‘lsa, o‘quvchilarni fikrlashga, idrok etishga undovchi faoliyatlardan boshlash maqsadga muvofiq.

Dars jadvalining so‘nggi soatlarida o‘quvchilarning charchab qolish holatlari kuzatilishi mumkin. O‘qituvchi ushbu holatni ham inobatga olib, o‘quvchilarni tetiklovchi hamda qiziqishni uyg‘otuvchi metodlaridan samarali foydalanish tavsiya qilinadi.

Har bir muayyan holatda o‘qituvchi sinf o‘quvchilarining u yoki bu musiqiy faoliyatga qiziqishlarini, ularning tayyorgarlik darajalarini muntazam hisobga olishi maqsadga muvofikdir.

Shunday qilib, to‘liq shart-sharoitlar hisobga olingan dars tuzilmasini amalga oshirish uchun o‘qituvchining ijodiy yondashuvi talab etiladi. Bu esa har bir darsning qiziqarli va esda qolarli bo‘lishiga yordam beradi. Musiqa madaniyati darslarining haftada bir marotaba o‘tilishi va bu davrda boshqa fanlar o‘tilib, o‘quvchilarning musiqiy taassurotlari unutilishi yoki sayozlashishi mumkin. O‘qituvchi musiqa darslarida yaxlit musiqiy taassurotlar va

qiziqishlarni o‘quvchilar hafta davomida saqlab qolishlariga erishmog‘i kerak.

Tajribali o‘qituvchilar yaxlit dars tuzilmasiga alohida ahamiyat berishadi. Zero, mashg‘ulotning turli elementlari, bosqichlari o‘zaro uyg‘un va bir-biri bilan bog‘liq bo‘ladi. Turli metodlar (asarni taqqoslash, muammoli izlanish, o‘yin holatlari) asosida o‘qituvchi bolalarni ijodiy topshiriqlar orqali faolligini oshiradi va kutilgan natijalarga erishishlariga harakat qiladi.

Ma’lumki, zamонавиј музика маданијати дарсларининг сифати о‘quvchilar faolligi bilan belgilanadi. Faollik muammosi nafaqat darsning metodik tuzilmasi, bolalarga qiziqishni shakllantiruvchi metodlarni qo‘llash orqali hal etiladi. Ta’limiy samara ko‘pincha o‘qituvchining har bir o‘quvchiga yakka-individual yondashuviga ham bog‘liq bo‘ladiki, bu shubhasiz o‘qituvchi oldidagi muhim vazifalardan biridir.

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan hammasi bo‘lib haftasida dars davomida faqat bir marotaba uchrashadi, muloqotda bo‘lsa-da, ammo sinf o‘quvchilari bilan keng ko‘lamda musiqiy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishga ehtiyoj sezadi. Shu bois, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini yaxshi bilmog‘i, ularning imkoniyatlari, sharoiti, qiziqish va musiqiy ehtiyojlarini to‘g‘ri anglab, faoliyatlarni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishi lozim.

### ***Nazorat uchun savollar:***

1. *Maktabda musiqa o‘qitish metodikasining fan sifatidagi ahamiyatini izohlang.*
2. *Maktabda musiqa tarbiyasi atamasining mazmuni nimadan iborat?*
3. *Musiqa o‘qitish metodikasi qaysi fanlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanadi?*
4. *Musiqa o‘qitish metodikasining mazmuni, maqsad va vazifalarini ta’riflang.*
5. *Musiqa o‘qitish metodikasining pedagogik metodlariga tayanishini qanday tushunasiz?*
6. *Dars tuzilmasini loyihalashda o‘quvchilarning qaysi jihatlarini inobatga olish kerakligini izohlang*

## **2- MAVZU. SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQANING ROLI**

**Tayanch so‘zlar:** shaxsni shakllantirish, yosh avlod tarbiyasi, estetik tarbiya, maqsad va vazifalar, ma’naviy olam, musiqiy iqtidor, musiqiy qobiliyat, bilim, malaka, ko’nikma, musiqiy-estetik dunyoqarash, asar g’oyaviy mazmuni, his-tuyg‘u tarbiyasi.

### **2.1 Shaxsni shakllantirishda musiqaning roli va xususiyatlari Musiqa san’atining tarbiyaviy ahamiyati. Estetik tarbiya**

Kuyning inson ruhiyati olamiga ta’siri, shaxsning, jamiyatning madaniy hayotidagi o‘rni muhim hisoblanadi. Musiqa san’ati-inson ma’naviy olamini aks ettirib, uning aqliy, axloqiy va estetik tuyg‘ularini rivojlantiradi. Zero, “Musiqa turli-tuman tovushlar bilan badiiy obraz yaratib beruvchi, g’oyaviy-emotsional mazmunga ega bo‘lgan san’atning bir turi. Insonning jamiyatda tutgan mavqeyi, madaniy - tarbiyaviy, g’oyaviy tashkilotchilik rolida musiqa yuksak o‘rinda turadi. Musiqadagi obrazlarni gavdalantirib beruvchi asosiy element – musiqa tovushidir. Musiqaning asosi – kuydir. Bundan tashqari ritm, lad, metr, garmoniyalar uning muhim vositalari<sup>1</sup>.

Musiqa kishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatar ekan kuy va uning musiqiy ifodasi inson tabiyatiga har xil tuyg‘ularni uyg‘otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo’shiqning she’riy matni, mazmun-g’oyasi nafaqat his-tuyg‘uga, balki tinglovchining aql-shuuriga ham nur baxsh etib, mantiqiy fikr-mulohaza yuritishga shrgatadi.

Musiqiy asarning g’oyaviy mazmuni- tinglovchi ta’sirlanishi darajasini belgilaydi. Musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari ham xuddi shu jarayondan boshlanadi. Musiqa o‘z xususiyatiga ko‘ra bolaning his-tuyg‘ulariga bevosita ta’sir etib, uning ma’naviy qiyofasini shakllantiradi. Musiqa san’atining tarbiyaviy imkoniyatlari keng, kuchi nihoyatda qudratli.

Musiqa tili tarjimonsiz, barchaga tushunarli xususiyati bilan fikr va tuyg‘ularni ifoda etadi. Musiqiy - estetik tarbiya yoshlarimizda milliy madaniy merosimizga hurmat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qadrlashga o‘rgatadi.

---

<sup>1</sup> Il. Akbarov “Muzika lug‘ati”. Toshkent. G‘.G‘ulom nashriyoti 1987 yil. – B. 209-210.

Musiqaning falsafiy, psixologik mohiyati- musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri masalalari azaldan musiqashunos olimlar, donishmand- mutafakkirlar diqqatini o'ziga tortgan. Musiqiy tarbiyaning shaxsni shakllantirishdagi roli, ahamiyatini nihoyatda ulkan ekanligini ular alohida e'tirof etishgan. Donishmandlar fikriga ko'ra bolada ilk davrlardan shakllanadigan insoniy fe'l-atvor, fazilat, sifatlarida aynan musiqa muhim vosita hisoblangan.

Musiqashunoslik, uning nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanib ulkan musiqiy-pedagogik meros qoldirgan Abu Nasr Forobiyning "Katta musiqa kitobi", "Musiqa haqida so'z", "Ritmlar klassifikatsiyasi" va boshqa asarlari uning musiqa ta'limoti, musiqa ta'lim-tarbiya nazariyasi hamda amaliyotini puxta egalaganlididan dalolat beradi. Forobiy musiqaning eng avvalo shaxsnинг axloqiy sifatlarini shakllantirishdagi ijobiy fazilatlarini alohida ta'kidlab, "Musiqa shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l-atvori muvozanatini yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarini kamolga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarni muvozanatini saqlaydi", - deb yozgan<sup>1</sup>. Forobiy musiqa nazariyasi ilmi sohasida nihoyatda bilimdon kishi bo'lishi bilan birga uning amaliyotini puxta egallaganligi ma'lumdir. O'z davrida alloma ajoyib bir musiqa asbobi yasaganligi, undan juda ham go'zal, yoqimli kuylar eshitish mumkin bo'lganligi, hatto bu kuy tinglovchini juda zavqlantirib yuborganligi xususidagi ko'plab hikoyalarini tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan.

Shulardan birida Forobiy Shom amiri saroyiga kirib musiqa chalib u yerdagilarni uxlatib chiqib ketadi... Bu naql ham Forobiy musiqa nazariyasi donishmandigina emas, balki uning usta ijrochisi, amaliyotchisi ham bo'lgani haqida o'sha davrlarda paydo bo'lgan hikoyadir.

Abu Rayhon Beruniy ilm, san'at tufayli yovuzlikdan xolos bo'lish mumkinligiga ishonch bildirib turli ilmlar qatori musiqani paydo bo'lishi, insoniyat taraqqiyotida uning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatini quyidagicha ifodalagan: "Nozik tabiatli kishilar musiqa tinglab rohatlanadilar. Tartibga solingan ohanglar kishiga kuchliroq ta'sir qiladi. Kishi tartibni yoktiradi. Tartibli she'rlar diqqatni jalb etadi. She'r qatorlari ohanglar uyg'unligi bilan qorishib ketganida

---

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. She'r san'ati. Toshkent, 1979 y. – B.11.

kishiga yanada maqbulroq bo‘ladi. Shundan musiqa ilmi kelib chiqqan”<sup>1</sup>.

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino musiqiy-pedagogik qarashlaridagi muhim jihat - musiqani inson faoliyati mahsuli, bola tarbiyasida muhim omil sifatida e’tirof etiladi. O‘zining “Donishnama” (“Bilimlar kitobi”) da musiqani “qadimiy hikmatli fanlar”dan biri sifatida ta’riflab, “Musiqiy bilim, tovushlarning ohangdorligi va noohangdorligi, kuylarning xususiyatlariغا oid bilim”, - deydi. Go‘zallik olamini, musiqaning mohiyatini teran anglagan alloma “Go‘zallikni inson sezgi vositalari: ko‘rish, eshitish, hidlash, ta’m bilish, ushlab ko‘rish orqali bilib oladi, go‘zallikni sezadi, undan lazzatlanadi” - deb, ta’kidlaydi.

Musiqa san’atining ko‘pgina foydali xususiyatlari ta’riflangan “Risolatun fi ilmi-l musiqiy” (“Musiqa ilmi haqida risola”) asarida musiqiy tovush xususiyatlari, ayniqsa inson ruhiy kasalliklarini davolashdagi ahamiyati, his-tuyg‘ulariga ta’siri haqida qimmatli fikrlar bildirgan. Kishida jism va ruh bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekanligi, jismda biror xastalik ro‘y bersa, ruhiyat ham iztirob chekishini, muhimi esa musiqani aloqa vositasi, deb qarab ruhiy kasalliklarga chalingan kishilarni davolashda tanbur, g‘ijjak, nay, chang singari sozlardan unumli foydalanishni tavsiya etgan.

Musiqaga shaxsnинг ma’naviy va jismoniy tabiatiga ta’sir etuvchi qudratli tarbiyaviy vosita sifatida e’tirof etib, bolani juda yoshligidan boshlab musiqiy hissiyotini tarbiyalash muhim - bu esa ruhiy holatni mustahkamlaydi, - degan g‘oyani ilgari surgan.

Abu Ali ibn Sino bolalardagi his-tuyg‘u tarbiyasida musiqaning ahamiyatini alohida ta’kidlab, kuyidagicha izohlagan: "Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri - bolani sekin-asta tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo‘lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisining qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyasiga va ruh bilan musiqaga bo‘lgan iste’dodi hosil bo‘ladi". Shunday qilib, musiqaning tarbiyaviy ahamiyatini buyuk donishmand juda keng va chuqr ma’noda anglagan hamda targ‘ib etgan.

Abdurahmon Jomiyning ma’rifiy qarashlarida ham musiqa tarbiyasi muhim o‘rin egallaydi. Alloma inson ma’naviy kamolotida musiqaning ahamiyatini e’tirof etib, shaxsdagi dunyoqarash, ijobjiy

<sup>1</sup> A. Qayumov. Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino. Toshkent. 1987. – B. 29.

fazilatlar shu san'at vositasida takomillashadi, deb hisoblagan. Ayniqsa, "Musiqa haqida risola" sida cholg'u sozlari xususida keng mushohada yuritib, har qaysi ohang, kuy, navo, insonga turlicha ta'sir etishini ta'kidlab, "Ushshoq, Navo va Buslik kishida quvvat, shijoatni uyg'otsa, "Rost, Iroq hamda Isfaxon" xursandchilik, xushchaqchaqlikni uyg'otish uchun xizmat qiladi", - deb yozgan.

Mir Alisher Navoiy musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir kuchini shaxsni shakllantirishdagi roli, tarbiyaviy ahamiyatini yuksak baholagan va bu san'at ilmi sir-asrorlarini o'rganishga harakat qilgan. Shogirdlarini ham shunga da'vat etib, she'riyatning musiqa ilmi bilan o'zaro bog'likligi qonuniyatini chuqur o'zlashtirishni talab etgan. Musiqaning nazariy asoslarini bilmay turib, yaxshi shoir bo'lish mumkin emasligini shogirdlariga takror-takror uqtirgan.

Mutafakkir olimlar musiqani faqat insonga samarali ta'sir etuvchi vosita emas, balki o'z mohiyati, jamiyatdagi vazifasiga ko'ra aloxida bir fan sifatida xam tadqiq etishgani, davrlar o'tib ularning fikr g'oyalari, musiqiy-pedagogik merosi ta'lim tarbiya jarayoniga tadbik etilib, ommaviy xalq musika pedagogikasini rivoj topishi, kasbiy musiqa ta'limi usuliyatini takomillashib borishiga asos bo'ldi.

Ta'lim-tarbiya inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan sanalsa, musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

"Estetik tarbiya" tushunchasi ancha keng ma'noga ega bo'lib, shaxsni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarni ideal nazaridan idrok etib his qilishga o'rgatadi.

Falsafa faniga oid adabiyotlarda ta'riflanishicha, - Estetika (yunoncha –his qiluvchi, hissiy tarbiyaga doir) – inson bilan dunyo o'rtasidagi qadriyat munosabatining o'ziga xos tomonlarini va kishilarning badiiy faoliyati sohasini o'rganuvchi falsafiy fan. "Estetika terminini nemis faylasufi A. Baumgarten (1714-62) ilmiy muomalaga kiritgan. Estetikaning sinomimi sifatida go'zallik falsafasi, san'at falsafasi, badiiy ijod falsafasi iboralari qo'llanib kelangan".

Estetik tarbiyaning vazifalaridan biri- kishilarda san'at asarlari, badiiy ijod namunalarini faol o'zlashtirish barobarida ularning mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Pedagogika, jumladan musiqa pedagogikasi estetik tarbiya bilan shug'ullanadi. Estetikaning pedagogika bilan o'zaro bog'liqligi estetik tarbiya masalalariga borib taqaladi.

Estetik tarbiya - go'zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning uzviyligi, san'atning xalqchilligi, hayotni aks ettirishi haqidagi ta'limotga asoslanib, o'quvchi-yoshlarning borliq, voqelik to'g'risidagi bilimlar doirasini kengaytiradi hamda dunyoqarashini o'stiradi. Ularda musiqiy-badiiy qobiliyatini rivojlantiradi, va yuksak axloqiy sifatlarni tarkib toptirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## **2.2. Yosh avlodni tarbiyalashda musiqaning roli**

Bolalarning musiqiy rivojlanishi va shaxsiy ijobiy sifatlarining shakllantirishda musiqa san'atining roli beqiyosdir.

O'qituvchi dars va sinfdan tashqari musiqiy faoliyatlarda o'quvchilarni turli xarakterdagi, mazmun va obrazdagi musiqiy asarlar bilan tanishtirar ekan, beixtiyor ularning his-tuyg'ularini uyg'otadi.

Musiqa o'quvchilarning ruhan tetik, jismonan sog'lom bo'lib tarbiyalanishida muhim o'rinni egallaydi. Musiqa - insonning eshitish organi vositasida idrok etilsa-da, u organizm faoliyatining umumiy holati – qon aylanish tizimi, nafas olish jarayonlariga ham ta'sir qiladi.

Qo'shiq kuylash faoliyati esa ovoz apparatini rivojlantiradi, mustahkamlaydi, nutqni, talaffuzni, tafakkurni yaxshilaydi. Kuylash jarayonida to'g'ri o'tirish holati nafas olish tizimiga ijobiy ta'sir qiladi.

Musiqadagi barcha dinamik, ritmik va sur'atga daxldor ifoda vositalari esa bolaning ruhiy holatlarining o'zgarib turishiga, mantiqiy fikr yuritish qobiliyatlarini o'stirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Musiqiy ritmik harakatlarni bajarish faoliyati ham bolaning jismoniy rivojlanish tarbiyasi uchun muhim. Ushbu faoliyat jarayonida bolalar musiqa vositasida har xil harakatlarni bajaradilar. Bu esa o'z navbatida bola qomatini tik, to'g'ri shakllanishi va rivojanishini, qadam tashlash, yurishini to'g'ri va yengil bo'lishini ta'minlaydi.

Musiqa ta'lim-tarbiyasining yosh avlodni tarbiyadashdagি musiqaning roli beqiyosligi uning maqsadini belgilaydi. Yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan va qadrlaydigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazish uchun har bir o'quvchining musiqiy iqtidorini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish, musiqadan zaruriy bilim hamda amaliy

malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o‘quvchilarning musiqiy rivojlanishlarini ta’minlashda zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish-maktab musiqa ta’lim-tarbiyasining asosiy vazifasidir.

O‘quvchilarning musiqiy-estetik rivojlanishlarini ta’minlash uchun o‘qituvchi o‘zining ish faoliyatida sidqidil tayyorlanib, darslarni yuksak metodik darajada o‘tilishi talab etiladi. Zero, dars o‘qituvchidan ishonch, katta irodaviy kuch, izlanish, hozirjavoblik hamda turli pedagogik vaziyatlarga tezda munosabat bildirishini taqozo etadi.

Musiqa ta’lim amaliyotida ba’zi hollarda uchraydigan qiziqarsiz, zerikarli bir qolipdagi darslar, nosoz va sifatsiz cholg‘ular, ta’lim vositalari o‘qituvchiga o‘z kasbiga mas’uliyat bilan yondashuvni va pedagogik faoliyati natijalaridan to‘g‘ri xulosa chiqarishga undaydi. Zamonaviy talablar asosida ta’lim-tarbiya mazmunini oshirishga da’vat etadi.

Xullas, musiqaning madaniy hayotda tutgan o‘rni, yosh avlodni shakllantirishdagi roli muhim bo‘lib, musiqiy ta’lim-tarbiyani amalga oshirishda uning bosh maqsad va vazifalarini to‘liq anglab mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish, o‘qituvchining pedagogik faoliyati mazmunini tashkil etadi.

### *Nazorat uchun savollar:*

1. *Madaniy hayotda musiqa tarbiyasining ahamiyati nimadan iborat?.*
2. *Musiqa asarlarining g‘oyaviy mazmunini, tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr bildiring.*
3. *Buyuk mutafakkir olimlar musiqa san’ati va tarbiyasi xususida qanday fikrlarni bayon etishgan?*
4. *“Estetik tarbiya” tushunchasining mazmunini izohlang.*
5. *Musiqa ta’limida estetik tarbiyaning mohiyatini va vazifalarini tushuntiring.*
6. *Yosh avlod tarbiyasida musiqaning rolini izohlang.*

### **3-MAVZU. MUSIQIY TA'LIMNING MAQSAD, VAZIFALARI VA MAZMUNI**

**Tayanch so'zlar:** maqsad va vazifa, g'oya va mazmun, musiqiy-ijodiy faoliyat, badiiy va axloqiy madaniyat, ta'lim shakllari, ijobiy kechinmalar, aralash dars tipi, o'qituvchi mahorati, pedagogik malaka, vokal malakalari, individual yondashuv.

#### **3. 1. Musiqiy ta'larning maqsad, vazifalari va mazmuni**

Musiqa madaniyati fanini o'qitish Konsepsiysi 3-bobida musiqa madaniyati fanining maqsadi - "O'quvchilarda san'at, badiiy-estetik va ijtimoiy emotsiyonal ko'nikmalar, milliy, umummadaniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy fazilatlar, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishdir", deb ta'kidlangan<sup>1</sup>.

Musiqa madaniyati o'quv predmetining asosiy vazifalari etib, musiqiy xotira, diqqat, tasavvur, harakatlar koordinatsiyasi kabi psixologik faoliyatlarni shakllantirish, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish; shuningdek,

- o'zbek va jahon kompozitorlari asarlarini tinglab, idrok etishga o'rgatish;
- kuy ohangni ifoda vositalarini his qilish;
- musiqa savodiga oid nazariy bilim (kalit so'zlar) larni bilish va amalda qo'llash;
- kuy va qo'shiqlarni tinglash orqali tuzilishi, janr (ommaviy va professional) jihatlarini bir-biridan ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirish;
- vokal-jamoa bo'lib kuylash malakalarini rivojlantirish;
- xalq og'zaki ijodining professional janri, milliy maqom, ijrochilik san'atining mahalliy uslublari haqidagi boshlang'ich bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat" ligi qayd etilgan<sup>2</sup>.

Amaliy fanlar tasnifida musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini rivojlantirishda, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda, ijodiy mahorat, nafosat, badiiy didni oshirishga xizmat

<sup>1</sup> Umumiyo'rta ta'larning milliy o'quv dasturi. Musiqa madaniyati. Toshkent. 2021 yil. – B. 8- 20.

<sup>2</sup> Musiqa madaniyati fanini o'qitish konsepsiysi. Toshkent. 2021 yil.-B.8.

qilishi ta'kidlangan. Shuningdek, o'zbek klassik va zamonaviy san'at haqidagi boshlang'ich bilimlarni o'zlashtirish, musiqiy asarlarni tinglab tushunish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Musiqa madaniyati fani bo'yicha o'quvchilarga sinflar kesimida qo'yiladigan talablarda estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi, o'zini-o'zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi hamda amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyalarni shakllantirishga e'tibor qaratiladi.

Musiqa madaniyati o'quv predmeti umumiy ta'lim maktablarida o'qitiladigan ko'pgina o'quv predmetlari, jumladan adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, texnologiya ta'limi va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanadi.

Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham Davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda, sozandalarning ijodiy faoliyatlarida, maqom, "Shashmaqom", dostonlar hamda bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topadi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib yetishishlarida o'ziga xos muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa tinglash va tahlil etish faoliyatida o'quvchilar o'zbek xalq musiqasi, o'zbek bastakorlari va jahon kompozitorlarining musiqiy asarlaridan namunalar tinglaydilar.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyatida o'quvchilarning vokal-jamoa malakalari rivojlantiriladi. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqaradi, o'rtoqlarini tinglaydi va ular bilan birgalikda jo'r bo'lib kuylashga intiladi.

Musiqa savodi barcha faoliyat turlarini nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi faoliyat turi (tinglash va tahlil, jamoa bo'lib kuylash h.k) qo'llanilmasin, unda o'rganilayotgan asarning xususiyatlari bo'lgan janri,tuzilishi, ijrochiligi kabilar haqidagi yangi bilimlar beriladi.

Musiqa savodxonligi faqatgina nota saboqlaridan iborat bo'lmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim doirasini tarkib toptiruvchi musiqa shakllari, janrlari, cholg'uchilar ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, klassik musiqa kabi bilimlarni singdirib borishdan iboratdir.

Musiqa ta'limining mazmunida o'quvchilarda shakllantiriladigan musiqiy bilim va malakalari bilan birga ziyraklik, sezgirlik, kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi sifatlarni ham rivojlantirish nazarda tutiladi.

Musiqa madaniyati darsining maqsadini ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash sifatida tadqiq etgan musiqa pedagogikasi fani olimlari L.G.Dmitrieva, N.M. Chernoivanenko "Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasi" darsligida "Musiqa madaniyati" tushunchasiga ta'rif berishib, uning chuqur ma'noga ega bo'lib, tarkibi quyidagicha izohlanadi:

- a) axloqiy-estetik tuyg'u, musiqiy did va musiqiy ehtiyojlar;
- b) musiqa asarini o'zlashtirishda idrok etish va ijro uchun muhim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar majmui;
- v) musiqiy faoliyatni muvaffaqiyatini ta'minlashdan muhim bo'lgan musiqiy-ijodiy qobiliyatlar<sup>1</sup>.

### **3.2. Musiqiy ta'limning ijodiy faoliyatları, shakllari va turlari**

Musiqiy ta'limning ijodiy faoliyatları, deganda musiqaga oid bo'lgan barcha nazariy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyot jarayonida ulardan foydalanish qobiliyati tushuniladi.

Milliy o'quv dasturi asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslari faoliyat turlari va ularning o'zaro bog'liqligi asosida olib boriladi.

Musiqa madaniyati fani dars tuzilmasi, musiqiy faoliyat turlarining rang-barangligi mazkur predmetning mazmun - mohiyatini belgilaydi. "Musiqa madaniyati" fanidan dars tuzilmasida quyidagi faoliyatlar asosiy o'rinni egallaydi:

1. Musika tinglash va tahlil etish- ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi.

Ularni kuylash, tinglash faoliyatları vositasida o'rganish bilan bir qatorda cholg'uchilik, musiqali ritmik harakatlar, ijodkorlik faoliyatları bilan har tomonlama o'zlashtirish, musiqiy tavsiflarni

---

<sup>1</sup> Дмитриева Л.Г. Черноиваненко Н.М. "Методика музыкального воспитания в школе". Москва «Просвещение». 1989. Стр. 11.

ifodalash imkoniyati yaratiladi. O‘zbek xalq musiqasi, bastakorlari va kompozitorlarning musiqiy asarlaridan namunalar tinglanadi.

Musiqa tinglash jarayonida yakkanavozlik va jo‘rnavozlikni ajrata bilish, ansambl va orkestr ijrosini farqlay olish, sozlarni bir-biridan tovush tembri assosida ajrata olish, musiqiy did va idrokni rivojlantirish, o‘zbek, qardosh, jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash ta’lim mazmunining asosini tashkil etadi.

Jamoa bo‘lib kuylash faoliyati o‘quvchilarning musiqiy qobiliyati va ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo‘lib kuylash jarayonida o‘quvchi o‘z ovoz ijrosini, tengdoshlari va ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo‘rovozlik qilishga intiladi. Milliy xalq qo‘siklari, o‘zbek bastakorlari va kompozitorlari vokal asarlari, jahon hamda qardosh xalqlar kompozitorlari musiqasi, mahalliy musiqa ijrochilik uslublariga oid folklor ko‘sishlaridan namunalar bilan tanishadi hamda kuylaydi.

3. Musiqiy savodxonlik faoliyat sifatida muhim. Darsning musiqa savodi bosqichida o‘quvchilarga musiqiy atamalar, temp (sur’at) lar, intervallar, alteratsiya belgilari, musiqaning ifoda tili, oddiy musiqa shakllari, janrlari, major hamda minor ladi haqida tushuncha beriladi. Faoliyati davomida o‘quvchi o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, oqilona rejalshtirish, muammoning yechimini topishda samarali usullardan foydalanish, jamoada hamkorlikda ishslash, faoliyatini tanqidiy baholash kabi amaliy ko‘nikmalarni tarkib toptirishi nazarda tutiladi.

Shuningdek, musiqa va qo‘sish ijrochiligi, sozlarda ijro, raqs ijrochiligi, yakka va jamoa bo‘lib ijro etish, xalq va kasbiy musiqa, bolalar kuy-qo‘sishlari, ommaviy xalq kuy, qo‘siklari, maqomlar, dostonlar, zamonaviy musiqa ijodiyoti, xalq sozanda, xonandalari ijodini bilish, musiqaning ifodaviy tili – kuy, ritm-usul, sur’at, o‘lchov, registr, dinamik belgilar bilan tanishish va ularni o‘zlashtirish amalga oshiriladi.

Musiqa madaniyati darsi – ijodiy jarayon bo‘lib, pedagogik maqsadlarga qarab loyihalashtiriladi. O‘qituvchi darsni istalgan musiqiy faoliyatdan boshlashi mumkin. Muhimi, o‘quvchilarni musiqaga qiziqtira olish, mehr uyg‘otish, musiqiy qobiliyatlarini o‘stirish, dars faoliyatlarini bir - biri bilan chambarchas, uzviy

bog‘liqligini ta’minlab, mazmun jihatidan mantiqiy bir yaxlit mashg‘ulot darajasiga yetkazishdir.

Har bir musiqiy faoliyat davomida o‘qituvchi o‘quvchilarga individual yondashish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, bu ikki, uch ovozli asarlarni kuylashga o‘rganishda bolalar musiqa cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish, o‘quvchilar imkoniyatiga ko‘ra ijodiy xarakterdag‘i topshiriqlar berish kabi faoliyatlar jarayonida buni yaqqol kuzatish mumkin.

Differensial topshiriqlar o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi, ularning muvaffaqiyatli bajaruvi esa ularning musiqiy rivojlanishlarini faollashtiradi. Natijalarni baholash, toza va sof kuylash malakalariga erishish yoki ritmik jo‘rovozlikni bajarish orqali o‘qituvchi o‘quvchilarda o‘zini-o‘zi rivojlantirish, nazorat qilish va asrash hissini tarbiyalaydi. Shuningdek, bolalarga individual yondashuv ularda jamoatchilik va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantiradi. Bularning barchasi o‘quvchilarga zavq –shavq, quvonch, qoniqish uyg‘otadi.

Musiqa mashg‘ulotlari o‘quvchilar umumiy madaniyatiga ham ta’sir qilmay qolmaydi. Har xil faoliyatlar bilan shug‘ullanish (musiqa tinglash va tahlil, qo‘sish quylash, musiqiy-ritmik harakatlar bajarish, bolalar musiqiy cholg‘ularida jo‘r bo‘lish) o‘quvchilardan diqqatni, e’tiborni uyushqoqlikni, irodaviylikni, zukkolikni talab qiladi. Bu faoliyatlar davomida bolalarda shijoat va jur’at shakllanib, sekin-asta uyatchanlik va tortinchoqlik yo‘qola boradi. Shu tarzda musiqiy faoliyatlar bolalar shaxsining ma’naviy-madaniy sifatlarini shakllantirish uchun kerakli bo‘lgan pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni ta’minlaydi hamda ularning umumiy madaniy saviyasining oshishiga asos bo‘ladi.

O‘qituvchi musiqa ta’limi jarayonida o‘quvchiga asosan o‘zbek musiqasining boy merosi, uning namunalari, imkoniyatlaridan va umumbashariy musiqa asarlaridan ayrimlaridan nazariy hamda amaliy bilim-malakalarni berish imkoniyatiga ega. Ana shu ilmiy bilimlar ta’limning mazmunini belgilovchi muhim hujjatlar - musiqa madaniyati fanidan “Milliy o‘quv dasturi” va darsliklarda o‘z ifodasini topadi. Albatta, har bir dars o‘zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy-uslubiy asosda tashkil etilishi kerak. Musiqa haqidagi zaruriy bilimlar doirasi- musiqiy ta’lim-tarbiyada asosiy omildir.

Umumta’lim maktabida musiqa madaniyati darslariga puxta tayyorgarlik ko‘rish va uni samarali o‘tkazish o‘qituvchidan doimo

faoliyatiga ijodiy yondashuvni, kasbiy tajribalarni, bilim, malaka va ko'nikmalarni amaliyatga faol tatbiq etishni taqozo etadi.

Musiqa madaniyati fanidan qaysi mavzu o'tilmasin, nimalar haqida ma'lumot hamda tushunchalar berilmasin, eng avvalo, darsni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishga ko'p narsa bog'liq bo'lishi, tabiiy holdir. Shu bois, zamonaviy musiqa madaniyati darslarining tuzilmasi, musiqiy faoliyatlarni to'g'ri tashkil etish, mavzularni o'tishda fanlararo, ayniqsa, san'at turlariaro o'zaro bog'liqlik, integratsiyani ta'minlash, musiqa ta'limining ijodiy faoliyatlari shakl va turlarini amalga oshirishda ilg'or pedagogik hamda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim vazifalardandir.

### **3.3. Musiqa madaniyati darsining xususiyatlari va musiqa o'quv xonasi**

Musiqiy-metodik adabiyotlarda musiqa darslarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha tasniflanadi:

Birinchidan, u musiqa tarixi, nazariyasi va ijrochiligiga doir turli namunalardan-xor mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqa tahlili va adabiyoti, bolalar cholg'u asboblarida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir. Shuning uchun u aralash dars tipiga kiradi.

Ikkinchidan, musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, «tili» bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot, badiiy so'z, tasviriy san'at ranglar va grafik chiziqlar, raqs, badiiy harakatlar bilan ifodalansa, musiqa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Agar tasviriy san'at va haykaltaroshlik asarlarini ko'rish orqali, badiiy adabiyotni o'qish va eshitish vositasida, kino va teatrni ko'rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina idrok eta olamiz.

Musiqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'liq san'atdir. Eshituvchi ijo etilayotgan musiqa sur'atiga sozlanib, uning har bir elementini ziyraklik bilan tinglamasa, asar mukammal idrok etilmaydi. Mumtoz asarlarni qayta-qayta tinglaganda uning yangi badiiy qirralari his etilishi ham bejiz emas.

Uchinchidan, musiqa bolalarga faol emotsiyal ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi yoki mahzun kayfiyat uyg'otadi, ijobiy kechinmalar

paydo qiladi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darsidan bolalar quvnoq, xursand bo‘lib, hordiq chiqaradilar.

Zamonaviy musiqa madaniyati darslarini o‘tkazishda maxsus jihozlangan xonada amalga oshirish samarali natija beradi. “Zamonaviy maktab” davlat dasturi doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda yangi turdagи zamonaviy o‘quv xonalarini barpo etish va muqaddam qurilgan o‘quv xonalarini zamonaviy maktab namunasida moslashtirishni ta’minlash; o‘quv xonalarini jihozlash darajasini xalqaro standartlarga javob beradigan o‘quv uskunalarini (musiqa cholg‘ulari, doskalar, zamonaviy xor stanoklar) bilan ta’minlash”-ko‘zda tutilgan<sup>1</sup>.

Musiqa xonasining estetik jihozlanishi bolalarga ruh bag‘ishlab, darsga o‘ziga xos kayfiyat uyg‘otish kerak. Darsda bolalar milliy musiqa cholg‘u asboblari, texnik, ko‘rgazmali vositalar juda ham muhim. Ularning sifatliligidan, o‘z vaqtida tayyorlanganligidan va unumli tatbiq etilishidan darsning muvaffaqiyatli o‘tishi ta’milanadi.

Bugungi kunda o‘qituvchi darslarda musiqa asarlarining turli ijrolarini (orquestr, ansambl) sadolanishi texnik vosita, yozuvlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bu vositalar o‘quvchilarning har bir musiqa cholg‘ularining jarang sochishi va tovushining ifodalilagini idrok etish qobiliyatini o‘stiradi. Fonoxrestomatiya esa o‘qituvchida qo‘sish qo‘rgatishni yanada qiziqarli qilishga yordam beradi.

Gramyozuvlarda yirik musiqa asarlari, ularning jo‘r qismlari, bolalar xor jamoalarining ijrolari o‘z aksini topgan. Magnitafonda o‘qituvchi dars davomida qo‘sish ijrosini yozib olib, o‘quvchilarning o‘ziga qaytib eshitirishi va ularning ijrosiga nisbatan munosabati hamda baholarini berishni taklif etadi.

Keyingi paytlarda musiqa darslari amaliyotida turli hil ko‘rgazmali vositalardan keng foydalanilmoqda. Bular illustrasiya, turli tasviriy manzaralar bo‘lib, bu esa darsda tasviriy va so‘z san’atlari namunalaridan ham unumli foydalanishni nazarda tutadi.

Musiqa ta’lim-tarbiyasi samaradorligini oshirish uchun mактабдаги musiqa madaniyati fani o‘quv xonasini zamonaviy talab darajasida jihozlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup> Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. Musiqa madaniyati fanini o‘qitish konsepsiysi. T., 2021 yil. -B.11.

O‘quvchilarda boy milliy musiqiy merosimiz, uning tarixi, rivojlanish yo‘li haqidagi bilim, malaka va ko‘nikmani hosil qilish uchun eng avvalo yetuk mutaxassisning kasbiy mahorati hamda jihozlangan, ko‘rgazmali vositalarga ega fan xonasi bo‘lishi lozim.

Musiqa xonasini did bilan jihozlash va mazmun-mohiyatini oshirishda joy oladigan ko‘rgazmalarning ahamiyati katta.

O‘quvchilarni milliy musiqa san’atimizning rang-barang janrlari, ularning tarixi bilan yaqindan tanishtirishda yurtimizning 4 ta mintaqaviy yo‘nalish – “Farg‘ona-Toshkent”, “Buxoro-Samarqand”, “Surxondaryo-Qashqadaryo” va Xorazm vohalari ijrochilik uslublarining tarixi, mazmun-mohiyatini ifodalovchi ko‘rgazmalar, texnik vositalar - audio, vidiomagnitofon, televizor, nota varaqalari, taniqli o‘zbek hamda jahon kompozitorlari portretlarining bo‘lishi maqsadga muvofikdir. Musiqa savodxonligiga oid ko‘rgazmali vositalar majmuasi ham zarur.

O‘quv xonasida texnik jihozlar mavjudligi va o‘qituvchining ulardan samarali foydalanishi esa o‘quvchida musiqa asarlarini tinglash va tahlil etish kompetensiyasini rivojlantirishga imkon yaratib, musiqani hissiy idrok qilish, tinglash va tahlil etish malakalarini rivojlantiradi.

O‘quv xonasida o‘quvchilarning milliy musiqiy tarbiyasida muhim vosita bo‘lgan cholg‘u asboblaridan g‘ijjak, chang, nay, rubob, doira, dutor kabi sozlarning bo‘lishi ham maqsadga muvofiq.

Shuningdek, maktabda sinfdan tashqari ishlarni yanada jonlantirish, o‘quvchilarda jamoa bo‘lib kuylash mahoratini shakllantirish hamda ularning amaliy faoliyatida muhimligini inobatga olib, Yevropa cholg‘u asboblaridan fortepyano, akkordeon har bir maktabning musiqa xonasidan joy olishi belgilangan.

Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilar musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ko‘rgazmali vositalardan foydalanish muhim. Nota jadvallari yordamida bolalarda nota asosida kuylash malakalari egallanadi. Qo‘sish qurʼonini tezroq o‘zlashtirilishiga erishiladi. Tovushlarni to‘g‘ri va toza kuylash, eslab qolishlariga yordam beradi. Darsda texnik va ko‘rgazmali vositalarini tatbiq etish chuqur o‘ylangan bo‘lishi kerak. Ulardan unumli foydalanish musiqa tarbiyasi vazifalarini hal etishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlash lozim.

Jihozlangan mavjud fan xonasida musiqa madaniyati mashg‘ulotlarining o‘tilishi darsning sifatli o‘tilishini ta’minlash barobarida mutaxassisning puxta musiqa sabog‘ini ta’lim samaradorligini tatbiq etish darajasini oshishiga olib keladi.

Shunday qilib, umumta’lim maktabida musiqa madaniyati darslariga puxta tayyorgarlik ko‘rish va uni samarali o‘tkazish o‘qituvchidan doimo ijodiy yondashuvni, kasbiy tajribalarni, bilim, malaka, ko‘nikmalarni faol tatbiq etishni taqozo etadi.

O‘qituvchi ijodining natijasi bo‘lgan dars g‘oyaviy-emotsional ta’sir kuchiga ega bo‘lib, o‘quvchi ichki dunyosini zabit etib, musiqa san’atiga qiziqish va ehtiyojni tarbiyalaydi. Musiqa madaniyati darslarining muvaffaqiyati savodxon, chuqur bilimli, o‘z kasbiga fidoiy bo‘lgan o‘qituvchi shaxsiga bog‘liq. Shu bois, musiqadan bilim va malakalari yetarli bo‘lmagan o‘qituvchilarga musiqa darslarini mutaxassis mualliflardan zaruriy saboqlar olib, magnit yozuvlardan keng foydalanib, musiqa o‘qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiya usullaridan unumli foydalangan holda dars o‘tishlari maslahat beriladi. Aks holda o‘quvchilarning belgilangan Milliy o‘quv dasturi talablarini o‘zlashtirishlari qiyinlashadi va musiqa madaniyati darslari oldiga qo‘yiladigan talablarga erishilmay qolinadi.

Musiqa savodi quyidagi bosqichlar bo‘yicha o‘rgatiladi.

1. O‘quvchilarning diqqatini boshlang‘ich nota savodxonligi bilan birga musiqaning ifoda vositalari ( kuy, registr, temp, ritm, dinamik belgilar) ga qaratish.

2. Ovoz sozlash va qo‘sish qiro etish qoidalariga doir bilimlar-chapak va cholg‘ularini chalish qoidalariga amal qilishga o‘rgatish.

3. Musiqa ijodkorlari “kompozitor”, “ijrochi”, “tinglovchi” mavzularining mazmuni va o‘rgatiladigan asarning mualliflari haqidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirilishiga erishish.

Albatta, har qanday darsda o‘qituvchining mazkur kompetensiyalsiz pedagogik faoliyat yuritishi o‘quvchilarning ham mavzuni o‘zlashtirishida murakkablik yaratadi. Boshqacha aytganda musiqa asarini idrok etish va tahlil etish jarayonida o‘quvchining erkin mustaqil, mantiqiy fikrlashi va buning natijasi o‘laroq aniq, to‘g‘ri, ravon nutq egasi bo‘lish o‘qituvchi uchun darsda maqsadga erishishning muhim sharti va bu talab barcha fan o‘qituvchilarida birdek taalluqli me’yor hisoblanadi.

“Kompetensiya (lotin. competo – layoqatli, munosib bo‘lmoq) shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darjasи, sohaga oid bilim, ko‘nikma, malaka, qarashlar majmui, shaxsning qadriyati va sifatlari, malakaning namoyon bo‘lishi yoki ta’sir ko‘rsatish qobiliyati hisoblanadi<sup>1</sup>.

O‘qituvchining musiqa ta’limini amalga oshirishi mahoratida musiqiy – pedagogik texnologiyalar asosiy o‘rin egallaydi. Zero, pedagogik texnologiya musiqiy ta’lim-tarbiya jarayonining ilmiy-uslubiy asoslangan va tizimga solingan faol vosita hamda usullar majmuidir.

O‘qituvchi musiqiy ta’lim-tarbiyada ko‘zlangan maqsadga erishishni kafolatlaydigan jarayonni samarali tashkil eta olishi va pedagogik boshqara bilishi lozim. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishliklarini ta’minlar ekan, albatta zamonaviy o‘qituvchi ta’lim–tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalana bilish mahoratini tinmay oshirib, takomillashtirib borishga harakat qilmog‘i kerak.

Shu davrgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor musiqiy bilimlarini egallashi ko‘zda tutilgan bo‘lsa, endilikda texnologiyalar o‘quvchilarni o‘zlashtirayotgan bilimlarini o‘zları mustaqil izlanib topishlariga, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zları keltirib chiqarishlariga undamoqda. Pedagogik texnologiya pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minalaydi.

Zamonaviy ta’limda o‘qituvchilarning innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini musiqa o‘quvi jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish va e’tibori kuchayib bormoqda.

**Innovatsiya-** ijtimoiy madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo‘lib, u kutilayotgan natijalarga olib keladigan yangiliklar tizimini tashkil etadi.

Innovatsiya (inglizcha innovationas) - yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi bilan o‘quvchi musiqiy faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar

---

<sup>1</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. Toshkent “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. 2006 yil.. – B. 396.

kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Bugungi kunda musiqiy ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li mashg‘ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etishdir. Zero, “Interfaol usullar o‘quvchilarning o‘zaro muloqot va o‘zaro ta’sirida dars jarayonini amalga oshiradi. Interaktiv ingliz so‘zidan olingan bo‘lib, “interact”ya’ni inter- o‘zaro, act-harakat, ta’sir, faollik ma’nolarini beradi<sup>1</sup>.

Interfaol ta’lim musiqa sabog‘i jarayonida o‘quvchilarning nazariy bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan badiiy-estetik sifatlarini o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanadi.

Ma’lumki, an’anaviy musiqiy ta’lim asosan tushuntirish, musiqa tinglash, savodxonlik va o‘zaro savol-javobga asoslangan bo‘lib, tabiiyki, suhbat asosini musiqiy nazariy ma’lumotlar tashkil etgan. Ammo, ma’lumot berishning asosiy manbai o‘qituvchining musiqiy - nazariy bilimi va badiiy ijrosi bo‘lib, bu jarayonda u yetakchilik qilar edi. Darsning asosiy vaqtida musiqiy bilimlarni og‘zaki tarzda o‘quvchilarga yetkazib berishga intilardi. Jarayonga faollik ko‘rsatish o‘qituvchigagina xos bo‘lib, o‘quvchilar bu vaziyatda faqat tinglovchi bo‘lib, qo‘sish o‘rganishda esa o‘quvchilar o‘qituvchining ijrosini takrorlab qolaverardi.

O‘quvchilararning asosiy vazifasi - o‘qituvchini tinglash, zarur o‘rinlarda kuylash, savollar bilan murojaat qilinganida o‘qituvchi aytganlarini takrorlab javob qaytarish, ruxsat etilgandagina so‘zlashdan iborat edi.

Bugungi kunda musiqiy ta’lim amaliyotida interfaol usulning imkoniyatlari oldingi, an’anaviy ta’lim imkoniyatlaridan kengroq ekanligi yaqqol seziladi. Biroq interfaol metodlarda ish yuritish o‘qituvchining an’anaviy metodlardan voz kechishi degani emas, balki dars mazmunini o‘zaro faollik, hamkorlik, hamijodkorlikda hal etishni tashkil eta olishidir.

Interfaol ta’limning quyidagi metodlari mavjud.

- Muammoli ta’lim;
- Loyihali ta’lim;

---

<sup>1</sup> Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. –T. “Fan va texnologiya”, 2009 yil. – B. 188.

- O‘yin orqali kechuvchi ta’lim;
- Kreativ ta’lim;
- Evristik ta’lim;
- Akt ta’limi<sup>1</sup>.

Interfaollik - bu o‘zaro ikki kishining faolligi, ya’ni bunda o‘quv-biluv jarayoni o‘zaro muloqotlar asosida kechadi.

Musiqa madaniyati fanni o‘qitishda ta’lim shakli, metod va usullarning samaradorligini ta’minalash, jarayonni tashkil etishda bolalarning intellektual hamda shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olish, ularning faolligini oshirish dolzarb masala.

Bu vazifani samarali amalga oshirish musiqani o‘qitishning an’anaviy usullarini ilg‘or pedagogik texnologiyalar, interfaol metod va usullar bilan qo‘sib olib borishni taqozo etadi. Qo‘yilgan muammolarni o‘quvchilar bilan birqalikda hal qilish, izlanish, tadqiqot metodi, bahs-munozaralar, davra suhbatlari, “Klasster”, “Bumerang”, “Charxpalak”, “Aqliy hujum”, “Yo‘naltirish”, “Intervyu”, “Venn diagrammasi”, “Ijodiy ish”, “Idrok xaritasi”, “Tushunchalar tahlili” kabi metodlardan foydalanish o‘rinli. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar musiqiy ta’lim jarayonining unumdarligini oshiradi, o‘quvchilarni musiqiy dunyoqarashini shakllantiradi, musiqiy bilimga ishtiyoq hamda qiziqishni oshiradi. Pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishda, uning xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlari:

- musiqiy ta’lim jarayonining tuzilishi, musiqiy faoliyatlarning o‘zaro bog‘liqligi va mazmunining yaxlitligi;
- o‘quvchini musiqiy faolligi va qobiliyatiga tayanib o‘qitish;
- musiqiy nazariy bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonida yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchilik hamda kemtikliklarni aniqlab, tuzatib borish;
- musiqiy savodxonlik, jamoaviy aytim faoliyatlarida mezonlarga binoan test vazifa va topshiriqlarni bajarish.

### **3.4. Musiqa o‘qitish texnologiyalari**

O‘qituvchining musiqa ta’limi amalga oshirishidagi mahoratida musiqiy – pedagogik texnologiyalar asosiy o‘rin egallaydi. Zero, pedagogik texnologiya musiqiy ta’lim-tarbiya jarayonining ilmiy-

---

<sup>1</sup> Yo‘ldoshev J. G‘. Interfaol ta’lim sifat kafolati. Toshkent. “Fan”. 2010 yil. – B.53.

uslubiy asoslangan va tizimga solingan faol vosita hamda usullar majmuidir.

O‘qituvchi musiqiy ta’lim-tarbiyada ko‘zlangan maqsadga erishishni kafolatlaydigan jarayonni samarali tashkil eta olishi va pedagogik boshqara bilishi lozim.

Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishliklarini ta’minlar ekan, albatta zamonaviy o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalana bilish mahoratini tinmay oshirib, takomillashtirib borishga harakat qilmog‘i kerak

Zamonaviy ta’limda o‘qituvchilarning innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini musiqa o‘quvi jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish va e’tibori kuchayib bormoqda. Shu vaqtgacha an’anaviy talimda o‘quvchilarni faqat tayyor musiqiy bilimlarini egallashga erishishlari ko‘zda tutilgan bo‘lsa, endilikda texnologiyalar o‘quvchilarni o‘zlashtirayotgan bilimlarini o‘zlari mustaqil izlanib topishlariga, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga undamoqda. Pedagogik texnologiya pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Musiqani interfaol o‘qitish-ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilari-o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi orasida shakllanadigan o‘zaro hamkorlik, qiziqarli bahslar, guruhlarga bo‘lingan holda bir-biri bilan mulohaza almashish asosida tashkil etiladi. Ularda mustaqil fikrlash, musiqiy-badiiy taassurotlarni bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimini birgalikda izlash imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Interfaol metodlar asosida musiqiy ta’limni samarali amalga oshirishning afzalliklari quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

- musiqiy o‘quv jarayonlarini axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida zamonaviy usulda tashkil etish va ta’lim sifatini nazorat qilishning ustuvor ahamiyat kasb etishida;

- zamonaviy interfaol ta’limning ilgarigi an’anaviy musiqiy ta’lim berish usulidan metodik, ilmiy hamda uslubiy jihatlardan farqlanishida;

- o‘qituvchida o‘quvchilar musiqiy faoliyatini pedagogik boshqarish imkoniyatining mavjudligida;

-o‘quvchilar tomonidan musiqiy o‘quv materiallarini o‘zlashtirish, zarur bilim va ko‘nikmalarga sifatli ega bo‘lish imkoniyatidan foydalana olishda;

- o‘quvchiga o‘z musiqiy bilimini doimo mustahkamlab borishi hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish imkoniyatining yaratilganligida.

Musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi tomonidan tanlanadigan hamda amaliyotda qo‘llaniladigan texnologiyalar asosiy ta’limiy maqsad – aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lishi, bunda o‘quvchilarning bilim saviyasi, musiqiy ehtiyoji, guruh xarakteri, sinf sharoiti inobatga olinishi lozim.

Ta’limiy-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun musiqiy film, tarqatma materiallar, turli musiqiy adabiyotlar, to‘plamlar, axborot texnologiyasining o‘rni va ahamiyati katta. Masalan, 6-sinfda “Mumtoz musiqa haqida tushuncha”deb nomlangan 1-bobning “Shashmaqom – mumtoz musiqamiz asosi” mavzusini o‘tishda musiqiy videofilmdan, o‘zbek milliy cholg‘u asboblari mavzularini o‘tishda esa “O‘zbek cholg‘u asboblari” ijrosi, uning tarixi va ijrochilik uslublari haqida ma’lumot beruvchi audio yoki SD disk yozuvlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Shuningdek, respublikamizning ilg‘or tajribali musiqa madaniyati fani o‘qituvchilarining vidiodarslaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Interaktiv metodlar bu –jamoa bo‘lib fikrlash, deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullarining o‘ziga xosligi shundaki, ular pedagog va o‘quvchilarning hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o‘quvchilarni dars davomida faol bo‘lishga, mustaqil fikr yuritish, musiqiy – ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga da’vat etish;

- o‘quvchilarning musiqiy bilimga bo‘lgan qiziqishini har bir musiqiy faoliyatga ijodiy yondashgan holda rivojlantirish;

- o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish hamda uni pedagogik boshqarish.

O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlataladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish maqsadida film, tarqatma material, musiqiy adabiyotlar, audio va SD

disk yozuvlari, axborot texnologiyasi kerak bo‘lar, bular o‘qituvchi va o‘quvchiga bog‘liq.

O‘qituvchi bilan bir qator o‘qitish jarayoni oldindan loyihalashtirish lozim. Bu jarayonida o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos jihatlarini, pedagogik shart-sharoitlarini, eng muhimi, o‘quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini samarali tashkil eta olishini inobatga olish kerak. Bu esa kafolatlangan natijaga erishishda muhim omil.

### **“Skarabey” texnologiyasi**

“Skarabey” interaktiv texnologiya bo‘lib, ta’lim jarayonida o‘quvchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiqiy tafakkur va musiqiy xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Musiqiy asarni tinglash va tahlil etishda o‘z mulohazalarini erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi.

Mazkur texnologiya o‘quvchilarga mustaqil ravishda musiqiy bilimning sifati va darajasini xolis baholash, o‘rgatilayotgan musiqiy o‘quv materiali haqidagi tushuncha hamda tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi.

“Skarabey” texnologiyasining o‘ziga xos xususiyati o‘quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi va faoliyatlarda o‘quvchilarning musiqiy qiziqishi va qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. U o‘quvchilarni faol ijodiy jarayonga kirishishga undaydi.

### **“Blits-o‘yin” texnologiyasi trening haqida tushuncha**

Blits- inglizcha so‘z bo‘lib, ketma-ketlik ma’nosini bildiradi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarning musiqiy faoliyatlar jarayoni ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, kreativ fikrlashga, o‘rganayotgan musiqiy materiali asosida mantiqiy fikrlardan, musiqiy ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan. Masalan, mavzuga oid atamalar o‘rni almashtirilgan holda beriladi. Uni guruh a’zolari to‘g‘ri qo‘yib chiqishlari talab etiladi.

### **“Tarmoqlar” (klasster) metodi**

Fikrlarning tarmoqlanishi-bu pedagogik strategiya bo‘lib, u o‘quvchilarni biror bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordan berib,

o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi.

Bu metod biror materialni chuqur o‘rganishdan avval o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, chuqur o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o‘quvchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

“Tarmoqlar” metodi—o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash, musiqiy bilim doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda musiqiy adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan.

### **“Bumerang” texnologiyasi**

Mazkur texnologiya mashg‘ulot davomida o‘quvchilar tomonidan musiqiy o‘quv materialini ijodiy tushunib idrok etishga, chuqur va yaxlit holatda o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga ega bo‘lgan muammoli, munozarali mavzularni o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchilarning o‘quv topshiriqlarini bajarishi kerakli ballni to‘plashga imkoniyat beradi.

“Bumerang ” texnologiyasi o‘quvchida tanqidiy ijodiy fikrlash, mantiqiy idrok etish malakalarini shakllantirishga imkoniyat yaratadi, musiqiy asarlarni tinglash va tahlil etishga oid fikrlarni yozma hamda og‘zaki shakllarda to‘g‘ri bayon qilish qo‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu texnologiya quyidagi ta’limiy-tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga samarali yordam beradi.

Jumladan, jamoa bo‘lib musiqiy faoliyat ko‘rsatish, jamoaviy aytim jarayonida bir-birini eshitib borish, musiqiy faollik, ijodiy yondashuv, badiiy faoliyatning samarali bo‘lishiga intilish, musiqiy qobiliyat hamda imkoniyatlarini xolisona baholash va h.k.

Ushbu texnologiya o‘quvchilarni dars va mashg‘ulotdan tashqari jarayonlarda musiqiy- nazariy, tarixiy adabiyotlar, o‘rganilgan musiqiy materiallarni xotirasida saqlab qolish, musiqiy asar haqida badiiy taassurotlarni erkin holda ifodalash hamda dars davomida ko‘pgina o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

“Bumerang” texnologiyasi o‘quvchilarda mantikiy tafakkurni shakllantirishga imkoniyat yaratadi, musiqiy asarlarni idrok etish va unga munosib badiiy baho berish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

### **Panorama usuli (texnologiyasi)**

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga tarqatma materiallar beriladi;

Masalan: musiqa tarbiyasi uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak?

Siz qanday muhitda va sharoitlarda musiqiy jihatdan tarbiyalanayapsiz?

Musiqiy tarbiyalangan kishi qanday bo‘lmog‘i kerak?

Musiqiy tarbiyalanganlik jamiyatga nima beradi.?

Guruqlar shu kabi savollarga javob yozib bo‘lgach, umumlashtirilib taqdimot qilinadi. So‘ngra javoblar yuzasidan tahlillar o‘tkaziladi.

### **Fikrlar hujumi**

O‘quvchilar bilan bevosita jamoa bo‘lib “fikrlar hujumi” olib borishdan maqsad-mumkin qadar keng doirada g‘oyalar yig‘ish, o‘quvchilarni ayni bir xilda fikrlash inersiyasidan xoli qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo‘lgan fikrlarni yengishdir.

Bu metodning asosiy tamoyili va qoidasi baxs ishtirokchilari ishlab chiqqan g‘oyalarni, har qanday luqma va hazil mutoyibani rag‘batlantirishdir. Bu metoddan foydalanishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchi – mashg‘ulot rahbariga bog‘liq. “Fikrlar hujumi” ishtirokchilari miqdori 15 kishidan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

**“Aqliy hujum”**- sinfdagi har bir o‘quvchiga o‘qituvchi qo‘yan savol yoki muammo yuzasidan o‘z fikrini mustaqil bayon etishga imkon beruvchi ta’lim uslubidir. O‘qituvchi tomonidan belgilangan muammoni hal etishda ehtimol tutiladigan barcha fikrlar variantlarini jamlash istisno tariqasida ta’lim oluvchilarning barcha fikrlarni, shu jumladan aytarli to‘g‘ri bo‘lmaganlarini ham inobatga olishdan iborat.

Bunda yaxshi idrok etilishi uchun ana shu fikrlarning barchasini doskaga yozib borish maqsadga muvofiq. Bu esa bayon etilgan

fikrlarning keyingi tahlilida o‘quvchilarni qo‘yilgan savol yoki muammoni to‘g‘ri tushunishga chorlashga imkoniyat beradi.

“Aqliy hujum” ni o‘tkazish uslubiyati va tartibi;

1.O‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini musiqiy savol, topshiriqlarga jalg etadi va ularning fikri bilan tanishadi.

2. Istisno tarikasida barcha fikrlar (kancha ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi) doskaga yozib boriladi.

3. Barcha fikrlar yozib olingandan keyin o‘qituvchi o‘quvchilar bilan javoblar muhokama etilib, aytilgan fikrlarga tuzatish va to‘ldirishlar kiritiladi. Ulardan eng muximlari ajratilib ko‘rsatiladi

“Aqliy hujum” ni o‘tkazish qoidalari:

1.Aqliy hujum” o‘tkazishda belgilangan vaqt me’yoriga qat’iy rioya etish lozim.

2. Belgilangan doirasida barcha xohlovchilarga o‘z fikrini bayon etish uchun imkoniyat berish kerak.

3.O‘quvchilar tomonidan aytilgan fikrlar tanqid va muhokama qilinmasligi yoki baholanmasligi lozim.

4. Zarur bo‘lib qolgan taqdirda bayon etilgan fikrga tuzatishlar kiritish kerakki, bu narsa g‘oya yoki fikrni anik va qisqacha ifodalash imkonini beradi

**Venn diagrammasi** obyekt, tushuncha, g‘oya, hodisani taqqoslash faoliyatini tashkil etish jarayonida qo‘llanib, o‘xshashlik va farqli tomonlar ochiladi<sup>1</sup>.

Venn diagrammasi-grafik ko‘rinishda bo‘lib, olingen natijalarni umumlashtirish, ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetlarni (ko‘rinish, fakt, tushuncha) taqqoslash, tahlil qilish va o‘rganish jarayonida qo‘llaniladi.

Diagramma ikki va undan ortiq aylananing kesishmasidan hosil bo‘ladi. Venn diagrammasining maqsadi- grafik tasvir orqali musiqiy tushunchaning ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasvirini ifodelaydi. Mazkur metod turli musiqiy tushunchalarning umumiyligi va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash orqali fikr bildirish imkonini beradi.

Masalan, ikki janr - musiqali drama bilan musiqali komediya janrlarning xususiyatlari tahlil etilganda, o‘quvchilar 2 ta doiralarni

<sup>1</sup> Ishmuhamedov R. Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma) . –Toshkent. “Nihol. ” 2013 yil. –B. 233.

quyidagi javoblar bilan to‘ldirishadi: Birinchi doira (aylana) da “Musiqali drama” ning ko‘pincha dramatik, ba’zan esa tragik xususiyatga ega janr ekanligi, ikkinchi -doira (aylana) da esa “musiqiy komediya”ning hazil-mutoyibaga asoslangan, yengil, kulgili, yumorga boy janr ekanligi izohlanadi. Ikki doira (aylana) ning o‘rta kesishuv qismida esa bu ikkala janrning o‘xhash, umumiy jihatlari tahlil etilib, ular sahna uchun mo‘ljallangan musiqiy asarligi e’tirof etiladi.

**“Ijodiy ish”**- o‘quvchilarning ijodiy va aqliy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan, musiqiy-estetik did, ehtiyojlarini shakllantiradigan uslub. Bu uslubda o‘quvchilarning darsdan bo‘sh paytlarida mustaqil o‘zlashtirgan, idrok etgan musiqa asarlari tinglanib, dars jarayonida esa o‘qituvchi tomonidan nazariy ko‘rsatmalar berilib, jarayon pedagogik boshqariladi.

Interfaol ta’limga asoslangan musiqiy faoliyat - bu ta’lim vazifalarini amalga oshirishdagi mahorat va san’at darajasi tushunilib, u qulay, optimal usullar asosida o‘quvchilarning musiqiy bilim, ko‘nikma hamda malakalarini, fanga oid kompetensiyalarin rivojlantirishga qaratilishi lozim

Xullas, musiqa madaniyati fanini o‘qitishda o‘qituvchining zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan samarali foydalanishi ta’lim samaradorligini oshirishda, o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini o‘stirishda hamda ularning madaniyatini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

### ***Nazorat uchun savollar:***

1. *Musiqa madaniyati darslarining tuzilishini izohlang.*
2. *Musiqa ta’limining ijodiy faoliyatlari shakl va turlarini izohlang.*
3. *Musiqa madaniyati darslari xususiyatlarini belgilab bering.*
4. *Maktabda musiqa tarbiyasini tashkil etishda darslarning ahamiyatini izohlang.*
5. *Musiqa ta’limida pedagogik texnologiyalarning muhim xususiyatlarini tushuntiring.*
6. *Musiqa xonasining estetik jihozlash talablari.*
7. *Interfaol ta’limga asoslangan musiqiy faoliyatni qanday tushunasiz?*

## **4-MAVZU. UMUMIY MUSIQIY TA'LIMNING TAMOYILLARI**

**Tayanch so‘zlar:** ta’lim tamoyillari, onglilik va faollik, ilmiylik va tizimlilik, ko‘rsatmalilik, ta’lim-tarbiya birligi, musiqa pedagogikasi va amaliyoti, metodik talab, ongli- emotsional idrok, o‘quv materiali, musiqa obrazi.

### **4.1. Musiqa darslarida umumdidaktik prinsiplar.**

Ta’lim tamoyillari maktab oldida qo‘yilgan talablardan kelib chiqadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ma’naviy kamolotini ta’minalash, ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish ta’lim prinsiplarini amalda muvaffaqiyatli qo’llash darajasi bilan chambarchas bog‘langan.

O‘qitish prinsipi ta’rif etilsa, “Prinsip” - lotincha so‘z bo‘lib, “asos”, “qoida”, “talab” singari ma’nolarni bildirib, dars samaradorligini ta’minalashga qaratilgan, ta’lim jarayonini tashkil etishga qo‘yilgan asosiy talablar, qoidalar tushuniladi. O‘qituvchi ta’lim ishini tashkil etar ekan, ana shu qoidalar va talablardan kelib chiqadi hamda ular o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minalagan holda amalda tatbiq etish orqali ko‘zlangan ta’limiy maqsadga intiladi.

Musiqa darslarida bir tomondan umumdidaktik tamoyillar, ikkinchi tomondan shu fanni o‘qitishning o‘ziga xos tamoyillarini hisobga olishga to‘g‘ri keladi. Umumdidaktik tamoyillar garchand maktabda o‘qitiladigan barcha umumta’lim fanlarga aloqador bo‘lsa ham u har bir fanning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi.

#### **Onglilik va faollik**

Mashg‘ulotda o‘quvchilarning ongliligi faollik darajasida namoyon bo‘ladi. Zero, musiqiy bilimni o‘zlashtirish bola aqliy faoliyatining asosi – bilish jarayoniga bog‘liqdir Shu bois, onglilik va faollik tamoyili - ta’lim nazariyasida yetakchi tamoyillardan biri sifatida ta’riflanadi.

Onglilik va faollik tamoyili, ayniqsa, o‘quvchilarda vokal-xor (aytim) mashqlarini kuylashga o‘rgatish malakalarini shakllantirilishi uchun muhimdir. Shuningdek, jamoaviy aytim, musiqa tinglash va uni tahlil etish, musiqa savodxonligi faoliyatlarida ham onglilik va faollik

tamoyilini qo'llash musiqani nazariy jihatdan o'zlashtirish va ijrochilik malakalarini o'stirishni muvaffaqiyatli amalga oshiradi.

Ta'lism jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirilishiga erishilsa, musiqiy o'quv materialining ongli o'zlashtirilishi shuncha oson amalga oshadi. Chunki o'quvchi dars jarayonida ongli-emotsional tarzda o'zlashtirgan bilimlarnigina amaliy faoliyatda qo'llay oladi.

Ta'linda onglilik va aktivlik o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, har qanday faollik asosida mustaqil aqliy faoliyat turadi. Faollik o'quvchining ham o'qishi, ham musiqiy amaliy faoliyatlarida ishtiroki darajasini belgilaydi. Musiqiy faoliyatlarda o'quvchilar bilimlarni egallah, bilishga, anglashga qaratilgan bo'lib, bilish faolligi bola faoliyatining natijasi, mahsuli sifatida bilimlarni egallahda aktiv ishtirokt ta'minlanadi. Nazariy bilimni o'zlashtirish - o'quvchi amaliy faoliyatining asosiy sifati bo'lgan- bilish jarayoniga bog'liq.

Musiqani anglash, uni hissiy idrok etish inson hayotiy tajribalarini boyitadi, voqelikni badiiy his etib, bilish o'quvchida mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, musiqa san'atlar ichida o'ziga xos xususiyat va imkoniyatlarga ega. Musiqa asarining tinglovchisi, kuylovchisi va ijrochisi o'rtasida o'zaro uzviy bog'liqlik bo'lishi va ular asar muallifi tomonidan belgilab qo'yilgan sur'at (temp) ga sozlanishi, shu maromda faoliyat ko'rsatishi lozim. Chunki, jaranglayotgan musiqa va uning tinglovchisi orasida bog'liqlikda uzelish hosil bo'lsa, musiqiy idrok to'laqonli amalga oshmaydi. Ana shuning o'zi ham musiqa mashg'ulotlarida, onglilik va faollik tamoyilining nihoyatda muhimligini bildiradi.

O'quv materialining o'zlashtirilishida osondan-murakkabga va noma'lumdan-ma'lumga o'tish tamoyili asosida bolalarning ongli-emotsional idrokini rivojlantirish yo'li bilan-gina ularda musiqa madaniyatining asoslarini shakllantirish mumkin. Darsda o'quvchilar tomonidan musiqa materialini ongli ravishda o'zlashtirishda ilmiylik muhim rol o'ynaydi hamda musiqa asarlarining nazariy asoslarini, ifoda vositalarini bilib olishga asosiy mezon hisoblanadi.

O'quvchilarning darsda onglilik va faolligi, ayniqsa, jamoa bo'lib kuylash malakalarini shakllantirish uchun muhim bo'lib, bunda o'qituvchi tushuntirish vositalaridan samarali foydalanishi lozim. Beriladigan tushuncha va ma'lumotlarning aniq, ravshan,

o‘rgatiladigan qo‘shiqlar esa bolalar ovozi diapozoniga mos tushishi kerak. Onglilik va faollik tamoyili musiqaning nazariy asoslarini o‘rganishni va amaliy o‘zlashtirishni osonlashtiradi. Shuningdek, musiqiy faoliyatlarda o‘quvchining faolligini ta’minlaydi.

#### **4.2. Ilmiylik va tizimlilik**

Har bir mashg‘ulot ilmiylik, tizimlilik va davomiylilik tamoyili asosida o‘zining tuzilishi, mazmuni va uslubiy asosiga ega bo‘lishi kerak. Musiqa haqidagi nazariy bilimlar doirasi, musiqiy ta’lim mazmuni-ta’lim- tarbiyaning asosiy omilidir. Unda jamiyat rivojining turli bosqichlarida insoniyat tomonidan yaratilgan musiqa san’ati va ilmiga doir ta’limotlar, qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqiy tajribalar o‘z aksini topgan. Ularni o‘zlashtirish – musiqa amaliyoti jarayonida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish hamda hayotga tatbiq etish - kompetentlilikni rivojlantirish demakdir.

Ta’limning ilmiylik prinsipi deganda mashg‘ulotlar jarayonida musiqiy o‘quv materiallarining bolalarning bilim tajribasiga mosligi, bolalar ovozining rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish, nota savodi asoslarini to‘g‘ri o‘rgatish, asarlarni bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatiga mos ravishda tahlil etish tushuniladi. Ilmiylikni esa tizimliksiz amalga oshirish murakkab.

Darsda barcha o‘quv faoliyatlari hamda keyingi mashg‘ulotlarda ta’lim mazmuni bilan o‘zaro mantiqiy bog‘lanishi - tizimlilikning asosini tashkil etadi. Kuylash va tinglash uchun tavsiya etilgan asarlar, nazariy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarni o‘quvchi tomonidan soddadan murakkabga, noma'lumdan ma'lumga qarab o‘zlashtirib borish tamoyili muayyan tartibga mos bo‘lib, tizimlilikni ta’minlaydi

Mashg‘ulot faoliyatlari o‘z navbatida, har bir darsning takrorlanuvchi mantiqiy davomi bo‘lib, pedagogik maqsadlarni amalga oshirilishi davomiylilik tamoyili mazmunini ifoda etadi.

O‘quvchilar tomonidan musiqiy bilimlarni o‘zlashtirish mukammal o‘ylangan, loyihalashtirilgan va asoslangan tizim bo‘yicha amalga oshirilishi alohida ahamiyatga egadir. Beriladigan musiqiy bilimlar oddiydan sekin-asta murakkabga qarab yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Aks holda, ushbu tamoyilni e’tiborga olmaslik yoki amal qilmaslik holati o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga, ularning musiqa madaniyati

mashg‘ulotlariga bo‘lgan munosabatni o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Musiqa ta’limining yana bir xususiyati - o‘rganiladigan nazariy bilim, tushunchalarning sinflar tizimida takrorlanib kelishidir. Shu bois, musiqiy- nazariy bilimlarni tushuntirishda musiqa o‘qituvchisi, avvalo, o‘tilgan mavzular mazmuniga asoslanib, musiqiy savodxonlik, jumladan, musiqiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida beriladigan bilimlar aniq tizimga solishi lozim. Yangi tushuncha va bilimlar avval o‘zlashtirilgan bilimlarning mantiqiy davomi sifatida asoslangan bo‘lishi, o‘qituvchi tomonidan asta-sekin kengaytirilib hamda chuqurlashtirib borilishi kerak.

“Musiqa madaniyati” darslarida qo‘llaniladigan tizimlilik tamoyili musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish va muayyan amaliy ko‘nikma-malakalarni shakllantirish jarayonida o‘quvchilarda mashg‘ulotlarlarga bo‘lgan qiziqishlarni orttiradi. Ushbu tamoyil buzilsa, o‘quvchilar tomonidan musiqiy ta’lim mazmuni to‘liq o‘zlashtirilmay qoladi.

Tizimlilik va izchillik tamoyili mohiyatiga asosan darsning har bir elementi kelgusi mashg‘ulotning mantiqiy davomi bo‘ladi, pedagogik maqsadlarni amalga oshirilishi esa davomiylik demakdir. O‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar oldingisini yanada mustahkamlashi, keyingi o‘rganiladigan o‘quv materialiga bog‘lanib ketilishiga bog‘liq. Buning uchun o‘qituvchi albatta, o‘quvchilarga musiqiy bilimlarni berish barobarida, uning mazmunini tahlil qilishi ham maqsadga muvofiq.

Musiqa ta’limida ilmiylik va tizimlilik tamoyili o‘quvchilarda o‘rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko‘rilgan ma’lumot va tushunchalar berilishini talab etadi. Ilmiy bilimlarni egallah jarayonida o‘quvchilarda musiqiy dunyoqarash, badiiy tassavvur rivojlanadi. Shuningdek,

darsdagi predmetlararo aloqa, integratsiya, ayniqsa, adabiyot, tasviriy san’at, tarix fanlari bilan bog‘liqligi ta’minlashda mazkur tamoyil asosida mashg‘ulotning unumli, samarali o‘tishini ta’minlaydi.

Har bir darsda o‘qitiladigan o‘quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqr bo‘lishi o‘quvchida nafaqat musiqiy bilim, balki tafakkur hosil qilishi hamda uning musiqiy-ijodiy qobiliyatini shakllantirishi kerak.

Umumdidaktik ta’lim tamoyillari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, musiqa faoliyatni jarayoni izchilligini ta’minlaydi, dars mazmunini boyitadi. Ta’limning ilmiyligi, tizimliligi tamoyilli o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi.

#### **4. 3. Ko‘rsatmalilik tamoyili**

Musiqa ta’limida o‘quvchilarning ko‘rgazmali asosda mazmunni ongли-emotsional idrok etishi uchun pedagogik imkoniyatlar mavjuddir. Musiqa ta’limida xotirada eslab qolish qobiliyatining zaruriy shartlardan biri sifatida ko‘rgazmalilikning ahamiyati alohida. Shu bilan birga o‘qituvchi nutqi va tashkil etadigan amaliy-musiqiy faoliyatlar jarayonida ham ko‘rsatmalilik uzviy bog‘liqligi bilan muhimdir.

Tarixiy pedagogik adabiyotlarda ta’kidlanganidek, bilimlarni qabul qilish va o‘zlashtirishda barcha sezgi a’zolarining faoliyatini to‘g‘ri uyushtirish katta ahamiyatga ega. Sezgi a’zolari faoliyatga maqsadga muvofiq tarzda to‘g‘ri jalb etish-bilish jarayonini shunchalik osonlashtiradi. Bu xususda ta’limotlar o‘z davrida buyuk pedagoglar Y.A.Komenskiy, G.Pestolossi, K.D.Ushinskiy va boshqalar tomonidan asoslab berilgan.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchi musiqiy savodxonligini shakllantirishda qo‘llaniladigan musiqiy bilimlar hajmi hamda mazmunini tanlashni mazkur tamoyil asosida amalga oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Musiqa tarbiyasida aslida taraladigan kuyning o‘zi ham ijro etiladigan cholg‘u asboblari ham ko‘rgazmali vositadir. Jamoa bo‘lib kuylash, musiqa tinglash va uni tahlil etish, bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish jarayonlarida ham kuy va unda jarang sochadigan musiqiy sozlarni o‘quvchilarga ko‘rgazma sifatida chalib namoyish qilinadi.

Qolaversa, musiqa o‘qituvchisining nutqi, jonli ijrosi ham darsda asosiy ko‘rgazma bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, o‘qituvchi tomonidan tayyorlanadigan metodik tavsiyalar, mashg‘ulot ishlanmalari, sxema, jadvallar, musiqiy boshqotirmalar, rebuslar, axborot texnologiyalari vositalari, tarqatma materiallar, nota yozuvlari, boshqa didaktik materiallarni tayyorlashda ham ushbu tamoyilga asoslaniladi.

#### **4.4. Bilim va malakalarining mustahkamligi**

Bilim va malakalarning mustahkamligini ta'minlash uchun qolgan tamoyillarning mazmun-mohiyatiga ko'ra birin-ketinligi va o'zaro bog'liqligiga amal qilish lozim. O'qituvchi barcha tamoyillardagi muhim jihat- o'quvchilarda musiqiy bilim va malakalar darajasining holati, mustahkamlik sifati va borliq, hayotiy voqeа va hodisalar bilan bog'langanligi ta'minlashi kerak. Zero, musiqa san'atining hamisha hayot bilan bog'liqligi, mazmunida aks ettirishi ijtimoiy-madaniy mohiyati hamda ahamiyatini o'quvchilar ongli tarzda idrok etishlari lozim.

#### **Ta'lim va tarbiyaning birligi**

O'quvchilarga musiqiy bilim berish barobarida tarbiyalash, ya'ni ularning aqliy va axloqiy-estetik, musiqiy qobiliyatlarini bir butunlikda shakllantirishni yaxlit holda amalga oshirish zarur. Binobarin, musiqa mashg'ulotlari o'quvchilarni musiqiy bilimlar bilan tanishtirish, musiqiy bilimlarni berish bilan birga ularda tarbiyaning u yoki bu turini, ayniqsa odob-axloqiy sifatlarini ham shakllantirib boradi. Zero, musiqiy faoliyatlarni barcha turlarida o'quvchilarning, eng avvalo axloqiy fazilatlarini shakllantirish nazarda tutilgan. Shuningdek, musiqiy qiziqish, did, tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash va pirovardida o'quvchilarda musiqa madaniyati tarbiyasining asoslari shakllantiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish sifatini tubdan yaxshilash, uning samarali metod hamda vositalari, pedagogik shart-sharoitlaridan to'laqonli foydalanish talab etiladi.

#### **4.5. Musiqa materialining o'quvchilar bilimi va malakalariga mosligi**

Bu tamoyildan asosan dasturdan o'quv materiallari asosida dars mazmunini loyihalash jarayonida qo'llaniladi. Bunda har bir sinf o'quvchilarining musiqiy qiziqishi, umumiy bilim va malaka darajasi hisobga olinishi lozim.

Darsning yillik taqvimiylar rejasini tuzishda milliy o'quv dasturida o'qituvchi uchun asarlarni tanlash imkoniyati beriladi. Mazkur xususiyat ham musiqa darsining boshqa fanlardan o'ziga xosligini ko'rsatadi. Bunda jamoaviy aytim, tinglash va tahlil uchun asarlar, vokal-aytim mashqlari, musiqa savodi materiallari, asarlar tahlili

uchun atamalar, bastakorlar ijodiga oid ma'lumot hamda tushunchalar hayotiy misollar vositasida o'quvchilarning bilim, malakalariga mos holda tanlanib, dars loyihalashtiriladi.

Musiqa materialining o'quvchilar bilimi, malakalariga mosligini ta'minlashda o'qituvchi faoliyatining o'rni alohida. Agar boshlang'ich sinflarda musiqa darslarini mutaxassis o'qituvchi olib bormagan bo'lsa, tabiiyki o'quv dasturining o'zlashtirilishi ko'pincha bir faoliyatdan, ko'p hollarda asosan qo'shiq o'rganish, jamoa bo'lib kuylash bilan chegaralangan bo'ladi. Demak, bolalarning bilim darajasi va musiqa malakalari orqada qolib ketganligi natijasida ular 5-sinf o'quv materiallarini o'zlashtirishga qiynaladilar. Bunday holda amaliyotda mutaxassis o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quv materiallarining eng asosiy va zaruriy qismlarini o'quv yilining birinchi yarmida qisqa muddatlarda o'tib olib, so'ng 5-sinf materiallarini o'tishga boshlaydi.

Umuman olganda mazkur didaktik tamoyil barcha sinflarda darsga tayyorgarlik ko'rish jarayoni va uni sinfda amalga oshirish jarayonida qo'llanilib boriladi.

#### **4.6. Musiqa darslarida bilim va malakalarning mustahkamligi**

O'quvchilarda bilim va malakalarning mustahkamligi va turg'unligiga erishish uchun uning hayotiyligini ta'min etish lozim, ya'ni o'zlashtiriladigan musiqiy asarning ijro uslubi madaniy hayotimiz va ma'naviy rivojlanishimiz uchun muhim ekanligi xususida o'quvchilarni ishontirish lozim.

Musiqa darslarida bilim va malakalarning mustahkamligi tamoyilini tatbiq etishda musiqiy asarni tanlashning ahamiyati katta. Unda o'qituvchi quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1. Asarning o'quvchilar badiiy dunyoqarashi va axloqiy tarbiyasi uchun mosligi.
2. Musiqa ta'limi, ya'ni bilim va tushuncha berishdagi bo'lgan xususiyati.
3. Sinfdagagi barcha o'quvchilarni o'rgatiladigan asarga qiziqtirish va uni puxta o'zlashtirishiga erishish.

Darsda olinadigan bilimlar doirasi va malakalar majmui uchun musiqa darsi amaliyotidagi xususiyat, ya'ni takrorlanish va qaytarish - qo'shiqni kichik jumlalarga bo'lib o'rganish, keyingi darslarda

kuylash, musiqa asarlarini qayta tinglash kabilar muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchining kuylash va tinglash malakalari esa amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi hamda rivojlanadi.

Darsda olingan har bir yangi nazariy bilim elementi dars faoliyatida takror-takror kuylanib o‘zlashtiriladi va u keyingi mashg‘ulotlarda qo‘llanilib mustahkam bilim, ko‘nikmaga aylanadi.

Shu bilan birgalikda “musiqa madaniyati” fani o‘ziga xos xususiyatlari ega metodikaning tamoyillarini ham ilgari suradi. Musiqa metodikasiga oid adabiyotlarda bular - emotzionallik va onglilikning birligi tamoyili, badiiy va texnik birlik tamoyili, lad, ritmik hissiyot va shaklni his etish birligi tamoyili, deb tasniflanadi. Bu prinsiplar ta’lim jarayonida o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatları, musiqaga qiziqish, did tarbiyasi va nihoyat musiqa madaniyatining asoslarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

#### **4.7. Emotsionallik va onglilikning birligi, musiqa obrazi hamda intonatsiya birligi prinsiplari**

Emotsionallik va onglilikning birligi tamoyili muhimligi - musiqa san’atining o‘ziga xos xususiyatlari, uni idrok etishning shart-sharoit va imkoniyatlari bilan belgilanadi. Musiqiy idrokning rivojlanishi ongli emotSIONAL taassurotlarning darajasiga bog‘liq. Musiqa asarlarining ta’sir darajasini anglash, uning mazmunini ochishga va mohiyatini idrok etishga yordam beradi.

Badiyliги va texnik birligi tamoyili - asarning badiiy, ifodali ijrosini ta’minlash muayyan malaka hamda ko‘nikmalarni talab etadi. Masalan, qo‘sish o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga ovoz sozlash maqsadida aytim mashqlari yordamida sof, toza kuylash, ifodali aytim malakalarini shakllantiradi, kuyni ijro etish uchun bolalar musiqa asboblarida ritmik jo‘r bo‘lish uchun o‘quvchilar bu cholg‘ularda jo‘r bo‘lishning oddiy elementar usullarini egallagan bo‘lishlari kerak.

Barcha musiqiy faoliyatlarning asosida lad, ritmik harakatlar hissiyot va shaklni his etish birligi tamoyili ustuvor bo‘lishi maqsadga muvofiq. O‘quvchilarda musiqiy qobiliyatlarning shakllanishi barobarida musiqaning rivojlanish tamoyillari, musiqiy nutq, musiqiy shakllarning ifodaviy imkoniyatlari haqidagi tasavvurlari ham kengayib boradi.

Ta'lim tamoyillari o'zaro uzviy bog'liqlikda, bir-birini to'ldiradigan yaxlit bir pedagogik hamda metodik talab bo'lib, ularga qat'iy amal qilish dars sifat- samaradorligini oshirish, o'quvchilarni puxta musiqiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini imkoniyatlarini tobora kengaytirishga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Musiqa ta'limi Konsepsiyasida musiqa ta'limi mazmunini yanada takomillashtirish, uni hozirgi davr talablari asosida qayta isloh etish, musiqa ta'lim-tarbiyaning milliy asoslari bilan boyitish, o'quv dastur va darsliklarida ortiqcha, ikkinchi darajali narsalarni chiqarib tashlash, musiqiy o'quv materialining bolalar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlash kabi muhim tadbir-yo'nalishlar alohida qayd etib o'tiladi. Shu bois, o'qituvchi umumdidaktik tamoyillar bilan bir qatorda musiqa ta'limining o'ziga xos tamoyillarini ham yaxshi bilishi va ta'lim jarayonida unga qat'iy amal qilishi lozim.

Mashg'ulotlar jarayonida qo'llaniladigan musiqa ta'limi tamoyillari o'quvchilarda musiqiy ijrochilik va ijodkorlik, tinglangan hamda idrok etilgan musiqa asari haqida munosabat bildirish, baho berish, musiqiy-ijodiy faoliyatlar mahsulini nutqda bayon eta olish, ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga xizmat qilmog'i kerak.

Musiqa fani o'qitilishining tamoyillari o'quvchilarda ijodiylik, musiqa asarlarini ongli-emotsional idrok etish musiqa san'ati va asarlari haqida mustaqil fikr-munosabat bildirish, ularning musiqiy qobiliyat hamda ijrochilik iqtidorlarini shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlashi xizmat qilmog'i talab etiladi.

Shunday qilib, musiqa madaniyati darslarida umumdidaktik tamoyillarning ahamiyati katta bo'lib, o'qituvchi hamda o'quvchi tomonidan amalga oshiriladigan ta'limning barcha komponentlari - dars mazmuni, metodlari va darsning tuzilishidagi asosiy talablar, yo'nalishlarini belgilab beradi.

### ***Nazorat uchun savollar:***

- 1. Didaktik tamoyillar deganda nimani tushunasiz?*
- 2. Musiqa ta'limida onglilik va faollik tamoyilini izohlang.*
- 3. Ta'lim-tarbiya birligi tamoyilini tushuntiring.*
- 4. Musiqa ta'limida tizimlilik va izchillikning ahamiyati nimada?*

*5. Darsda ko'rsatmalilik tamoyilining o'rni va ahamiyatini tushuntiring.*

*6. Ta'linda o'quv materialining bolalar bilimi va malakalariga mosligi tamoyili mohiyatini izohlang.*

## **5- MAVZU. UMUMIY MUSIQIY TA'LIMNING INTERFAOL USLUBLARI**

**Tayanch so'zlar:** ma'naviy tarbiya, musiqiy faoliyat, optimal metodlar, didaktik omillar, vokal-xor ko'nikmalari, badiiy kirish so'zi, musiqaning jonli yangrashi, musiqaviy o'quv materiali.

### **5.1. Musiqiy ta'lim va tarbiyaning asosiy metodlari va uslublari**

Umumiy musiqiy ta'lim – yosh avlodni ijtimoiy faol, ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda muhim vositalardan biri. O'quvchi musiqa mashg'ulotlari jarayonida san'at olamiga qirib, musiqaning jozibasi, kuchli ta'siri, tarbiyaviy imkoniyatlarini anglaydi. Musiqa vositasida san'at va hayotdagi go'zallik, nafosatni his etish unga shaxsiy munosabatni ifodalash ko'nikmalari rivojlanib boradi. Pirovard natijada musiqa mashg'ulotlari davomida o'quvchining ma'naviy tarbiyasi amalga oshiriladi.

Musiqa darslarida o'quvchilarning ta'limi rivojlanishi va maqsadga muvofiq tarbiya topishi uchun o'qitishning interfaol uslublaridan, ko'proq o'quvchini mantiqiy fikrlash, aktiv musiqiy faoliyat ko'rsatishga undaydigan metodlarni amaliyotga qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bu esa musiqa darslarining ta'limi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali amalga oshiriladi. Buning uchun o'qituvchi musiqani o'qitish metodlarini mukammal bilishi, ta'lim jarayonida har bir metodni to'g'ri tanlash va o'z o'rniда tatbiq eta olish mahoratini puxta egallagan bo'lishi talab etiladi.

"Metod" (yunoncha "metodos" - tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot) voqelikni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish usullari yoxud operatsiyalarning mazmunidir"<sup>1</sup>. Falsafiy ma'noda esa metod

---

<sup>1</sup> O'zb. S. Ensiklopediyasi. Toshkent. 1976 yil. 7-tom, - B 171.

tushunchasi tabiat va jamiyat hodisalarini kuzatish hamda voqelikka ilmiy nuqtai-nazardan yondashishni anglatadi. Didaktik ma'noda bu tushuncha o'quvchilarda bilim, malaka, ko'nikmalarni shakllantirish yo'llarini o'z ichiga oladi.

Ayrim fanlarni o'qitish bilan aloqador masalalarini xususiy metodika o'rganadi. Shuning uchun ta'lif metodlari didakt olimlarini ham, metodistlarni ham qiziqtiradi va muammolarni hal etishga undaydi.

Didakt olimlar ta'lif metodlari va ularning tasnifiga oid salmoqli ilmiy izlanishlar olib bordilar. Ular o'qitish metodlarini turlicha tasnif qilishadi.

Olimlardan E.N.Golant, S.Petrovskiylar ta'lif metodlarini bilim olish manbaiga qarab og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metod turlariga bo'lishsa, M.A.Danilov, B.P.Esipov esa ma'lum tipdagi darslarda bajariladigan o'quv vazifasidan kelib chiqib nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma malakalarni shakllantirish, egallangan bilimlarni mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarni tekshirish hamda baholash kabi metodlarga alohida urg'u berishadi.

Maktabda musiqa o'qitishning qulay metodlari va ulardan foydalanish usullari xususida musiqachi-olimlar A.B.Abdullin, D. Kabalevskiy musiqa tarbiyasi tizimiga oid yaratilgan qo'llanmasida 4 metod asosli bayon etilgan. Bular: darsni musiqaviy umumlashtirish; o'tilajak darslarda oldindan "yugurib" bog'lanish va o'tilganlarga takror qaytish; dars mazmunining emotsional dramaturgiyasi; darsning pedagogik kuzatilishi hamda bilimlarning baholanishi kabilardir<sup>1</sup>.

Shuningdek, musiqa madaniyati darslarida qo'llaniladigan metodlardan o'quvchilarni nafosat olamiga olib kiruvchi, shuningdek ularni axloqiy-g'oyaviy ruhda tarbiyalovchi omil sifatida ham foydalaniladi.

Professor F. To'rayev boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa san'atiga qiziqishini kuchaytirish maqsadida dars jarayonida quyidagi uslublarni qo'llashni tavsiya etadi:

1. Musiqa tinglaganda milliy va qardosh xalqlar musiqasini o'rganishda ularni o'zaro taqqoslash
2. Yevropaning cholg'u asboblari bilan milliy cholg'u sozlarimizni taqqoslash.

---

<sup>1</sup> Теория и практика музыкального обучения в общеобразовательной школе" Москва, 1983. Стр. 74.

3.Mahalliy musiqiy materiallar asosida o‘quvchilar bilimini chuqurlashtirish<sup>1</sup>.

U. Tashmatov, N. Ismatova, M. Omonovalarning “O‘zbek xalq qo‘shiqchiligi” o‘qituvchilar uchun uslubiy qo‘llanmasida darsda o‘zbek xalq qo‘shiqlarini o‘quvchilarga o‘rgatish metodlariga doir quyidagi tavsiyalarni taqdim etishadi:

- o‘quvchilarda qo‘shiqlarning original ijrosini kamida ikki marta eshittirish;
- o‘quvchilar tomonidan kamida ikki marotaba original iじro paytida past ovozda kuylab ko‘rishlarini tashkil qilish;
- musiqa cholg‘usi yordamida qo‘shiqlarni bo‘laklarga bo‘lib o‘rgatish;
- o‘rganilgan bo‘laklarni bir-biriga bog‘lash;
- o‘quvchilar tomonidan kamida ikki marotaba original iじro paytida to‘la ovozda kuylab ko‘rishlarini tashkil qilish; - o‘quvchilar tomonidan qo‘shiqlarning audio (minusovka) yordamida kuylashini tashkil etish<sup>2</sup>.

## **5.2. Musiqa madaniyati darslarida metodlarni amalga oshirish yo‘llari**

Zamonaviy ta’limda musiqa o‘qitish metodikasini yanada rivojlantirish, maktabda mazkur fandan ta’lim samaradorligini oshirishda uning qulay metodlarini to‘g‘ri tanlash va ulardan dars jarayonlarida unumli foydalanish nihoyatda muhim masala. Zero, musiqa tarbiyasi vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish darsda o‘qitishning optimal metodlaridan unumli foydalanishga bog‘liq. Musiqa darslarida o‘quvchi faoliyatini aktivlashtirish birinchi navbatda o‘qituvchi tomonidan tanlangan metodlar va amaliyotda ularni tatbiq etish bilan bog‘liq.

Metod ilmiy asosda to‘g‘ri tanlansagina bola shaxsini rivojlantirish va uni faollashtirishga erishish osonlashadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar ta’lim metodlarini tanlashda juda ko‘p qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayrim o‘qituvchilar ma’lum bir metodni tanlab faoliyatlarida faqat shulardan foydalanishsa, ba’zilari

<sup>1</sup> To‘rayev F. J. Musiqaga muhabbat. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. Toshkent. 1996 yil. 3-son. – B.32.

<sup>2</sup> U. Tashmatov, N. Ismatova, M. Omonova “O‘zbek xalq qo‘shiqchiligi” ( o‘qituvchilar uchun uslubiy qo‘llanma). Toshkent, 2015 yil. – B. 33.

esa har bir metoddan bir shingil olishga urinadilar. Ta’lim samaradorligi ko‘p jihatdan metodning to‘g‘ri tanlanligiga va o‘z o‘rnida qo‘llanilganligiga bog‘liqligini amaliyotda sinalgan..

Musiqani o‘qitishda o‘quvchilar musiqiy faoliyatlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan ta’limning qulay metodlarini tatbiq etish masalasi alohida ahamiyatga molik.

Ta’lim metodlari tasnifiga nisbatan turli necha qarashlar mavjud. Musiqa o‘qitishda o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatida o‘zaro aloqadorlikni ta’minlaydigan va o‘quvchilarning bilish jarayonida mustaqil izlanishga undovchi metodlar tizimini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Zero, metodlar- o‘qituvchi bilan o‘quvchi orasidagi vositachi hamdir. Ta’lim amaliyotida keng qo‘llaniladigan metodlar uch guruhga bo‘linadi: og‘zaki, amaliy va ko‘rgazmali metodlar.

### **Musiqa o‘qitishning og‘zaki metodlari**

Musiqa madaniyati darsida o‘qituvchining nutq madaniyati, so‘z mahorati va muloqotiga alohida talab qo‘yiladi. Zero, musiqa ta’limi Konsepsiyasida bu haqda quyidagilar ta’kidlanadi: “O‘qituvchi o‘zining asar haqidagi badiiy kirish so‘zi bilan o‘quvchilarni ajoyib va sehrli musiqa olamiga olib kiradi, qiziqarli hikoya hamda suhbat bilan bolalar diqqat-e’tiborini musiqa obrazlariga yo‘naltiradi, asarni badiiy idrok etishlariga erishadi”.

Ma’lumki, musiqa ta’limi amaliyotidan hikoya, suhbat, tushuntirish, savol-javob va izoh metodlari keng o‘rin olgan.

Musiqa ta’limida o‘quvchilarni o‘quvchilarni musiqa asari bilan tanishtirish o‘qituvchining kirish suhbatidan boshlanadi. O‘quvchilarga asar bastakori, uning yaratgan asarlari haqida ma’lumotlar beradi, ayrim tanish musiqalaridan namuna-misollar yangraydi. O‘quvchilar musiqa asarini o‘qituvchining jonli ijrosida yoki texnik vositalari orqali tinglashadi, asar yaratilishi tarixiga doir qiziqarli ma’lumotlar olishadi; ijro holati, tinglovchiga badiiy taassurotning uyg‘otishi (ruhlantiruvchi-rag‘batlantiruvchi metod);, O‘quvchilar o‘qituvchi savollariga javoblar berishadi, taassurotlarini o‘rtoqlashishadi (suhbat metodi); o‘quvchilar musiqa asarini tinglashadi; o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga musiqiy-ijodiy topshiriqlar beriladi, tinglash, idrok etish orqali asarning ayrim qismlari taqqoslanadi va tahlil etiladi (tahlil va taqqoslash metodi); asar g‘oyasi, mazmunini aniqlash va u haqda xulosa chiqarish (umumlashtirish metodi) amalga oshiriladi.

Suhbat - o‘quvchi va o‘qituvchi orasidagi dialogik shakldagi faoliyatdan iborat bo‘lib, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Suhbat jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o‘siradi, bilish jarayonini faollashtiradi, musiqa san’ati haqidagi bilim doirasini boyitib rivojlantiradi.

Ta’limning og‘zaki metodlari-cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish, qo‘sishiq o‘rganish va musiqiy ritmik harakatlarni bajarish jarayonida ham amalga oshiriladi. Masalan, bolalar musiqa cholg‘ularida jo‘r bo‘lishni o‘rgatishda o‘qituvchi bolalarga qo‘l harakatlarining yengil bo‘lishini; ritmik, raqs harakatlarini bajarishda esa musiqiy ritmik sezgirlik holatlarini nazorat qilib borishni; qo‘sishiq kuylashda ovozning tozaligi, yengil, mayin sadolanishini ta’minalashning muhimligini tushuntirib beradi. Musiqiy faoliyatlardagi og‘zaki va ko‘rgazmali metodlarning bunday uyg‘unlashuvi o‘quvchilarning bolalar musiqa asboblarida jo‘r bo‘lish mahorati, ularda vokal-xor ko‘nikmalarini egallashda musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini shakllanishida muhim shart-sharoitlar yaratadi.

Hikoya - bu o‘qituvchining musiqa asari haqidagi jonli, obrazli va emotsiyal-yorqin hikoyaviy bayonidan iboratdir. Hikoya- metod sifatida qisqa, obrazli va qiziqarli bo‘lib, undagi bayon mazmunidan asosiy ko‘zlanadigan maqsad – o‘quvchilarni musiqiy asar badiiy obrazini tasavvur etishga va uni hissiy idrok etishga erishishlaridan iboratdir. Qiziqarli va obrazli, qisqa hikoya bolalar qalbida o‘rganiladigan asarga nisbatan qiziqish va muhabbat tuyg‘ularini uyg‘ota oladi. Masalan, bolalar bugungi darsda tanishtirilayotgan asar bilan ilgari ham qisman tanishligi, ammo uning badiiylik jihatini anglab, idrok eta olmaganligi bois, o‘zlashtirishga befarqroq munosabatda ham bo‘lishi mumkin. Bunday holatda o‘qituvchining obrazli va qiziqarli hikoyasi vaziyatni tubdan o‘zgartiradi. Qisqacha, ammo qiziqarli va obrazli hikoya amaliy mashg‘ulotning samaradorligini ta’minalashi uchun quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiq:

- musiqiy asarning yaratilish tarixi, sabablari muallifning ijod uslubini hikoya metodi asosida qiziqarli bayon etish mumkin. Ma’lumotlar aniq va tarixiy hujjatli dalil hamda faktlar asosida bo‘lishi kerak;

- o‘quvchilarni musiqali drama, dostonlar, opera, balet kabi yirik asarlar badiiy obrazlarini ko‘z oldida gavdalantirish uchun

o‘rganiladigan asarning syujetli mazmuni qisqacha tarzda hikoya qilib beriladi. Bunda o‘qituvchi hikoyasi bolalarni asarning musiqiy badiiy obraziga olib kirishga vosita bo‘lib yordam beradi;

- donishmand-allomalar hayotida va ijodida musiqa ilmi, san’ati va madaniyatining o‘rni va ahamiyatini bayon etishda ular yaratgan musiqa ta’limotlari, nazariyalari, tarixiy manbalarning mazmun-mohiyati bilan tanishtirish maqsadga muvofiq. Jumladan, musiqa nazariyasi tarixi va ijrochiligi bayonida “Abu Nasr Farobiy va musiqa”, musiqiy-nazariy ta’limot, musiqaning inson jismoniy va ma’naviy kamoloti uchun zaruriyatini tasdiqlashda “Abu Ali ibn Sinoning musiqiy-nazariy ta’limotlari”, “Musiqa va tibbiyot”, milliy musiqa merosimizning asosi bo‘lgan musiqiy turkum haqida “Abdurauf .Fitratning “Shashmaqom” shunoslik, musiqa ta’limi sohasidagi ilmi va ijodiy faoliyati”, “Musiqa cholg‘ularining tarixi” ga doir tarixiy manbalardan samarali foydalanish kerak.

Musiqa ta’limi amaliyotida suhbat metodining ikki turidan keng foydalaniladi. Bular hikoya-suhbat va suhbat-dialog. Hikoya-suhbat vositasida o‘qituvchi o‘quvchilarning musiqa san’ati haqida to‘g‘ri fikr-mulohaza yuritishga va xulosalar chiqarishga erishadi.

Dialogik-suhbat metodi esa ko‘proq o‘quvchilarni yetakchilik faoliyatiga undaydi. O‘qituvchi esa jarayonni pedagogik boshqarib boradi. O‘quvchilarni o‘quv materialini samarali o‘zlashtirishga undaydi. Har ikkala holatda ham o‘qituvchining metodni to‘g‘ri tanlab muhokama uchun o‘quvchilarga murojaat qilib beradigan savollari muhim rol o‘ynaydi. Shuni ham unutmaslik lozimki, suhbatlar jarayoni tahlil etilayotgan musiqa asari uning jarang sochishi bilan uzviy bog‘lanib olib borilishi shart. Bu esa suhbatning qiziqarli va asarning xotirada muhrlab qolishini ta’minlaydi.

Musiqa darslarida tushuntirish-ilmiy isbotlash metodi ham ishlataladi. U musiqa savodxonligi, musiqa asarlarining tuzilishi va rivojlanishi jarayonini idrok etishda tatbiq etiladi.

### **Musiqa ta’limida ko‘rgazmali ta’lim metodlari**

Ko‘rsatmalilik musiqani o‘qitishda muhim vosita hisoblanib, fanning tabiatini va xususiyatiga xosdir. O‘qituvchining cholg‘u sozini chalishdagi qo‘l harakatlari, dirijorlik usullari, chehra ifodasi ko‘rgazmalilikni ta’minlashda yordamchi vositadir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga asar mavzusiga mos tatbiq etilgan ko‘rgazmali

vositalar o‘quv materialining badiiy mazmunini to‘laqonli tasavvur etib idrok qilinishiga yordam beradi. Ayniqsa, doskaga ohangning grafik chiziqlar bilan ifodalanishi, klaviatura orqali musiqa tovushlarini chalib ko‘rsatish dastlabki idrok malakalarini shakllanishiga muhim rol o‘ynaydi. O‘rta sinflar musiqa ta’limida esa ko‘rgazmalilik nota yozuvlari orqali aniq tizimga o‘tiladi.

Musiqa ta’limida ko‘rgazmali o‘qitish metodlari alohida o‘rin egallaydi. Ma’lumki, musiqa - melodik va garmonik tovushlar harakatlaridan iborat san’atdir. Uni faqat tinglab, idrok etiladi. Bunda ko‘rgazma sifatida ifodalangan nota yozuvlari, jadvallar, o‘qituvchining dirijorlik harakatlari va boshqalar musiqani to‘liq idrok etish yoki uni ijro etish uchun yordam beradi.

O‘qituvchilarning amalda asosan dirijorlik, nota cho‘zimlarini , asar o‘lchovini taktlash, chalib ko‘rsatish, raqs, o‘yin, kuy harakatini, ritmik suratini doskaga grafik chiziqlar yordamida ifodalash singari ko‘rgazmali vositalardan foydalaniladi.

### **Musiqa ta’limida amaliy metodlar**

Amaliy metodlar o‘quvchilarda vokal-xor malakalari shakllantirish, musiqaning tuzilishi va badiiy ifoda vositalarini tahlil etish, uning janr va shaklini aniqlash hamda nota yozuvini o‘zlashtirish jarayonlarida malaka - ko‘nikmalarini rivojlantirishda qo‘llaniladi. Ovoz sozlash uchun kuylanadigan vokal-xor mashqlari va qo‘shiq ijrosi mashg‘ulotining muhim amaliy vositasi hisoblanadi.

Amaliy metodlar tasnifida mashq metodi ham ahamiyatli bo‘lib, undan kuylash qoida-tartiblari, malakalarini rivojlantirishda, nota yozuvini o‘rganishda ko‘proq foydalaniladi. Shuningdek, mashg‘ulotning boshqa faoliyat jarayonlarida , jumladan, kuylashda nafasi to‘g‘ri olib, ovoz hosil qilish, talaffuz, soz, ansambl malakalarini rivojlantirishga doir uslublarni qo‘llashda-dirijorlik, takrorlab kuylash, taqqoslash, kuylab ko‘rsatish, vokal mashqlarini amalga oshirishda tatbiq etiladi.

O‘yin - asosan boshlang‘ich sinflarda foydalanilganda samarali natija beradigan, amaliyotda keng qo‘llaniladigan metod. .Musiqa darsliklari hamda qo‘llanmalarda, o‘yin va uning elementlaridan keng joriy etiladi. Jumladan, mualliflar Nadim Norxo‘jaev va Gulnora G‘aniyevalarning “Musiqa” 1-sinf darsligi (Toshkent 2021y.) da “Oq terakmi, ko‘k terak”, (X. Qayumov she’ri, A. Mansurov musiqasi. 18-

bet), “Quyonim” (o‘zbek xalq bolalar o‘yini. 19-bet) musiqali o‘yinlari berilgan. O‘quvchilarga qo‘sishq aytib o‘ynaladigan o‘yinlarga – “musiqali o‘yinlar”, - deb atalashi tushuntirilib, bu musiqali o‘yinlar o‘quvchilar ishtirokida amaliy ijro etiladi.

Musiqiy tarbiya metodlari –o‘qituvchi bilan o‘quvchi amaliy faoliyatida juda muhim o‘rin egallaydi. Metodlarning xilma-xilligi-musiqa san’atining xususiyati, o‘quvchilar musiqiy faoliyatining serqirraligi, bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi hamda o‘ziga xosligi bilan belgilanadi.

Bilimlarni muammoli bayon qilish o‘quvchi musiqiy faoliyatini uyushtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi musiqiy faoliyatini uyushtirish deganda, ular tomonidan bilimlarni mustaqil egallah va bu bilimlarni malaka hamda ko‘nikmaga aylantirish jarayonini tushuniladi. O‘quvchilarning mustaqil bilim olishi o‘qituvchi rahbarligi, nazorati va pedagogik boshqaruvida amalgalash oshirish maqsadga muvofiq, albatta.

O‘quvchilarda milliy musiqa asboblari haqida tushunchalarni shakllantirishda bir-biridan ajratib olishda musiqa savodxonligi, bir qo‘sishni yoki muayyam kuy ijrosini kuzatib tinglashda musiqiy obrazni his etishda qaysi bir asbobning imkoniyatlari kengligini aniqlashda doir savol-topshiriqlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Taqqoslash–musiqa ta’limida ancha keng tarqalgan metodlardan biri bo‘lib, o‘quvchilar badiiy qiziqishini oshirishda samarali yordam beradi. O‘quvchilar tomonidan musiqiy-ijodiy topshiriqlarni bajarish albatta, musiqiy tahlilni talab etadi. Bu esa o‘quvchilarni asar jaranglashi davomida badiiy vositalar yordamida ohangdagi sodir bo‘ladigan ayrim o‘zgarishlarini va musiqiy obrazlar rivojlanishini ziyraklik bilan kuzatib, anglab, tinglab borish jarayonida olgan badiiy taassurotlarini ifodalashga va asarga tahlil asosida munosib baho berish kompetensiyalariga ega bo‘ladi.

Kichik o‘smir yoshda musiqa asarlari janrlaridagi xususiyatlarni, o‘ziga xos jihatlarni aniqlab qiyoslash malakalarini egallah o‘quvchilarga musiqiy qiziqishni rivojlaniradi. Masalan: Sahnaviy musiqa asarlari- balet va raqs san’ati ( U-sinf, 111-bob) Balet san’atining o‘ziga xos jihatlari, o‘zbek raqs san’ati, o‘zbek raqs mакtablarining rivojlanishini qiyoslanishi, ular orasidagi o‘zaro umumiylig masalalari, shuningdek, o‘ziga xos xususiyatlarini ham anglaydilar.

A. Mansurovning “Sharq afsonasi baleti” dan parchalar tomosha qilib, o‘zbek raqs san’ati haqida nazariy ma’lumotlar olishib, bastakor M. Mirzayevning “Bahor valsi” asarining raqs kuyini tinglashadi. Vals musiqaning nafis, to‘lqinli, yengil, harakatli aylanuvchan musiqiy xususiyatini his etib, idrok qilishga erishadilar.

Yuqorida keltirilgan misollardan shuni tushunish kerakki, musiqa tarbiyasi metodlar ohang, fikr, so‘z, nutq bilan uyg‘un ravishda tatbiq etilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Og‘zaki metodlar (hikoya, suhbat, tushuntirish) esa asar mazmunini ochishga yordam beradi, uning ijro uslubini anglashga, o‘quvchilarda estetik hissiyotni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Shunday qilib, musiqa darslarida ta’limning samarali metodlaridan unumli foydalanish quyidagi ijobiy natijalarda namoyon bo‘ladi:

1. O‘quvchilarning musiqiy o‘quv materiallariga nisbatan qiziqishi kuchayadi, o‘quv-biluv faoliyatları faollashadi.
2. O‘quvchilarda musiqa asarlari haqida munosabat bildirishga, ularni tahlil etishga intilish va qiziqish shakllanadi.
3. Musiqani o‘qitishning amaliy jihatni rivoj topib, o‘quvchilarni mustaqil ijodiy faoliyatga puxta tayyorlash imkoniyatlari shakllanadi.

### ***Nazorat uchun savollar:***

1. *Metod haqida tushuncha bering.*
2. *Amaliyotda qo‘llaniladigan metodlarni tasniflang, ularning ta’limiy ahamiyatini izohlang.*
3. *Metodlarning guruhlarga bo‘linishini qanday tushunasiz?.*
4. *Musiqa o‘qitishning qulay metodlari va ulardan foydalanish usullarini bayon qiling.*
5. *Musiqa o‘qitishning og‘zaki metodlariga tavsif bering.*
6. *Ko‘rgazmali o‘qitish metodlari xususida fikringizni bayon eting.*
7. *Amaliy metodlarning ahamiyati nimada?*

## **6 - MAVZU. MUSIQA IDROKI VA TINGLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYA VA USLUBLARI**

*Tayanch so‘zlar: musiqa dasturi tamoyillari, musiqa idroki, musiqiy-pedagogik tahlil, tinglash madaniyati, jonli ijro, oddiy tahlil, musiqiy o‘quv qobiliyati, ifoda vositalari, kirish so‘zi.*

### **6.1. Musiqa tinglash madaniyati va qobiliyatlarini shakllantirish texnologiya va uslublari**

Ta’lim texnologiyasi - bu o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchilarga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularga shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining mohiyati – o‘quvchi-yoshlar ma’naviyatini shakllantirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, bilim olishga qiziqishlarini uyg‘otish, pirovardida faolligini oshirish bilan belgilanadi.

Zero, “Butun hayot davomida ta’lim olish” prinsipi va kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik mahorat takomillashtirilmoqda. Endilikda asosiy maqsad - o‘quvchi faqat egallangan bilim va ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishi bilan emas, balki undan mustaqil ravishda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olishi va hayoti davomidagi turli ijtimoiy munosabatlarda oqilona foydalana olishi joiz<sup>1</sup>.

Ta’lim-tarbiya jarayonida metodika iborasi bilan birga pedagogik texnologiya atamasi ham keng qo‘llaniladi. Albatta, bu atamalarning o‘xshash va farqli tomonlari mavjud. Umumiy o‘xshashligi – har ikkala atama ham ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish jarayonini ifodalaydi. Metodika deganda ta’lim jarayonini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar yig‘indisi tushunilsa, pedagogik texnologiyaga o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va o‘quvda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar yig‘indisi sifatida qaraladi.

Shuningdek, pedagogik texnologiyaga metodikaning o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2020 yil 24- yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida so‘zlagan nutqidan. //“Xalq so‘zi/. 2020 yil. 25-yanvar.

sohasi sifatida qarash mumkin. Pedagogik texnologiyalar ta’lim qanday qilib, qanday usullar bilan amalga oshirilsa, samarali natija bo‘ladi, degan savolga javob beradi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorligi va faoliyati turadi.

Umumiyl nomi “pedagogik texnologiya”, ilmiy yo‘nalishi “ta’lim texnologiyasi”, amaliy yo‘nalishi esa “o‘qitish texnologiyasi” atamalari zaminida o‘quvchilarga bilim berish bilan ularni tarbiyalash ishlarini faollashtirish masalasi yotadi.

Ta’lim amaliyotida pedagogik texnologiyani qo‘llash dars jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligini hamda uning ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘quvchi va o‘qituvchining doimiy do’stona munosabatda bo‘lishi dars samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning bilim darajasini kengaytirishga assosiy omil bo‘ladi.

Hozirgi kunda musiqa ta’limi samaradorligini oshirishda zamонавиyl ilg‘or pedagogik texnologiyalarning o‘rni beqiyos. Ammo, dars metodik jihatdan qanchalik yuqori saviyada tashkil etilgan bo‘lmасин, o‘рганilayotgan musiqa asari o‘qituvchining samimiy va oddiy, tushunarli hamda ravon nutqi orqali ochib berilmasa, pedagogik va axborot texnologiyalari, interfaol usullar ham kutilgan natijani berishi qiyin.

Yuqоридаги fikrlar asosida ta’kidlash lozimki, oliy ta’lim muassasasida tahsil olgan har bir bo‘lajak o‘qituvchi, albatta o‘zbek adabiy tilidan ma’lumot va ilmiy bilimga ega bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi musiqa asari to‘g‘risidagi o‘z fikr-tushuncha, nuqtanazarini adabiy tilda erkin va to‘g‘ri, ravon ifodalay olishi, adabiy nutq ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.

Musiqa madaniyati ta’limining sifati unda qo‘llanilgan texnologiya bilan emas, o‘quvchilar o‘zlashtirgan nazariy bilim, ko‘nikma va malaka Davlat ta’lim standarti talablariga qanchalik mos kelishi-kelmasligi bilan o‘lchanadi.

O‘quvchilarda talab darajasidagi bilim, ko‘nikma malakani shakllantirish musiqa madaniyati fani o‘qituvchisining musiqa nazariyasi va tarixiga oid bilim, malakalarini yanada chuqurlashtirish va mustahkamlashni taqozo etadi. Bu masalaga alohida e’tibor qaratish – oliy pedagogik-musiqiy ta’lim muassasasida o‘qishini maqsadga muvofiq tashkil etishning muhim omili, dolzarb vazifasidir.

Bu masalaga alohida e'tibor qaratish, shuningdek, o'qituvchilarning malaka oshirish kursidagi o'qishini maqsadga muvofiq tashkil etishni taqozo etadi. Bu vazifa musiqa o'qituvchisining zamonaviy pedagogik texnologiya, interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallashi bilan birga amalga oshirilsa, uning amaliyotchi-pedagogga xos bo'lgan musiqa nazariyoti, adabiyoti va tarixining puxta bilimdoni bo'lishini ham ta'minlaydi. Bu esa musiqa ta'limi sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ayrim muammoli holatlarning oldini olishga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Musiqa idroki— shug'ullaniladigan barcha faoliyatlar uchun muhim bo'lib, dars jarayonining asosiy omil va bosqichi sanaladi. Shu boisdan musiqani tinglash, undan zavqlanish, qo'shiq kuylash, musiqa savodxonligiga doir xususiyatlarni anglab olish, musiqa ostida turli ritmik harakatlarni bajarish, chapak va oddiy cholg'u asboblarida ritmik jo'r bo'lish uchun belgilangan musiqa asarlarini idrok etib borish kabi faoliyatlarni bajarish ta'lim maqsadlariga muvofiqli.

Musiqa idroki darsda musiqa asarlarini maxsus musiqa tinglash, anglab uning xarakteriga muvofiq turli faoliyatlarni amaliy bajarish bilan belgilanadi. Musiqa tinglash va uni tahlil etish - darsda asosiy musiqiy faoliyat hisoblanadi, chunki bu jarayonda musiqaning jaranglashi hissiy idrok etilib, uning tabiatni, xarakteri va mazmuni o'quvchilar tomonidan ongli ravishda o'zlashtiriladi. Tinglangan va o'rganilgan har bir musiqa asari asosida muayyan, his - tuyg'u va badiiy fikr aks ettiriladi.

Biz musiqa madaniyati darsining qaysi faoliyatini olmaylik, u avvalo musiqani tinglab, uni idrok etishdan boshlanadi va o'quvchining ruhiyatiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham musiqa tinglash va tahlil etish zamonaviy darsning yetakchi faoliyati sifatida e'tirof etiladi.

Darsda tinglanadigan va tahlil etiladigan har bir musiqiy asar badiiy - g'oyaviy mazmuni jihatdan mashg'ulot mazmuniga bogliq bo'ladi va ilmiyliq, davomiylilik, izchillik kabi ta'lim tamoyillariga asoslanadi.

Musiqa tinglash va uni tahlil etish bir necha bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

1. O'quvchilar e'tiborini musiqiy asarga jalb qilishga qaratilgan o'qituvchining kirish so'zi.

2. O‘qituvchi jonli ijrosida yoki texnik-axborot kommunikatsiya vositalarida asarni tinglashni tashkil etish.

3. Asarni o‘quvchilar bilan suhbat suhbat yo‘li bilan musiqiy va badiiy- g‘oyaviy jihatdan oddiy musiqiy-nazariy hamda pedagogik jihatdan tahlil qilish.

4. Asarni to‘liqligicha takror qayta tinglash.

Musiqa tinglash va tahlil etish faoliyatida o‘qituvchi tomonidan turli metod va usullardan foydalaniladi. Ta’lim jarayonida amalda ko‘p qo‘llaniladigan metodlar quyidagilar:

1. Ko‘rgazmali metod - O‘qituvchi tomonidan asarning jonli badiiy ijrosi, rasmlar va ko‘rgazmali vositalar, bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish, ritmik harakatlari bajariladi.

2. Amaliy metod - o‘quvchilar musiqiy asarga qiziqishini oshirib, ularni hayotiy voqealar bilan bog‘lab tushuntirish va musiqiy asarga munosabati faollashtiriladi.

3. Taqqoslash metodi - bunda asarlarning ijrochilik xususiyatlari, sur’atlari, mazmuni taqqoslanadi. O‘quvchilarda musiqiy qiziqish, did va ehtiyoj shakllantiriladi.

4. Og‘zaki metodlar:- o‘qituvchi tinglanadigan asar mazmunini bolalar hayotiga bog‘lab yoritadi. Asar mazmuniga qarab mualliflari, yaratilish tarixi haqida qiziqarli hikoya qilib beradi.

Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilar tomonidan musiqani idrok etish jarayoni ikki holatda amalga oshadi. Birinchi holatda ma’lum asar tinglanib, idrok etiladi va uning badiiy tavsiflari dars mavzuiga doir oddiy musiqiy-pedagogik tahlil etiladi. Tinglash orqali asarni tushunish hamda ongli idrok etish asarning musiqiy xususiyatlari bo‘lgan janri, tuzilishi, ifoda vositalari, ijrochiligi va badiiy mazmuni haqida muayyan bilimlarga ega bo‘linadi.

Ikkinci holatda musiqa asarlari tinglanib (idrok etilib), so‘ng u yoki bu faoliyati ko‘proq kuylash orqali o‘rganiladi. Uning badiiy mazmun xususiyatlari amaliy faoliyatda ifodalanadi. Masalan, o‘rganiladigan qo‘sish avval o‘qituvchi ijrosida bir-ikki marta tinglanadi, asar xususiyati haqida suhbat qilinadi, so‘ng o‘rganishga kirishiladi, raqs musiqasi avval tinglanadi, kuy tavsiflari anglab olingandan so‘ng, raqs harakatlarini o‘rganishga kirishiladi. Ko‘pincha asar bir necha faoliyat uygunligida tinglash, kuylash, raqs harakati va boshqalar o‘rganiladi. Bunday mashg‘ulot usuli asarni

puxta o‘rganish barobarida malakalarning har tomonlama rivojlanishi uchun imkon yaratadi.

Shuni alohida e’tiborga olish zarurki, musiqa idroki (tinglash) va musiqa savodxonligi faoliyati o‘zaro uzviy bog‘lanish bilan qolgan barcha faoliyatlar amaliyotiga yetakchilik qiladi.

Tinglash va kuylash o‘quv materiallari musiqiy ta’lim mazmunini tashkil etadi. Ushbu faoliyatlar vositasida o‘quv materiallarini o‘rganish bilan birga, cholg‘uchilik, musiqiy-ritmik harakatlar hamda ijodkorlik faoliyatlari ham har tomonlama o‘zlashtirish va musiqiy tavsiflarini ushbu faoliyatlar vositasida ifodalash imkoniyatlari yaratiladi.

### **Musiqa madaniyati fani bo‘yicha o‘quvchilar faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:**

#### **Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi**

Musiqa tinglash va tahlil etish faoliyatiga – xor san’atini idrok etish, mustaqil ishslashga ijodiy yondashib, kreativ fikrlash, yakka va jamoa bilan hamkorlikda ijodiy faoliyat yuritish, o‘z mehnatidan zavqlana olish, mas’uliyatlilik va ishchanlik, faollik sifatlarini shakllantirish, tanqidiy fikrlash, g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirish

## **6.2. Musiqa asarini tinglashni tashkil etish texnologiyasi**

Musiqiy faoliyatlar, jumladan musiqa asarlarini tinglash jarayonini tashkil etish va uni pedagogik boshqarish musiqa madaniyati o‘qituvchisidan kasbiy mahoratni talab etadi.

Musiqiy ta’limni mavzuiy rejorashtirishdan kelib chiqib, asarning musiqaviy tuzilishi, xarakteri, ifoda vositalari, hayotdagi o‘rni jihatidan o‘rganib o‘quvchilarni musiqa tinglash faoliyati quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Mazkur ishlar jarayonida o‘quvchilarda musiqa haqida bilim va tushunchalar, malaka, ko‘nikmalar hamda umumlashma badiiy taassurotlar, tajribalar hosil bo‘lib boradi.

Tahlil davomida o‘qituvchi tomonidan musiqaning tuzilishiga doir o‘rgatiladigan ijro sur’ati, xarakteri, ifoda vositalari, ijrochilari, cholg‘u asboblari turlari, bastakorlari kabi yangi tushuncha va atamalar o‘zlashtirilib, keyingi darslar jarayonida qo‘llanilib boriladi.

O‘rganilgan ayrim asarlar yil davomida vaqtiga vaqtiga bilan takror tinglanadi.

Shuni ham hisobga olish joizki, olti-yetti yoshli bolalarning diqqat-e’tibori hali barqaror darajada emasligi tufayli ular faqat qisqa muddatli asarni to‘laligicha idrok etadilar. Shuning uchun dastur va qo‘llanma mazmuni kichik pyesa va ixcham kuy-qo‘sishlardan boshlanadi. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarga musiqani diqqat va mehr bilan tinglasalar-gina uni aniq idrok etish mumkinligini tushuntirish va bolalarda musiqa shinavandaligini tarbiyalab borishdan iboratdir.

Davlat ta’lim standartlariga asosan, musiqa madaniyati o‘quv fanining musiqa tinglash mazmuniga bo‘lgan minimum talablar nazariy va amaliy faoliyat majmuasidan tashkil topib, o‘quvchilarning musiqa tinglash bo‘yicha quyidagi mezonga javob berishi lozim:

Tinglash jarayonida yakknavoz va jo‘rnavozlikni ajrata bilish, ansambl va orkestr ijrosini farqlay olish, ovozlar va sozlar tembrini ajratib bilish, o‘zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash asosida musiqiy did, idrok va musiqiy ehtiyojni yanada rivojlantirishga erishish.

Shunday qilib, musiqa madaniyati darslarida tinglash faoliyati—o‘quvchilarda musiqa madaniyatining asoslarini shakllantirishning omili sifatida muhim ahamiyatga egadir. Shunga ko‘ra o‘qituvchi o‘quvchilarga musiqa tinglash xususiyatlarini anglash bolalar umumiy musiqiy rivojlanishlari uchun nihoyatda muhimligini tushuntirishi lozim. Musiqa tinglash faoliyatini tashkil etishda mas’uliyat bilan yondashib faoliyat bosqichini metodik jihatdan puxta, samarali tashkil etib, pedagogik boshqarishga jiddiy e’tibor berishi lozimdir.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. *Musiqa idroki deganda nima tushuniladi?*
2. *Musiqa tinglash- yetakchi faoliyat sifatidagi ahamiyati nimadan iborat?*
3. *Musiqa tinglash faoliyati bosqichlarini tavsiflang.*
4. *Musiqa tinglash faoliyatining boshqa bosqichlar bilan o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlashning mohiyati nimada?*
5. *Musiqa tinglash faoliyatining o‘quvchilarda musiqa madaniyati asoslarini tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyatini izohlang.*

## **7- MAVZU. VOKAL- XOR IJROCHILIGI MADANIYATI ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH**

**Tayanch so‘zlar:** vokal-xor malakalari, ovoz pardalari, nafas organlari, mutatsiya davri, ovoz imkoniyatlari, o‘quvchining psixologik va fiziologik jihatlari, ovoz partiyasini belgilash, umumiy musiqiy ta’lim, bolalar ovozi xususiyatlari, qo‘sinq o‘rgatish mas’uliyati, ovoz tarbiyasi

### **7.1. Vokal-xor ijrochiligi faoliyatining xarakteristikasi**

O‘qituvchining musiqa madaniyati darsiga vokal-xor faoliyatiga munosabati ishining umumiy natijasiga ta’sir etadi, albatta. Kuylash-ijrochilikning sevimli, ommaviy turlaridan biridir. Zero, Respublikamiz rahbariyati ommani, ayniqlsa, yosh avlodning ma’naviyat tarbiyasida musiqa, qo‘sinq san’atining beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, diyormizda har yili turli darajadagi ko‘rik-tanlovlar, festivallarni muntazam o‘tkazib kelmoqda.

Ayni paytda ta’kidlab o‘tish joizki, bunda ommaviy kuylash, ijrochilik san’ati ham rivojlanib bormoqda.

Xor bo‘lib kuylash – jamoaviy ijrochilik faoliyatining shakllaridan biri. U maktab o‘quvchilarining kuylash madaniyatini rivojlantirishda, ularning umumiy va musiqiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, ma’naviy kamolga erishishlarida muhim ahamiyatga egadir.

Musiqa madaniyati fanidan Davlat ta’lim standartiga asosan jamoa bo‘lib kuylash faoliyati o‘quvchilarini musiqiy o‘quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurligi ta’kidlangan. Sinfda jamoa bo‘lib kuylash jarayonida o‘quvchi o‘z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozni, tengdoshlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo‘rovozlik qilishga intiladi. O‘zbek xalq qo‘sishlari, bastakorlar va kompozitorlar musiqa asarlari, jahon hamda qardosh xalqlari qo‘sishlari, mahalliy musiqa ijrochilik uslublariga mansub folklor qo‘sishlari, maqom aytim yo’llaridan namunalarni o‘zlashtiradi.

Badiiy ijroni ta’minlash o‘quvchilar musiqa madaniyati asoslarini tarbiyalashda alohida o‘rin tutadi. Qo‘sishlarni badiiy ifodali ijro etish faoliyatiga alohida e’tibor berish zarur. Qo‘sinq o‘rgatishda o‘qituvchi

o‘quvchilarning ijrochilik sifati va darajasiga jiddiy qarashi barobarida jamoa bo‘lib kuylash faoliyati ommaviylik kasb etishi va bu jarayon amaliy jihatdan barchada tarbiyalanishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Kuylash - fiziologik-psixologik jarayon bo‘lib, bevosita ovoz hosil bo‘lish jarayoni bilan boshlanadi. Fiziologiya fanidan ma’lumki, ovoz apparati uch qismdan iborat: 1) nafas organlari (o‘pka, bronx, traxeya-tomoqning nafas yo‘li), 2) hiqildoq (ovozi pardalari joylashgan qism), 3) rezonatorlar (yutqin, og‘iz va burun).

Ovoz apparatining har bir qismi bir-biri bilan chambarchas bog‘langan. Tovush quyidagicha hosil qilinadi: o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi bronh, traxeya orqali tomoqqa keladi va u yerda ovoz pardalari to‘sinqiga uchraydi. Havo bosimi ta’sirida ovoz pardalari harakatga kiradi, ularning takroriy ochilib yopilishi va tebranishi natijasida havo to‘lqinlari- ovoz hosil qiladi.

Taniqli san’atkor-pedagog O‘lmas Rasulov xonandalik o‘qitish metodikasida “Kuylash - nafas olishdan boshlanadi. O‘quvchi qo‘shiq kuylash, ovozni chiniqtiruvchi va tiniqtiruvchi mashqlardan oldin nafas oladi. Biroq, bu jarayonda nafasni to‘g‘ri olish o‘ta muhimdir. To‘g‘ri nafas olish jarayonida quyidagi holatlarga o‘qituvchi qattiq e’tibor berishi lozim: 1. Nafasni ohista olish. 2. Nafas olganda yelkalar ko‘tarilmasligi shart. 3. Nafasni shiddat (kuch) bilan olmaslik. 4. Nafas olganda talaba o‘zini nimadandir zavqlanganday his etishi” kabi holatlarni alohida qayd etadi<sup>1</sup>.

Tovush hosil qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan holdagi odatdagি nafas olish jarayonida ovoz pardalari sokin holatda bo‘lib, havo uchburchak shaklidagi ovoz teshigidan erkin o‘tadi. Tovush hosil bo‘lishida ovoz teshigi torayadi. Tovush baland pardalarga ko‘tarilgan sari ovoz teshigi torayib boradi va eng yuqori parda tovushlariga yetganda teshik berkiladi. Xonandaning ovozi kuchi, tembri va balandligi bilan-gina emas, balki diapazoni, ya’ni eng past tovushdan eng baland tovush oralig‘idagi hajmi bilan ham xarakterlidir. Registr ovoz diapazonining bir qismi bo‘lib, tembr va tovush yo‘nalishining bir-biri bilan moyilligiga asoslanib aniqlanadi

---

<sup>1</sup> Rasulov O‘. An‘anaviy xonandalik o‘qitish metodikasi. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent. 2006 yil. – B. 22.

## **7.2. Bolalar ovozi va uni rivojlantirish bosqichlari**

Kuylash faoliyatini o‘quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish- sog‘lom ovoz apparatini rivojlanishiga yordam beradi.

Umumiy musiqiy ta’limda o‘qituvchi ishining muvaffaqiyati ko‘pincha u jamoa bo‘lib kuylashning tarbiyaviy ahamiyatini qay darajada to‘g‘ri anglab olishi, o‘quvchilarda kuylash malakalarini rivojlantirish metod va usullarini, bolalar ovoz xususiyatlari, imkoniyatlarini bilish darjasni, asarni o‘zlashtirish bo‘yicha metodik ishlarni tashkil etish mahorati bilan belgilanadi.

Mutatsiya-bolalar voyaga yetayotgan davrdagi ovoz o‘zgarishi (ovozning rasta bo‘lishidir. Mutatsiya davri odatda bolalarning 12-13 yoshida boshlanib, 16-17 yoshigacha, ba’zan undan katta yoshgacha ham davom etishi mumkin. Bunday davrda bolalar ovoziga ortiqcha yuklama bermaslik, ovoz tarbiyasiga diqqat hamda ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishlikni talab qiladi.

O‘g‘il bolalarda halqum tez o‘sadi, ovoz pardalari uzunlashadi, ovoz pasayib kichik oktava tovushlariga o‘ta boshlaydi. Ba’zi vaqtida mutatsiya davri og‘ir va har xil holatda o‘tishi sababli mashg‘ulotlarni vaqtincha to‘xtatish maqsadga muvofiq bo‘lib qoladi. O‘g‘il bolalar tomonda ovoz boyamlari yo‘g‘onlashadi, qizaradi, qirg‘oqlarida ba’zan shishlar paydo bo‘ladi. Natijada diapozon qisqarib, yuqori pardalarni kuylash og‘irlashadi. Tez charchash holatlari ro‘y beradi.

Biroq, qiz bolalarda esa mutatsiya osoyishta, asoratsiz o‘tadi. Lekin shunga qaramay, qizlarning ovozini ham ehtiyyot qilish zarur. Mutatsiya davrining yengil o‘tishiga uchun albatta, xonandalik rejimiga rioya qilish kerak.

Mutatsiya davrida o‘g‘il va qiz bolalarga qo‘sinq o‘rgatishda mas’uliyat bilan yondashib tanlangan qo‘sinqlar bolalarning ovoz imkoniyatlariga mos tushishi va dars davomida o‘qituvchi ovozlarni asrab-avaylagan holda ish olib borishi lozim. Darsning assosiy qismini qo‘sinq o‘rgatishga sarf etib ovozlarni charchatib qo‘ymaslik lozim. Ovozlarni partiyalarga aniq ajratib, ikki ovozda qo‘sinq ayttirish ovoz tarbiyasining muhim vositasidir.

Milliy o‘quv dasturida musiqa madaniyati fanidan 1-4 sinflarda o‘quvchilar jamoa bo‘lib kuylashni o‘rganishi uchun tavsiya etilgan qo‘sinqlar soni quyidagicha:

1 sinfda - 18 ta

2 sinfda - 17 ta

3 sinfda - 17 ta

4 sinfda - 19 ta

Umumta'lim maktablari musiqa darslarida har bir sinf o'quvchilari xor jamoasi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bu faoliyat, ya'ni butun bir sinf o'quvchilarini yaxlit qamrab oladi. O'quvchilarni xor bo'lib qo'shiq kuylashga o'rgatish ularda vokal-xor malakalarini shakllantirish musiqa darsining eng asosiy vazifalaridan sanaladi.

Jamoaviy kuylash faoliyatini samarali tashkil etish uchun vokal-xor malakalarini o'zlashtirish muhim bo'lib, bu malakalarsiz xor bo'lib kuylashni tasavvur qilish qiyin.

Kuylashga o'rgatish jarayoni o'quvchilardan vokal-xor malakalarini qunt, sabr-bardosh bilan egallab borishni va zurur ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi.

Jamoaviy ijrochilik faoliyatida o'quvchilarga vokal-xor mashqlarini bajarish uchun quyidagilar amalga oshirilishi lozim.

1. Oddiy, elementar kuylashni o'rghanishga erishish.
2. Oddiy mashqlarni mustahkamlash va rivojlantirib borish.
3. Hosil bo'lgan kuylash ko'nikmasidan jamoaviy aytim faoliyatida samarali foydalanish.

O'quvchilar tomonidan vokal-xor malakalariga rioya qilib kuylash aytim jamoasi uchun murakkab ishdir. Buni har bir mashg'ulotda davomli uzviylik tamoyiliga rioya qilgan holda amalga oshirib borish lozim. Vokal-xor malakalarini shakllantirish uchun quyidagi qoidalar tavsiya qilinadi:

1. Kuylash jarayonida to'g'ri o'tirish va turish.
2. To'g'ri nafas olish va uni jumla oxirigacha yetkazish.
3. Ohangdoshlikni, ansambllikni his etib kuylashga erishish.
4. Dirijorlik ishoralariga rioya qilib, to'g'ri tushunib kuylash.
5. Kuylayotgan o'quvchilarni tinglab, o'z ovozini ularning ovoziga moslashtirib kuylash.
6. Kuylayotgan ohangni eshitib, his qilib dastlab o'qituvchi ovozini tinglab unga ergashish.

Shunisi ahamiyatlici, xor ijrochiliga tayyorgarlik ishlari, qolaversa, barcha o'quv-tarbiyaviy ishlari o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Har bir musiqiy asar o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash imkoniyatiga ega.

Asar mazmunini ochishda, umuman, g‘oyaviy tarbiyaviy ish olib borishda rahbarning har tomonlama nazariy hamda amaliy ma’lumotga egaligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Asar g‘oyasining ta’siri o‘quvchilarda g‘oyaviy-estetik qarashlarni tarbiyalaydi.

Kuylash ovozini amaliy jihatdan barchada shakllantirish va tarbiyalash mumkin.

Musiqa madaniyati darslarining jamoa (xor) bo‘lib kuylash faoliyatida tavsiya etilgan musiqiy-o‘quv materiallari-ta’lim mazmunini tashkil etadi. Shu bois, ushbu faoliyatni tashkil etishda o‘quvchilarning nafas olish ustida ishslash, ovoz hosil etish, soz ustida ishslash kabilarga jiddiy e’tibor berish maqsadga muvofiqdir.

O‘qituvchi kuylash malakalarini shakllantirishning ilk bosqichlaridan boshlab o‘quvchilar kichik diapozonda bo‘lsa ham sof, toza, va ifodali, dinamik belgilarga rioya qilgan holda kuylashiga erishishiga harakat qilishi kerak. Kuylaganda og‘izni to‘g‘ri ochish, nafasni to‘liq olib, jumla oxirigacha yetkazish, talaffuz, diksiyani tushunarli, aniq bo‘lishi, ansamblni his etib, dirijyorlik ishoralarini to‘g‘ri tushunib kuylashlari juda muhim hisoblanadi.

Kuylash malakalarini shakllantirishda mashqlar majmuasini shakllantirib, usulining maqsadga muvofiq ravishda bajarilishi muhimdir. Qayta kuylash usulining 2 ta sharti mavjud:

1.O‘quvchi kuylashga o‘z oldiga aniq bir maqsadni qo‘yishi kerak.

2. O‘quvchi nimaga erishganini, har bir maqsadni vazifalari asosida qanday natija bergenini, qanday xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yganini bilishi va kelajakda ushbu xatolarni bartaraf etishga harakat qilishi kerak. Yuqoridagi shartlarni bajarish xor bo‘lib kuylash faoliyati samaradorligini oshiradi.

Musiqa madaniyati darslarida qo‘sishiq o‘rgatish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

1. Bolalar diqqat-e’tiborini qo‘sishqqa jalg qilish.

2. Qo‘sishiq haqida o‘qituvchining kirish so‘zi ( qo‘sishiq mualliflari, asarning mazmuni, tarixiy xususiyatlari haqida qisqacha bayon qilib berish).

3. Qo‘sishqni musiqiy-pedagogik tahlil qilish (musiqa ifoda vositalari, xarakteri, mazmunini suhbat yo‘li bilan belgilash).

4. Qo'shiqni musiqiy jumjalarga bo'lib o'rgatish (to'g'ri nafas olib, uni jumla oxirigacha tejab yetkazish, ijrochilik sifatlari ustida ishslash).

5. Qo'shiqni badiiy ijrosiga erishish (qo'shiq haqidagi bolalar taassurotlari yuzasidan qisqa suhbat o'tkazish, ya'ni umumlashtirish).

**Jamoaviy aytim faoliyatida o'z-o'zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasiga quyidagi talablar qo'yiladi:**

Nafas olish tizimini to'g'ri tashkil qilish va ovoz apparati faoliyatini to'g'ri qo'yishga rioya qilish.

***Nazorat uchun savollar:***

1. Vokal-xor ijrochiligi faoliyatini ta'riflang.
2. Bolalar ovoz turlariga xarakteristika bering.
3. "Jamoaviy aytim" tushunchasining ma'nosini ta'riflang.
4. Jamoa bo'lib kuylash faoliyatining tarbiyaviy ahamiyati xususida fikr bildiring.
5. Ovoz hosil bo'lishi holatini izohlang.
6. Mutatsiya davri nima?
7. O'qituvchining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
8. Qo'shiq o'rgatish jarayoni bosqichlarini tushuntiring.

## **8- MAVZU. MUSIQIY- RITMIK FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISH**

**Tayanch so'zlar:** aqliy- estetik qobiliyat, emotsiyal his-tuyg'u, ritm tuyg'usi, musiqiy xotira, tembr o'quvi, harakat elementlari, musiqiy- ritmik faoliyat, faoliyatlar majmui, ritm, dars amaliyoti, raqs harakatlari, faoliyat turi.

### **8.1. Musiqiy-ritmik faoliyat xarakteristikasi va vazifalari**

Bolaning aqliy, estetik va jismoniy rivojlanishida raqs, musiqali o'yin hamda musiqiy-ritmik harakat faoliyati katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Musiqiy faoliyatning bu turi o'quvchini har tomonlama o'sishiga yordam beradi, jumladan:

- har qanday harakat turi muayyan musiqiy ritm ostida bajariladi. Harakat bilan uzviy bog'liq bo'lgan musiqa ohanglari o'quvchining

musiqiy o‘quvi, ayniqsa ritm tuyg‘usi, musiqiy did va xotirasining yaxshi rivojlanishiga yordam beradi;

- raqs va musiqiy harakatlar bolada hushyorlik, ziyraklik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirib, jismini chiniqtiradi, qomatining to‘g‘ri o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

- jarang sochgan musiqa ohangi bolada his- tuyg‘u uyg‘otadi, uning ongida va tasavvurida o‘ziga xos obrazlarni gavdalantiradi. Bu esa bolaga harakatlarni badiiy ishoralar bilan ifodalashga yordam beradi.

Demak, musiqiy-ritmik harakatlar faoliyatini bajarish bolaning aqliy va badiiy-estetik qobiliyatini hamda irodasini rivojlantirishda ham alohida ahamiyatga ega.

Ma’lumki, milliy musiqa madaniyatida raqs alohida o‘rin tutadi va unga ko‘pchilik bolalar qiziqishadi. Har bir harakat turi, ifodasini o‘qituvchi oldindan belgilaydi va o‘zi uni aniq, nafis va go‘zal tarzda namoyish qilib beradi. Har bir harakatni bajarishdan oldin, jo‘r bo‘layotgan musiqaning mazmunini diqqat bilan tinglab yoki kuylab, hissiy idrok etadi. Ana shunda harakatlarni bajarish kutilgan natijani beradi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning diqqat-e’tibori tarqoq, ovoz apparatlari nozik, musiqiy qobiliyatları to‘la shakllanmagan bo‘ladilar. Shuning uchun dars jarayonida bajarilgan musiqali o‘yinlar, o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi, nutqini o‘stiradi, jismoniy sog‘lom bo‘lishiga ko‘maklashadi va musiqa mashg‘ulotiga qiziqishini yanada oshiradi.

Boshlang‘ich sinflarda musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish, o‘quvchilarni jismoniy rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqaga mos raqs, o‘yin harakatlarini bajarish, ayniqsa, o‘quvchilarning diqqatini jamlashda, xotirasini mustaxkamlashda va jismonan o‘sishiga samarali yordam beradi. Dars davomida o‘qituvchi boshqaruvida marsh musiqalariga mos qadam tashlashni mashq qilish, yugurish, ayrim raks elementlarini bajarish, musiqali o‘yinlar o‘tkazish, musiqaning harakteriga mos, qo‘l va tananing turli harakatlari bilan ifodalash kabilardan foydalanish mumkin.

Kichik yoshli bolalarga musiqa, raqs va o‘yinlar tez ta’sir etadi. Shuning uchun quvnoq raqs, qiziqarli musiqali o‘yinlar har bir bolaning e’tiborini o‘ziga tortadi va kayfiyatini ko‘taradi.

O‘quvchilarning musiqiy-ritmik harakatlarini bajarish faoliyati naqadar ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi.

Ta’kidlash lozimki, o‘zbek xalqi milliy raqs san’ati bilan dunyoga mashhur. Ammo maktab ta’lim-tarbiyasi amaliyoti tarkibida raqs sabog‘i deyarli yo‘q darajada ekanligini nazarda tutsak, unda musiqa madaniyati darslari mazmunida milliy raqs usullarini bolalarga yoshligidan o‘rgatib borish naqadar muhimligini teran anglash mumkin.

Shu bois, musiqa o‘qituvchisi milliy raqs san’atimizning oddiy harakatlarini bilishi, amalda ijro eta olishi va darsda qo‘llash usullarini puxta bilishi bugungi musiqiy tarbiya talablaridan biridir. Raqs va musiqali harakatlar o‘quvchilarning musiqiy-o‘quv qobiliyatları hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun foydalidir.

Bolalarning ritm tuyg‘ularini shakllantiradigan musiqa ostida bajariladigan turli xil harakatlar- raqs, o‘yin kabi turlicha ifodali harakatlar elementlarini o‘zida mujassamlashtirgandir. Har qanday harakat turini yangrayotgan musiqani his etib, uning ritm, takt va jumlalariga e’tibor berib, mantiqiy harakat majmuuni yaratib ijro etishga jiddiy e’tibor berish lozim.

Milliy o‘quv dasturida boshlang‘ich sinf musiqa madaniyati darslarida raqs va musiqali harakatlarga alohida o‘rin berilgan. Zero, bu faoliyat o‘quvchilarda musiqiy qobiliyatlarni, xususan, ritm-usul tuyg‘usi hamda asar badiiyatini ifodalash malakalarini o‘stirishi bilan birga, ularning jismoniy rivojlanishlari uchun ham zarurdir.

Birinchi sinfda o‘quvchilar darsning musiqa tinglash bosqichida “Andijon polkasi”ning kuyini tinglab, raqsbop harakatlarni bajarishadi, “Raqs” kuyini tinglab unga mos ritmik harakatlarni bajarishadi. “Dilxiroj” o‘zbek xalq kuyini tinglab, raqs elementlarini ifodalashadi.

“Oq terakmi, ko‘k terak” (X. Qayumov she’ri, A.Mansurov musiqasi) ni tinglab, bolalar xalq o‘yiniga mos ritmik harakatlarni bajarishadi.

Uchinchi sinfda esa musiqa tinglash faoliyatida Farhod Alimovning bolalar uchun yozgan kuy-qo‘sishqlardan tinglash va tinglagan qo‘sishqqa mos ritmik harakatlarini bajarish, Avaz Mansurovning bolalar uchun yozgan qo‘sishqlarini tinglash va tinglangan qo‘sishqqa hamohang raqs harakatlarini namoyon etishadi.

Uchinchi sinfda musiqa tinglash jarayonida o‘quvchilar kompozitor D. Omonullaevaning “Marsh” musiqasiga bir joyda turib, unga mos harakatlarni ifodalashsa, to‘rtinchi sinfda zarbli cholg‘ular ijrosidagi kuylarga mos qadam tashlashni mashq qilishadi.

To‘rtinchi sinfda o‘quvchilarga “Tomdan tarasha tushdi”, “Oh, Layli” kabi o‘zbek xalq qo‘shig‘iga mos ritmik harakatlarni bajarish tavsiya qilingan.

Darsning musiqiy-ritmik harakatlar faoliyatlarni bajarishda cholg‘u asboblaridan unumli foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Xususan milliy raqlarni, masalan, “Chertmak”, “Ufor”, “Andijon polkasi”, “Jonon” va boshqalarni o‘rgatishda xalq cholg‘u asboblaridan foydalanilsa, bu bolalarda yoshligidan milliy musiqa asboblariga katta qiziqish uyg‘otadi. Muhimi, ularda ritm tuyg‘usini shakllantirishga yordam beradi.

## **8. 2. Musiqiy - ritmik faoliyatni shakllantirish metodikasi**

Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish faoliyatini shakllantirish-dars mazmuni va samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Musiqa madaniyati darslarining musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish faoliyatida raqs va o‘yin o‘zida turlicha ifodali harakatlar elementlarini mujassamlashtirgandir.

Darsda o‘quvchilar yangrayotgan musiqani tinglab, his etib, uning ritm, takt va jumlalariga e’tibor berishi, kuya mos mantiqiy harakatlar majmui asosida ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berish lozimdir.

Masalan, marsh musiqasi ostida bolalar harakat qilishlarida musiqa ritmi bilan hamohanglikda oyoq tashlab yurishga odatlanadilar.

Marsh musiqasini tinglaganda kuya mos quyidagi harakatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Marsh musiqasiga mos qadam tashlash.
2. Yugurish, raqs elementlarini bajarish.
3. Mustaqil o‘yinlar o‘tkazish.
4. Musiqaning xarakteriga mos turli qo‘l va tana harakatlari bilan ifodalash.

Shunday qilib, musiqali o‘yinlar o‘z maqsadi va vazifasiga ko‘ra didaktik o‘yinlarga mansub bo‘lib, ular asosan musiqa jarangi ostida harakat asosida ijro etilishi bilan xarakterlanadi.

Maktab musiqa ta’limi davomida o‘qituvchi musiqa asarining tuzilishiga qarab harakat elementlari mujassamlangan raqslarga, ularni o‘rgatishga alohida e’tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Raqs harakatlari musiqaning tuzilishiga qarab, avvalo, tasavvurda shakllantiriladi. Musiqaning qismiga qarab raqs harakatlari shakllantiriladi. Bu jarayon ham ma’lum ma’noda o‘qituvchidan faoliyatga ijodiy yondashuvni talab etadi.

O‘yin va raqlar o‘rgatishda bajariladigan mashqlar katta yordam beradi, zeroki har qanday raqs va o‘yinlar kichik elementlardan tashkil topadi. Shuning uchun ba’zi o‘yin va raqlarni o‘rgatishdan avval ular tarkibidagi harakat elementlarini oldindan mashq sifatida o‘rgatilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Raqs va o‘yinlarni tayyorlashda bolalar ijodiga ham e’tibor berish lozim. Ma’lumki, bolalar kattalarga taqlid qiladilar va ko‘pincha o‘qituvchilar o‘rgatadigan o‘yin va raqlarni uning shaxsiy ijodi mahsuli, deb ham tushunadilar. Shuning uchun ham bolalar o‘qituvchiga taqlid qilib o‘zları ham yangi raqs harakatlarini o‘ylab topishga harakat qiladilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida raqs tushishga moyil bolalar, iqtidorlilar ham uchraydi, albatta. O‘qituvchi ushbu faoliyatni boshqarishda shunday o‘quvchilar ijrosidagi raqs harakatlaridan, shuningdek, musiqa va san’at mакtablarida tahsil olayotgan yoki raqs to‘garaklarida tarbiyalanayotgan o‘quvchilarning “ijodi” dan namuna sifatida foydalanishi mumkin.

Shunday qilib, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish faoliyat sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bolalarning musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, ko‘p o‘qituvchilarning dars amaliyotida ushbu faoliyat turiga hamisha ham yetarli e’tibor berilavermaydi. Natijada dars elementlari, faoliyatlar majmui to‘liq bo‘lmay, mashg‘ulotlarda qo‘yilgan maqsadlarga erishish murakkablashib, o‘quvchilarning musiqani idrok etish, ritm tuyg‘usini his etish qobiliyatlarida kemtiklik holatlari kuzatiladi.

Zamonaviy musiqa madaniyati darslarida boshqa faoliyatlar qatori o‘quvchilarning musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish elementlariga ham alohida e’tibor berilishini, uni har tomonlama

mazmunli va qiziqarli, samarali o‘tkazish muhimligini to‘g‘ri anglash musiqa o‘qituvchisi hamda shu sohaning bo‘lajak mutaxassislari uchun ahamiyatlidir.

***Nazorat uchun savollar:***

1. *Musiqiy ritmik faoliyat mazmun-mohiyatini, ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatini izohlang.*
2. *1-sinf darslarida ritmik harakatlarni bajarish uchun nimalarga e’tibor qaratish kerak?*
3. *2-sinfda darsda ritmik harakatlarni bajarish uchun qanday repertuar tanlanadi?*
4. *3-sinfda darsda musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishning mazmuni qanday?*
5. *Musiqiy ritmik harakatlarning bola aqliy, jismoniy va estetik rivojlantirishdagi rolini izohlang.*
6. *Musiqiy-ritmik harakatlar faoliyatini bajarishda cholg‘u asboblaridan foydalanish usullarini tushuntiring.*

## **9- MAVZU. BOLALAR CHOLG‘U ASBOBLARIDA JO‘R BO‘LISH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH**

**Tayanch so‘zlar:** jamoaviy ijrochilik faoliyati, badiiy bilim va tajriba, emotsional munosabat, tovush tusi, pedagogik vazifa, faoliyatga ruhlantirish, musiqiy ehtiyojni shakllantirish, musiqiy nutq, ritmik jo‘r bo‘lish, chalish uslublari, oddiy musiqa cholg‘u asboblari.

### **9.1. Bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish faoliyati xarakteristikasi va vazifalari**

Bolalar musiqa cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish - boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jamoaviy ijrochilik faoliyati turlaridan biri. Darslarda faoliyatning ushbu turidan foydalanish – o‘quvchilar musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, musiqiy bilim va tajribasini boyitish, ularning milliy musiqa sozlariga bo‘lgan qiziqishlari va ijrochilik faoliyatiga bo‘lgan havaslarini yanada rivojlantirishga qaratiladi.

O‘quvchilarning faoliyatga faol ishtirokini ta’minlash uchun, albatta, musiqa ijrochiligiga ongli - emotsional munosabatni shakllantirish talab etiladi. Dars mazmunini qiziqarli bo‘lishi hamda ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida chapak va bolalar cholg‘u asboblarida ayniqsa, doiracha, qoshiq, qayroq va boshqalarni chalib, ijrochilik musiqiy faoliyatga hamkorlik vujudga keladi.

Chapak va bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish faoliyati ham ijrochilikning raqs hamda musiqiy harakatlar faoliyati kabi o‘quvchilarning musiqiy-o‘quv qobiliyatlari, ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun foydalidir. Bu faoliyat boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy cholg‘u asboblari bilan tanishtirish va ularning tovush tuslarini anglab olish bilan uzviy bog‘lanib amalga oshirilishi zarur. Bunda doirachalar, qayroq, qoshiq, kichik safoillar kabi urib chalinadigan cholg‘u asboblaridan foydalanib, o‘qituvchi ijrosi va SD disk yozuvlari orqali taraladigan kuylar namunalariga mos ritmik jo‘r bo‘lish malakalari rivojlantiriladi. Shu bois musiqa madaniyati darslarida faoliyatlarning boshqa turlari qatori bolalar cholg‘ularida jo‘r bo‘lish qismiga ham jiddiy e’tibor berish talab etiladi. Zero, darsda amalga oshiriladigan musiqiy faoliyatlar mantiqan uzviy bog‘liq holda birlashib, mazmunan bir butunlik, yaxlitlikni tashkil etishi muhimligi musiqiy ta’limning doimiy talabidir.

## **9.2. Darsda bolalar cholg‘u asboblarida ijrochilikka o‘rgatishning musiqiy-tarbiyaviy ahamiyati**

O‘qituvchilar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish faoliyatida milliy cholg‘u asboblari bilan tanishtirish alohida ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda musiqa madaniyati mashg‘ulotlarida bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish faoliyatining amaliyotga tatbiq etishda quyidagi musiqiy pedagogik vazifalarni hal qilish nazarda tutiladi:

- 1.O‘quvchilarda musiqiy bilim, did, qiziqish, musiqiy ehtiyojni shakllantirish.
2. O‘quvchilarning dars, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda, bo‘sh vaqt ni mazmunli o‘tkazishda, o‘rtoqlari, tengdoshlari orasida, bayramlarda, oila davrasida , dam olish vaqtlarida ijrochilikni amalga oshirishga undash, ruhlantirish.

3.O‘quvchilarda dars jarayonida hamjihat bo‘lib ijroga jo‘r bo‘lish malakalarini rivojlantirish, musiqiy cholg‘ularning tovush tusi va xususiyati, imkoniyatlarini bilib olishi, jamoaviy badiiy ijroning mazmun-mohiyatini teran his etishga o‘rgatish.

4. Musiqiy asarlarning ritm tuyg‘usi, ladni anglash, musiqa shakli, tembri (tusi), garmonik va melodik xususiyatlarini his etish hamda anglab olish, ijro jarayonida e’tiborli bo‘lishga o‘rgatish.

5. O‘quvchilarda musiqiy nutq, ifoda vositalari xususidagi tasavvurlarni shakllantirish va boshqalar.

### **9.3. Bolalar cholg‘u asbobida jo‘r bo‘lish faoliyatini shakllantirish metodikasi**

Bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish o‘quvchilar uchun eng qiziqarli mashg‘ulotdir, chunki bolalar cholg‘u asboblari jonli, tovushli o‘yinchoqlar sifatida har bir kichik yoshdagi o‘quvchiga qiziqish uyg‘otishi, tabiiy. Bolalar cholg‘u asboblari birinchi navbatda o‘quvchilarda oddiy ijrochilik va jo‘r bo‘lish vositasi sifatida ularning musiqiy o‘quv va ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bolalar cholg‘u asboblaridan foydalanish musiqa madaniyati darslarida yaxshi natijalar berishi bilan birga o‘quvchilarni mashg‘ulotga intiluvchanligi, qiziqishi va musiqiy ehtiyojini ham shakllantiradi. Musiqa darslarida qo‘llaniladigan bolalar cholg‘u asboblariga doirachalar, oddiy cho‘p qoshiqlar, kichik shiqildoqlar, barabanchalar, uchburchaklar kiradi.

O‘quvchilarning cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lishi faoliyatini shakllantirish turli metodlar asosida amalga oshiriladi;

- avvalo, bolalar kuyni diqqat – e’tibor bilan tinglab, chapak chalib unga ritmik jo‘r bo‘lishadi;

- birinchi navbatda topshiriqni to‘g‘ri va aniq tushunib, faol bajargan bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lishadi;

- keyinchalik esa, musiqiy topshiriqni bajarishga qiynalgan, o‘quvchilar ham to‘g‘ri ijroga erishish maqsadida jo‘r bo‘lishadi;

- bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish har gal, har xil cholg‘u asboblarida bajariladi;

- o‘quvchilarda chapak va cholg‘uda, shuningdek ovozda usul (ritm) tuyg‘usini rivojlantirish maqsadida sind o‘quvchilarini 2 guruhga bo‘lib. birinchi guruhdagilar chapak va cholg‘uda, ikkinchi

guruhdagi o‘quvchilar esa ovozda bum - bak, baka -baka -bum usul berish bilan amalgalash mumkin.

- o‘quvchilar cholg‘u asboblarida ritmiq jo‘r bo‘lishni grafik tarzda ko‘rsatilgan ritmik tuzilmalarga qarab chalish usuli ham o‘quvchilarning musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O‘quv-tarbiyaviy vazifalarni amalgalashda repertuar muhim o‘rin tutadi. Birinchi sinfda- cholg‘uga ritmik jo‘r bo‘lish faoliyatida o‘quvchilar musiqa tovushlarining baland, pastligini qo‘l harakatlari bilan ifodalash chapak va shiqildoqlar chalib, o‘qituvchi ijrosiga ritmik jo‘r bo‘lishadi.

Birinchi sinf musiqa darsligida “Raqs” kuyi (13-bet), “Dilxiroj” o‘zbek xalq kuyini tinglab o‘ng qo‘lda uning ritmini kichik va katta aylanalar cho‘zimida chapak chalib o‘zlashtirish topshiriq berilgan. Keyingi mashg‘ulotlarda topshiriq biroz murakkablashtirilib, “Olmacha anor” (o‘zbek xalq kuyi. 16-bet), “Bir, ikki, uch” (R. Tolib she’ri, N. Norxo‘jaev musiqasi. 23-bet), “Salom bergen bolalar” (P. Mo‘min she’ri, N. Norxo‘jaev musiqasi” 27-bet) qo‘shiqlarining ritmik tuzilishi ikkala qo‘lda tapillatib aniqlash topshiriqlari bajariladi. Bunday topshiriqlar darslikning keyingi sahifalarda ham oddiydan murakkabga tamoyili asosida berilgan.

Ikkinci sinf o‘quvi davomida kuylarga uchburchak, doirachalar, shiqildoqlar yordamida ritmik jo‘r bo‘lish, notalarning uzun va qisqa hissalarini belgilash, chapakda hamda bolalar cholg‘u asboblarida kuya ritmik jo‘r bo‘lish kabi faoliyatlar bajariladi.

Musiqa darsligida milliy cholg‘ular to‘g‘risida ma’lumot tushunchalar berishda, ayniqsa mazkur sozlarda ijroni tinglab, so‘ngra oddiy cholg‘ularda jo‘r bo‘lib uning ritmik tuzilishini o‘rganishga kirishish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi.

Ikkinci sinfda “Milliy cholg‘ular (tanbur, rubob) bilan tanishtirish jarayonida ushbu cholg‘ularda o‘zbek xalq kuyini ijrosi davomida, kuya mos cholg‘ular yoki chapakda o‘quvchilarning ritmik jo‘r bo‘lish topshirig‘i berilgan.

Yakkanavozlik va jo‘rnavozlik bobini o‘rganishda “Xorazm xalq kuyi” ni doirachalarda kuya mos ritmik jo‘r bo‘lish, ”Yallama yorim” o‘zbek xalq yallasini tinglab, chapak chalib ritmik jo‘r bo‘lish kabi musiqiy topshiriqlar berilgan.

Uchinchi sinfda o‘quvchilar doirachilar, shiqildoqlar, qoshiq va boshqa urma cholg‘u asboblarida chalib, musiqaga ritmik jo‘r bo‘lish

(“Olmani otdim”, “Jonon”) va boshqa kuylarga jo‘r bo‘lib amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

Tajribali metodist Gulnora G‘aniyeva o‘quvchilarni musiqa ijodkorligi - bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lishga o‘rgatish metodlarini quyidagicha tasniflaydi:

- avval kuyni tinglab chapak chalish, ritmik jo‘r bo‘lish;
- musiqada ritmik jo‘r bo‘lishni aniq bajarganlar bolalar cholg‘ularida jo‘r bo‘ladilar, asta-sekinlik bilan jo‘r bo‘lishga qiynaluvchi (passiv) o‘quvchilarni ham o‘zlari bilan ijro etishga o‘rgatib boradilar;
- cholg‘ularda jo‘r bo‘lishda turli cholg‘ulardan almashtirib foydalanadilar;
- cholg‘u ijrochiligidagi berilgan ritmik tuzilmalarga qarab chalish ham o‘quvchilar ijodkorligini oshiradi, faollashtiradi, ijrochilik malakalarini va musiqiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantiradi<sup>1</sup>.

Shunisi muhimki, musiqiy material o‘quvchilarning birgalikda ijro etishlari uchun qulay bo‘lishi, o‘quvchilarda ijodiy fazilatlarni shakllantirishda xizmat qilmog‘i lozim.

Bolalar musiqa cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish, ayniqla, musiqiy ijodiy rivojlanishi nisbatan past o‘quvchilar uchun nihoyatda foydali bo‘lsa, barcha bolalarning kelajakda ancha murakkab cholg‘u sozlarini o‘zlashtirishlariga yaxshi tayyorgarlik vazifasini ham o‘taydi.

Mashg‘ulotlardagi bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish faoliyatini samarali amalga oshirish natijasida o‘quvchilar quyidagi bilim malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi:

- Musiqa cholg‘u asboblari, nomlari, tuzilishi, ularni asrash qoidatartiblarini bilish;
- tinglash orqali cholg‘u asboblari tovush tusini, jaranglashini aniqlay olish va ajrata olish;
- chalish uslublari haqida malakalarga ega bo‘lish;
- cholg‘ularda yangraydigan musiqiy tovushlar tusini, ifodaviy xususiyatlarini ilg‘ay olish;
- musiqiy ifoda vositalarini bilish, musiqa cholg‘ularida chalishda ularni ifodalay olish;

---

<sup>1</sup> Umumiy o‘rtta ta’limda milliy dasturni tatbiq etish masalalariga bag‘ishlangan seminar. Toshkent. 2021. 27-30 iyun materiallari

-jamoa (ansambl) bo‘lib ijro etish malakalarini egallab olish, oddiy kuylarni eshitish orqali cholg‘uda ijro eta olish, o‘rtoqlari ijrosini munosib baholay olish;

-cholg‘ulardagi baland va past tovushlar yangrashini farqlay olish, notalar nomi, ularning joylashish o‘rnini bilish va h.k.

Darsda faoliyat natijasi samarali va asosan cholg‘u bilan ishslash jarayoni bilan bog‘liqdir. Shu bois, faoliyatda jamoa bo‘lib ijro etish qoida-talablariga ham rioya qilish lozim. O‘quvchilar bilan oddiy musiqa cholg‘u asboblari (uchburchak, doirachalar, qayroq, shiqildoq kabi)dan keng foydalaniladi. Musiqiy faoliyat jarayonida foydalaniladigan cholg‘ularning holati, tozaligi, yoqimli sadolanishi, tashqi ko‘rinishi bilan o‘quvchilar diqqat-e’tiborini jalb etishiga erishishi talab etiladi.

### ***Nazorat uchun savollar:***

1. *Bolalar musiqa cholg‘ularida jo ‘r bo ‘lish faoliyatining musiqiy-tarbiyaviy ahamiyatini izohlang.*

2. *O‘quvchilarning bolalar cholg‘u asboblarida jo ‘r bo ‘lish faoliyati qaysi metodlar asosida amalga oshiriladi?*

3. *O‘quv-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda repertuarning ahamiyati nimadan iborat?*

4. *Darsda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan oddiy cholg‘ularni ta’riflang.*

## **10- MAVZU. BIRINCHI SINFDA MUSIQA O'QITISHNING VAZIFALARI VA MAZMUNI**

**Tayanch so‘zlar:** tipik xususiyatlar, psixologik-fiziologik xususiyatlar, kuylash diapozoni, ovozda imitatsiya qilish, musiqaning ifodaviy xususiyatlari, o‘quv soatlar, ta’lim mazmuni, ijodiy faoliyat, musiqiy qobiliyat, nota yo‘li, ritmik tuzilma, kompetensiyaviy yondashuv.

### **10.1. Birinchi sinf o‘quvchilarining musiqiy- pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlari tavsifnomasi**

Boshlang‘ich sinf 7-10 yoshli o‘quvchilar maktab ta’limiga bog‘chada tarbiyalanayotgan davrdan tayyorlanadi. Bunda o‘quvchi mактабда qо‘yиладиган түрли талаблар ва vazifalar bilan tanishadi, umumiy ta’limdan bilim asoslarini o‘rganish uchun fiziologik va psixologik jihatdan tayyor bo‘ladi. Professor E. G‘oziev bolaning mактаб ta’limiga tayyorgarligi xususida fikr bildirib, “Ta’limga psixologik tayyorlik deganda, bolaning obyektiv va subyektiv jihatdan mактаб talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U mактаб ta’limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokinining o‘tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o‘zining qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi”, - deb ta’kidlaydi<sup>1</sup>

Kichik mактаб yoshidagi bolaning xususiyatlardan biri unda ehtiyojlar namoyon bo‘ladi. Bu ehtiyojlar o‘z mohiyati bilan asosan o‘quvchi xohish- istagini aks ettirishdan iboratdir. Musiqa ta’limining asosi birinchi sinfdan shakllana boshlashi munosabati bilan bu haqda to‘xtalamiz.

Birinchi sinf musiqa darslari musiqiy tarbiya tizimida alohida ahamiyatga egadir. Bunda o‘qituvchi sinf o‘quvchilari bilan, o‘quvchilar esa o‘qituvchi va u o‘qitadigan fan bilan yaqindan tanishuvi amalga oshadi. O‘quvchilarning musiqa darslariga munosabati o‘rnatiladi, keyingi musiqiy faoliyatlarga asos qo‘yiladi.

---

<sup>1</sup> G‘oziev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). Toshkent. “O‘qituvchi”. 1994. – B.-71.

Shu bois, birinchi sinf musiqa mashg‘ulotlari, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi, chunki darsdan olingan ilk taassurotlar odatda juda kuchli va uzoq vaqt xotirada qoladi.

Birinchi sinfda musiqa madaniyati darslari maqsad va vazifalari olti-yetti yoshli bolalarning psixologik-fiziologik xususiyatlariga asoslanib belgilanadi. Bu sinfda amalga oshiriladigan barcha maqsad – musiqa tarbiyasining bosh mezoni - o‘quvchilar ma’naviy olamining tarkibiy qismi bo‘lgan – musiqa madaniyati asoslarini shakllantirishga qaratiladi.

Birinchi sinf o‘quvchisida quyidagi tipik xususiyatlar mavjud bo‘lib, musiqa psixologiyasi ta’lim-tarbiya jarayonida, albatta, uni hisobga olish lozimligi uqtiradi, bular:

- a) darsni bir xil o‘tkazish, bir xillik faoliyat natijasida butun organizmning to‘liq shakllanmaganligi bois o‘quvchida tezda toliqish, charchash holati ro‘y berishi;
- b) tizimli, maqsadga muvofiq tarzda aqliy faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarining shakllanmaganligi;
- v) bolalarning diqqat-e’tibori hali barqaror darajada emasligi;
- g) bolalarning o‘yin faoliyatiga moyilligi, u orqali hatto murakkab materialni o‘zlashtirishga ham erishish mumkinligi va h.k.

Odatda 1-sinf o‘quvchilari musiqiy qobiliyatlarning shakllanganlik darajasi turlicha. Buni o‘quvchilarning mакtabgacha tayyorgarlik darajasi holatidan kuzatish mumkin. Ayrim bolalar musiqani tinglashadi, idrok etishadi, qo‘shiqlarni ifodali kuylashga harakat qilishadi. Boshqalari esa musiqa tinglashga va tushunishga unchalik rag‘bati bo‘lmaydi, kuylash haqida tushunchaga ega bo‘lishmaydi. Biroq, bu yoshda o‘quvchilarga xos xususiyatlar ham borki o‘qituvchi faoliyati davomida albatta inobatga olishi lozim.

Musiqa o‘qituvchisi 1-sinf musiqa mashgulotlarini tashkil etish va o‘tkazishda, o‘quvchilar ovoz apparatining nozikligi, diqqatining turg‘un bo‘lmasligi, nutqi to‘liq rivojlanmaganligi sababli musiqiy faoliyat turlarini tez - tez almashib turishi tavsiya qilinadi.

O‘quvchining musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqish orqali musiqa materialini chuqurroq bilishga intiladi. Qiziqqan faoliyati bilan shug‘ullanishdan zerikmaydi. Qiziqish esa o‘z navbatida bolaning diqqat hamda irodasining o‘sishi va mustahkamlanishiga yordam beradi. Bolaning qobiliyatları musiqiy faoliyat jarayonida rivojlanadi. Bolalarning yosh psixologik

xususiyatlarini hisobga olgan holda faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil etish va ta’limiy maqsadni yo‘naltirish musiqa madaniyati o‘qituvchisining vazifasidir.

Psixologik, fiziologik soha adabiyotlarda birinchi sinf o‘quvchilarining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha tasniflanadi:

1. Organizmining nozikligi, to‘liq shakllanmaganlik, bir xil holatda turish, bir xil faoliyat bajarish jarayonida, o‘qituvchining ohangsiz nutqi, tez charchab qolish holatlari, diqqatlarining tarqoqligi;

2. Aqliy faoliyat jarayonida malakalarining yetishmasligi; yorqin xotira;

3. Erkin diqqatlarining ko‘lami torligi ;

4. O‘yinga moyillik: eng murakkab materiallar ham o‘yin orqali yengil o‘zlashtirish qobiliyati.

Tadqiqotchi D. Soipovaning kuzatishlariga ko‘ra, birinchi sinf o‘quvchilarining musiqiy bilim darajalari bir tekisda bo‘lmaydi. Ayrim bolalar bemalol musiqani boshidan oxirigacha tinglay oladi, qo‘sishqlarni sof intonatsiyada kuylaydi, ayrim bolalar esa aksincha tignlash va to‘g‘ri kuylash haqida tasavvurga ham ega bo‘lmaydilar.

Ayrim bolalar mакtabga kelgunlariga qadar, musiqa to‘garaklariga qatnashgan va maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqiy tarbiyaolgan bo‘ladilar. Ayrim bolalar musiqiy muhitda tarbiyalangan bo‘lsalar, ba’zilari umuman musiqadan bexabar bo‘lishadi. Shu nuqtai nazardan yondashiladigan bo‘lsa, birinchi sinf o‘quvchilari har xil xususiyatlarga ega bo‘ladilar:

1. Musiqani tinglash va idrok etish borasida ular qo‘sishq, marsh va raqs janrlarini idrok eta oladilar. Birinchi sinf o‘quvchilari tinglaydigan kuy va qo‘sishqlar hajmi jihatidan kichik va yorqin bo‘lmog‘i hamda tinglashdan avval o‘qituvchiuning ifodaviyligi, musiqiy obrazlari, ma’no va mazmuni haqida tushunchalar berish maqsadga muvofiq.

2. Kuylash borasida, birinchi sinf o‘quvchilari maktabgacha bo‘lgan davr musiqiy tayyorgarligiga bog‘liq. Tayyorgarligi bo‘limgan bolalarning ovoz diapazoni 2-3 tovushdan, tayyorgarligi bor bolalarda bir oktavagacha ovoz diapazoni rivojlangan bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchi kuylash jarayonida bolalarning ovoz apparati to‘liq shakllanmagan, nozik, ovoz paychalari ingichka bo‘ladi. Shuning uchun baqirmsandan yumshoq ovozda kuylashni tavsiya etish kerak.

Bu davrda bolalalarining (7 yoshli) ovoz diapazoni “Re-lya” birinchi oktavagacha bo‘lgan tovushlarni qamrab boradi. Lekin dars jarayonida bu diapazon ayrim hollarda birinchi oktavaning “Si” va ikkinchi oktavaning “Do” va “Re” tovushlarigacha ko‘tarilishi mumkin. Biroq o‘quvchilar birinchi oktava “Do”tovushi va undan quyiroq tovushlarni kuylashga qiynalishadi. Chunki ularning ovozlari tabiatdan jarangdor va yorqindir.

3. Musiqiy-ijodiy faoliyat borasida birinchi sinf o‘quvchilarining imkoniyatlari kengdir. Ular har xil kichik ijodiy topshiriqlarni bajara oladilar.

Ular biror so‘zga melodik va ritmik badihalar qilishlari mumkin. Ular musiqiy cholg‘u asboblarida yoki sahnaviy ko‘rinishlarda, tanish bo‘lgan qo‘shiqlarni harakatlar va imo-ishoralar bilan ko‘rsatib bera oladilar<sup>1</sup>.

## **10.2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘quv dasturining birinchi sinf bo‘yicha o‘quv soatlari va mavzular rejasi quyidagicha:**

|   | 1 SINF                          |                        |                      |
|---|---------------------------------|------------------------|----------------------|
|   | <b>Bob mavzulari nomi</b>       | <b>Ajratilgan soat</b> | <b>Haftalik soat</b> |
| 1 | Biz yoqtirgan kuy va qo‘shiqlar | 9 soat                 | 1                    |
| 2 | Musiqa olamiga sayohat          | 7 soat                 | 1                    |
| 3 | Musiqa savodiga sayohat         | 10 soat                | 1                    |
| 4 | Xushnavo milliy cholg‘ularimiz  | 8 soat                 | 1                    |
|   | <b>jami</b>                     | <b>34</b>              | <b>4</b>             |

Birinchi sinf musiqa darslarida o‘quvchilarning aqliy rivojlanishlari me’yoriga mos darajada oddiy musiqiy bilim, tushuncha va malakalar tarkib toptiriladi.

Musiqani tinglash, qo‘sinq kuylash, raqs tushish, oddiy cholg‘ularda jo‘r bo‘lish orqali musiqani idrok etish, musiqadan olgan taassurotlari va bilganlari haqida gapirib berish, asarni badiiy baholash, musiqa ijodkorligi malaka ko‘nikmalarini rivojlantirish

<sup>1</sup> Soipova D. Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi. Toshkent. 2009. – B. 89-90.

amaliyotlari vositasida o‘quvchilarda musiqaga havas va qiziqish, sekin-asta musiqiy ehtiyoj uyg‘otadi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar quyidagilar haqida bilim, malakalarga ega bo‘ladilar:

Biz yoqtirgan kuy va qo‘shiqlar (1-sinf) yillik umumiy mavzusi asosida : “Biz yoqtirgan kuylar”, “Tinglaymiz, o‘rganamiz”, “Biz yoqtirgan qo‘shiqlar”, ”Tinglaymiz, raqsga tushamiz”, ”Musiqaning sehrli olami”, ”Musiqali o‘yinlar va raqslar”, “Qo‘shiqlar olamiga sayohat”, “Raqs olamiga sayohat”, “Musiqa bizning hayotimizda”, “Biz sevgan cholg‘ular”, “Musiqaning sehrli olami”, ”Kompozitorlar-bolalarga”, “Dars-konsert” singari mavzulardan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarini egallashadi.

Birinchi sinfdan boshlab o‘quvchilarda musiqani idrok etish, asarning obrazli mazmunini tushunish va his etish malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Zero, ilk musiqa mashg‘ulotlaridan oq, har bir musiqa— kuy bilan tanishish, raqs harakatlarini bajarish, qo‘sish kuylashni o‘rganish eng avvalo o‘sha asarni tinglash, idrok etish orqali amalga oshiriladi. Shu bois, o‘quvchilarni musiqani tinglash, ongli-emotsional idrok etish faoliyatlariga alohida e’tibor berish talab etiladi.

1-sinf o‘quvchilarining ovozi uchun dastlab diapazon jihatdan chegaralangan, uncha murakkab bo‘lmagan, sodda, jarangdor, ammo xarakteri va obraz jihatdan erkin qo‘shiqlar kuylashga o‘rgatilishi lozim. Ta’lim jarayonida asta-sekin qo‘shiqlar diapazoni kengaytirib boriladi. Har bir qo‘sishda o‘quvchilar kuy tovushlari va balandligini ko‘rgazmalar, ifodaviy harakatlar orqali bilib boradilar. Bu esa o‘quvchilarda kuylash va tinglash malakalarining uyg‘unligini ta’minlaydi hamda tovush balandligini to‘g‘ri aniqlash hamda toza intonatsiyaga o‘rgatadi

Dutorda “Chermak”, rubobda “Dutor bayoti”, doirada “Doira usullari” tinglanadi. Bir cholg‘u asbobi ijrosi uchun yaratilgan kuyni boshqa sozda ham ijro etish mumkinligi, cholg‘ular bazmi xususida dars-topishmoq uyuhshtirilib “Dutor bayoti” (dutor, rubob), “Yangi tanovar” (rubob), “Yallama yorim” (doira, rubob, dutor, ud ansambl) ijrolari tinglanib, kuylarning tovush tembri (tusi)dan qaysi sozda ijro etilganligini aniqlash topshirig‘i beriladi. Bu bilan milliy sozlarimiz ko‘pligi, xilma-xilligi, kuy ijro etishda ularni bir-biri bilan uyg‘un qo‘silib ketishi jihatlari haqida muayyan tushunchalar amaliy

misollar yordamida o‘quvchilarning musiqa sozlari haqidagi tasavvurlari, ma’lumotlari kengaytiriladi.

Milliy sozlar-bizning ma’naviy boyligimiz, hayotimiz hamrohi sifatida ulardan xushnavo ohanglar taralib turishi insonga ajib bir tuygu uyg‘otishi haqida aytib beriladi. Tinglangan kuylarning tabiatи, xususiyatlari, mazmuni ochib beriladi.

Musiqa savodxonligi bosqichida – qo‘sish quyini grafik chiziqlarida ifodalanib, uni so‘zлari bilan kuylash (“Bolalar va g‘ozlar”), undagi uzun va qisqa tovushlarni chorak va nimchorak notalar bilan almashish, kuyning notalar ifodasidagi ritmik tuzilmasini bolalar cholg‘u asbobida jo‘r bo‘lish kabilar amalga oshiriladi. Shu bilan birga aytim mashqi kuyining ritmik tuzilmasini grafik chiziqlar bilan ifodalash, notali kartochkalar o‘yinida kuylash, notali ritmik tuzilmasini hosil qilish, uni bolalar cholgu asboblarida chalib kuylash, kuy registrini qo‘l harakatlari bilan ifodalash malakalari rivojlantiriladi.

Ta’kidlab o‘tish o‘rinligi, 2021-2022 o‘quv yili uchun umumta’lim maktablarining 1-sinf uchun musiqa madaniyati fanidan darslik kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta’lim standarti va milliy o‘quv dasturlari asosida mazmunan puxta hamda poligrafik jihatdan mukammal darajada nashr etildi.

### **10.3. Davlat ta’lim standarti (DTS) va o‘quv dasturining mazmuni va talablari**

#### **1-sinfda musiqa o‘qitishning mazmuni va vazifalari**

“Ta’lim to‘g‘risida Qonun” ning 35-moddasida “Umumta’lim fanlarining o‘quv dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, ta’lim oluvchilarda bilim, malaka, ko‘nikmalarni, saviyani shakllantirishga va ularning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak”, - deb ta’kidlangan<sup>1</sup>.

Birinchi sinf musiqa darslari 1-bob “Biz yoqtirgan kuy va qo‘sishlar” mavzu asosida boshlanadi. Birinchi darsda o‘quvchilarga “Qo‘sish aytish qoidalari” o‘rgatiladi. Unda A, U, O, I, Ye tovushlarini ovozda ifodalash usullari o‘rgatiladi.

---

<sup>1</sup>Ta’lim to‘g‘risidagi qonun. Toshkent. 2020. – B.20.

O‘quvchilar diqqati ularning bog‘chada o‘rgangan kuy-qo‘sishqlarini eslash, ohangidan bilib olish, nomlarini aytib berish, musiqani diqqat bilan tinglab idrok etish faoliyatlariga jalg etiladi.


Ilk mashg‘ulotlarda o‘quvchilar musiqa tinglash faoliyatida “O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi» (A.Oripov she’ri, M.Burxonov musiqasi) ni tinglashadi.

2-3 darslar davomida o‘quvchilar “Shovqinli va musiqiy tovushlar” xususida ma’lumotlarga ega bo‘lishib, o‘qituvchi darslikda mazkur mavzuga oid ishlangan rangli suratlar orqali shovqinli tovushlar va musiqiy tovushlar to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Mazkur tushunchalarni mustahkamlash maqsadida darslikning 11-betida turli rasmlar misolida o‘quvchilarning musiqiy va shovqinli tovushlarni aniqlashi topshirig‘i berilgan. O‘quvchilar mashq daftarida bu topshiriqlarini bajarishadi.

1-sinfdan boshlab o‘quvchilarda musiqa savodxonligini o‘rgatish boshlanadi. Bolalarning aksariyati maktabga kelganliklarida ular bog‘chada musiqiy mashg‘ulotlarda bolalar uchun yozilgan ayrim qo‘sishqlarni o‘rganishgan bo‘lishadi. Raqslarga tushgan bo‘lishadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga musiqa savodini o‘rgatishga kirishishda albatta bolalarda mavjud bilimlarga tayanib ish ko‘rishi maqsadga muvofiq.

Nota yo‘li haqida tushunchalar 4-darsda rejallashtirilgan bo‘lib, “Anjir” (P. Mo‘min she’ri, D. Omonullayeva musiqasi) qo‘sishig‘i o‘rganilgach, “Raqs” (N. Norxo‘jayev musiqasi) tinglash faoliyati amalga oshiriladi. Mashq daftarining 11-betidagi topshiriq (baraban cholg‘usi ritmi) ni qo‘lda chapak usulida bajarish vazifasi topshiriladi.

Musiqa dasturiga asosan eng muhim jihat o‘quvchilarni xalq musiqasi bilan tanishtirish, ularning ilk taassurotlarini shakllantirish aynan 1-sinfdan boshlanadi. Shu maqsadda darslar davomida “Andijon polkasi”, “Dilxiroj”, “Olmacha anor”, Qari navo”, “Norim-norim”, “Chittigul”, “Do‘loncha”, “Dutor bayoti”, “Xorazm lazgisi” kabi o‘zbek halq kuylarini tinglab, unga ritmik jo‘r bo‘lishadi.



Shunisi muhimki, o‘quvchi musiqa mashgulotining faoliyatları o‘zaro bog‘liqligi asosida tinglash, o‘yin, kuylash faoliyatı, musiqa savodxonligini o‘zlashtirish jarayonida kuyning yo‘nalishi, xususiyatlariga mos ifodaviy harakatlarni bajarishga jalb etilib, o‘quvchilarni musiqa mazmunini his etishga o‘rgatib boriladi.

To‘rtinchı darsdan boshlab o‘quvchilar nota chizig‘ida skripka (sol) kalitini yozishni mashq qila boshlashadi. Uni 6 ta elementlarga bo‘lib, 11-bob “Musiqa olamiga sayohat” ga yetib kelguncha skripka kalitini nota yo‘lida to‘liq yozishni o‘zlashtirishadi

2-3 darslar davomida o‘quvchilar “Zina” (P. Mo‘min she’ri, D. Omonullayeva musiqasi” qo‘srig‘i asosida 7 ta notaning joylanish tartibini o‘rganishadi. Xuddi shu asosda tinglash bilan musiqa savodxonligi faoliyatlarida uzviy bog‘liqlik ta’milanadi.

Jamoaviy aytim faoliyatida o‘quvchilar “Salom bergen bolalar” (P. Mo‘min she’ri, N.Norxo‘jayev musiqasi), “Pianino” (M.Zaynitdinova she’ri, J Najmiddinov musiqasi), “Alifbo bayrami” (P. Mo‘min she’ri, D. Omonullayeva musiqasi) kabi qo‘shiqlarni kuylashni o‘rganishadi. Shuningdek, darslikda ko‘rsatilgan mashq daftarida topshiriqlarni bajarish faoliyati ham davom ettirishadi.

O‘quvchilarning 11-bob mashg‘ulotlaridan olgan tushuncha ma’lumotlarni mustahkamlash maqsadida tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish, shovqinli va musiqiy tovushlarga oid rasmlı hamda “Andijon polkasi”, “Olmacha anor” kuyi ritmini ijro etib o‘rganish mashqlari berilgan. Shuningdek, “Do”, “Re”, “MI” notalarining nota yo‘liga joylanishini mustahkam o‘zlashtirish uchun she’riy to‘rtliklar berilgan.

Uyga kirdi notalar,  
Kech qolibdi nota **DO**  
Chiziqlarda joy yo‘qdir,  
DO da maslahat shudir  
Tezroq joylashgin sen, hoy,  
Qo‘srimcha chiziqda joy.

Birinchi chiziqda  
Mitti **MI** joylashadi.  
Quvnoq qo‘shiqlar kuylab,  
Kuyga chiroy beradi. (1-sinf “Musiqa” darsligi, 35-bet)

**RE** qo‘rqadi balanddan,  
Juda nimjondir o‘zi.  
Shuning uchun doimo,  
Chiziq ostida ko‘zi

O‘quvchilar musiqa haqida boshlang‘ich ma’lumotga ega bo‘lganliklaridan so‘ng ularni musiqaning ifoda vositalari bilan tanishtirish maqsadga muvofiq.

1-sinfda o‘quvchilar “Musiqa savodiga sayohat” qilishadi. Ular nota yozuvining elementlari (Fa, Sol, Lya, Si) butun notalarning yozilishi, nota yozuvining elementlari- chiziqlar ustida va orasida joylashgan notalar nomini o‘rganib, ularning cho‘zimi bilan qisman tanishib boradilar.

Musiqa sozlari o‘zining jarangdorligi, turli tovushlarni ifoda eta olish imkoniyati bilan kuy va qo‘sinqning mazmun - mohiyatini olib beruvchi vosita. Musiqa tilini yaxshiroq tushunish uchun o‘quvchilar xushnavo milliy cholg‘ularimizni bilishi lozim. Birinchi sinf davomida o‘quvchilar dutor, rubob, doira, nog‘ora sozlari haqida ma’lumot olishadi. Bu sozlarda ijro etiladigan ayrim kuylardan tinglashadi.

Uchinchi bob. “Musiqa savodiga sayohat” “Fa”, “Sol” notalarining nota yo‘lida joylashuviga oid she’riy to‘rtliklar bilan boshlanadi. “Norim-norim” (o‘zbek xalq kuyi, N. Norxo‘jaev qayta ishlagan), “Chittigul” (Bolalar xalq o‘yin-qo‘srig‘i), “Do‘loncha” (xalq kuyi), “Neapolitancha qo‘sinq” (P. Chaykovskiy musiqasi) kabi musiqalarni tinglab, tahlil etiladi. Chiziqlar ustida va orasida joylashgan notalar va qo‘sishimcha chiziqlarda joylashgan notalar haqida ma’lumotlar beriladi.

“Birinchi qor” (R. Tolib she’ri, N. Norxo‘jayev musiqasi), “Jo‘jalar” (P. Mo‘min she’ri, D. Omonullayeva musiqasi), “Lavlagi” (P. Mo‘min she’ri, D. Omonullayeva musiqasi), “Diloromning qo‘srig‘i” (P. Mo‘min she’ri, D. Omonullayeva musiqasi), “Nevaralar qo‘srig‘i” (S. Barnoyev she’ri, N. Norxo‘jayev musiqasi) kabi qo‘sishqlar o‘quvchilarga jamoaviy aytim tarzida o‘rgatiladi.

To‘rtinchi bob “Xushnavo milliy cholg‘ularimiz”ga bag‘ishlanadi. O‘quvchilar torli cholg‘ular - dutor, rubob, surnay, zarbli cholg‘ular- doira, nog‘ora kabi milliy sozlar, ularning tuzilishi bilan tanishib, tovushini eshitishadi. Shunisi muhimki, ushbu sozlar ta’rifi to‘rtliklarda chiroyli bayon etilgan bo‘lib, o‘quvchilarga ularni yodlash tavsiya etiladi. Ushbu to‘rtliklardan o‘qituvchi savol-topishmoq tarzida ham foydalanishi mumkin.



7-8-darslar davomida o‘quvchilar “Bastakor, shoir, sozanda va xonanda” atamalari haqida ma’lumotga ega bo‘lishadi. Tinglanadigan va kuylanadigan kuy va qo’shiqlarning ritmik tuzilishi topshiriqlar asosida qo‘lda chapak chalib ijro etish orqali o‘zlashtiriladi. Bu esa musiqiy asarlar va o‘quv materiallarning o‘quvchilar tomonidan mustahkam o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Darslikning 67-betida “Mevalarni teng qismlarga bo‘ling” topshirig‘i berilgan bo‘lib, unda olma mevasini qismlarga bo‘linishi, qismlarning qo’shilishi yoki ajratib olinishi natijasi misolida o‘quvchilar nota cho‘zimlarini mustahkam tushunib olishadi. Bunda o‘quvchilarning musiqiy bilimi shakllanishi barobarida ularning matematik savodxonlik malakasi ham rivojlantiriladi.

Shunday qilib, birinchi sinf musiqa mashg‘ulotlari, o‘quvchilarning keyingi musiqiy ta’lim-tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchi sinf o‘quvi yakunida o‘quvchilarning musiqa madaniyati fanidan egallagan kompetensiyalari quyidagi talablarga javob berishi lozim :

### **Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi:**

- Yettita notani nota yo‘lida joylashuvini biladi va yozib ko‘rsata oladi;
- Skripka (sol) kaliti nota yo‘lida joylashuvini yoza oladi;
- Tovushlarni ifodalashda nota yo‘lidan foydalana oladi;
- Cholg‘ularni tuzilishi va ovoz tembriga ko‘ra bir-birini farqlaydi.

- Kuyga ritmik jo‘r bo‘la oladi;
- Kuy ritmini chapak va bolalar cholg‘ularida ifoda eta oladi;

### **O‘zini-o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi:**

- Kuyning xarakteriga ko‘ra farqlaydi;
- Tinglangan musiqa asariga hissiy munosabat bildira oladi;
- Qo‘sish qoidalariga amal qiladi va ifodali kuylaydi;
- Tovushqatorni (diksiya, nafas mashqlari) yuqoriga va pastga to‘g‘ri kuylaydi.

### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi:**

- Musiqiy faoliyatda ishtirok etadi;
- Do‘stona munosabatni namoyon qiladi;
- Tovushlarni tembriga ko‘ra farqlaydi;
- Tovushlarni tovush balandligiga ko‘ra farqlaydi;
- Musiqiy va shovqinli tovushlarni farqlaydi.

### ***Nazorat uchun savollar:***

1. 1-sinf o‘quvchisining musiqiy-pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlarini izohlang.
2. 1- sinfda musiqa madaniyati fanidan o‘quv soatlari va ta’lim mazmunini tushuntiring.
3. 1-sinfda musiqa ta’limi mazmuni, maqsad, vazifalari nimadan iborat?
4. 1- sinf o‘quvchisining estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi tarkibiga nimalar kiradi?
5. 1- sinf o‘quvchisining o‘zini-o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasiga nimalar kiradi?
6. 1-sinf o‘quvchisining amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasini izohlang?

## **11-MAVZU. IKKINCHI SINFDA MUSIQA O'QITISHNING VAZIFALARI VA MAZMUNI**

**Tayanch so'zlar:** musiqiy qobiliyat, kuy, milliy cholg'ular, yakknavolik va jo'rnavozlik, bolalar bastakorlari, ritmik jo'r bo'lish, diqqat va xotira, musiqa savodi, jamoa bo'lib kuylash, musiqiy rebuslar.

### **11.1. Ikkinchi sinf o'quvchilarining musiqiy- pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlari tavsifnomasi**

Musiqa ta'lim-tarbiyasi bo'yicha belgilangan umumiy vazifalar ikkinchi sinf mashg'ulotlarida ham izchil davom ettiriladi. O'quvchilarning musiqa san'atiga qiziqish va mehr, ehtiyojni shakllantirish, ta'limning tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi maqsadlarini amalga oshirish asosida o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish kabi vazifalar hal etilishi nazarda tutiladi.

Ikkinchi sinf o'quvchisining bilish jarayonlari sifat jihatidan ham o'zgara boshlaydi va tez rivojiana boshlaydi. Ma'lumki, diqqat musiqiy ta'lim jarayonining zarur sharti bo'lib, musiqiy idrokning to'laligi, musiqiy o'quv materiallarining xotirada qoldirishning tez va aniqligi diqqatga bog'liqdir. Shu bois, o'quvchilarni musiqiy faoliyatining zarur shartlari bilan ta'minlash uchun o'qituvchi kichik yoshdagi o'quvchilar diqqatining xususiyatlarini yaxshi bilishi lozim.

Ta'lim jarayonida musiqiy qobiliyatni rivojlanishida - o'quvchining diqqatiga alohida ahamiyatga ega. Barcha musiqiy faoliyatlar shakllantiradigan bilim, malaka, ko'nikmalar o'quvchining diqqati asosida amalga oshiriladi. Ko'pgina tadqiqotlar birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari darsda faqat 30-35 daqiqa davomida diqqat bilan o'tirishi, o'z diqqatini muayyan nuqtaga ushlab turishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari ko'pgina umumiy xususiyatlar, jumladan, ta'limiy o'yinlar shakli orqali o'quv materialini yaxshi o'zlashtirish, yorqin xayol, muayyan xotiraga ega bo'lsalar-da, ular orasida muayyan farqlar ham ko'rindi.

Masalan, ikkinchi sinf o'quvchisi muktab sharoitiga moslashgan, kun tartibiga o'rgangan, dars talablarini tushungan, muktab, o'qituvchi, dars, dars jadvali so'zlarining ma'nosini anglagan, diqqat-

e'tibori ham ancha turg'un holatga o'tgan bo'ladi. Idrok etgan holatda faktlarni tahlil etish hamda umumlashtirish qobiliyati namoyon bo'la boshlaydi. Maktab fanlarini o'zlashtirish, o'qiy olish malakalari, uning dunyoqarashini, jumladan, musiqiy tafakkurini kengayishiga yordam beradi. Bularning barchasi o'quvchini badiiy-ijodiy jihatdan sekin-asta shakllanishga imkoniyat yaratadi.

Ikkinci sinf o'quvchisining musiqiy rivojlanish darajasi, albatta, 1-sinfda olingan nazariy bilim, malakalar, o'tkazilgan mashg'ulotlarning sifat va samaradorligiga bog'liq. Bunda shuningdek, tevarak-atrof, oila ta'siri ham bo'ladi. Biroq, bunda o'qituvchi o'quvchilar musiqiy tayyorgarligiga doimo past baho bermasligi lozim. Zero, jismoniy va ma'naviy jihatdan rivojlanayotgan barcha bolalarda musiqiy qobiliyat u yoki bu darajada shakllangan bo'lishi kuzatiladi.

Musiqiy qobiliyat faoliyatlar asosida rivojlanadi. Ruhshunos olim, professor B.M.Teplov o'zining "Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi" kitobida faoliyat bilan musiqiy qobiliyatlarning o'zaro bog'liqligi masalasini alohida ta'kidlab o'tgan.

Musiqa ta'limi samaradorligini ta'minlash o'qituvchidan o'quvchilar musiqiy qobiliyatlarini aniqlashni taqozo etadi. Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarining musiqa tinglash, savodxonlik, qo'shiq o'rganish, bolalar cholg'ularida jo'r bo'lish, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish, musiqa ijodkorligi faoliyatlarida namoyon bo'ladigan qobiliyatlarning turli darajasini ko'rish mumkin.

Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ommaviy xususiyati ham o'zining o'rniga ega. Zero, musiqiy faoliyatlar barchasida o'quvchilar yalpi tarzda jalb etilib, o'zlashtirish ommaviylik mohiyatini kasb etadi. Demak, o'qituvchi o'quvchilarining musiqiy faoliyatlar jarayonida faolligini oshirish, mashg'ulotda ommaviy jalb etish orqali ularning musiqiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga erishmog'i lozim.

Xullas, 2-sinfda musiqa ta'limi mazmuni o'quvchilarining musiqiy savodxonligini oshirish, ular faoliyatini faollashtirish, bosqichlararo o'zaro uzviy bog'liqlikni ta'minlab, dars yaxlitligiga qaratilishi kerak.

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani  
o‘quv dasturining ikkinchi sinf bo‘yicha o‘quv soatlari va  
mavzular rejasi quyidagicha:**

| <b>2 SINF</b> |                                  |                        |                      |
|---------------|----------------------------------|------------------------|----------------------|
|               | <b>Bob mavzulari nomi</b>        | <b>Ajratilgan soat</b> | <b>Haftalik soat</b> |
| 1             | Kuy                              | 9 soat                 | 1                    |
| 2             | Yakkanavozlik va<br>jo‘rnavozlik | 7 soat                 | 1                    |
| 3             | Musiqa savodiga sayohat          | 10 soat                | 1                    |
| 4             | Bolalar bastakorlari             | 8 soat                 | 1                    |
|               | <b>jami</b>                      | <b>34</b>              | <b>4</b>             |

## **11.2. Davlat ta’lim standarti ( DTS ), dasturning mazmuni hamda talablari**

Ikkinci sinfda musiqa ta’limi o‘quvchilarning birinchi sinfda olgan nazariy bilim va malakalarini takrorlash bilan boshlanadi. “Kuy” umumiy mavzusi ostida kuy haqida tushuncha beriladi. Tinglash faoliyati davomida o‘quvchilar “Mahallada duv-duv gap”, “Farg‘onacha” (o‘zbek xalq kuyi), “O‘zbek xalq kuyi” (tanbur, rubob cholg‘ulari ijrosida) kabi asarlarni tinglashadi.

Musiqa savodxonligida yarimtalik nota, chorak nota, nota yozuvining elementlari (“Do”, “RE” chorak notalarining joylanishi, yozilishi), Mi, Fa chorak notalarining yozilishi, “Do”, “Re” nimchorak notalarining joylanishi va yozilishi kabi nazariy tushunchalar beriladi.

Ikkinci sinfning 2-bobi “Yakkanavozlik” haqida tushuncha beriladi. Keyingi mashg‘ulotlarda esa jo‘rnavozlik, xonandalik haqida ma’lumotlar tushuntiriladi. “Yakkanavozlik, jo‘rnavozlik, xonandalik” san’atlariga bag‘ishlanib, o‘quvchilarning birinchi sinfda olingan musiqiy tushunchalari kengaytiriladi. O‘quvchilarga yakkanavozlik, jo‘rnavozlik va jo‘rsozlik haqida ma’lumotlar berishda - o‘qituvchi har bir ijrochilik san’ati, uning mazmun-mohiyati to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar berishi lozim.

“Yakkanavozlik- sozandaning bitta yoki yakka cholg‘uda ijro etishidir. Yakkanavoz va jo‘rnavoz ijrodagi kuy namunalarini hamda xonandalar ijrosidagi qo‘shiqlarni tinglab o‘quvchilar farqlashni

o‘rganishadi. Mazkur mavzu yuzasidan o‘quvchilar egallagan ma’lumotlar rivojlantiriladi.

O‘quvchilarga milliy cholg‘ular haqida ma’lumotlar berish – savodxonlik malakalarini rivojlantirishda muhim omillardan biridir. Chunki cholg‘u asboblarida jonli ijro jarayonida yangraydigan navolar har bir o‘quvchida muayyan his- tuyg‘ularni shakllantiradi.

O‘quvchilarga milliy sozlar vositasida ularning musiqiy savodxonlik darajasini rivojlantirish vazifasi nazarda tutilmog‘i kerak. O‘quvchilarni milliy sozlar bilan tanishtirish, ularga har bir cholg‘uning tuzilishi, tovush tusi, tovush tebranishi haqida ma’lumotlar berish, ayniqsa musiqa madaniyati darslarini milliy sozlar (kamida 2 ta cholg‘u asbobi) jo‘rligida o‘tkazish o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirishga, ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Musiqa savodxonligida kuyning takrorlanishi- musiqada “repriza” yoki “qaytarish” ma’nolarini anglatilishi tushuntirilib, nota chiziqlarida bu belgilarning yozilish tartibi ko‘rsatiladi. Musiqadagi “repriza” atamasi metodist olim D. Amanullayevning quyidagi to‘rtlik ta’rifi bilan mustahkamlash mumkin:

Kuyning asosiy qismi,  
Yana yangraydi takror.  
Bu qism chekkasida,  
Repriza belgisi bor.

O‘quvchilarda milliy cholg‘u asboblari haqida dastlabki ma’lumotlar boshlang‘ich sinflardanoq berila boshlanadi. O‘qituvchi musiqa asboblarini rasmini, imkon bo‘lganda o‘zini ko‘rsatib yoki texnik vositalari yordamida tinglaganda musiqa asarlarini tarannum etsa o‘quvchilarga qiziqarli bo‘ladi. Albatta, musiqa darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan samarali foydalanib DVD diskida yozilgan “Milliy cholg‘u asboblari bilan tanishuv” deb nomlangan musiqiy o‘quv materiali tasvirini, musiqiy slaydlar majmuidan namunalar namoyish etilsa, o‘quvchilarning milliy cholg‘u sozlari haqidagi tasavvur va tushunchalari doirasi kengayadi.

Jamoa bo‘lib kuylashda “Qizaloq” (T. Nazarov she’ri, N. Norxo‘jayev musiqasi), “Qadim Turon” (R. Tolib she’ri, N. Norxo‘jayev musiqasi), “Yomg‘ir” (P. Mo‘min she’ri, N. Norxo‘jayev

musiqasi), “Archa bayrami” (A. Rahmat she’ri, I. Akbarov musiqasi) kabi bolalar qo’shiqlari jamoaviy aytim tarzida o’rgatiladi.

2-sinfda o’quvchilarga qo’shiq aytish qoidalariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. Qo’shiq aytayotganda qomatni rostlab tutish va erkin turish.
2. Qo’shiqni mayin, ohista va baqirmsadan aytish. So‘zlarini aniq, burro talaffuz qilish.
3. Qo’shiqdagi urg‘uli bo‘g‘inlarni cho‘zibroq, urg‘usizlarni esa qisqa-qisqa aytish.
4. Nafasni avaylab, jumla oxirigacha yetkazib ishlatish.
5. Jamoa bo‘lib qo’shiq ijro qilinganda o‘rtoqlari bilan barobar aytish, ulardan keyinga ham qolmaslik, ilgarilab ham ketmaslik.
6. Qo’shiq aytayotganda musiqa o‘qituchisining qo‘l harakatlariga rioya qilib, ko‘rsatmalarini aniq bajarish.
7. Qo’shiq aytayotganda avval she’r mazmunini yaxshi tushunib, kuyga mos ravishda aytishga e’tibor berish.
8. Qo’shiqni yoqimli kuylash uchun ovozni doimo ehtiyyot qilish va kasallikdan asrash.

Dastur bo‘yicha keyingi mashg‘ulotlar “Musiqa savodiga sayyohat” umumiylar mavzu asosida davom ettiriladi. Musiqiy nazariy tushunchalar – “O‘lchov” haqida, Takt va takt chizig‘i, repriza, major, minor haqida ma’lumotlar o’quvchilarga tushuntiriladi.

2 – sinfda o’quvchi yakkaxonlik va jo‘rnavorozlik ijro turini bilishi, takt chizig‘ining nota yo‘liga ifodalanishi qoidalarini, tonika, takt chizig‘i, reprizani farqlay olishi, major va minor tovushqatori haqida tushunchalarga ega bo‘lishi lozim.

Musiqa –kuyning tuzilishida o‘lchov, usul va urg‘u, sur’at singari atamalar uchraydi. O‘quvchilarga bu musiqiy atamalarning har biri bilan alohida tanishtirish, ularning musiqa tuzilishidagi ahamiyati, o‘rni, vazifasi tushuntiriladi. Jumladan, 2-sinfda musiqa savodidan 2/4 o‘lchovi va sanalishi mavzusi, mazkur o‘lchovga oid misol va mashqlarga takt chizig‘ini qo‘yish kabi musiqiy topshiriqlarni bajarishda, shuningdek, usul, sur’at kabi musiqiy atamalarni tushuntirishda D. Amanullayevning “Nota bilan kuylaymiz” metodik qo‘llanmasidan foydalanish samarali natija beradi. Unda she’riy usulda ifodalangan qoidalarni tushunib, yodlab olish o’quvchilarning musiqa savodxonligini oshirishga yordam beradi:

Kuy qo'shiqlar yangraydi,  
Xushohang tovushlardan.  
Kuyni notaga yozsang,  
Sayrab berar qushlarday

Taktda birinchi nota,  
Doim urg'uli yangrar.  
Urg'ularda yanglishsang,  
Kuy ohangi buzilar.

Kuy hosil bo'ldi, endi,  
Ritm (usul) holi ne kechar.  
Bu jumboqni bemalol,  
O'lchovu taktlar yechar.

Kuylar tezligi- tempdir,  
Tempsiz ohangda «jon» yo'q.  
Temp bilan jonlanar kuy,  
Bo'lib goh vazmin, goh sho'x.

Musiqa tinglash faoliyatida o'zlashtirish uchun M. Glinkaning "Polka"si, P. Chaykovskiyning "Vals", J. Bizingning "Toreador marshi" va o'zbek xalq kuyi "Qashqarcha" kabi asarlar kiritilgan.



Jamoaviy aytim faoliyatida o'quvchilar "Bog' ichida" (X. Hasanova musiqasi), "Navro'zim-sho'x sozim" (H. Rahmat she'ri, N. Norxo'jayev musiqasi), "Zag'izg'on" (P. Mo'min she'ri, D. Omonullayeva musiqasi) kabi qo'shiqlarni birgalikda kuylashni o'rganishadi. Musiqali rebuslar asosida nazariy tushuncha va ma'lumotlarini yanada boyitishadi.

Ikkinci sinfnинг so'nggi choragi - "Bolalar bastakorlari" to'g'risida ma'lumotlar bilan boshlanadi. Unda bastakor Shermat Yormatov ijodi haqida ma'lumot beriladi:

"Bolalarning sevimli bastakori Shermat Yormatov 1939 yili Farg'ona viloyatida tug'ilgan. Ko'p yillardan beri yosh qo'shiqsevarlarga san'at sirlarini o'rgatib kelmoqda. Ustoz bastakor tashkil qilgan "Bulbulcha" bolalar ansambl nafaqat Respublikada, balki ko'plab chet mamlakatlarda o'zbek bolalar qo'shiqchilik san'atini targ'ib qilmoqda. Shermat Yormatov "Oymomajon rom bo'ldi", "G'ildiragim", "Sog'lom avlod qo'shig'i", "Oy bo'lamiz, toy bo'lamiz" kabi o'nlab qo'shiqlarni yaratgan.

O'zbekiston xalq artisti Shermat Yormatov bolalar qo'shiqchiligin rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun "Sog'lom avlod" ordeni bilan mukofotlangan". Kompozitor Shermat Yormatovning portreti ko'rsatiladi.

Shundan so‘ng bastakor tomonidan bolalar uchun yaratgan qo‘sishlardan namunalar audio yoki SD disk yozuvida tinglash amaliyoti bajariladi. Tinglangan asarlar o‘quvchilar tomonidan tahlil qilinadi. Bastakorning “Sog‘lom avlod qo‘sig‘i” ni o‘quvchilar jamoa bo‘lib kuylashni o‘rganishadi.

Kompozitor Nadim Norxo‘jayev ijodi bilan o‘quvchilar tanishtirilgach, uning “Chittigul” kuyi tinglanadi. Jamoa bo‘lib kuylash uchun “Hakkalar” qo‘sig‘i tanlangan.

## HAKKALAR

N.Orifjonov she'ri

N.Norxo'jayev musiqasi

Quvnoq

O - la qa - not hak ka lar, shox - dan shox ga qo' - na - siz;  
 chi - g'ir - chig' - lab ni - ma(ni) - dir iz - lab top gan bo' - la siz.

O‘quvchilar tomonidan ijodi o‘rganiladigan keyingi kompozitor Dilorom Omonullayevadir. Ijodkorning “Qo‘g‘irchoqlar bilan raqs” asarini tinglashadi. “Buvijon” qo‘sig‘ini jamoa bo‘lib kuylashni o‘rganishadi. “Buvijon” qo‘sig‘ini o‘rganish jarayonida o‘qituvchi qo‘sish kuyining ritmik tuzilmasini o‘ng va chap qo‘llarda chapak bilan ifodalash mashqini tatbiq etsa, o‘quvchilar asarni musiqiy usulini oson va puxta o‘zlashtirishga erishadilar.

Bu- vi - jo - nim, bu - vi - jon,

Meh- ri- bo- nim bu - vi - jon.

Bastakor va kompozitorlarning hayoti va ijodini bilan tanishish barobarida o‘quvchilar o‘zlarining musiqa savodxonliklarini ham oshirib borishadi. Jumladan, ikki chorak o‘lchovidagi misol va mashqlarda takt chizig‘ini qo‘yish, o‘lchovlardagi kuchli hissalarni

aniqlash, nimachorak notalar ishtirokida 2/4 o‘lchovida takt chizig‘ini qo‘yish, chiziqlar ustida joylashgan notalar (Mi, Sol, Si) xususida nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar hamda darslikda berilgan topshiriqlarni mashq daftarida bajaradilar.

Shunday qilib, 2 – sinf o‘quvi yakunida o‘quvchilarning musiqa madaniyati fanidan egallagan kompetensiyalari quyidagi talablarga javob berishi lozim.

### **Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi:**

Shovqinli va musiqiy tovushlarni ajratadi;  
Ijro (yakkanavozlik va jo‘rnavozlik) turini farqlaydi;  
Sozandani xonandan farqlaydi;  
Kompozitorni shoirdan farqlaydi;  
Cholg‘u va qo‘sish quyularni bir-biridan farqlaydi.

### **O‘zini-o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi:**

Qo‘sish aytish qoidalarini biladi, amal qiladi, ifodali kuylaydi;  
Tovushqatorni biladi va ularni yuqoriga hamda pastga to‘g‘ri kuylaydi;  
Qo‘sish aytish qoidalariga amal qiladi.

### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi:**

Butun, yarim, chorak, nimchorak nota shakllarini farqlaydi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ikkinci sinf o‘quvchisining musiqiy-pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlarini ta’riflang.
2. Ikkinci sinf uchun belgilangan o‘quv soatlari va ta’lim mazmunini izohlang.
3. Ikkinci sinf o‘quvchilarni milliy sozlar bilan tanishtirish usullari aniqlang..
4. Ikkinci sinfda o‘quvchilarning qo‘sish quyulash qoidalarini izohlang..
5. Ikkinci sinf 3-bob umumiy mavzusi qanday nomlanadi?.
6. Ikkinci sinf musiqa madaniyati darslarida kompozitorlardan kimlarning hayoti va ijodi o‘rganiladi?

## **12- MAVZU. UCHINCHI SINFDA MUSIQA O'QITISHNING VAZIFALARI VA MAZMUNI**

**Tayanch so'zlar:** *tahlil va sintez, jismoniy o'sish, ruhiy o'zgarish, musiqa ijodkorligi, kuyning o'zgarmas va o'zgaruvchan qaytarilishi, oddiy musiqa shakllari, ladni aniqlash, cholg'u asboblarini tembri, registr, sof intonatsiya, yorqin talaffuz.*

### **12.1. Uchinchi sinf o'quvchilarining musiqiy- pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlari tavsifnomasi**

Bola o'sib, rivojlanib borgan sari uning fiziologik xususiyatlari namoyon bo'lib, muskul apparati, asab tizimi ham takomillashib boraveradi. 3- sinf o'quvchilarning o'quv motivlari aniq bir maqsadni ko'zlashga qaratiladi. Ular nima uchun yaxshi o'qish, bilim olish, a'luchi bo'lish motivlarini his qila boshlaydi.

O'quvchilardagi musiqiy va psixologik o'zgarish 3-sinfda ancha sezilarli bo'lib qoladi.

Shu davrdan boshlab bolaning idrok jarayonida o'zgarishlar-o'r ganilayotgan musiqiy asarning ahamiyatli jihatlarni ilg'ab, aniqlay olish, tahlil qilib, muhokama yuritish borasida malakalarning o'sishi holati seziladi. O'quvchi tinglagan musiqadan obrazini aniq tasavvur qilib, ongli- hissiy idrok etishga harakati namoyon bo'ladi.

3-sinf o'quvchilarining tasavvur, xayolot olamida ham o'sish ro'y berib larslarda mustaqilligi oshib, kamroq chalg'iydi, xotirada saqlanib qolinadigan taassurotlar sezilarli darajada kengayadi.

9 yoshli o'quvchilar hayotda biror voqeа-hodisaning qanday tarzda yuz berishining guvohi bo'lishni, ayrim hollarda esa bu jarayonlarning ishtirokchisi bo'lishni istab qoladilar. Ularda o'z-o'zini nazorat qilish malaka va ko'nikmalarining shakllanishida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. O'quvchilarda xayol, tasavvur va idrok etish jarayonlari sekin-asta rivojlanib borishi kuzatiladi.

Yana bir jihat, bu yoshda o'quvchilar ishonuvchan, tashqi taassurotlarga beriluvchan bo'ladilar. Buyuk allomalarimiz ta'kidlaganidek, kishining fe'l-atvori hayotining dastlabki yillarda tarkib topadi va unda shu davrda shakllangan sifatlar mustahkam o'mashib oladi. Bolada ijobiy hissiyotlarni, fazilatlarni tarkib toptirish, yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish uchun butun mas'uliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi.

O‘quvchilarning mazkur yosh davrida ta’lim-tarbiyada o‘qituvchining har bir gapi, harakati, ta’sir ko‘rsatish uslubi uning uchun haqiqat mezoni vazifasini o‘taydi. Chunki o‘quvchilar o‘qituvchilariga qattiq ishonadilar, uning fikr-mulohazalarini eshitadilar, pedagogik mahoratidan ta’sirlanadilar, talablariga hamisha amal qiladilar, u bergen topshiriqlarni to‘liq bajarishga harakat qiladilar.

9-10 yoshli o‘quvchilar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda musiqiy faoliyatni tez-tez almashtirib turish maqsadga muvofiq ekanligi amaliyatda ma’lum. Uchinchi, to‘rtinchi sinf o‘quvchilari o‘z diqqatlarini butun bir dars davomida saqlab tura olsalar-da, biroq ular uchun foydali bo‘lgan qisqa tanaffuslar, vaqtি-vaqtি bilan mashg‘ulotlar turini almashtirib, sur’atini o‘zgartirib turish, nazariy va amaliy ma’lumotlarni qo‘shib o‘rgatib olib borish maqsadga muvofiqligini ta’qidlashadi.

Yuqorida bayon etilgan o‘quvchilarning jismoniy va aqliy o‘sishi, ruhiyatida, fe’l-atvorida sodir bo‘ladigan ayrim o‘zgarish holatlari musiqiy ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda, albatta hisobga olinishi lozim.

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘quv dasturining uchinchi sinf bo‘yicha o‘quv soatlari va mavzular rejasi quyidagicha:**

| 3 SINF |                           |                        |                      |
|--------|---------------------------|------------------------|----------------------|
|        | <b>Bob mavzulari nomi</b> | <b>Ajratilgan soat</b> | <b>Haftalik soat</b> |
| 1      | Musiqada pauzalar         | 9 soat                 | 1                    |
| 2      | Musiqa olamiga sayohat    | 7 soat                 | 1                    |
| 3      | Ansambl turlari           | 10 soat                | 1                    |
| 4      | Bolalar bastakorlari      | 8 soat                 | 1                    |
|        | <b>jami</b>               | <b>34</b>              | <b>4</b>             |

3-sinfda o‘quvchilar o‘lchovlar, o‘lchovlardagi kuchli hissalarni aniqlash, repriza, takt chizig‘i, butun va yarimtalik pauzalar, pauzalarni bir-biridan farqlay olish ansambl turlari va ularning bir-biridan farqlari, dirijorlik harakatlarini tushunish, ansambllar, xonandalar ansambli, cholg‘uchilar ansambli, bolalar bastakorlari, kuylanadigan qo‘shiqlarning ohangiga qarab aniqlay olish malakalariga ega bo‘lishi lozimligi nazarda tutilgan.

## **12.2. Uchinchi sinfda musiqa o‘qitishning vazifalari va mazmuni va talablari**

Uchinchi sinf o‘quvchilariga musiqiy-o‘quv materiallari hajmi va mazmuni ham ancha kengayib borishi bilan izohlanadi. Uchinchi sinfda musiqa madaniyati ta’limi “Musiqadagi pauzalar” ni o‘zlashtirishdan boshlanadi. Bu bobni o‘rganishga 9 soat ajratiladi.

Jamoaviy aytim faoliyatida “O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi (A. Oripov she’ri, M. Burxonov musiqasi) ni tinglashadi. So‘ngra mazkur asarni kuylash o‘quvchilar jamoasi tomonidan o‘zlashtiriladi. Ilk darslardan boshlab o‘quvchilar o‘tilgan mavzularni takrorlab, musiqa savodxonligidan o‘lchov, repriza, takt chizig‘ini o‘rganishadi.

Jamoa bo‘lib kuylashni amalga oshirishdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarga qo‘sish qaydiga holat, nafasni rejaga solish va ovoz hosil qilish usullari haqida metodik tavsiyanomalar berish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarni jamoaviy kuylash jarayoniga jalb qilishda quyidagilarga alohida e’tibor berish lozim: jumladan,

- 1-2 sinflarda olgan nazariy bilim va amaliy malakalarini takomillashtirish, kuylaganda gavda, bosh, yelkalar, qo’llar va oyoqlar, shuningdek ovoz apparatining erkin holatda bo‘lishini ta’minlashga erishish;

- kuylashda to‘gri nafas olish malakalarini ustida ishlash, olingan chuqur nafasdan kuylash uchun tayanch hosil qila bilish, ayniqsa, yuqorigi va pastki notalarni kuylaganda nafasdan tejamli foydalanish va uni jumla oxirigacha yetkaza olish kabi malakalarini tarkib toptirish;

- qo‘sishlarni yengil, mayin va jarangdor ovozda kuylash, og‘ir sur’atli asarlardagi uzun jumlalarni kuylaganda nafasni rejali taqsimlay olish kabi malaka, ko‘nikmalarni tarkib toptirib rivojlantirishga e’tibor qaratish kabilar talab etiladi.

O‘quv dasturiga asosan “Pauzalar”. “Butun va yarimtalik pauzalar” mavzusi ostida o‘quvchilarga “Oy bo‘lamiz, toy bo‘lamiz” (S. Barnoyev she’ri, X. Rahimov musiqasi) qo‘sishig‘i tinglash uchun eshittiriladi. Jamoa bo‘lib kuylash jarayonida o‘quvchilar “Salom, mакtab” (E. Rahimov she’ri, J. Najmiddinov musiqasi) qo‘sishig‘ini o‘rganishadi. Musiqa savodxonligidan “Nota yozushi. Butun va yarimtalik pauzalar” haqida ma’lumotga ega bo‘lishadi.

Musiqa tinglash bosqichida tavsiya etilgan o‘zbek xalq kuyi “Dilxiroj” ni o‘qituvchi ijrosida yoki audio, SD disk yozuvida tinglash mumkin. Tinglangan asar haqida o‘quvchilar o‘z fikrlarini gapirib beradilar. Asar janri, ifoda vositalarini tahlil qiladilar. O‘quvchilar kuya mos raqs elementlarini bajarish orqali milliy kuylarimizning ritmik tuzilishi, ohangdorligi, raqsbopligini tushunib oladilar.

Jamoa bo‘lib kuylash uchun “ Kimning xati chiroyli” (S. Jo‘ra she’ri, S. Hayitboyev musiqasi”, “Uzum “ (P. Mo‘min she’ri, D. Omanullayeva musiqasi), “Yomg‘ir” (N. Norxo‘jayev musiqasi) kabi bolalar qo‘shiqlari berilgan.

Musiqa savodidan o‘quvchilarga 3/4, 4/4 o‘lchovlari haqida nazariy ma’lumotlar beriladi va bu tushunchalarni amaliy o‘zlashtirish uchun mashqlar bajarish tavsiya qilinadi. Shuningdek, 2/4 o‘lchovida chorak, yarimtalik pauzalar ishtirokida mashqlar bajariladi.

Tinglash faoliyatida marsh musiqasiga murojaat etilib, kompozitor R. Shumanning “Marsh”, D. Omanullayevaning “Marsh” musiqasi eshittiriladi.

II bob “Musiqa olamiga sayohat” deb nomlanadi. Belgilangan 7 soatlik mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar milliy “Torli cholg‘ular” (dutor va rubob, g‘ijjak ) haqida ma’lumotga ega bo‘lishib, mazkur sozlarda ijro etilgan xalq kuylari namunalaridan bahramand bo‘lishadi. Shuningdek, bu sozlarning tovush tusi, chalish uslubi, tuzilishidagi o‘xhashlik va o‘ziga xos jihatlarini bilib olishadi.

Jamoa bo‘lib kuylash uchun o‘quvchilarga “Svetofor” (Safo Ochil she’ri, S. Nurmatov musiqasi), “Diyor madhi” (X. Rahmat she’ri, N. Norxo‘jayev musiqasi), “Quvnoq bolalar qo‘shig‘i” (X. Qayumov she’ri, G‘. Qodirov musiqasi) kabi asarlar tavsiya etilgan. Bu yangi qo‘shiqlar bolalar ijrosi uchun yozilgan bo‘lib, musiqiy tuzilishi, she’riy matnlarni tahlil qilinib, tarbiyaviy ahamiyatini anglab olishadi.

III bobda esa “Ansambl turlari” umumiy mavzusi ostida o‘quvchilar 10 soat davomida “Xonandalar ansamбли”, “Cholg‘uchilar ansamбли”, “Bulbulcha” bolalar ansamбли , “Tomosha” bolalar ansambllari haqida ma’lumot va tushunchalarga ega bo‘lishadi.

Musiqa tinglash jarayonida M. Leviyevning “Marsh” musiqasi damli cholg‘ular orkestri ijrosidagi yozuvni, bolalar guruhlari ijrosidagi qo‘shiqlarni, cholg‘uchilar ansamбли ijrosidagi ayrim kuylarni, “Bulbulcha” va “Tomosha” bolalar ansambllari ijrosida yozib olingan musiqiy tasvirlarni ko‘rib, audio yoki SD disk yozuvi ijrolardan namunalarni tinglashadi.

Jamoaviy aytim faoliyatida esa o‘quvchilarga “Yosh askarlar qo‘sishig‘i” (S. Barnoyev she’ri, S. Jalil musiqasi), “O‘zbek bek elim” (M. Mirzo she’ri, D. Omonullayeva musiqasi), “Obod vatan” ( Sh. Yormatov musiqasi), “Qanday yaxshi” (Sh. Yormatov musiqasi), “Bugun yana besh oldim” (Sh. Yormatov musiqasi) kabi qo‘shiqlar tavsiya qilingan.

O‘rganish jarayonida o‘quvchilar qo‘shiqlarning nomi, bastakori va shoirini aytib, o‘qituvchi tomonidan ijrosini tinglashadi. Musiqasini tahlil qilishib, asarning xarakteri, ijro sur’ati, o‘lchovi, ifoda vositalarini aniqlaydilar.

Darslikda musiqa savodidan berilgan nazariy tushunchalarni o‘zlashtirib, amaliy malakaga aylantirish maqsadida 3/4 o‘lchovida yarimtalik pauzalar ishtirokida mashqlarni takror va takror bajarishga alohida o‘rin berilgan. Bu esa o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini rivojlantirishga yordam beradi.

IV bob “Bolalar bastakorlari”, deb nomlangan bo‘lib, o‘zlashtirish uchun 8 soat belgilangan.

Kompozitorlar Farhod Alimov, Avaz Mansurov, Rustam Abdullayev, bastakor Nodira Qurbonovalarning ijodi, ular yaratgan musiqa asarlari bilan tanishib, bolalar uchun yozgan qo‘shiqlarini o‘rganishadi.

Jumladan, jamaa bo‘lib kuylashda “Oppoq qandim” (P. Mo‘min she’ri, F. Alimov musiqasi), “Muzqaymoq” (H. Qayumov she’ri, A. Mansurov musiqasi), “Qo‘zichog‘im” (I. Sulaymon she’ri, R. Abdullayev musiqasi) qo‘shiqlarini badiiy ijrosini amalga oshirib yod olishadi.

Mashg‘ulotlarning musiqa tinglash bosqichida F. Alimov, A. Mansurov, R. Abdullayevlarning bolalar uchun yozgan kuy-qo‘shiqlaridan namunalar tinglash tavsiya etiladi. Audio yoki CD disk yozuvlarini tinglash jarayonida o‘quvchilar qo‘shiqlarning nomi, kompozitori va she’r muallifini aytib, qo‘shiqlarni musiqiy tahlil qiladilar. Musiqa tinglash qoidalarini takrorlaydilar va musiqiy faoliyat amaliyotida tavsiyalarga rioya qiladilar.

Shuningdek, o‘quvchilarda musiqa savodidan nota cho‘zimi va pauzalar, o‘lchovlardagi kuchli hissalarni aniqlash malakalarini mustahkamlash maqsadida mazkur mavzularda amaliy mashqlar bajarishga ham alohida vaqt ajratiladi.

O‘quv dasturida yuqoridagi musiqiy materiallarning tavsiya etilganligi, o‘qituvchining o‘quvchilar didi, qiziqishi, musiqiy

ehtiyojini hisobga olgan holda o‘qituvchi ulardan tanlab o‘rgatish imkoniyatiga ega ekanligi musiqa darslarini yanada mazmunli, qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi.

Shunday qilib 3 – sinf o‘quvi yakunida o‘quvchilarning musiqa madaniyati fanidan egallagan kompetensiyalari quyidagi talablarga javob berishi lozim.

**Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi:**

Ansambl turlarini farqlay oladi;

Musiqaning ifoda vositalarini bir-biridan farqlaydi

Major va minorni bir-biridan farqlaydi

**O‘zini-o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi:**

Qo‘sish quylashda “repriza” belgisini to‘g‘ri qo‘llaydi;

Qo‘shiqlarni tushunib ijro etadi.

**Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi:**

Notalarning bo‘linishini (butun nota, yarim nota, chorak nota va nimchorak nota) sanog‘i va cho‘zimini biladi;

O‘lchovlarini biladi va amalda qo‘llaydi.

Takt chizig‘ini qo‘llanish xususiyatlarini biladi, musiqani diqqat bilan tinglaydi.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Uchinchi sinf o‘quvchisining musiqiy-pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlarini ta’riflang.

2. Uchinchi sinf uchun belgilangan o‘quv soatlari va ta’lim mazmunini tushuntiring.

3. Uchinchi sinfda musiqa o‘qitishning vazifalari va mazmunini izohlang..

4. Uchinchi sinfda jamoaviy aytim faoliyatida qaysi qo‘shiqlar o‘rganiladi?.

5. Uchinchi sinfda o‘quvchilar kompozitorlardan kimlarning ijodi bilan tanishtiriladi?

6. Uchinchi sinfda o‘quvchilar musiqa tinglash va tahlil etish faoliyatida qaysi musiqa asarlaridan foydalaniladi?

## **13-MAVZU. TO‘RTINCHI SINFDA MUSIQA O‘QITISHNING VAZIFALARI VA MAZMUNI**

**Tayanch so‘zlar:** musiqiy did, ehtiyoj, qiziqish bo‘yicha turlanish, og‘zaki an’anadagi professional musiqa, musiqaning ommaviy janrlari, o‘zbek xalq ijodi, kasbiy musiqa, kompozitorlik uslubi, ritmik tuzilishida kuylash.

### **13.1. To‘rtinchi sinf o‘quvchilarining musiqiy- pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlari tavsifnomasi**

Har bir sinf uchun musiqa ta’lim-tarbiyasini amalga oshirish uchun alohida vazifalar qo‘yiladi. Boshlang‘ich musiqa ta’lim-tarbiyasining asoslari birinchi sinfdan shakllantirila boshlansa, to‘rtinchi sinfda uning yakunlovchi bosqichi to‘rtinchi sinfda amalga oshiriladi.

To‘rtinchi sinf o‘quvchisiga musiqiy-pedagogik va psixologik-fiziologik tavsifnoma beriladigan bo‘lsa, bu yoshda bola to‘liq ma’nodagi o‘quvchi sifatida shakllangan bo‘ladi. Jismoniy jihatdan ham u ancha kuchli, aqliy tafakkur darajasi ham quyi sinf o‘quvchisiga nisbatan ancha yuqori, fikrlash jihatidan esa ancha keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Jiddiylik, diqqat va xotiraning rivojlanish darajasi oshadi. Bu holatlarning barchasiga mакtabda ta’lim-tarbiya ishi olib borilishi natijalari katta ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi.

Agar quyi sinflarda o‘quvchilar o‘quv-musiqiy bosqichlarning barcha turlari - jamoa bo‘lib kuylash, savodxonlik, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish, bolalar musiqa asboblarida jo‘r bo‘lish kabi faoliyatlargacha tayyor bo‘lib, qiziquvchanlik va moyillik bildiradigan bo‘lishsa-da, to‘rtinchi sinfga kelib, bolalarning qiziqishi bo‘yicha turlanish ancha aniq bo‘lib ko‘rinib qoladi.

Xuddi shu paytlarda musiqa ta’limi amaliyoti jarayonida ayrim o‘qituvchilar o‘quvchilar qobiliyatiga yetarli darajada baho berishda adashib qolish yoki e’tiborsizlik hollarini sodir qilishadi. Vaholanki, shaxsning ko‘pgina qobiliyatları, jumladan musiqiy qobiliyatları ham yoshining turli davr yoki bosqichlarida rivojlanishi mumkinligi e’tirof etilgan. Muhimi, o‘qituvchi to‘rtinchi sinf o‘quvchilari siymosida sinf - jamoa bo‘lib musiqiy ta’lim olish hayotiga ancha o‘rganib borayotgan, shu bilan birgalikda o‘z ustida mustaqil ishlash davomida

rivojlanib, ijtimoiy-madaniy hayotga qiziqishi, faolligi oshib borayotgan o‘quvchining timsolini ko‘rishi lozim bo‘ladi.

**Umumiy o‘rtta ta’lim mакtablarida musiqa madaniyati fani  
o‘quv dasturining to‘rtinchi sinf bo‘yicha o‘quv soatlari va  
mavzular rejasi quyidagicha:**

| <b>4 SINF</b> |                              |                        |                      |
|---------------|------------------------------|------------------------|----------------------|
|               | <b>Bob mavzulari nomi</b>    | <b>Ajratilgan soat</b> | <b>Haftalik soat</b> |
| 1             | O‘zbek xalq aytimlari        | 9 soat                 | 1                    |
| 2             | Xalq qo‘shiqlari va raqslari | 7 soat                 | 1                    |
| 3             | Bayram va mavsum qo‘shiqlari | 10 soat                | 1                    |
| 4             | Xalq cholg‘ulari             | 8 soat                 | 1                    |
|               | <b>jami</b>                  | <b>34</b>              | <b>4</b>             |

### **13.2. Davlat ta’lim standarti (DTS) va o‘quv dasturining mazmuni hamda talablari**

To‘rtinchi sinf o‘quvchilariga o‘zlashtiriladigan musiqiy-o‘quv materiallar shakli, hajmi va mazmuni jihatidan ham ancha kengayadi. O‘quvchilar musiqa mashg‘ulotlari davomida o‘zbek xalq aytimlari, xalq qo‘sish va raqslari, bayram, mavsumiy qo‘shiqlar hamda xalq cholg‘ulari bilan yaqindan tanishadilar.

O‘zbek xalq musiqasining ommaviy janrlariga oid nazariy bilim, amaliy malakalarni egallash ushbu sinfda olib boriladigan musiqiy ta’lim-tarbiyaviy ishlarning asosini tashkil etadi.

O‘qituvchi tomonidan o‘zbek milliy musiqa, uning tarixi, rivojlanish bosqichlari haqida qiziqarli va mazmunli ma’lumotlar berilib ushbu san’at asrlar davomida ikki asosiy yo‘nalishda - folklor va professional (kasbiy) ko‘rinishda rivojlanib kelganligini tushuntiradi. An’anaviy kasbiy musiqa mustaqil janr sifatida “Xalq musiqasi”, “Xalq kasbiy musiqasi”, “Klassik musiqa” kabi nomlar bilan atalganligi, so‘nggi vaqtarda esa ko‘proq “Og‘zaki an’anadagi professional musiqa”, - deb yuritilayotganligini izohlab o‘tadi:

Og‘zaki an’anadagi professional musiqa - musiqa ijodiyotining asosiy turlaridan. O‘quvchilar qadimdan odamlarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish jarayoni- mehnat, marosimlarda yuzaga kelib, tarixiy rivoji natijasida - xalq musiqa ijodi (musiqiy folklor) va

og‘zaki an’anadagi professional musiqa (mumtoz musiqa, bastakorlik) qatlamlariga bo‘linganligini bilib olishadi..

O‘quvchilarga musiqa darsligining 8-betida berilgan o‘zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari - xalq qo‘shiqlari, lapar janri haqida ma’lumot keltiriladi. “Lapar - ikki kishi yoki tarafma-taraf bo‘lgan ko‘pchilik tomonidan aytishuv tarzida kuylanadi. Bunda taraflar birin- ketin, navbatma-navbat “savol-javob” shaklida tuzilgan she’riy to‘rtliklarni kuylaydilar. Xalqimiz orasida mashhur bo‘lgan “Oyijon”, “Qoraqosh”, “Qilpillama” kabi laparlar shunday aytimlar jumlasidandir. Bolalarning “Oq terakmi, ko‘k terak” aytim-o‘yini ham lapar xususiyatiga ega” kabi ma’lumotlar mavzuni to‘liq tushunishga yordam beradi. Mavzu “Oyijon” o‘zbek xalq laparini tinglash bilan mustahkamlanadi.

“Yalla” janri haqida ma’lumot berganda o‘qituvchi bu janrning “lapar” bilan umumiylig va o‘ziga xos jihatlarini taqqoslaydi:

“ Yalla - ko‘pgina xususiyatlari, jumladan, raqsbopligi, ijroda ko‘pchilik ishtirok etishi bilan laparga yaqin bo‘lgan janrdir. Ammo o‘ziga xosligi- kuy va raqsning mushtarakligida mujassasdir. Shuningdek, yalla lapardan farqli o‘laroq band-naqarot shaklida bo‘lishi bunda yallachi yoki yakkaxon raqqosa o‘yinga tushib bandlarni kuylasa, naqarotni ko‘pchilik birgalikda aytadi. Yallalarda raqsbop doira usullari va turfa cholg‘ulardan iborat ansambl jo‘rnavozligi qo‘llanilishi mumkin”.

6-7-darslar davomida “Ramazon marosimi aytimlari” o‘rganiladi. O‘quvchilarga muborak ramazon oyining mazmun-mohiyati, Ramazon marosimini o‘tkazishda “Ramazon” yoki “Yo Ramazon” aytimini kuylash an’anasi, Ramazon aytimlari turli xil ko‘rinishda bo‘lsa-da, mazmunan o‘zaro yaqin bo‘lishi kabi jihatlari xususidaqiziqarli tushuncha va ma’lumotlar beriladi.

Ramazon marosimi aytimlardan quyidagi namuna tinglash uchun tavsiya etiladi:

Ramazonning uch kunini tutib keldik sizga,

Ramazonning zakotini bering bizga.

Yo Ramazon aytyp keldik eshicingizga,

Qo‘chqordek o‘g‘il bersin beshicingizga. (“Musiqa” darsligi 4-sinf, 16-bet).

Mavzuning mantiqiy davomi – “Alla aytimlari” bo‘lib, xalqimiz odatiga ko‘ra oilada yangi tug‘ilgan farzand sharafiga “Beshik to‘yi” marosimi o‘tkazilishi va beshik davrining boshlanishi, ona chaqaloqni uxlatish maqsalida, beshikni tebratib, alla yoki beshik aytimlarini bayon qilishi, allanинг tarbiyaviy ahamiyatini ma’lumotlar orqali tushuntirib beradi. Onalar ijodi bo‘lgan bu aytimlarda bolani ovutishga qaratilgan so‘z-iboralar, shuningdek onaning farzandi haqidagi orzu-niyatlari bayon qilingan to‘rtliklar badiha etiladi. “Alla” eshitgan bola kelajakda o‘z ota-onasiga mehrli, iymonli, ona tuprog‘i, el-yurtiga sodiq, vatanparvar, insonlarga hamdard bo‘ladi. (Musiqa darsligi, 4-sinf, 19- b.)

So‘ngra o‘quvchilarning o‘zbek xalq aytimi “Alla” ni tinglab undan olgan taassurotlarini gapirib berishi topshiriladi.

“Alla” qo‘sish- aytimlari bastakor va kompozitorlar tomonidan ham ijod etilishi ta’kidlanib, buyuk kompozitor Wolfgang Amadey Mosartning “Alla” aytimi o‘zbek tilidagi kuylanishi misol tariqasida keltiriladi:

|                             |                          |
|-----------------------------|--------------------------|
| Yot bolam, uxla qo‘zim,     | Ko‘kda oy yarqiraydi,    |
| Uylarda o‘chdi chiroq       | Derazadan qaraydi.       |
| Ko‘zlarining yumgin qo‘zim, | Uxlar asalarilar,        |
| Uxlar baliqlar tinchroq.    | Yot quvonchim, qunduzim. |

Alla (4-sinf “Musiqa” darsligi, 20-21-betlar)

ALLA

V.Motsart

**Shoshmasdan**

Yot bo - lam, ux - la qo' - zim,  
Uy - lar - da o'ch - di chi - roq  
5  
Ux - lar a - sal a - ri - lar Ux - lar ba - liq - lar tinch - roq

Mazkur mavzu “Oyijonim allasi” (T. Maxmudov she’ri, F. Alimov musiqasi) qo‘sishini jamoaviy kuylash hamda “Alla” haqidagi qadimiy rivoyatni o‘quvchilarga hikoya qilib berish bilan yakun topadi.

Musiqa madniyati fanining 9 darsi “Bolalar xalq o‘yin-qo‘shiqlari” ga bag‘ishlanadi. Bolalar xalq qo‘shiqlari uzoq o‘tmishdan bizgacha yetib kelgan o‘zbek xalq badiiy ijodning tarkibiy qismini tashkil etadi. Darslikda keltirilishicha, bolalar qo‘shiqlarining aksariyati o‘yin bilan yoki o‘yin vaziyatida aytilgan. Bahor faslida kuylangan “Binafsha”, “Chittigul”, Yomg‘ir yog‘aloq”, “Laylak keldi” singari qo‘shiqlar shular jumlasidandir.

Masalan, bahor chog‘i yomg‘ir shivalab yog‘arkan, shu fursatda bolalar o‘yinga berilib, “Yomg‘ir yog‘aloq” qo‘shig‘ini kuylashlari haqida aytib o‘tiladi. Mazkur qo‘shiq tinglash uchun tavsiya etiladi.

“Xalq qo‘shiqlari va raqslari” bobining o‘rganilishiga 7 soat ajratilgan bo‘lib, unda xalq qo‘shiqlari haqida tushuncha, xalq raqslari, mehnat qo‘shiqlari, to‘y marosimi qo‘shiq- taronalari haqida tushuncha va ma’lumotlar beriladi.

Musiqa tinglash uchun “Tomdan tarasha tushdi” qo‘shig‘i, Oh, Layli”, “Shag‘ala”, “Gopak”, “Bulba”, ”Kamarinskaya” raqs kuylaridan namunalar tinglash, mehnat qo‘shiqlaridan “Xo‘p hayda”, “Urchiq” kuylari, to‘y-tomosha qo‘shiqlaridan “Yor-yor”, “Surnay navosi” kuylari tinglanadi.

Jamoaviy aytim faoliyati uchun darslikda “Oftob chiqdi olamga” (xalq qo‘shig‘i), “Do‘sstar kuylaganda” (X.Hasanova musiqasi), “Vatan” (X .Rahmat she’ri, X.Hasanova musiqasi), “Yaxshi bola” (P. Mo‘min she’ri, N.Norxo‘jayev musiqasi), “Kulcha non” (P.Mo‘min she’ri, I. Hamroyev musiqasi) kabi qo‘shiqlar kiritilgan.

Musiqa savodxonligi oshirish maqsadida o‘quvchilar “Lya minor” tonalligi, “Tonika”, “Uchtovushlik” kabi mavzularni o‘zlashtirishadi.

4-sinfda o‘quvchilar qo‘shiq haqida tushunchaga ega bo‘lishi, oddiy musiqa shakllarini bilishi, band shaklini farqlay olishi, o‘zbek xalq cholg‘ularidan torli, damli va zarbli sozlarni bir-biridan farqlashi, xalq raqslarini farqini, berilgan kuy parchalarida notalarini nomlarini o‘qiy olishi, sol major tonligi tushunchasiga ega bo‘lishi, berilgan nota yo‘liga takt o‘lchoviga mos nota tayoqchalarini qo‘ya olishi kabi kompetensiyalarni shakllantirish vazifa etib qo‘yilgan.

III bob. “ Bayram va mavsum qo‘shiqlari”, deb nomlanadi. 1-2 – darslar-qish fasli qo‘shiqlari to‘g‘risida ma’lumot berishda o‘qituvchi darslikning 49-betida keltirilgan ma’lumotdan foydalanadi:

“Ma’lumki, qish faslida dehqon ham, yer ham dam oladi. Ana shu kezlarda mahalla ahli, qo‘ni-qo‘shnilar, qarindosh urug‘lar, tengur

bolalar to‘planishib, gap-gashtaklar o‘tkazishgan. Bunday gap-o‘yinlar aslida “ qish kunlariga mo‘ljallangan bo‘lib, uzun qish kechalarini obod, mazmunli qilish, ko‘ngil yozish uchun tashkil etilgan”.

3-4-darslarida “Baxshichilik san’ati” haqidagi mot va tushunchalar o‘rganiladi. Baxshi- bu “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon” kabi dostonlarning ijodkori va ijrochisi bo‘lib, u dostonlarni ham so‘zlab, ham kuylab beradi. Mavzu o‘quvchilarning “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonlaridan namunalar tinglashi bilan mustahkamlanadi.


5-6- dars bahor fasli qo‘shiqlariga bag‘ishlanadi. Bu haqda “Musiqा” darsligining 59- betida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan:

“O‘zbek xalqining yil oylari va fasllarga bog‘liq holda o‘tkaziladigan an’anaviy marosimi va udumlari bor. Masalan, go‘zal bahor faslida “Navro‘z bayrami” keng nishonlangan, lola sayllari haqida dehqonchilik mehnatining boshlanishi bilan bog‘liq “Shox moylar” marosimi o‘tkazilgan.

Shuningdek, kuz faslida yig‘im-terim ishlari olib borilgan bo‘lsa ham vaqtida gap-gashtaklar uyuştirilgan. Xalq og‘zaki musiqа ijodida ana shu kabi mavsum-marosimlarga bevosita yoki bilvosita bog‘liq qo‘shiqlar ham yuzaga kelgan”. Navro‘z bayrami qo‘shiqlaridan “Boychechak”, “Bahor keldi”, “Lola” kabi xalq qo‘shiqlari, shuningdek, “Bahorim” (Yu. Rajabiy musiqasi), “Navbahor” (N.Narzullayev she’ri, G. Qo‘chqorova musiqasi) kabi bastakorlar taronalarini tinglab, bahramand bo‘lishadi.

Mavzuning mantiqiy davomi sifatida o‘quvchilar bahor elchilari, tabiat haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirib, “Arg‘amchi” (O‘zbek xalq qo‘srig‘i), “Qichqir, xo‘rozim” (o‘zbek xalq qo‘srig‘i), “Bulbulcha” (M.Qo‘shoqov she’ri, M. Nasimov musiqasi) kabi qo‘shiqlarni jamoa bo‘lib kuylashga o‘rganishadi.

Musiqа savodxonligidan turg‘un va noturg‘un tovushlar, ton va yarim ton, alteratsiya-diez, bemol’ belgilari bilan tanishishadi. O‘qituvchi fortepiano cholg‘usi klavishlari 1 oktava doirasida o‘quvchilarga ton va yarim ton, alteratsiya belgilarining vazifasini tushuntirib o‘tadi.



Musiqa savodxonligidan turg‘un va noturg‘un tovushlar, ton va yarim ton, alteratsiya – diez, bemol belgilari bilan tanishishadi.

Musiqiy savodxonlikni oshirishda quyi sinflarda olingan bilim, malakalarga tayanib, qo‘shiqlarni nota nomi bilan kuylash iqtidorini rivojlantirish, major va minor uch tovushliliklari hamda tovushqatorlarini jo‘rli va jo‘rsiz uslubda eshitish, taqqoslab aniqlash, kuylash amaliyotlaridan foydalanish tadbirlari amalga oshiriladi. 3/4, 4/4- o‘lchovlari kuchli va kuchsiz hissalariga ko‘ra taqqoslanib, ularning farqlarini ajrata olish malakalari o‘rgatiladi.

3/4- o‘lchovida bitta (birinchisi) kuchli hissa, hamda uchinchisi-nisbiy kuchli hissadan iborat ekanligi o‘qituvchi tomonidan darslikka berilgan ma’lumot bilan mustahkamlab tushuntiriladi:

“Har qanday yangrayotgan yoki notaga tushirilgan musiqa asarining o‘z o‘lchovi bor. O‘lchovlar notaga qarab ijro etishni osonlashtiradi. Bu esa asarni tinglovchiga ma’qul bo‘lishida katta yordam beradi. O‘lchovlarning aytilishi va yozilishi quyidagicha: ikki chorak – 2/4, uch chorak- 3/4, to‘rt chorak - 4/4. Musiqada o‘lchov raqamlari asar boshlanishida, kalitlar va alteratsiya belgilaridan so‘ng qo‘yiladi”.

O‘qituvchi ushbu o‘lchovlarda bastalangan kuylardan misollar keltirib, o‘lchovlarning ta’rif-qoidasi bitilgan to‘rtliklardan foydalanib o‘rgatsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

3/4 – o‘lchovi : Uch chorakli taktlarda,

Uch chorak nota turar.

“Bir, ikki, uch”- deb sana,

Vals kuylari jo‘sh urar.

4/4- o‘lchovi : Agar poxodga chiqsak,  
Quvnoq qo‘sish qoshlaymiz  
Birdan to‘rtgacha sanab,  
Shaxdam qadam tashlaymiz.

Musiqa savodxonligidan “O‘lchov” haqidagi tushunchalarni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilar bilan nota cho‘zimlarining o‘lchov sanog‘ini aniqlash hamda ularni chapak vositasida ifoda etishga doir mashq bajariladi:



9-10-darslarda O‘zbekiston xalq artisti, sozanda va bastakor Komiljon Jabborov ijodiy faoliyati haqida ma’lumot berilib, uning “Diyorimsan” (Habibiy she’ri) qo‘sishiga tinglash uchun berilgan.

“Xalq cholg‘ulari” haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish, torli cholg‘ular haqidagi tushunchalar bilan boshlanadi. O‘quvchilarga o‘zbek xalq musiqiy cholg‘ulari 3 guruhga - torli cholg‘ular, damli (puflama) cholg‘ular va zarbli cholg‘ularga bo‘linishi tushuntirilib, dutor, tanbur, qonun, qashqar rubobi, afg‘on rubobi, ud,, g‘ijjak, sato, qo‘biz, chang kabi milliy sozlarning tuzilishi, tovush tusi, musiqa san’atidagi o‘rni, chalish vositalari xususida qiziqarli ma’lumotlar berilishi va mazkur sozlar ijrosida ayrim kuylardan namunalar tinglash tavsiya qilinadi.

An’anaviy xalq bayramlari, sayl va to‘y marosimlarida keng qo‘llaniladigan karnay, surnay shuningdek, chanqovuz, qo‘shnay, nay, sibiziq, bulamon kabi damli cholg‘ularning rangli tasviri darslikning 86-87 betlarida aks ettirilgan. Bu cholg‘ularda ijro etilgan kuylardan ayrim namunalar tinglash amalga oshiriladi.

O‘qituvchi tomonidan o‘zbek xalqining madaniy tarixida doira, nog‘ora, dovul, qayroq, zang kabi zarbli-urma cholg‘ularning o‘rni, bu sozlarning ijtimoiy-madaniy hayotdagi ahamiyati ta’kidlanadi va o‘quvchilar zarbli cholg‘ular ijrosida kuylar tinglashadi.

Atoqli san'atkor, o'zining yaratgan sermazmun qo'shiq va ashulalari, cholg'u kuylari bilan o'zbek musiqa madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan bastakor Faxriddin Sodiqovning ijodi haqidagi ma'lumot bilan tanishilgach, o'quvchilar bastakor yaratgan "Qorabayir" (A. Po'lat she'ri) qo'shig'ini tinglab, tahlil qilishadi.

Jamoaviy kuylash uchun "Kapalak va kamalak" (N. Narzullayev she'ri, N. Norxo'jayev musiqasi), "Ko'klam keladi" (P. Mo'min she'ri, Sh. Yormatov musiqasi), "Bolalik" (Dilnur she'ri, X. Hasanova musiqasi), "Yoz yaxshi" (P. Mo'min she'ri, D. Zokirov musiqasi) kabi qo'shiqlarning she'riy va nota matni berilgan.

Darslikning so'nggi sahifalarida mustahkamlash uchun topshiriqlar, testlar ko'rinishida berilgan. Shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini aniqlash va damli, zarbli, puflama cholg'ular haqidagi o'quvchilarning musiqiy tushunchalarini yanada mustahkamlash maqsadida boshqotirma mashqi keltirilgan. Qo'shiq kuylash qoidalari eslatilib, musiqa lug'ati tavsiya qilingan.

Shunday qilib, 4 – sinf o'quvi yakunida o'quvchilarning musiqa madaniyati fanidan egallagan kompetensiyalari quyidagi talablarga javob berishi lozim

### **Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi;**

Band va naqarotni bir-biridan farqlaydi;

Xalq raqslarini farqlaydi;

Uchtovushlik, tonika, alteratsiya belgilari, ton va yarim tonni biladi va amaliyotda qo'llaydi.

Pauzalarning nomlanishi, vazifalari va joylashuvini biladi va amalga qo'llaydi.

4/4 o'lchovlarini biladi va amalda qo'llaydi.

### **O'zini-o'zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi**

Xalq aytimlari va qo'shiqlarini to'g'ri kuylay oladi;

### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**

O'zbek xalq cholg'ularini biladi va ularni tinglaganda ohang tembri orqali ajratadi.

O'rganilgan qo'shiqlarni kuylaydi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. To'rtinchisi sinf o'quvchisining musiqiy-pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlarini ta'riflang.

2. To 'rtinchi sinf uchun belgilapngan o'quv soatlari va ta'lim mazmunini izohlang.

3. To 'rtinchi sinf musiqa madaniyati ta'limining o'ziga xos xususiyatlari nimada?

4. To 'rtinchi sinfda xalq qo'shiqlari va raqslari bobida nimalar o'rganiladi?.

5. To 'rtinchi sinf "Bayram va mavsum qo'shiqlari" bobini izohlab bering.

6. To 'rtinchi sinfda bolalar bastakorlaridan kimlarning ijodi, yozgan musiqa asarlari o'rganiladi?.

## **14-MAVZU. BESHINCHI SINFDA MUSIQA O'QITISHNING VAZIFALARI VA MAZMUNI**

**Tayanch so'zlar:** cholg'u orkestri, musiqiy tovush, torli-kamonli cholg'u, xor san'ati, balet va raqs, musiqali drama, opera san'ati, musiqa madaniyati, sahnaviy musiqa asarlari .mutatsiya davri, kamer orkestri, drama va komediya, faoliyat turi.

### **14.1. Beshinchi sinf o'quvchilarining musiqiy- pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlari tavsifnomasi**

Musiqiylar metodik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, musiqa ta'lim mazmunini belgilashda kichik o'smir yoshidagi 5-7 sinf o'quvchilari alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning o'smirlilik yoshiga o'tishi asosan 11-12 yoshdan, 5-sinfdan boshlanadi. Bu yoshda o'smir rivojida fiziologik va psixologik keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi.

Ayni 5-sinfda o'rta ta'lim bosqichi boshlanib, umumiyligi musiqa ta'lim-tarbiyasini amalga oshirishda o'qituvchi uchun ayrim murakkabliklar sezilishi mumkin. Chunki, ayrim maktablarda shu sinfdan boshlab musiqa darslarini mutahassis o'qituvchilar olib borishadi. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda beshinchi sinfda o'quvchilarining musiqiy, pedagogik, psixologik-fiziologik xususiyatlari quyidagi jihatlarini inobatga olishga to'g'ri keladi:

Birinchidan, bolalarning malakasi va musiqiy bilimlari turli darajada turlicha bo‘lib, 5-sinf dasturini bir xilda o‘zlashtirishga tayyor bo‘lolmasligi mumkin.

Ikkinchidan, 5-sinf bolalari psixologik va fiziologik jihatdan ancha o‘zgargan bo‘lishadi.

Uchinchidan, bolalarda vokal-xor malakalari notekis, ovoz diapozonlari barchada ham bir xil rivojlanmaganligi sababli, ularni sof unison, ansambl, dinamik me’yorga tushirib ikki ovozda kuylatish ishi ham murakkab amalga oshadi.

To‘rtinchidan, ayrim maktablarda musiqa darslari ikkinchi darajali fan bo‘lib kelganligi, boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchi mashg‘ulotlarni kasbiy darajada olib bormaganligi sababli, musiqa darsiga nisbatan bolalarda ham munosabat o‘zgacha bo‘lishi mumkin.

Bu omillarning barchasi musiqa o‘qituvchisining beshinchi sinfda o‘quvchilar bilan nihoyatda o‘ylab, oqilona ish tutishini taqozo etadi, Darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanishga to‘gri keladi. Bunda asosiy maqsad aniq: - bolalarni tezroq dasturdagi musiqa asarlariga, dars uslubiga jalb etish, musiqa san’atiga qiziqtirish, musiqiy faoliyatlarga faollashtirishdir

Zamonaviy pedagogik-psixologik adabiyotlarda 5-6 sinf bolalari “kichik o‘smir” yoshi sanalib “murakkab” davr boshlanishi bilan izohlanadi. Bunga ilmiy ma’lumotlar va keng amaliy kuzatuv natijalari dalolat beradi. Bola jismoniy rivojlanishning kuchayib borishi seziladi.

Organizmning umumiyl o‘sishi-qomat, qo‘l, oyoqlarning uzayish holati, bolaning yuragi, qon aylanish tizimining rivojlanishiga qaraganda ancha intensiv bo‘ladi. Natijada miya tez-tez kerakli ozuqani ololmay, tezda charchash, toliqish, kayfiyatni o‘zgarib turishi holatlari ro‘y berishi kuzatiladi. Bu yoshda bolalar kattalar (otonalari, o‘qituvchilar) ning o‘zlarini qanday tutishlarini kuzatib borishadi. Ular o‘zlarini ulg‘aygan, mustaqil kishi sifatida tasavvur etishadi.

5-sinfda musiqa mashg‘ulotlarini olib boruvchi o‘qituvchi, albatta o‘quvchilarning ruhiy psixologik xususiyatlarini hisobga olib borishi kerak bo‘ladi.

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani  
o‘quv dasturining beshinchi sinf bo‘yicha o‘quv soatlari va  
mavzular rejasi quyidagicha:**

| <b>5 SINF</b> |  |                        |                      |
|---------------|--|------------------------|----------------------|
|               | <b>Bob mavzulari nomi</b>  | <b>Ajratilgan soat</b> | <b>Haftalik soat</b> |
| 1             | Orkestrlar   | 9 soat                 | 1                    |
| 2             | Xor san’ati, Musiqada vokal-simfonik janrlar.  | 7 soat                 | 1                    |
| 3             | Sahnaviy musiqa asarlari- balet va raqs san’ati, musiqali drama va komediya, bolalar uchun musiqali ertak-tomoshalar | 10 soat                | 1                    |
| 4             | Opera san’ati. O‘zbek musiqasida opera janri   | 8 soat                 | 1                    |
|               | <b>jami</b>  | <b>34</b>              | <b>4</b>             |

**14.2. O‘quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari. Musiqiy kuylash va tinglash malakalari darajasi hamda qiziqishlari**

Beshinchi sinf ta’limining avvalida boshlang‘ich mактабда musiqa darslarini mutahassis bo‘lmagan o‘qituvchi olib borgan sinflar o‘quvchilarining mavjud umumiy bilim va malakalari aniqlanadi.

Birinchi chorakda yuqoridagilar hamda xalq musiqasining ommaviy janrlari, asosiy cholg‘ulari haqida ”tezlashtirib o‘qitish” metodi asosida o‘quvchilarda umumiy tushunchalar hosil etiladi.

5-sinf musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilar o‘quv yilining boshida orkestr to‘g‘risida ma’lumot olib, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri va uning damli cholg‘ulari guruhi bilan tanishadilar.

O‘quvchilarga o‘zbek xalq cholg‘u orkestri, umuman orkestr haqida ma’lumot berishni o‘qituvchi quyidagi mazmunda izohlashi mumkin:

“Orkestr - bu cholg‘ularda ijrochilar guruqlaridan tuzilgan jamoa bo‘lib, ko‘rsatilgan tarkib uchun yaratilgan musiqa asarini ijro etadi. Uni hammamiz biladigan kichik ansamblidan farqi shundaki, ba’zi sozandalardan unison-bir ovoz yoki ko‘p ovoz bo‘lib chaluvchi

guruhlari tuziladi. Orkestrlar cholg‘ularning guruhlari va tuzilishiga ko‘ra turlicha bo‘ladi: masalan, simfonik orkestr- uning tarkibiga torli, kamonli, damli (puflab chalinadigan sozlar) va zarbli cholg‘ular kiradi. Duxovoy orkestr tarkibida esa faqat mis, yogochli damli cholg‘ular va zarbli cholg‘ular bo‘ladi. Torli orkestr-skripkalar altlar, violonchellar va kontrabaslardan tuzilgan”.



Musiqa tinglash bosqichida “Sug‘diyona” orkestri ijrosida yozuvdan kompozitor Iogan Sebestyan Bax yaratgan “Hazil” syuita<sup>1</sup> 2 si-minor asarini tinglashadi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrining torli-urma va mizroblı cholg‘ulari guruhi, uning tuzilishi, cholg‘ular tarkibi bilan tanishib, o‘zbek xalq cholg‘ulari kamer orkestri ijrosi bilan tanishadilar.

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri - damli, torli, urma, mezroblı (tirnama) zarbli va torli-kamonli cholgularidan tarkib topgan.

Ta’kidlash lozimki, hamma xalqlarning ham o‘z cholgularidan tuzilgan orkestri bo‘lishi mumkin. Uzoq davrlardan beri xalqimiz o‘rtasida keng tarqalgan musiqa sozlardan - 1936 yili birinchi xalq cholg‘u asboblari orkestri tuzilgan. Cholgularimizning ko‘pchiligi bir xil sozlanishga yaqinlashtirilib katta-kichik nay, qo‘schnay, g‘ijjaklar, changlar, ruboblar kabi cholg‘ular takomillashtirildi.

O‘quvchilar o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrining torli-kamonli cholg‘ulari guruhi, zarbli cholg‘ulari guruhi, simfonik orkestr, uning

torli-kamonli cholg‘ular guruhi, simfonik orkestrning yog‘och va mis damli cholg‘ulari guruhi, simfonik orkestrning zarbli cholg‘ulari guruhi kabi musiqiy-ijodiy guruhlarning tarkibi, tuzilishi hamda o‘ziga xos jihatlari haqida bilib olishadi.

Milliy cholg‘u orkestri misolida o‘quvchilar simfonik orkestr bilan tanishishlari, audio yoki SD disk yozuvida milliy orkestr va simfonik orkestr umumiy tovush tuslaridan farqlay olishlari shart. Suhbatlar jarayonida o‘quvchilar orkestrlar turlarini aniqlashlari (xalq cholg‘u orkestrlari, estrada-simfonik orkestr, duxovoy orkestr, kamer orkestr tuzilishi, cholg‘ular tarkibini farqlay olish malakalariga ega bo‘lishlari nazarda tutiladi.

O‘qituvchi 5-sinf o‘quvchilarining musiqa savodxonligini oshirish uchun ularning boshlang‘ich sinflarda olingan bilim va malakalarini mustahkamlab, takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ta’limning musiqa savodi bosqichida o‘quvchilar musiqiy tovushlarning yaratilishi, musiqada kalitlar, notalarning bas kalitida joylashuvi, musiqada lad va tonallik tushunchalari, sol major, mi minor, musiqada dinamik belgilar, nota cho‘zimlarini uzaytiruvchi belgilar, nuqtali nota, liga kabi musiqiy- nazariy tushunchalarni o‘rganishadi.

Jamoaviy aytim faoliyatida “O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi” (A. Oripov she’ri, M. Burxonov musiqasi), “Aziz ustozlar” (To‘lqin she’ri, S. Boboyev musiqasi), “Oltin kuz” (N. Narzullayev she’ri, A. Mansurov musiqasi), “Bolalarning ko‘zlari” (Q. Ota she’ri, M. Otajonov musiqasi) kabi qo‘shiqlar kuylab o‘rganish belgilangan.

To‘lqin she’ri

Aziz ustozlar

Sobir Boboyev musiqasi

§ Mayin

5

Do - im a - ziz      hur - ma - tin - giz,      U - nut - may - miz,      meh - na - tin - giz.

Jo - na - jon - lar,      meh - ri - bon - lar,      A - ziz,      A - ziz,      us - toz lar.

5-6-sinflarda (11-13 yoshli) o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida o‘qituvchi ayrim qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bu bolaning individual xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu davrda bolalar ovozida “mutatsiya” holatining kuzatilishidir.

Ma’lumki, ovoz o‘zgarishi bu fiziologik jarayon sifatida bevosita butun organizm o‘zgarishi bilan bog‘liq. Qiz bolalarda ham ovoz paylarining o‘sishi holati kuzatiladi. O‘n uch, o‘n to‘rt yoshga kelib kuylashdan so‘ng qizlar ovozpaylarida ham qizarish va ovozning bir muncha charchash holatini sezish mumkin.

Bunday jarayonda o‘qituvchi har bir o‘quvchining fe’l-atvorini yaxshi bilishi va ovozidagi o‘ziga xos o‘zgarishlarni kuzatib borishi maqsadga muvofiq. Biroq, shuni ham ta’kidlash joizki, qizlardagi mutatsiya jarayoni o‘g‘il bolalardagidek sezilarli darajada o‘tmaydi.

Bolalar ovozini asrash va tarbiyalashda aytim mashqlarini kuylash malakalari ustida maqsadli hamda sabr bilan ish olib borilishi kerak. Jamoa bo‘lib kuylash quyidagidarga alohida e’tibor berish talab etiladi.

- kuylash jarayonidagi holat (turib yoki o‘tirib kuylash);
- nafas hosil qilish;
- tovush hosil qilish;
- SOZ;
- talaffuz, dixsiya;
- ansambl

O‘quv dasturida II bob “Xor san’ati”. “Musiqada vokal-simfonik janrlar” mavzularini o‘rganishga 7 soat ajratilgan bo‘lib, o‘quvchilar mashg‘ulotlar jarayonida xor san’ati, xor jamoasining tuzilishi va turlari, xor ijrosi uchun xalq qo‘shiqlarini moslashtirish, musiqada vokal-simfonik janrlar, qasida janri, kantata va oratoriylar xususida ancha keng doiradagi musiqiy tushunchalarga ega bo‘lishadi. O‘qituvchi xor san’atiga oid quyidagi ma’lumotlarni bayon qiladi:

“Xor (yunoncha “choros”) –vokal, xor musiqasini aytuvchi ijrochi kollektiv. Xor ashulalari bir ovozli (unison) va ko‘p ovozli bo‘ladi. Xor kollektivlariga mo‘ljallab yozilgan musiqa asari cholq‘u asboblari jo‘risiz aytildigan xor kollektivlarini akapella deb ataladi”<sup>1</sup>/

Bastakorlar yozgan asarlarning tarbiyaviy xarakterini tushunish uchun bolalarni musiqa tinglash bosqichida ko‘proq idrok etishga

<sup>1</sup> Akbarov Il. Muzika lug‘ati. Toshkent. G.G‘ulom nashriyoti. 1987. – B. 391-392.

o‘rgatish lozimdir. Bu bolalarning nazariy bilim malakalarini, tasavvurlarini kengaytiradi, musiqiy qiziqish va didlarini tarbiyalaydi.

Ko‘pincha yoshlар jiddiy mumtoz kuylarni eshitmaydilar, chunki ularni tushunmaydilar. Asta-sekin oddiydan-murakkabga tamoyili asosida o‘quvchilarda musiqa tinglash tayyorgarligini amalga oshirib borish maqsadga muvofiq. Bolalarni o‘zlari ijro etayotgan qo‘sishqlarni, murakkab asarlarni (vokal, simfonik asarlar va b.) qayta-qayta tinglab, mazmunini tushunib olishlariga yordam berish zarur.

Bu esa o‘qituvchidan o‘quvchilar musiqa madaniyatini tarbiyalash shart-sharoit va imkoniyatlaridan kengroq foydalanishni taqozo etadi

Musiqa tinglash uchun “Childirma chalay” (D.Omonullayeva musiqasi, G. Komilov she’ri, M. Burxonovning “Go‘zal qizga”, B. Umidjonovning “Alla” asarlari, M. Burxonovning “Yorlarim”, M. Burxonovning A. Oripov she’riy librettosi asosida yozilgan “Alisher Navoiyga qasida” asaridan parcha texnik vositalar yordamida tinglashni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Musiqa savodi bosqichlarida o‘quvchilarning nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida fermato, ritm (usul), partitura va klavirlar, Fa major, Re minor kabi tushunchalar bilan tanishib, o‘zlashtirib borishadi:

“Ritm - bu ma’lum bir kuy musiqiy tovushlariing uzun-qisqa bo‘lib almashinib turishidir. Har qanday kuy yoki qo‘sishq ohangining o‘z ritmi bor.” Masalan, hammamiz yaxshi biladigan “Chamanda gul” xalq qo‘sishg‘ining ritmi quyidagicha:



O‘quvchilar “Yomg‘ir yog‘aloq” (F. Shoismoil she’ri, B. Umidjonov musiqasi), “Boychechak” (o‘zbek xalq qo‘sishg‘i), “O‘zbekistonim” (F. Shoismoil she’ri, Sh. Ramazonov musiqasi), “Oppoq qish, ey oppoq qish” (P. Mo‘min she’ri, A. Varelas musiqasi) qo‘sishqlarini birgalashib kuylashni o‘rganishadi.

5-sinf uchun III bob mavzusi ancha keng bo‘lib, o‘quvchilarni sahnaviy musiqa asarlari-balet va raqs san’ati, musiqali drama va komediya, bolalar uchun musiqali ertak-tomoshalar san’ati bilan yaqindan tanishtirishni ko‘zda tutadi.

O‘quvchilarga balet san’ati, uning o‘ziga xosligi o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi: “Balet san’ati- raqs san’atining bir turidir. Bu san’at turi qadimdan mavjud. Raqsning turlari ko‘p: xalq raqlari, ball raqlari, klassik raqlar va balet kabi aniq janrlarga bo‘linadi. Balet italyancha so‘z bo‘lib, “raqs tushman”, degan ma’noni anglatadi”.

Yuqoridagi ma’lumotlar o‘zbek baletlari haqidagi tushunchalar bilan boyitiladi. Sahnaviy musiqa asarlari, balet san’ati, o‘zbek baleti, o‘zbek raqs san’ati, o‘zbek raqs mакtablari, Farg‘она-Toshkent raqs mакtabi, Xorazm, Buxoro, Qoraqalpoq va Surxondaryo raqs mакtablari, musiqali drama va komediya kabi janrlarning aloxida-alohida tuzilishi, rivojlanish tarixi, mazmun-mohiyati milliy musiqa madaniyatimizni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati tushuntirib beriladi.

Mazkur mavzularga oid nazariy tushunchalar musiqa savodi bosqichlarida o‘zlashtirilishi rejalashtirilgan kompozitor P. Chaykovskiyning “Oqqush ko‘li” baletidan parchada asosiy mavzuni notalar yordamida kuylash, dirijorlik san’ati, 2 chorakli o‘lchovda dirijorlik qilish, M. Turg‘unboevaning hayoti va ijodi, Tamaraxonim hayoti va ijodi, 3 chorakli o‘lchovda dirijorlik qilish kabi rejalashtirilgan mavzularda o‘z aksini topgan

O‘zbek xalq raqs san’ati- qadimiy san’atlardan biri. Raqs san’atida ham har bir xalqning o‘ziga xos xususiyati, musiqa va harakatlar, liboslar ifodasida o‘z aksini topgan. Raqs san’atida milliy liboslar, harakat turlari va uslublari mavjuddir.

5-sinf III bob darslari davomida o‘quvchilar musiqali drama janri, sahnaviy musiqa asarlari xususiyatlarini bilishlari, musiqali drama tarkibidagi raqs – balet janri haqidagi ma’lumotlardan bahramand bo‘lishlari kerak. Shu maqsadda o‘quvchilarga texnik vositalar yordamida P.I.Chaykovskiyning “Oqqush ko‘li” baletidan parchalar, U. Musaevning “To‘maris”, T.Jalilovning “Tohir va Zuhro” musiqali dramasidan parchalar tinglash uchun texnik vositalar yordamida eshittirish yahshi samara beradi.

Ushbu asarlarni tinglash bilan birga o‘quvchilarga musiqali drama janrining atoqli kompozitor va bastakorlari M. Leviyev, Y.Rajabiy, T.Jalilov, M.Maxmudov, S.Jalil ijodlari bilan yaqindan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o‘quvchilarning musiqali drama janri haqidagi tasavvurlarini yanada boyitishga yordam beradi.

5-sinfda o‘quvchilarga musiqali drama va komediya janri haqida bilib olish ham qiziqarlidir. O‘zbekistonda musiqa san’atining barcha janrlari qatori musiqali drama va musiqali komediya kabi sahna asarlari janri ham keng tarqalgan. Yevropadan opera janrini kirib kelishi va shu janrda ko‘p asarlar yaratilishiga o‘zimizda oldindan shakllangan, yaratilib sahnalashtirilgan musiqali asarlar, drama, komediyalar asos bo‘lgan. Bu janrga xos T.Jalilovning “Tohir va Zuhro”, M.Leviyevning “Oltin ko‘l”, T.Sodiqov va R.Gliyerning “Layli va Majnun” va boshqa asarlaridir. Ayniqsa, M.Leviyevning “Toshbolta oshiq”, I.Akbarovning “O‘jarlar” kabi musiqali komediyalari keyingi yaratilgan musiqali drama va komediyalarga ijodiy namuna bo‘lib hizmat qildi.

Jamoaviy aytim faoliyatida “Men ham askar bo‘lamon”, “Chegarachi qo‘shig‘i” (Q. Ota she’ri, A. Mansurov musiqasi), “Sumalak” (T. Bahromov she’ri, Sh. Yormatov musiqasi, “Barkamol avlod” (I. Mirzo she’ri, I. Yo‘ldosheva musiqasi), “Sumalak” (A. Obidjon she’ri, X.Hasanova musiqasi), “Varrik” (U. Abduazimova she’ri, I. Yo‘ldosheva musiqasi) kabi qo‘shiqlarni birgalikda kuylashni o‘rganishadi.

IV bob opera san’ati, o‘zbek musiqasida opera janrini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unga 8 soat mo‘ljallangan.

O‘quvchilar opera san’ati bilan tanishtiriladi. Jahon opera san’atida J. Verdi ijodining o‘rni va ahamiyati tushuntiriladi. V. Mozart, J. Bize, P. Chaykovskiy, Rimskiy-Korsakov kabi dunyo tan olgan mashhur kompozitorlarning operalari xususida ma’lumotlar beriladi. O‘zbek musiqasida opera janri, S. Yudakovning “Maysaraning ishi” operasi, uning yaratilish tarixi, musiqa madaniyatidagi o‘rni va ahamiyati tariflanadi. Bolalar uchun yaratilgan operalar to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi.

Ushbu nazariy ma’lumot va tushunchalarni amaliy mustahkamlash maqsadida musiqa tinglash bosqichida “Ruslan va Lyudmila” (M. Glinka musiqasi), J.Verdining “Aida”, “Rigoletto” operasidan parchalar, V.Mosartning “Sehrli fleyta”, operasidan parcha. J.Bizingen “Karmen” operasidagi muqaddima, S. Yudakovning “Maysaraning ishi” operasidan parchalar tinglash amalga oshiriladi.

O‘zbek musiqasida opera janri ham muhim o‘rin egallaydi. Opera “ijod”, “asar”- degan ma’noni anglatadi. Yozuvchi yoki shoir biror

adabiy asar asosida yaratilgan operani yozishdan avval o'sha asarni she'riy usulda qayta ishlab, libretto yaratadi.

O'quvchilar opera janri, opera tarkibidagi balet janri bilan yaqindan tanishishlari, musiqali drama va opera janrlari orasidagi o'ziga xoslik va farqlarni bilishlari, mashhur o'zbek opera kompozitorlari M.Ashrafiy, S.Boboyev, M.Burxonov, S.Jalil va boshqalar ijodlari bilan tanishishlari nazarda tutiladi. Shu maqsadda musiqa tinglash bosqichi uchun M.Glinkaning "Ruslan va Lyudmila" operasidan parchalar, "Dilorom" operasidan ariya va duetlar, "Maysaraning ishi" kabi asarlar orqali o'quvchilarning opera janri haqidagi badiiy tasavvurlari kengaytiriladi.

O'quvchilarning musiqiy savodxonlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida musiqiy fraza, "Hayvonlar sultoni" operasida "Bo'ri xirgoyisi" ni 4 chorakli o'lchovda dirijorlik qilib, notalarini kuylash, A. Mansurovning "Hayvonlar sultoni" operasidan "Tulki xirgoyisi" ni 4/4 chorakli o'lchovda kuylash, "Maysaraning ishi" operasining voqealar rivojini tahlil qilish, "Hayvonlar sultoni" operasidagi "Sher xirgoyisi" ni 4 chorakli o'lchovida dirijorlik qilib, notalarni kuylash malakalari shakllantiriladi.

Jamoaviy aytim faoliyati ham rivojdantirilib, "Zavqing soch, qaldirg'och" (Q. Ota she'ri, N. Norxo'jayev musiqasi), "Oymomojon rom bo'ldi" (Q. Muhammadiy she'ri, A. Mansurov musiqasi), "Quvnoq yurtim" (A. Obidjon she'ri, A. Mansurov musiqasi), "Quyosh bilan suhbat" (A. Obidjon she'ri, A. Mansurov musiqasi) kabi qator qo'shiqlarni kuylash o'zlashtiriladi.

Shunday qilib, 5 – sinf o'quvi yakunida o'quvchilarning musiqa madaniyati fanidan egallagan kompetensiyalari quyidagi talablarga javob berishi lozim.

### **Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi;**

Orkestr turlarini bir-biridan farqlaydi;

Musiqadagi vokal-simfonik janrlari, sahnaviy musiqa asarlarini biladi;

Balet va raqs san'ati, musiqali drama va komediya, bolalar uchun musiqali ertak tomoshalarini bir-biridan farqlaydi;

Tovushlarning kelib chiqishi va musiqiy kalitlarning turi va vazifasini biladi.

**O‘zini- o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi**  
Qo‘sish qaydida ovoz imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanadi;  
Xor bo‘lib a kapellalarini kuylaydi.

**Amaliy faoliyatni rivojlanish kompetensiyasi.**

Notalarning cho‘zimi va ularni nota yozuvida to‘g‘ri qo‘llaydi;  
Oddiy o‘lchovlarni dirijorlik harakati orqali ko‘rsatadi;  
Uchtovushliklarni to‘g‘ri kuylaydi;  
Alteratsiya belgilarini nota yozuvida to‘g‘ri qo‘llaydi;  
Ton va yarim tonliklarni registrda aniqlaydi

**Nazorat uchun savollar:**

1. *Beshinchi sinf o‘quvchisining musiqiy-pedagogik, psixologik-fiziologik xususiyatlarini ta’riflang.*
2. *Beshinchi sinf uchun belgilangan o‘quv soatlari va ta’lim mazmunini izohlang.*
3. *Beshinchi sinfda musiqa ta’limining o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.*
4. *Beshinchi sinfda o‘quvchilarini o‘zbek xalq cholg‘u asboblari orkestri bilan tanishtirish usullarini bayon eting.*
5. *Sahnaviy musiqa janrlarini tushuntirishda o‘qituvchining mahorati va qo‘llanadigan metod, usullarni tushuntiring.*
6. *Beshinchi sinfda “Opera san’ati va o‘zbek musiqasida opera janri” mavzularini o‘tishda musiqa tinglashning ahamiyatini izohlang.*

## **15-MAVZU. OLTINCHI SINFDA MUSIQA O'QITISHNING VAZIFALARI VA MAZMUNI**

**Tayanch so'zlar:** aqliy faoliyat, yosh xususiyatlari, kichik o'smir yosh, mumtoz musiqa, mumtoz ashula, maqom, musiqa uslublari, yallachilik san'ati, sharq xalqlari, Yevropa mumtoz musiqasi, savodxonlik bosqichi, mahalliy ijrochilik uslubi, kompozitorlik ijodi.

### **15.1. Oltinchi sinf o'quvchilarining musiqiy- pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlari tavsifnomasi**

Oltinchi-yettinchi sinf o'quvchilari psixologik - fiziologik jihatdan yaqin turadilar. Ularda o'spirinlik davri boshlanib, tabiat voqealari-hodisalariga, va hayot qonuniyatlariga jiddiy qiziq qiziq boshlaydilar. Organizmda faol o'zgarishlar- bo'yning o'sishi, buning natijasida bosh miya ba'zan yetarli darajada ozuqa ololmasligi, horg'inlik holatlari sezilishi kabilar ro'y beradi. Shuning natijasida o'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. O'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilarga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham sezish va ko'rish mumkin. O'smirlik davrida, shuningdek, ko'pincha so'zga kirmaslik, o'z kamchiliklarini sezmaslik va tan olmaslik, tajanglik kabi xususiyatlar ham o'zini namoyon qiladi. Ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning, shuningdek ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramay o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qilishadi. Ayniqsa, mazkur yoshdagi o'quvchilar o'z tashqi ko'rinishlariga, o'rtoqlari bilan o'zaro munosabatlariga e'tibor bera boshlaydilar. O'quvchilarni sinfdagi o'zi egallagan mavqega katta e'tibor berish xususiyati ko'rindi.

Shuningdek, o'smirlarda nihoyatda taqlidchanlikni ko'rish mumkin. Ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo'lsada, tashqi ta'sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchanlik ustuvor bo'ladi. Shu bilan birga ularda mardlik, jasurlik, tantilik ham xosdir.

Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, ko'ngil ochish jarayonida, xulq-atvorning tashqi shakllarida o'z ifodasini topadi. O'smir o'z kuchi va quvvati chidamliligi ortayotganini, bilim saviyasi kengayayotganini anglay boshlaydi. Bularning barchasi unda kattalik hissini rivojlantiradi.

O'smirda ortiqcha nazoratdan, zeriktiradigan g'amxo'rlikdan holi bo'lish istagi vujudga keladi. Mazkur jarayon o'z navbatida kattalar bilan munosabat va muloqotda noxush kechinmalarni paydo qilishi mumkin.

Bu jihatlarni hisobga olmagan o'qituvchi bilan ayrim bolalar o'rtasida nizo chiqishi mumkin. Shuning uchun sinfdagi har bir o'quvchini yakka va yahshi o'rganish, ular bilan to'g'ri, jiddiy va do'stona munosabatda ish tutish lozim. Zero, o'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat- voyaga etish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi bilan belgilanadi.

### **O'g'il va qiz bolalarda mutatsiyaning asosiy ko'rinishlari**

O'smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to'la hisobga olgan holda musiqiy ta'lim-tarbiyani amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu davrda bolalarda mutatsiya (ovozning o'zgarishi) davri boshlanadi. O'g'il va qiz bolalarda ovoz apparatining tuzilishi o'xshash bo'lib, mutatsiya davrida ular bir-biridan farqlanadi.

O'g'il bolalarda ovoz registr jihatidan bir oktava pasayib yo'g'onlashadi, qiz bolalarda esa registr o'z o'rnida qolib ovoz kuch, tembrga mayinligini deyarli saqlab qolinadi. Shu boisdan o'g'il bolalarda mutatsiya aktiv va sezilarli darajada kechsa, qiz bolalarda esa osoyishta hamda tekis amalga oshadi. Natijada o'g'il bolalar qo'shiq kuylaganda ba'zan sozga ham tusholmay, yuqori notalarni kuylashda qiynalib qolishadi.

Bu davrda o'gil bolalar ovozi shartli ravishda, qiz bolalar ovozi esa balog'atlari xotin-qizlar ovozi tipiga asta-sekin o'ta boshlaydi. O'g'il bolalar tomog'ida ovoz boyamlari yo'gonlashadi, qizaradi, atroflarida ba'zan shishlar ham paydo bo'ladi. Natijada diapozon qisqarib, yuqori pardalarda kuylash og'irlashadi, tez charchash holatlari paydo bo'ladi. Mutatsiya davrlarida o'g'il va qiz bolalarda qo'shiq o'rgatish ishi mas'uliyatni talab etadi.

O'rgatiladigan qo'shiqlar bolalarning ovoz imkoniyatlariga mos tushishi va dars davomida ovozlarni asrab-avaylagan holda kuylanishi lozim. Darsning asosiy qismini qo'shiq o'rgatishga sarf etib, ovozlarni charchatmaslik lozim. Ovozlarni partiyalarga aniq ajratib, ikki ovozda qo'shiq ayttirish ovoz tarbiyasining muhim vositasidir.

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani  
o‘quv dasturining oltinchi sinf bo‘yicha o‘quv soatlari va  
mavzular rejasi quyidagicha:**

| <b>6 SINF</b> |  |                        |                      |
|---------------|--|------------------------|----------------------|
|               | <b>Mavzu boblari nomi</b>  | <b>Ajratilgan soat</b> | <b>Haftalik soat</b> |
| 1             | Mumtoz musiqa va xalq musiqasining mahalliy uslublari haqida tushuncha | 9 soat                 | 1                    |
| 2             | Zamonaviy musiqa va uning xususiyatlari                                | 7 soat                 | 1                    |
| 3             | Sharq xalqlari mumtoz musiqasi   | 10 soat                | 1                    |
| 4             | Yevropa mumtoz musiqasi haqida tushuncha                               | 8 soat                 | 1                    |
|               | <b>jami</b>  | <b>34</b>              | <b>4</b>             |

**15.2. Davlat ta’lim standarti (DTS) va o‘quv dasturining mazmuni hamda talablari**

Oltinchi sinfga kelib o‘quvchilar mumtoz musiqa, mumtoz kuylar, mumtoz ashula, maqom haqida umumiy tushuncha, “Shashmaqom” - mumtoz musiqamiz asosi, “Buxoro – Samarqand” musiqa ijrochilik uslubi, sozandachilik san’ati, “Farg‘ona-Toshkent” mumtoz musiqasi, katta ashula, “Farg‘ona-Toshkent” musiqa uslubi, yallachilik san’ati kabi mavzularni o‘zlashtiradilar.

Avvalo “mumtoz” (klassika) tushunchasi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tiladi:

“Klassik, mumtoz - lotincha - “namunaviy” so‘zidan olingan bo‘lib, keng ma’noda adabiyot va san’atning turli sohalarida o‘z ijodi bilan ma’lum bir xalqning milliy madaniyati kamolotiga yoki jahon madaniyati rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan kishilar shu nom bilan yuritiladi. San’atda, adabiyotda eng yaxshi va yuksak asarlar esa - mumtoz (klassik) asarlar deb ataladi. O‘zbek mumtoz musiqasi ham shular jumlasidandir.

Ta’limiy-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun musiqiy film, tarqatma materiallar, turli musiqiy adabiyotlar, to‘plamlar, axborot texnologiyasining o‘rni va ahamiyati katta. Masalan, 6-sinfda “Mumtoz musiqa haqida tushuncha”, deb nomlangan 1-bobning “Shashmaqom – mumtoz musiqamiz asosi” mavzusini o‘tishda

musiqiy videofilmdan, o‘zbek milliy cholg‘u asboblari mavzularini o‘tishda esa “O‘zbek cholg‘u asboblari” ijrosi, uning tarixi va ijrochilik uslublari haqida ma’lumot beruvchi audio yoki SD disk yozuvlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Shuningdek, respublikamizning ilg‘or tajribali musiqa madaniyati fani o‘qituvchi-metodistlarining “Mahorat darslari”, vidiodarslaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilar musiqa asarlarini tinglash barobarida O‘zbekiston sarhadida mumtoz musiqaning ko‘p tarmoqli va mahalliy an’analarga ega ekanligi haqida ularning o‘zaro o‘xhash umumiyligi hamda o‘ziga xos jihatlari haqida tushunchalarga ega bo‘lishlari lozim.

Ushbu mumtoz qo‘shiqlarni yaratgan, kuylagan hofiz-xonanda hamda sozandalarning ijiro uslubi, yo‘li, ovoz salohiyatlari xususida qiziqarli, tarixiy ma’lumotlarga boy tushunchalar beriladi. Ularning o‘zbek musiqa, qo‘shiqchilik madaniyatiga qo‘sghan ulkan hissasi alohida ta’kidlab o‘tiladi. Shu bilan birga mumtoz san’atkorlarning ijrochilik maktabi hozirgi kunda ham davom ettirilayotganligi, bu san’at ustozdan-shogirdga ma’naviy meros sifatida o‘tib kelinayotganligi hamda ushbu an’ana kelajakda ham davom ettirilishi xususida aytib o‘tiladi:

“O‘zbek musiqasi” iborasi keng mazmunli tushuncha bo‘lib, u o‘z ichiga musiqiy merosning ikki qatlami - xalq musiqasi va kasbiy (ustozona) musiqa hamda zamonaviy ijodiyot (bastakorlik, kompozitorlik) sohalarini qamrab olishi barobarida yana to‘rtta asosiy mahalliy uslublardan tashkil topadi. Bu uslublar – “Surxondaryo-Qashqadaryo” musiqa uslubi, “Buxoro-Samarqand” musiqa uslubi, “Farg‘ona-Toshkent” musiqiy ijrochilik uslubi hamda Xorazm musiqa uslubi, deb nomlanadi.

O‘quvchilarga “Surxondaryo-Qashqadaryo” musiqa ijrochilik uslubi haqida ma’lumot berib, ushbu uslub Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hududida shakllangan barcha musiqiy-badiiy an’analarni o‘zida mujassam etganligi aytib o‘tiladi. Bunda, jumladan chorvachilik va dehqonchilik bilan bog‘liq mehnat aytimlari, mavsumiy-marosim qo‘shiqlari, cho‘ponlar hamda baxshilar san’ati mavjudligi nazarda tutiladi.

Shuningdek, musiqiy amaliyotda joriy bo‘lib kelayotgan cholg‘ular-asosan do‘mbira, qo‘biz, cho‘pon nay, chanqovuz va doyra sozlaridan iborat ekanligi tushuntiriladi.

Shuningdek, “Surxondaryo-Qashqardaryo” musiqiy ijrochilik uslubida dostonchilik san’ati ham salmoqli o’ringa ega ekanligi, doston adabiy-musiqiy asar bo‘lib, uning tarkibi nasriy va she’riy qismlardan iboratligi bayon etiladi. “Alpomish”, “Yodgor”, “Avazxon”, “Orzigul” kabi dostonlar ana shunday ko‘rinishda bo‘lib, doston ijrochilari el orasida baxshi, shoir yoki yuzboshi, deb atalishi ta’kidlanadi. Abdulla Nurali o‘g‘li, Islom Nazar o‘g‘li, Shernazar Beknazар o‘g‘li-dostonchilik mакtablarining yirik vakillaridan bo‘lib, shogirdlari bilan dostonchilik san’ati va ijrochilik madaniyatini yanada takomillashtirdilar.

Mazkur mavzularni o‘tish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ 4320 sonli Qarorida Xalqaro baxshichilik san’ati festivali ikki yilda bir marta o‘tkazilishi, dostonchilik san’atini asrab-avaylash va keng targ‘ib qilish, turli xalqlar o‘rtasida do‘stlik hamda ijodiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi belgilab qo‘yilganligi tushuntirib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Tinglash faoliyatida mumtoz musiqa asarlaridan parchalar, “Cho‘li Iroq”, “Qo‘shtor”, “Rohat”, “Jonon kuylaridan parchalar, “Ushshoq”, “Guluzorim” ashulalarini tinglash, Shashmaqom tarkibidagi asarlardan (“Tasnifi Buzruk”) tinglash, “Buxoro-Samarqand musiqa yo‘nalishidagi kuy-qo‘shiqlardan tinglash, katta ashulalardan – Dugoh Husayniy taronasi xalq musiqasi), “Bayot 1”, “Mushkuloti Dugoh”, “Nasrulloi-1” va katta ashulalardan namunalar. yallalardan namunalar tinglash rejalashtirilgan.

#### DUGOH-HUSAYN I

*Navoiy g‘azali*

M.M. ♩ = 72-76

*Farg‘ona—Toshkent тақом yo‘li*

Jamoa bo‘lib kuylashni o‘rgatishda “Toshkent” (I. Jiyanov she’ri, X. Hasanova musiqasi, “Keng Turkiston” (P. Mo‘min she’ri, N.

Norxo‘jayev musiqasi, “Ey, nozanin” (Muqimiy g‘azali) kabi asarlar tanlangan.

Darslarning savodxonlik bosqichi uchun oktavalar va ularning nomlanishi, intervallar va ularning atalishi, prima intervali, “Re”, “Fa”, “Lya” notalaridan sof prima intervali tuzish kabi nazariy mavzular o‘rganilishi tavsiya qilingan:

“Musiqani tashkil etuvchi tovushlar bir-biriga nisbatan ma’lum oraliqda joylashgan bo‘ladi. Ana shu oraliq lotinchada “interval” deb ataladi. Prima intervali italyan tilida “birinchi” degan ma’noni anglatadi. Uning ifoda belgisi “1” raqamidir. Bu interval o‘zbek xalq qo‘sish va kuylarida ko‘p uchraydi. Masalan:

**OH, LAYLI**

**Chaqqon, quvnoq**      O’zbek xalq qo’shig’i

Tom bo-shi- dato- g'o- ra, tan-dir to'-la zo- g'o- ra, zo- g'o- ra- ni yo- pol- may (o'r- toq) Cho - li kam- pir o - vo - ra.

Mumtoz musiqa va xalq musiqasining mahalliy uslublarni o‘zlashtirish uchun 7 soat ajratilgan. Unda Xorazm vohasining mumtoz musiqasi, Xorazm maqomlari, Xorazm ashulachilik san’ati, suvoralar, “Surxondaryo-Qashqadaryo” mumtoz musiqasi, musiqiy uslubi kabi mavzular qiziqarli ma’lumot va tushunchalar bilan o‘qituvchi tomonidan o‘tiladi.

Ushbu nazariy-tarixiy musiqiy tushunchalar “Aliqambar” kuyi, “Feruz 1”, Xorazm suvoralaridan namunalar, “Alpomish” dostonidan parchalar, “Surxondaryo-Qashqadaryo” musiqa uslubidagi kuy va qo‘sishlardan tinglash va ularni tahlil qilish bilan amaliy jihatdan mustahkamlanadi.

Jamoa bo‘lib kuylash faoliyatida “O‘zbegimdan aylanay” (D. A’zamova she’ri, G. Qo‘chqorova musiqasi), “Baxtli bolalik” (G. Qo‘chqorova musiqasi), “O‘zbekiston jannat” ( D. Rajab she’ri, X. Hasanova musiqasi) kabi qo‘sishlardan foydalaniladi.

Musiqa savodini oshirish maqsadida dastur va darslikda kvarta intervali, “Do”, “Mi”, “Sol” notalaridan sof kvarta intervalini tuzish, “Fa”, “Lya”, “Si” notalaridan sof kvarta intervalini tuzish, “Do-Si” gacha bo‘lgan barcha notalardan sof prima va kvarta intervallarini tuzishni mashq qilib o‘rganishadi.

III bob “Sharq xalqlari mumtoz musiqasi” deb nomlanadi.

Sharq taronalari juda boy an’ana va tarixga ega. Mashg‘ulotlar davomida Turk va Ozarbayjon musiqasining o‘xhash va o‘ziga xos xususiyatlari, turkman xalqlari mumtoz musiqasi, eron va arab xalq mumtoz musiqasi, xitoy va uyg‘ur mumtoz musiqasi, yapon va hind mumtoz musiqasi, qozoq va qirg‘iz xalq mumtoz musiqasi xususida ma’lumotlar beriladi.

Shuningdek, har bir xalqning mumtoz musiqa janri haqida ma’lumot berilganda tinglash faoliyatini amalga oshirish uchun o‘sha xalq kuy va qo‘shiqlarining ayrim namunalaridan ham foydalaniladi.

Mavzu haqida o‘quvchilar bilimlarini boyitish maqsadida o‘qituvchi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalini o‘tkazish to‘g‘risida” gi (1997 yil 11 mart, 132-son) Qaroriga asosan festival har ikki yilda bir marta Samarqand shahrida, birinchisi 1997 yilning 25 avgustiga qadar o‘tkazilishi belgilab qo‘yliganligini aytib o‘tishi o‘rinli. Shuningdek, festivalni o‘tkazish tartibi haqidagi Nizomda Xalqaro musiqa festivali Sharq xalqlari milliy musiqa san’ati namunalarini keng targ‘ib qilish, sharqona nafosatli, milliy musiqiy an’analarni asrab-avaylash va yoshlarda san’atga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ularini kamol toptirish, ijodiy aloqalar doirasini kengaytirish, tinchlik, do‘stlik, hamjihatlik g‘oyalarini ulug‘lash, o‘zaro madaniy-ma’naviy hamkorlikni mustahkamlash maqsadida ta’sis etilganligi ta’kidlab o‘tiladi.

Jamoa bo‘lib kuylash uchun “Sharq taronasi” festivali madhiyasi” (U. Azim she’ri, D. Omonullayeva musiqasi), “Gushlar” (turkman xalq qo‘srig‘i), “Do‘stlar kuylaydi” (I. Jivanov she’ri, X. Hasanova musiqasi), “Assalom, bahor” (G. Qo‘chqorova musiqasi), “Dadil bo‘lib, ahil bo‘lib” (P. Mo‘min she’ri, N. Norxo‘jayev musiqasi), “Turkiston farzandimiz” (T. Mullaboyev she’ri, D. Omonullayeva musiqasi) kabi qo‘shiqlar o‘rganiladi.

Bu qo‘shiqlarni o‘rganish jarayonida o‘qituvchi albatta, o‘quvchilarning mutatsiya davrini hisobga olishi, ayrim baland pardada kuylanadigan qo‘shiqlarni transpozitsiya qilib o‘rgatishiga e’tibor berishi kerak. Sharq xalqlari mumtoz musiqasi, zamonaviy

qo'shiqlari ohangi, so'z matnlari, so'z mazmunining ohangda ifodalilik xususiyati, o'zaro uyg'unlik masalalariga o'quvchilar diqqatini jalb etib, asarlarni musiqiy-pedagogik tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Musiqa savodidan kvinta intervali, "Mi", "Fa", "Sol" notalaridan sof kvinta intervalini tuzish, "Do, Lya, Si" notalaridan sof kvinta intervalini tuzish, oktava intervali, "Do, Mi, Sol" notasidan sof oktava intervallarini tuzish, "Re, Fa, Lya" notalaridan oktava intervallarini tuzishni o'zlashtirishadi.

O'quvchilar "Yevropa mumtoz musiqasi" haqida tushunchalarni egallash uchun kompozitorlar Y. Gaydn, V. Mozart, Lyudvig van Betxoven, Friderik Shopen, M.I.Glinka kabi buyuk kompozitorlarning hayoti va ijodi, ular yaratgan mashhur musiqa asarlardan namunalar bilan tanishadilar. Jamoa bo'lib kuylashda "Yakkadir, Toshkent" (U. Qo'chqor she'ri, D.Omonullayeva musiqasi), "Laylaklar" (A. Obidjon she'ri, H. Hasanova musiqasi), "Bolaligim", "Shamol" (N. Qurbonova musiqalari) kabi qo'shiqlar o'rgatish uchun tanlangan.

Musiqa savodxonligini yanada rivojlantirish maqsadida o'quvchilar intervallar ketma-ketligini joylashtirishga oid topshiriqlar, berilgan namunalardan sof oktava intervallarini aniqlash, simfoniya haqida tushuncha, Shopenning "Mazurka" sidan kvarta va kvinta intervallarini aniqlash, berilgan kuyni solfedjio qilib kuylash kabi topshiriqlarni amalda bajarishadi.

### **15.3. O'qituvchining asosiy vazifalari**

O'quv xonasidagi umumiy ruhiy holat, kayfiyatni va o'quvchilarning musiqa madaniyati darsiga va san'atiga bo'lgan munosabatini har tomonlama o'rganib inobatga olish maqsadga muvofiq. Shuningdek, har bir o'quvchining musiqiy-pedagogik va psixologik - fiziologik jihatdan chuqur o'rganish, uning ovoz o'sishi, mutatsiya davrini hisobga olib, ovoz imkoniyatiga ko'ra partiyasini belgilab olishi;

- bolalarni musiqa san'ati va ta'limiga qiziqtirish va mehrini oshirish. Ularning ongi va shuuriga "musiqa – inson ruhiy olamining ozug'i, hayotning badiiy aksi, kishi qalbining doimiy yo'ldoshi" ekanligi haqida tushunchalarni singdirishi;

- musiqa mazmunini madaniy hayotimiz bilan bog'lab o'tish, uning vositasida axloqiy-estetik tarbiya berish, musiqa madaniyati

dars mazmunini boshqa predmetlar bilan boglab olib borishga erishishi talab etiladi.

Shunday qilib, 6-sinf o‘quvi yakunida o‘quvchilarning musiqa madaniyati fanidan egallagan kompetensiyalari quyidagi talablarga javob berishi lozim .

### **Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi;**

Xalq musiqasining mahalliy uslublari va ularning ijro usullarini bir-biridan farqlaydi;

Maqom, dostonlar, zamonaviy musiqa ijodini bir-biridan farqlaydi;  
Xalq sozandalari bilan xonandalari ijodini bir-biridan farqlaydi;

Oktavalarning tuzilishi va nomlanishini biladi;

Musiqa festivallari va ko‘rik-tanlovlarini bir-biridan farqlaydi;

O‘zbek va Sharq mumtoz musiqasini bir-biridan farqlaydi.

### **O‘zini – o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi**

Tinglovchilik madaniyatiga amal qiladi;

Qo‘shiqlarni cholg‘u jo‘rligida bирgalikda kuylaydi.

### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**

Kichik hajmdagi mashqlarni kuylay oladi;

Turli tuzilishdagi qo‘shiqlarni kuylaydi;

Sharq xalqlari cholg‘ularini bir-biridan farqlaydi;

Intervallarni ( sof, katta va kichik) to‘g‘ri tuzadi

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Oltinchi sinf o‘quvchisining musiqiy-pedagogik, psixologik-fiziologik xususiyatlarini ta’riflang.

2.Oltinchi sinf uchun belgilangan o‘quv soatlari va ta’lim mazmunini izohlang.

3. Oltinchi sinf musiqa ta’limining o‘ziga xos jihatlarini izohlang.

4.O‘g‘il va qiz bolalarda mutatsiya asosiy ko‘rinishlarini izohlang.

5. O‘quvchilar mahalliy musiqa ijrochilik uslublarini o‘rgatish usullarini tushuntiring.

6. O‘quvchilarni “Sharq xalqlari mumtoz musiqasi” bobini o‘qitish mazmuni va usullarini tushuntiring.

7. Oltinchi sinf musiqa ta’limida o‘qituvchining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

## **16-MAVZU. YETTINCHI SINFDA MUSIQA O'QITISHNING VAZIFALARI VA MAZMUNI**

*Tayanch so'zlar: musiqa turlari, o'zbek zamonaviy musiqasi, ommabop musiqa, estrada musiqasi, musiqa namunalari, televidenie va kino, sauntrek, musiqa madaniyati, estrada orkestri, kino musiqasi, kasbiy musiqachilar.*

### **16.1. 7- sinfda musiqa o'qitishning vazifalari va mazmuni**

**Umumiy o'rta ta'lif maktablarida musiqa madaniyati fani o'quv dasturining yettinchi sinf bo'yicha o'quv soatlari va mavzular rejasi quyidagicha:**

|   | 7 SINF                                    |                 |               |
|---|---|-----------------|---------------|
|   | Mavzu boblari nomi                        | Ajratilgan soat | Haftalik soat |
| 1 | Musiqa turlari. O'zbek zamonaviy musiqasi | 9 soat          | 1             |
| 2 | Estrada musiqasi                          | 7 soat          | 1             |
| 3 | Televidenie va kino musiqasi              | 10 soat         | 1             |
| 4 | Musiqa madaniyati haqida umumiy tushuncha | 8 soat          | 1             |
|   | <b>jami</b>                               | <b>34</b>       | <b>4</b>      |

7-sinfda o'rganiladigan mavzular doirasida o'quvchilar musiqa turlari, XX asr O'zbekiston musiqa madaniyati, musiqa ta'limga ulkan hissa qo'shgan kompozitor V. Uspenskiyning hayoti va ijodi, Y. Rajabiyning buyuk xizmatlari haqidagi ma'lumot va tushunchalar o'rganiladi. Zamonaviy musiqa va ularning turlari, ommabop musiqa (rok, pop, djaz) va Ommaviy qo'shiqlar xususida nazariy bilim, amaliy ko'nikmalarni ma'lumot va tushunchalarni egallashadi.

Tinglash jarayonida o'quvchilar Ona-Vatanni madh etadigan qo'shiqlardan namunalar, "Zaynab va Omon" operasidan Ergash qo'shig'i, "Mustaqillik bolalarimiz" (N.Narzullayev she'ri, R. Abdullayev musiqasi), ommabop musiqa namunalaridan "Jahon farzandlari" (G. Qurbonova musiqasi) kabi taronalarni tinglashadi.

Jamoa bo'lib kuylashda o'quvchilar ozod yurt, tinchlik, baxtli bolalik, quvnoq yoshlik haqidagi qo'shiqlarni o'rganishadi. Ayniqsa, "O'zbekiston-onajon" (Q. Ota she'ri, M. Otajonov musiqasi),

“Tinchlik bo‘lsin” (X.Ahmedova she’ri, X. Hasanova musiqasi), “Bolaligim, bolalik” (N. Qurbonova musiqasi), “Chamandagi gullarmiz” (P. Mo‘min she’ri, N. Norxo‘jayev musiqasi) kabi birgalikda kuylanadigan asarlari o‘smirlarni uzoq vaqt xotirasida qoladi.

Musiqa savodxonligidan intervallar mavzusi eslatilib, interval-birin-ketin yoki bir vaqtda eshitilgan ikki tovush oralig‘i xususidagi qoida takrorlanadi. Amaliy malaka sifatida katta va kichik intervallar, sekunda intervali, “Do”, “Mi”, “Sol” notalaridan Ka 2 ni tuzish, kichik sekunda ( ki 2), “Re”, “Fa”, “Lya” notalaridan ki 2 ni tuzish singari mavzularni o‘quvchilar nazariy o‘rganib, amaliy o‘zlashtiradilar.

II bob – estrada musiqasi mavzusida O‘zbekistonda estrada musiqasi, estrada orkestri. Botir Zokirov ijodining estrada san’atidagi o‘rni, “Yalla” guruhining ijodiy faoliyatini o‘rganishga mo‘ljallangan. Mashg‘ulotning avvalida o‘qituvchi estrada musiqasi xususida ma’lumotlarni taqdim qiladi:

Estrada (ispancha-taxtasupa), estrada san’ati esa keng ma’noda-ko‘ngilochar, ommabop badiiy, musiqiy, raqs, tomoshaviy janr va shakllarning umumiyl ifodasi, tor ma’noda esa sahnaviy professional san’ati turi ekanligini tushuntirib beradi.

So‘ngra o‘qituvchi buyuk san’atkor Botir Zokirov hayoti va ijodidan ayrim tarixiy lavhalar o‘quvchilar diqqatiga havola qilinadi:

“Zokirov Botir Karimovich 1936-yil 26 aprelda ustoz san’atkor Karim Zokirov oilasida tavallud topgan. U o‘zbek estrada musiqasining asoschisi, o‘zbek milliy estrada san’atining yirik namoyandası, ajoyib shoir, rassom, dramaturg, rejissor va mohir xonandadir. U 1965 yilda “O‘zbekiston xalq artisti” unvoniga sazovor bo‘lgan.

M. Burxonovning “Maftun bo‘ldim”, I. Akbarovning “Yor, kel”, “Ra’no”, “Gazli”, “Seni eslayman”, S. Jalilning “Majnun monologi”, “Kechalar yulduz sanab” kabi qo‘shiqlar uning ijrosida yangrab alohida hurmatga va xalq olqishiga sazovor bo‘lgan vokal assarlardir. Shuningdek, Botir Zokirov estrada uslubida qayta ishlangan hind “Dil orzusi”, “Meychele”, eroncha “Maro bebus”, “Ayriliq qo‘shig‘i”, misr “Arabcha tango”, “Uyqum o‘g‘risi” livancha “Go‘zal qiz”, meksikancha “Alvido muhabbat”, italyancha “Yashirin muhabbat” qo‘shiqlarini ham katta mahorat bilan ijro etgan”.

Estrada orkestri - o‘zagi elektr cholg‘ular (gitaralar, sintezatorlar bo‘lsa, damli saksafonlar ham) qo‘shiladi va torli-kamonli, zarbli cholg‘ular guruhlari bilan boyitiladi.

Tinglash faoliyatida ham milliy estrada san’ati xazinasidan ayrim namunalar taqdim etilishi rejalashtirilgan. Jumladan, “O‘zbek” (T. Sodiqov ijrosidagi yozuvdan), “Ra’no” (S. Akbariy she’ri, Ik. Akbarov musiqasi) qo‘shig‘ini (B. Zokirov ijrosidagi yozuvdan), “Yalla” guruhi qo‘shiqlaridan namunalar tinglash belgilangan.

Jamoa bo‘lib kuylash uchun “Barkamol avlod” (I. Jiyanov she’ri, X. Hasanova musiqasi), “Bolaligim, bolalik” (N. Qurbonova musiqasi) qo‘shiqlari kiritilgan.

Musiqa savodxonligidan intervallar mavzusi davom ettiriladi. tersiya intervali. Ka 3, Mi, Sol, Si notalaridan Ka 3 ni tuzish, “Fa”, “Sol”, “Lya” notalaridan ki 3 ni tuzish kabi bir qator topshiriqli tushunchalarni amaliy o‘zlashtirishadi.

III bob “Televideniye va kino musiqasi”, deb nomlanadi. Ushbu bobni o‘rganish uchun 10 o‘quv soati ajratiladi. Mazkur mavzuni o‘zlashtirish uchun o‘quvchilar saunteklar, Mirxalil Mahmudov ijodining kino musiqasida tutgan o‘rni, Manas Leviev ijodining kino musiqasida tutgan o‘rni, Ikrom Akbarovning kino musiqasida tutgan o‘rni, Doni Zokirov ijodining kino musiqasida tutgan o‘rni kabi mavzulardan qiziqarli bilim va ma’lumotlarni egallashlari lozim.

O‘quv dasturida musiqa tinglash faoliyatida M. Mahmudovning “O’tkan kunlar”, “Umid qaldirg‘ochlari” filmidan yoki “Bulbul”, “Daladagi gullar” multfilmlarida yozgan kuy namunalari tinglash uchun tavsiya qilinadi. Shuningdek, kino san’atini rivojlantirgan kuy va qo‘shiqlar, jumladan, “Maftuningman” kinofilmidan sartarosh qo‘shig‘i, “Ko‘chalar” (D. Zokirov musiqasi, T. To‘la she’ri) va boshqa asarlar ham kiritilgan.

Musiqa savodxonligidan esa seksta intervali, Do, Mi, Sol notalaridan Ka 6 ni tuzish, Re, Fa, Lya dan kich.notasidan 6 ni tuzishni mashq qilib o‘rganishadi.

Jamoa bo‘lib kuylash jarayonlarida “Yakkadir, Toshkent” (U. Qo‘chqor she’ri, D. Omonullayeva musiqasi), “Tangalik bolalar” filmidan “Tulpor” (M. Mahmudov musiqasi, U. Azim she’ri), “Yulduz va qizlar qo‘shig‘i” ( M. Leviyev musiqasi, T. To‘la she’ri), “Yurtim” (N. Qurbonova musiqasi), “Vatanginam” (A. Mansurov musiqasi, P. Mo‘min she’ri) asarlari o‘rganiladi.

IV bobda 8 soatlik darslar davomida musiqa madaniyati haqida umumiy tushuncha berish uchun Sharq allomalarining musiqa haqidagi fikr-g‘oyalari, jahon musiqa madaniyati rivojining asosiy bosqichlari, “Uyg‘onish va ma’rifatparvarlik davri” musiqa madaniyati, XIX-XX asr musiqa madaniyatiga oid mavzularni o‘zlashtirilishi belgilangan.

Tinglash bosqichlarida “Umid” Yoshlar simfonik orkestri ijrosida, Rost maqomidan “Savti kalon soqiynomasi” ashulasi, A. Vivaldining “Yil fasllari” turkumidan namuna tinglash, “Renesans davri” ga doir kuy namunalaridan tinglash, M. Tojiyevning 3-simfoniyasi va konsertidan namunalar tinglash va tahlil etish amalgamoshiriladi.

Jamoa bo‘lib kuylashda “Assalom, bahor” ( G. Qo‘chqorova musiqasi), Rost maqomidan “Savti kalon soqiynomasi” ashulasi, “Bahor” (Sh. Yormatov musiqasi, Z. Egamberdiyeva she’ri), “Tiniq osmon” ( G. Qo‘chqorova musiqasi) kabi qo‘shiqlar o‘rganiladi.

SAVTI KALON SOQIYNOMASI

*Bobur g'azali*

M.M. ♩ = 108

«Rost» maqomidan

Kel-tur-sa yuz ba-lo-ni o'-shal  
be-va-fo men-ga, Kel-sun, a-gar yu-zum-ni e-vur-sam ba-lo-men-ga.

Musiqa savodi bosqichida uchun septima intervali (Ka 7), “Fa”, “Lya”, “Do” notalaridan Ka 7 ni tuzish, “Do”, “Re”, “Mi” notalaridan kich. 7 ni tuzish singari topshiriqli ma’lumot va tushunchalar o’zlashtiriladi.

Shunday qilib, 7 – sinf o‘quvi yakunida o‘quvchilarning musiqa madaniyati fanidan egallagan kompetensiyalari quyidagi talablarga javob berishi lozim.

### **Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi;**

Musiqa turlarini biladi, o‘zbek zamonaviy estrada musiqasi bilan mumtoz musiqani bir-biridan farqlaydi;  
Televidenie va kino musiqasini biladi;  
Musiqa madaniyati haqida umumiy tushunchaga ega bo‘ladi.

### **O‘zini-o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi**

Turli tuzilishdagi qo‘shiqlarni sof ohangda kuylay oladi;  
Turli dinamik belgilarga artikullyatsiya apparatini to‘g‘ri qo‘llay oladi;

### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi:**

Qo‘shiqlar so‘z ma’nolarini tushunib, cholg‘u asbobi jo‘rligida ifodali kuylay oladi;  
Sof, katta va kichik intervallarni amalda to‘g‘ri qo‘llay oladi;  
Kino musiqa namunalaridan tinglaganda idrok etib, fikr bildira oladi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Yettinchi sinf o‘quvchisining musiqiy-pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlarini ta’riflang.
2. Yettinchi sinf uchun belgilangan o‘quv soatlari va musiqiy ta’lim mazmunini tushuntiring.
3. Yettinchi sinfda o‘tiladigan I bob mavzulari mazmuni va ajratilgan soatini aniqlang.
4. Yettinchi sinfda o‘tiladigan II bob mavzulari mazmuni va ajratilgan soatini aniqlang..
5. Yettinchi sinfda o‘tiladigan III bob mavzulari mazmuni va ajratilgan soatini aniqlang..
6. Yettinchi sinfda o‘tiladigan IV bob mavzulari mazmuni va ajratilgan soatini aniqlang.

## **16.2. 7-sinf bitiruvchilariga musiqa madaniyati fani bo‘yicha qo‘yiladigan talablar**

### **Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi:**

Skripka (sol) kaliti nota yo‘lida joylashuvini yoza oladi;  
Tabiatdagi va musiqiy tovushlarni farqlaydi;  
Tovushlarni ifodalashda nota yo‘lidan foydalana oladi;  
Shovqinli va musiqiy tovushlarni ajratadi;  
Ijro (yakkanavozlik va jo‘rnavozlik) turini farqlaydi;  
Sozandani xonandadan farqlaydi;  
Kompozitorni shoirdan farqlaydi;  
Cholg‘u va qo‘sish kuylarni bir-biridan farqlaydi.  
Ansambl turlarini farqlay oladi;  
Musiqaning ifoda vositalarini bir-biridan farqlaydi  
Major va minorni bir-biridan farqlaydi  
Band va naqarotni bir-biridan farqlaydi;  
Xalq raqslarini farqlaydi;  
Uchtovushlik, tonika, alteratsiya belgilari, ton va yarim tonni biladi  
va amaliyotda qo‘llaydi.  
Pauzalarning nomlanishi, vazifalari va joylashuvini biladi va amalgalaydi.  
Orkestr turlarini bir-biridan farqlaydi;  
Musiqadagi vokal-simfonik janrlari, sahnaviy musiqa asarlarini biladi  
Balet va raqs san’ati, musiqali drama va komediya, bolalar uchun  
musiqali ertak tomoshalarini bir-biridan farqlaydi;  
Tovushlarning kelib chiqishi va musiqiy kalitlarning turi va vazifasini  
biladi;  
Oktavalarning tuzilishi va nomlanishini biladi;  
Musiqa festivallari va ko‘rik-tanlovlarni bir-biridan farqlaydi;  
O‘zbek, sharq va jahon mumtoz musiqasini bir-biridan ajratadi;  
Oktavalarning tuzilishi va nomlanishini biladi;  
Xalq musiqasining mahalliy uslublari va ularning ijro usullarini bir-  
biridan farqlaydi;  
Maqom, dostonlar, zamonaviy musiqa ijodini bir-biridan farqlaydi;

### **O‘zini- o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi**

Yetti tovush nomini biladi va ularning ketma-ketligini kuylaydi;

Turli kichik hajmdagi qo'shiqlarni kuylaydi;  
Psixologik xususiyatlariga mos bo'lgan qo'shiqlarni kuylaydi;  
Qo'shiq aytish qoidalarini biladi, amal qiladi, ifodali kuylaydi;  
Tovushqatorni biladi va ularni yuqoriga va pastga to'g'ri kuylaydi;  
Qo'shiq kuylashda "repriza" belgilarini to'g'ri qo'llaydi;  
Qo'shiqlarni tushunib ijro etadi;  
Qo'shiq kuylashda ovoz imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanadi;  
Xor bo'lib a kapellalarni kuylaydi.  
Tinglovchilik madaniyatiga amal qiladi;  
Qo'shiqlarni cholg'u jo'rligida birgalikda kuylaydi.  
Turli tuzilishdagi qo'shiqlarni sof ohangda Kuylay oladi;  
Turli dinamik belgilarga artikullyatsiya apparatini to'g'ri qo'llay oladi

### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi:**

Milliy (doira, nog'ora, karnay, surnay) cholg'ularini bir-biridan farqlaydi;  
Yettita nota yo'lida joylashtirishni biladi va yozib ko'rsata oladi;  
Butun, yarim, chorak, nimchorak nota shakllarini farqlaydi;  
Notalarning bo'linishi (butun nota, yarim nota, chorak nota va nimchorak nota) sanog'i va cho'zimini biladi;  
2/4, 3/4, 4/4 o'lchovlarini biladi va amalda qo'llaydi;  
Takt chizig'ini qo'llanish xususiyatlarini biladi, musiqani diqqat bilan tinglaydi.  
O'zbek xalq cholg'ularini biladi va ularni tinglaganda ohang tembri orqali ajratadi.  
O'rganilgan qo'shiqlarni kuylaydi.  
Notalarning cho'zimi va ularni nota yozuvida to'g'ri qo'llaydi;  
Oddiy o'lchovlarni dirijorlik harakati orqali ko'rsatadi;  
Uchtovushliklarni to'g'ri kuylaydi;  
Alteratsiya belgilarini nota yozuvida to'g'ri qo'llaydi;  
Ton va yarim tonliklarni registrda aniqlaydi  
Kichik hajmdagi mashqlarni kuylay oladi;  
Turli tuzilishdagi qo'shiqlarni kuylaydi;  
Sharq xalqlari cholg'ularini bir-biridan farqlaydi;  
Intervallarni (sof, katta va kichik) to'g'ri tuzadi  
Sof, katta va kichik intervallarni amalda to'g'ri qo'llay oladi;

Qo'shiqlar so'z ma'nolarini tushunib, cholg'u asbobi jo'rligida ifodali kuylay oladi;  
Kino musiqa namunalaridan tinglaganda idrok etib, fikr bildira oladi.

## **17-MAVZU. XORIJIY MAMLAKATLARDA MUSIQA TA'LIMI TIZIMI<sup>1</sup>**

*Tayanch so'zlar: musiqiy ta'lim tizimi, tarbiya nazariyasi va amaliyoti, musiqiy iqtidor, internalizatsiya, guruhli kuylash, relyativ solminizatsiya, harakatda ta'lim olish, musiqa bilan o'yinlar.*

### **17.1. Har bir mamlakatning musiqa tarbiya tizimi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning ijtimoiy tuzumiga xizmat qilishi**

Jahonning ko'pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umum davlat ahamiyatiga ega bo'lib, shaxs ma'naviy kamolotini shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ma'lumki, har bir xalqning madaniyati jahon xalqlari madaniy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi.

Shu nuqtai nazardan xorijiy mamlakatlar musiqa ta'lim-tarbiya tizimining tuzilishi, mazmun-mohiyatini o'rganish ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Yoshlarni musiqa san'ati va olami bilan tanishtirish, ularning musiqa madaniyatini rivojlantirishga oid ko'plab musiqiy-pedagogik konsepsiylar, g'oyalari mavjuddir.

Ayniqsa, musiqa pedagogikasining mashhur namoyandalari Emil Jak-Dalkroz, Zoltan Koday, Karl Orf tomonidan ishlab chiqilgan musiqiy tarbiyaning yaxlit tizimlari turli mamlakatlardagi musiqa tarbiya nazariyasi va amaliyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Turli mamlakatlarda yashab ijod qilgan buyuk musiqachi-pedagoglar musiqa ta'lim-tarbiyasi tizimiga katta hissa qo'shib uni shakllantirdilar, rivojlantirib takomillashtirdilar.

Shunisi muhimki, ular yaratgan mashhur konsepsiylar rivojlangan mamlakatlar musiqa ta'lim tizimida ham turli metodik va o'quv dasturlari, darsliklarining ishlab chiqilishiga asos bo'lib xizmat qildi.

---

<sup>1</sup> Mazkur mavzuni yoritishda umumiyo o'rta ta'limda milliy dasturni tatbiq etish masalalariga bag'ishlangan seminar ( Toshkent, 2021 y. 27-30 iyun) materiallaridan foydalanildi.

Ushbu pedagoglar sharofati bilan musiqa ta’limi faqat tanlangan va iqtidorlilar uchun imtiyoz bo‘lib qolmay, u barchaga barobar foydalanish imkonini berdi.

Vengriyada musiqiy tarbiya sohasida erishilgan asosiy yutuqlar zamonaviy venger asoschilaridan biri, kompozitor, xalq og‘zaki ijodi bilimdoni, musiqashunos, pedagog Zoltan Koday (1882-1967) nomi bilan bog‘liqdir. Bolalarning musiqiy tarbiya sohasidagi o‘zining faol va cermahsul pedagogik faoliyatini Zoltan Koday 1920-yillardan boshladi. Mashhur olim XX-asrning o‘rtalarida Vengriyada ishlab chiqilgan musiqa ta’limi yondashuviga asoslanib, uning hamkasblari va izdoshlari “Koday metodi” ni amaliyotga keng tatbiq etib muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Zoltan Kodayning musiqiy tarbiya tizimida ommaviylik tamoyili asosiy o‘rin egallaydi. U xor jamoasida qo‘sinq kuylashni ommaviylik xususiyatini alohida ta’kidlagan, keng ommani xor san’ati va ijrochiligiga jalb etish ishiga alohida diqqat - e’tiborini qaratdi. Uning butun musiqiy ta’lim jarayoni xalq kuylariga asoslangan. Koday ommaviy venger maktabiga "Tonika-sol-fa" usulini amaliyotga kiritdi. Koday metodi-bu yaxlit tizim bo‘lib relyativ (nisbiy) solmizatsiya, kuylayotgan o‘quvchilarga qo‘l harakati yordamida beradigan ko‘rsatmalar, venger xalq qo‘sinqlari, musiqani chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan umumta’lim maktablari, xor sinflari hamda guruhli kuylashdan iborat

2016 yilda ushbu metod YuNESKO ning nomoddiy madaniy merosi sifatida ro‘yxatga olindi. Bugungi kunda Koday metodi butun dunyoga qo‘llaniladi. Koday metodi ikkita manbaga asoslanadi: “autentik” (asl, haqqoniy) xalq musiqasi va “sifatli” (mumtoz) musiqa.

Koday metodining natijalari intonatsiyani, ritmik malakalarni, musiqiy savodxonlikni va tengqurlari bilan tinglash layoqatini yaxshilashini, musiqadan tashqari akademik faoliyatlarda bolalarning eng avvalo o‘qish va matematikada idroki, tushunchalar tizimi, harakatlar malakasi samaradorligini rivojlantirishini ko‘rsatdi.

Koday metodining yana bir jihat shundan iboratki, u bosqichma-bosqich bolaning imkoniyatlari, qobiliyatini inobatga olgan holda musiqiy ko‘nikmalarini rivojlantirib, amalda tatbiq etadi. Ta’lim avvalida eng oson, sodda tushunchalar shakllantirilib, sekin-asta murakkablashtirilib, boriladi. O‘quvchilar notalar bilan yozish tushunchasiga ega bo‘lganidan so‘ng tinglash, kuylash va harakatlar

orqali musiqaning asosi - ifoda vositalari bilan tanishadilar. Tushunchalar doimiy ravishda takrorlanib, qo'shimcha ta'limiy o'yinlar, harakatlar, qo'shiqlar hamda mashqlar bilan mustahkamlanib boriladi.

Zoltan Koday musiqiy qobiliyat, iqtidor masalalarini tahlil etib, musiqiy iqtidori bo'lmanan bolalar yo'qligini ta'kidlagan. Musiqiy iqtidori bo'lmanan kattalar-bolaligida musiqiy qobiliyati sezilmagan, kashf etilmagan va rivojlantirilmaganlardir, deb hisoblagan. Shu bois Vengriyaga katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan Koday oddiy, umumta'lim maktabida musiqa darslarini boshqa fanlardan farqli o'laroq har kuni va o'quv soatlari hajmini ko'proq qilib o'tilishining tarafdori bo'ldi va shunga erishdi.

Musiqiy ta'limning dastlabki usuli sifatida Zoltan Koday otonalarga, ayniqsa, o'qituvchilarga bolalarni musiqa ostida qadam tashlash va qo'shiq ritmida qarsak chalishni o'rgatishni taklif qildi. Chunki musiqiy-ritmik tushunchalarni mustahkamlash- Koday metodida musiqa ostida qadam tashlash, safda yurish va qarsaklar kabi ko'plab musiqiy harakatlardan foydalaniladi. Buni musiqa tinglash yoki jamoaviy kuylash jarayonlarida amalga oshirilishi tavsiya qilinadi. Ayrim kuychan mashqlar uchun o'qituvchi tomonidan mos va qulay harakatlar o'ylab topilib, qo'shiqqa ijrosiga jo'r bo'linadi.

Vengerlar asosan maktablarda o'quvchilarni musiqa ta'limidagi asosiy narsaga - kuylash va tinglagen kuyini yoza olishga o'rgatishgan. Zoltan Koday kuylash vositasi ovozga alohida e'tibor qaratib: "Eng yaxshi, qulay va qo'llash mumkin bo'lgan cholg'u - bu ovozdir, shuning uchun kuylash cholg'uda ijro etishdan ko'ra muhim", - deb ta'kidlab o'tgan.

Zoltan Koday o'quvchilarning qo'shiq kuylash faoliyatiga doir amaliy qo'llash uchun o'qituvchiga quyidagi tavsiyalar taqdim etgan:

- jo'rsiz qo'shiq kuylang;
- harakatli qisqa qo'shiqlarni tanlang;
- qo'shiqlarni takrorlang, o'quvchilar takrorlashni yaxshi ko'radilar;
- tempini o'zgartiring;
- bolalarni har doim maqtang;
- o'ttizta qo'shiqni o'rganing, uning so'zlarini juda yaxshi bilishingiz kerak, chunki sizning ishonchingiz bolalarga o'tadi.

Shuni ta'kidlash o'rinniki, Koday metodi Shvetsariya musiqachi-pedagogi Emil Jak Dalkrozning ritmik harakatlari asosida qurilgandir. Koday Dalkroz texnikasi bilan yaqindan tanish bo'lgani bois, "ritm internalizatsiya" sida muhim instrument (asbob) bo'lib xizmat qilishini ma'qullagan.

Internalizatsiya – (lotincha interims-ichki) tashqi tuzilishlarni o'zlashtirish jarayoni natijada ular ichki regulyator-tartibga soluvchi bo'lib shakllanadi.

Pedagogikada internalizatsiya-ta'lim jarayonida mativatsiya vositasi sifatida o'rganiladi. Internalizatsiyada qadriyatlar shu darajada o'zlashtiriladiki, natijada ular shaxsning xulq-atvorini belgilaydi.

Koday metodida ritm tushunchasi, ritm tuyg'usini shakllantirish masalasi alohida o'rinni tutadi. U ritm ketma-ketligini quyidagicha talqin etadi:

- bolaga ritmik tushunchalar xalq musiqalari namunasi orqali kiritilgan masalan, 2/4 ga nisbatan 6/8 o'lchovi ingliz tilida keng tarqalgan, shuning uchun u boshida kiritilishi lozim.

- ta'limda birinchi ritmik qiymat chorak va nimchorak notalar-bular o'quvchilar uchun tanish bo'lgan musiqa ostida qadam tashlash va boshqarishdir.

- o'quvchilar ushbu ritmlarni o'zlashtirganlaridan so'ng, ritmlar avval tinglab, ritmni bo'g'indarda bo'lib gapirib, kuylab va turli ritmik harakatlarni bajarish jarayonlarida sinaganlar.

Jamoaviy kuylash Vengriyada ommaviylik xususiyatiga musiqa savodxonligi, notaga qarab kuylash malakasini egallahga ta'sir ko'rsatadi.

Yana bir jihat: Zoltan Koday tizimi turli milliy madaniy an'analarga muqim ravishda moslasha olishi jahoning aksariyat mamlakatlarida keng miqyosda ommalashib ketganligiga sabab bo'lgan.

Vengriyada musiqiy tarbiya masalalarining yuqori darajada qo'yilganligi ta'lim-tarbiya jarayonlarida namoyon bo'ladi:

- butun mamlakatdagi umumta'lim muktab tizimining asosi 8 yillik to'liqsiz o'rta muktab bo'lib, uni bitirgan o'quvchilar 4 sinfli gimnaziyaga o'tadilar. Birinchi sinfda bolalar haftada 2 marta 0,5 soatdan, 2-7-sinflarda esa haftada 2 soatdan "Musiqa" o'quv fani bilan shug'ullanadilar;

- har haftada ikki soatdan orkestr mashg'ulotlari uchun vaqt ajratilgan Gimnaziyaning 3-4-sinflarida o'qish davomida o'quvchilar musiqa adabiyoti bilan tanishish va birorta musiqa cholg'usini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- umumta'lim maktablari orasida "Musiqa qo'shiqchiligi" to'liqsiz o'cta maktablari, ya'ni musiqani chuqur o'rganishga qaratilgan umumta'lim maktablari faoliyati keng joriy etilgan. Ularda 1-4-sinf o'quvchilari haftada 6 soat, 5-7-sinflarda esa 4 soat musiqa va 2 soat xor mashg'ulotlari bilan shug'ullanadilar.

Maktablarda, shuningdek, fortepiano, skripka, puflama musiqa cholg'ulari sinflari mavjud;

- bunday muktab sinflarida o'quvchilar soni umummauktab, sinfidagi bolalar soniga nisbatan kamroq, ya'ni 26 o'quvchidan ortmaydi. Bundan tashqari ularda umumta'lim yo'nalishdagi o'quv fanlarining soni ham qisqartirilgan;

- boshlang'ich sinflarda barcha o'quv fanlaridan bilim berayotgan o'qituvchi musiqa darsini ham o'tadi. 5-8-sinflarda bu darslarni musiqa mutaxassis olib boradi. Bolalarning musiqa savodxonligini oshirishda pedagog tomonidan qo'l harakatlari, maxsus imo-ishoralar ham qo'llaniladi;

- relyativ solminizatsiyani chuqur o'rgangandan so'ng, o'quvchilar mutlak tizimga o'tadilar. Musiqa ta'limini berish, shu jumladan musiqa o'quvini rivojlantirish uslubiyoti, asosan, bolalar ongingin o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan va ularga rioya qilgan holda amalga oshiriladi;

- umumta'lim maktablarida fortepiano, fleyta, yog'och simbala va ayrim urma cholg'ulardan keng foydalilaniladi.

Kiday tizimi, ayniqsa musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan hamda umumiyligi ta'lim maktablarida o'zining yorqin ifodasini topmoqda. Har kungi musiqa darslarida bolalarda usullarni ajrata bilish tajribasini qo'shib, diqqat, xotira, his – tuyg'ularni rivojlantiradi. 14-18-yoshdagi o'quvchilar ta'lim oladigan gimnaziyalarda musiqa tarixi fani o'rganiladi, barcha janr, uslub va davrdagi musiqa asarlarini tinglash yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, sinfdan tashqari ishlaydigan xor hamda orkestr jamoalarida faoliyat ko'rsatadilar.

Vengriyada maxsus musiqa ta'limi beradigan gimnaziyalar ham mavjud. Bunday gimnaziyalar bitiruvchilar, aksariyat hollarda boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchilari bo'lib ishlaydilar. Shuningdek,

Vengriyada bir nechta musiqa bilim yurtlari ham mavjud. Mazkur o‘quv yurtlarida o‘quvchilar umumta’lim fanlari bilan birga biror musiqa cholg‘usini, solfedgio, garmoniya, guruhli kuylashni o‘rganishadi. Gimnaziya bitiruvchilari o‘qishni (ta’lim olish muddati 3 yildan 5 yilgacha bo‘lgan) Ferens List nomidagi Musiqa akademiyasida davom ettirishlari mumkin.

3 yillik kurslarda umumta’lim maktablari uchun solfedgio, vokal, biror musiqa cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha, mutaxassis o‘qituvchi tayyorlanadi. 5 yillik ta’lim esa oliy malakali o‘qituvchi va ijrochi artistlarni tayyorlaydi.

Bundan tashqari Vengriyada yuqori sinf musiqa o‘qituvchilari tayyorlaydigan 4 yillik oliy o‘quv yurtlari mavjud bo‘lib, bu yerda talabalar muayyan musiqa ixtisosligi bilan birga ikkinchi mutaxasislik (masalan: musiqa va tarix, musiqa va til) ni egallaydilar. Zoltan Koday tizimi Vengriyadagi musiqa ta’limi va tarbiyasining barcha bosqichlarida joriy etilmokda. Vengriya musiqashunos pedagoglarining tajribasi dunyoning ko‘pgina malakatlarida jumladan, O‘zbekistonda ham musiqashunos va pedagogika mutaxassislari tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda.

### **Shveysariyada musiqa ta’limi**

Emil Jak-Dalkroz (1865-1950) Shvetsariyalik pedagog, kompozitor, musiqachi, yozuvchi va jamoat arbobi, musiqiy-ritmik tarbiya tizimi yaratuvchisi sifatida tanilgan.

Jak-Dalkroz musiqiy dinamika va emotsiyonal harakatlari hamda obrazli mazmun, musiqa ostida plastik harakatlar jo‘rligida musiqiy faoliyatga jalg qilish tizimini yaratdi. O‘quvchilarda improvizatsiya, obsolyut eshitish qobiliyatini rivojlantirish tizimini ishlab chiqdi. U o‘z o‘quvchilarining plastik harakatlar ritm tuyg‘usiga ega bo‘lishlarida ularning asab tizimi va musqul apparatini mukammal rivojlantirish alohida e’tibor qaratdi.

Jak Dalkroz “Ritmni mifikta ta’limiga kiritish orqali biz bolani san’atni anglashga o‘rgatamiz, chunki ritm har qanday san’at turi - musiqa, haykaltaroshlik, arxitektura, adabiyot uchun asos bo‘la oladi. Shu bilan birga musiqa umumtarbiyaviy ahamiyatga ega. U inson ruhiyatini tetiklashtirib, hayajonlanganda tinchlantiradi. Astenik (sust) tabiatlilar uchun esa harakatga keltiruvchi omil sifatida xizmat qiladi”, - deya ta’kidlagan.

Ushbu metod 1900-1912 yillar mobaynida yaratilgan. Uning birinchi nomi- fairelespas (“qadam tashlash”), keyinchalik ritmik gimnastika, deb nomlangan. Mazkur metodni “Gimnastika” so‘zi tufayli oddiy sport gimnastikasi bilan almashtirilganligi bois Dalkroza “ritmika” deb nomlaydi. Bugungi kunda ikkala nom ham amalda qo‘llaniladi. Dalkrozada ushbu g‘oya o‘quvchilarga solfedjiodan ta’lim berish jarayonida tug‘ilgan. Eslash xotirasi juda sust, musiqa jumlasini kuylay olmaydigan bolalar ham musiqa bilan birga harakat qilish jarayonida topshiriqni darrov tushunib, to‘g‘ri bajara boshlaydilar.

Dalkrozaning musiqali ritmika metodi - bu musiqiy pedagogik ta’lim tizimi bo‘lib, unda har bir musiqiy tushuncha tana qismlarining harakati orqali o‘qitiladi va muayyan tajribaga ega bo‘ladi. Ushbu metod o‘quvchilarda musiqiy mahoratni oshirishning samarali usulidir, shuningdek yaxshi musiqiy ijrochi bo‘lish uchun zarur bo‘lgan muvofiqlashtirish, konsentratsiya va boshqa ko‘nikmalarni takomillashtiradi. Dalkroz tizimining yana bir ijobiy jihatni diqqat va xotirani mashq qildirib rivojlantiradi.

### **Yaponiyada musiqa ta’limi**

Yaponiyada ham musiqa ta’limida yagona o‘quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Yaponiyada musiqa tarbiyasining o‘ziga xos tizimi mavjud bo‘lib, bolalar bog‘chasidan oliv ta’lim tizimiga qadar estetik tarbiya ishlari amalga oshiriladi. Estetik tarbiya intengratsiya qilingan fan bo‘lib unga musiqa, tasviriy san’at va badiiy mehnat uzviy birlashgan. Bolalarning yoshiga qo‘ra u bir necha bosqichda amalga oshiriladi

1. 1-5 yoshgacha bolalar bog‘chasida
2. 6-14 yoshgacha to‘liqsiz o‘rta maktab
3. 15-18 yosh o‘rta maktabi
4. 18-23 yosh oliv ta’lim maktabi

Yapon pedagogi Sudzukining metodi, tizimida o‘quvchilarning ona tilini o‘rganishi, musiqa tinglab idrok etishi bilan uzviy bog‘liqlikda amalga oshiriladi. Musiqa tarbiyasida bolalar ijrochiligi, ya’ni cholg‘u asboblarda kuy chalishlari faoliyatini muhim rol o‘ynaydi. Sudzuki musiqani idrok etish masalasiga alohida e’tibor berib, musiqani tinglash faoliyatini - bolaning musiqiy qobiliyat va iqtidorlarni rivojlantirishdagi muhim vosita, deb ta’riflaydi.

Majburiy ta’lim pog‘onasiga 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar jalb qilinib, ular shu muddat ichida 6 yillik boshlang‘ich maktab va 3 yillik kichik o‘rta maktab kursini o‘taydilar. 9 yillik bu ta’lim majburiy bo‘lib barcha bolalar bepul o‘qitiladilar va tekin darsliklar bilan ta’milnadanilar.

Yuqori bosqich o‘rta maktabida ta’lim yo‘nalishining 10,11,12-sinf o‘quvchilarini o‘z ichiga oladi. Yaponiyada bunday bosqich maktablarining kunduzgi kechki va sirtqi bo‘limlari mavjud. Kunduzgi yuqori bosqichli maktablarida o‘qish muddati 3 yil. O‘quvchilarning 95 foizi kunduzgi maktablarda ta’lim oladilar. Bu tarzdagi maktablarda o‘qish ixtiyoriydir.

O‘quvchilar yuqori sinflarga ko‘chgan sari estetik tarbiya yo‘nalishining mazmun-mohiyati ham kengayib, takomillashib boraveradi. Yuqori sinflarda saboq oluvchi talabalar rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq amaliy san’ati va musiqa san’ati tanqidchilari kasblarining asoslarini ham o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

O‘quvchilarning musiqiy bilim, malaka va ko‘nikmalar darajasini aniklash hamda baholash uchun barcha mavzular bo‘yicha yalpi so‘rov o‘tkazilib turiladi. Yaponiya maktablarida xor ijrochiligiga alohida e’tibor beriladi. Qariyb har bir maktabda xor jamoasi bo‘lib, unda haftada ikki marotaba mashg‘ulot o‘tkaziladi. Xor jamoasi bilan musiqa o‘qituvchisi ijodiy ish olib boradi.

Yaponiyada 1872 yili “Ta’lim haqidagi qonun” qabul qilindi. Bunda Yapon ta’limi G‘arb ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashtirildi. 1908 yilda Yaponiyada boshlang‘ich ta’lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. 1893 yili kasb yo‘nalishidagi dastlabki kollej paydo bo‘ldi. 1946 yili qabul qilingan Konstitutsiyada fuqarolarning ta’lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab beradi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta’lim olishlari belgilab qo‘yilgan. Yaponiyada hozirgi zamon ta’lim tizimlarining tarkibi quyidagicha: bolalar bog‘chalari, boshlang‘ich maktab, kichik o‘rta maktab, yuqori o‘rta maktab, oliy ta’lim tizimlariga kiruvchi o‘quv yurtlaridan iborat.

Ta’limiy manbalarga ko‘ra, Yaponiya maktablarida o‘qish 1 apreldan boshlanib kelasi yilning 31 martida nihoyasiga yetadi. Boshlang‘ich va kichik o‘rta maktablarda o‘quv yili uch semestrga bo‘linadi: aprel – iyul, sentabr – dekabr, yanvar - mart. Katta o‘rta maktablarda esa o‘quv yili 2 yoki 3 semestrga bo‘linadi. Darslar 7 soat. Ko‘pchilik maktablarda darslar ertalab soat sakkiz yarimda

boshlanib uchdan keyin tugaydi. O‘quvchilar haftasiga 2-3 soat sinfdan tashqari klub ishlarida, 7 soat ixtisos bo‘yicha mashg‘ulotlarda yoki repetitorlar ixtiyorida bo‘ladilar.

Yaponiya umumta’lim maktabalarida Konservatoriyanı bitirgan professional mutaxassislar jalb qilingan holda musiqadan mashg‘ulotlar o‘tiladi. Yakuniy nazoratlarda hattoki musiqa fanidan imtihon ham qo‘yiladi. O‘quvchilar musiqa fanini xuddi professionallardek o‘zlashtirishadi.

Yuqori bosqich o‘rta maktabalarida butun o‘quv jarayonida o‘quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O‘quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o‘z xohishlariga ko‘ra ingliz tili texnik ta’lim va maxsus sinovlarga jalb etiladilar. E’tiborli yana bir tomoni - Yaponiyada faqat o‘zining milliy an’analari bilan cheklanib qolmay jahondagi Amerika, Fransiya Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg‘or pedagogik ish tajribalarini ham ijodiy o‘zlashtirilgan.

### **Germaniyada musiqa ta’limi**

Yirik nemis kompozitori va buyuk pedagogi Karl Orf (1895-1982) jahonda keng tarqalgan bolalar musiqiy tarbiya tizimining asoschilaridan biridir. Jak-Dalkrozning o‘quv tizimiga asoslanib Karl Orf “Oddiy musiqa” (elementar musiqa) g‘oyasini ishlab chiqdi va uni Myunxendagi (Gyunter maktabi) gimnastika va raqs maktabidagi o‘qitish uslubiga aylantirdi.

1953-yilda Avstriyaning Zalsburg shahrining Mosarteum deb nomlangan musiqa dargohida Karl Orf instituti tashkil topib, u AQSh, Angliya, Germaniya, Hindiston kabi o‘ttizdan ortiq mamlakatlarni birlashtirgan obro‘li ilmiy muassasaga aylanib ketdi.

Karl Orf nomidagi institutda 400 dan ortiq o‘quvchi, 50 dan ziyod pedagog ta’lim oladi. Karl Orf kashf etgan bolalar va o‘smirlar musiqiy tarbiya usuli o‘quvchilarning musiqiy folkloridan keng miqiyosda foydalanishi, ularning ijodiy ko‘nikma va imkoniyatlarini rivojlantirishga asoslangan.

Ushbu o‘quv usuli tamoyillari xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan “Shulverk” to‘plamida o‘zining badiiy-metodik talqinini topdi. Besh jildlik “Shulverk” uslubiy qo‘llanmasi, asosan umumta’lim maktablari va bolalar muassasalaridagi 4 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan bolalarning uzluksiz musiqiy ta’lim - tarbiyasini amalga oshirishga mo‘ljallangan.

Ushbu qo'llanmaga kiritilgan xalq musiqa ijodi namunalari bolalar ijodiy imkoniyatlarini, ijrochilik malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Musiqiy namunalarga etnografik, tarixiy manbalar asosida izoh berib o'tilgan. Bu o'ziga xos barcha bolalarga umumiy musiqa ta'limini beradigan boshlang'ich mакtabdir.

Karl Orf tomonidan yaratilgan "Shulverk- bolalar uchun musiqa" metodi 40 ta davlatda keng qo'llanilib kelinayotgan eng mashhur metodlardan biri hisoblanadi. "Shulverk" so'zi Karl Orf tomonidan o'ylab topilgan bo'lib, u "harakatda ta'lim olish" ma'nosini anglatadi.

"Shulverk"- qadimgi kuylar va xalq qo'shiqlari asosida yaratilgan. U ko'plab xor qo'shiqlari, maqollar, sanamachoqlar, bolalar topishmoqlarini o'z ichiga olgan 5 tomli talaffuz va deklamatsiya uchun mashqlar, ritmik mashqlar, teatrlashtirilgan sahnalar, cholg'u jo'rligida jamoa bo'lib kuylash uchun asarlar to'plamidir.

Karl Orfning boshlang'ich musiqa tarbiyasi tizimining o'quvchilarda nafaqat musiqa o'quvi hamda ritm hissiyotini rivojlantirish, kuylashga yoki biror cholg'uda ijrochilikka etishga o'rgatish, balki ularning musiqiy-ijodiy tafakkurini rivojlantirish, badiha san'ati malakalarini o'zlashtirishni kengaytirish, yakka va jamoaviy ijro jarayonida musiqani ijod etish qobiliyatini rivojlantirishi bilan ham muhimligini e'tirof etgan.

Karl Orf musiqa tarbiyasi tizimida guruhdagi bolalar soni 10-12 nafardan oshmasligi, barcha mashg'ulotlar jamoaviy tarzda olib borilishi, bunda bolalar qo'shiq ijro etib, raqsga tushishlari, navbat bilan musiqa cholg'ularida chalib, turli jismoniy mashqlarni bajarishlari ham ko'zda tutilgan. Asta-sekin bolalar ijodkorligi takomillashib, butun tomosha-sahnachalarni, keyinchalik hatto spektakl, undagi musiqa, she'riy matn, sahna jihozini, barcha hatti-harakatlarni ham o'zлari o'ylab topadigan darajada malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

Karl Orf ta'limda cholg'u jo'rnovozligiga ham katta ahamiyat beradi. "Shulverk"da nazarda tutilgan jamoaviy cholg'u ijrochiligi bolalardan maxsus tayyorgarlik va bilimlarni talab qilinmasa-da, bunda ta'limning oddiyligi musiqa ijodkorligi bilan uyg'unlashadi. "Shulverk"dagi aksariyat musiqiy namunalar vokal mashqlarga asoslangan.

“Shulverk” ning asarlari nota bilan o‘rganish uchun mo‘ljallanmagan. U o‘quvchilar uchun kuychan va ritmik vositalarni mustaqil izlashda, uning usulini bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi shaklini ifoda etishga xizmat qiladi.

Hozirda “Shulverk” to‘plamlaridan ko‘p mamlakatlarda foydalanilmoqda. “Shulverk” ning fransuz, yapon, ingliz, shved va boshqa milliy nashrlari mavjud. Mazkur kitob ko‘r, soqov, maxsus logopedik bolalar maktablarida joriy etilmoqda. K.Orf “Shulverk” kitobini har bir mamlakatda o‘zining milliy musiqasi, shu jumladan bolalar folklor asarlari bilan boyitish zarurligini ta’kidlab o‘tgan..

Karl Orf institutida ertalabki mashg‘ulotlar darslar yosh pedagoglar, oliygoh talabalari bilan o‘tkaziladi. Bolalar mashg‘ulotlari esa kunning ikkinchi yarmida o‘tadi. K. Orfning didaktik konsepsiyasi jahon o‘quv amaliyotida keng tarqalgan bo‘lib, turli uslubiy muammolar yechimlariga yo‘l ochadi va o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rag‘batlantirishga, badiha malakalari, musiqiy ritmik histtuyg‘uni rivojlantirishga ko‘maklashadi. Unda raqs va harakatlarga nafaqat musiqa cholg‘ularida ijro bilan balki “ovozli ishora”-chapaklar, oyoqlarga tapillatish,depsinish, barmoqlarda chertish, ovoz chiqarib jo‘r bo‘lish usullaridan ham foydalanishadi.

“Orf orkestri” ning asosiy tarkibini yog‘och yoki metalplastinkali melodik kuychan urma cholg‘ular bo‘lgan turli o‘lchamdagagi kselofonlar, metallofonlar, shuningdek oddiy urma cholg‘ular guruhi - bolalar litavrsasi, ikkitali tarelkalar, barabanlar tashkil etgan. Shuningdek, orketrga sodda, damli cholg‘ular: xalq naylari, turli diapozondagi blok fleytalar va “bo‘sh” simlarda cho‘ziq tovush hosil qiluvchi ayrim kamonli cholg‘ular ham qo‘llanilgan.

Bu yerda, eng avvalo, nafaqat elementar musiqa cholg‘ulari ijrosi asosida quriladigan metro-ritmik omil, balki avvalo nutq, musiqiy deklamatsiya va kuylashga ahamiyat beriladi. Har bir musiqiy ritmik va melodik mashqlar ijrosining asosida o‘quvchi nutqini o‘stirish maqsadi turadi.

Xullas, Karl Orfning tizimi musiqa pedagogikasiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- bolani musiqa cholg‘usini chalishga o‘rgatish;
- kuylash;
- o‘zining gavdasini yaxshiroq anglash, uni boshqarish;
- diqqat va konsentratsiyani mashq qildirish;

- ritm his-tuyg‘usini rivojlantirish;
- ijodiy muhitni yaratgan holda musiqaning qonuniyatlarini anglash.

## Bolgariyada musiqa ta’limi

Bolgariyada musiqa darslari, o‘quv rejasiga muvofiq, mакtabni birinchi sinfidan to‘qqizinchi sinfiga qadar o‘tkaziladi, 10- 12 sinflarda esa, ixtiyoriy mashg‘ulotlar tarzida, haftada ikki soatdan olib boriladi. Birinchi sinfda musiqa darsiga 1 “shartli” soatdan iborat, chunki birinchi sinf tayyorlov sinfi bo‘lib, unda o‘quvchilar musiqa eshitib kuylaydilar va raqsga tushadilar. 2-4 sinflardan esa musiqa darslariga ikki soatdan vaqt ajratiladi.

2-sinfdan boshlab o‘quvchilar darsda musiqa savodini va qo‘sinq aytishni tizimli ravishda o‘rgana boshlaydilar. Bolgariyadagi ommaviy musiqiy tarbiyaning asosiy vositasi - bu xalq qo‘sinqlaridir.

Oltinchi sinfdan boshlab o‘quvchilar asosiy janrlar va Bolgariya musiqa madaniyati bilan tanisha boradilar. Bolgar xalq musiqasi o‘ziga xos usul, ohang va boshqa xususiyatlarga ko‘ra hozirgi zamon yoshlarining musiqa ehtiyojlarini qondira olish imkoniyatiga egadir.

Bolgariyada asosan diqqat- e’tibor ommaviy havaskorlik jamoalari-folklor ansambligariga qaratilgan. Ularning faoliyatida xalq ijodi namunalari milliy ijrochilik uslubiga yaqin ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Xalqchillik ruhida tarbiyalashga xizmat qilayotgan bolalar hamda yoshlarning qo‘sinq va raqs xalq ansamblari ma’naviy-axloqiy tarbiya, shuningdek badiiy-emotsional ta’sirning vositalaridir.

Bolgar xalq qo‘sinqining o‘ziga xos ohang kuylarnini o‘zlashtirish, bolalarda musiqiy tasavvur hamda ijro malakalarini egallahga ko‘maklashadi, milliy hamda jahon mumtoz musiqa asarlarining badiyligi, nafosatini baholashga imkon beradi. Bolgariya ommaviy musiqa ta’limining milliy uslubiyoti, uning bolalarda musiqaviy ijrochilik, ritmik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan usullari, musiqiy tarbiyaning dastlabki bosqichida o‘quvchining badiha va boshqa ijodiy-ijrochilik harakatlarini qo’llab-quvvatlaydi.

Bolgariya musiqa ta’limi tizimida notasiz kuylashdan notaga qarab kuylash jarayoniga o‘tishda 1923 yilda Boris Trichkov tomonidan ishlab chiqilgan “stolbisa” (ustun) metodi keng

ommalashgan. Oddiy, ommabop, qiziqarli bo‘lgan bu usul, ayniqsa, umumta’lim maktab o‘quvchilari bilan ishlashda katta yordam beradi. Bu metod asosan musiqa savodi jarayonida tatbiq etishda qo‘l keladi. Biroq, qo‘sish qaylash, musiqa tinglash jarayonlarida ham bu metoddan faqat “Do major” miqyosidagina foydalanish mumkin

Bolgariyada o‘qituvchi tayyorlash tizimida musiqa ta’limi mutaxassislari kasbiy tayyorgarligiga alohida e’tibor beriladi. Bolgariya maktablarida boshlang‘ich sinf musiqa darsini barcha o‘quv fanlaridan mashg‘ulot olib boradigan pedagoglar o‘tkazishadi. Ular gimnaziyanı bitirgach, muallimlar institutida ta’lim oladilar. Muallimlar institutida o‘qish muddati uch yil. 5-8-sinflarda ashula darsini, ikki o‘quv fani (masalan, til va ashula) bo‘yicha pedagogika institutining maxsus faqultetida ta’lim olgan o‘qituvchi o‘tadi. 9-12-sinflarda esa, konservatoriyaning musiqiy pedagogika bo‘limlarining bitiruvchilari olib boradilar. Ularning o‘qish muddati-4 yil.

O‘quv dasturlarida ko‘rsatilganidek, musiqa darsini asosini jamoa bo‘lib kuylash va musiqa cholg‘ularida ijro etish faoliyati tashkil etadi. Darslarda qo‘llaniladigan musiqa cholg‘ulari - urib chalinadigan cholg‘ular bolgar (milliy) va mакtab o‘quvchilari tomonidan yasalgan havaskorlik cholg‘ulari metallofonlar, puflab chalinadigan milliy surnaycha, xushtak, xalq cholg‘usi furuylar hamda “melodika”-akkordeonga o‘xshash katta bo‘lmagan musiqa asboblaridir. Bu cholg‘ularda ijro etish sodda, unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi, o‘quvchilarga musiqa darslariga qiziqish va faolligini oshiradi.

Biroq ta’lim amaliyotida ko‘pchilik bolgar o‘qituvchilari musiqiy cholg‘ularni darslarda keng qo‘llanishiga ehtiyyotkorlik bilan yondashishmoqda.

Ularning fikrlariga ko‘ra mazkur cholg‘ularni dars jarayoniga tatbiq etish boshqa faoliyat turlariga kam e’tibor berilishiga sabab bo‘lib qolishi mumkin. mumkin.

1970-yillarda qabul qilingan o‘quv dasturiga ko‘ra musiqa tinglash jarayoniga juda kam soat ajratilgan bo‘lib, darsning asosiy faoliyatları – jamoa bo‘lib kuylash va musiqiy cholg‘ularda ijrochilikdir. O‘tgan yillar tajribasi mazkur dastur o‘zini oqlay olganligini ko‘rsatadi.

Maktabdagagi o‘quv jarayoning ilmiy-uslubiy ta’mnoti ham alohida masala bo‘lib, darsliklar va o‘qituvchilarga mo‘ljallangan uslubiy qo‘llanma hamda metodik tavsiyalar, ilg‘or tajribalar majmualari bilan

ta'minlangan bo'lib, bu narsa, albatta, ommaviy musiqiy tarbiyani amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. 2-9-sinflar uchun yaratilgan darsliklar o'quvchi va o'qituvchilar uchun muhim ta'limiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari o'qituvchilar uchun chiqarilgan o'quv qo'llanmalar notaga qarab kuylash, metodika masalalari, vokal-xor malakalarini shakllantirishga doir bir qator muammolar yechimiga qaratilgan.

Bolgariyada sinfdan tashqari musiqiy ta'lim masalariga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, xor madaniyatini rivojlantirishga Sofiya o'smirlar saroyining "Bodra smyana" bolalar xor jamoasi o'zining ulkan hissasini qo'shdi. Jamoa 1947 yilda tashkil topgan bo'lib, ko'p yillar davomida bu jamoaga Bolgariya xalq artisti, professor Boncho Bochev rahbarlik qilgan edi. Xor jamoasi tarkibida uch yuz sakson nafar a'zosi bo'lib, katta va kichik yoshdagi bolalar guruhlari, 100 nafar kishilik konsert guruhidan iborat bo'lgan. Mazkur jamoa dasturiga murakkab ko'p ovozli, turli janr va uslubga mansub asarlar kirgan.

Bolalar va o'smirlar havaskor xor maktab-studiyasi bolalar xor jamoalarining zamonaviy shakli sifatida yosh ijrochilar uchun muayyan kasbiy rivojlanish istiqbollarini ochib berdi. Badiiy jamoaning muntazam konsert faoliyati, havaskor xor jamoaning rivojlanib xor maktabiga aylanishidagi muhim shart - sharoitlaridan biridir.

Bolgariyada bolalar va o'smirlar xor maktablari ham mavjud bo'lib, ushbu maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyati kasbiy xor jamoalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday xor jamoalari negizada - turli xil repertuarga ega bo'lgan kamer, modregal, katta konsert jamoalari shakl topishi mumkin. Bolalar va o'smirlar havaskor xor maktablarini mustahkamlash zamon talablariga javob beradigan, mukammal tashkiliy-o'quv shakllarini vujudga keltirishga hamda amaliyotini yo'lga qo'yishga samarali yordam beradi.

## **Gollandiyada musiqa ta'limi**

Gollandiyadagi bolalar musiqiy tarbiyaning tizimi Per van Xauve (Delft shahri) nomi bilan bog'liqdir. U Parij va Bryusselda konservatoriyalarning dirijorlik, musiqa nazariyasini hamda

kompozitsiya sinflari bo‘yicha tugatgan. U Delftdagi musiqa mакtabini tashkil etilishi hamda uni boshqarish takliflarini qabul qilgandan so‘ng xor va orkestr jamoalaridagi dirijorlik faoliyatini to‘xtatdi.

Pedagogik metod, usullar bilan tanishish maqsadida Per van Xauve Yevropa mamlakatlariiga, birinchi navbatda, Bavariyaga yo‘l oldi. U yerda Karl Orf va uning bolalar musiqiy tarbiyasi tizimi bilan yaqindan tanishdi. Vengriyada u Zoltan Koday bilan uchrashdi. Ulkan yutuqlarga erishishga asos bo‘lgan relyativ tizimini qunt bilan o‘rganishga kirishdi.

Bolalar bilan olib borgan amaliy musiqiy-pedagogik faoliyati natijasida Per van Xauve o‘zining musikiy tarbiya tizimini yaratdi. Bu tizim – Karl Orf va Zoltan Koday usullarining o‘zaro uyg‘unlashgan mahsuli bo‘lib, unda musiqiy tarbiyada psixologiya va bolalar tasavvuriga mos keladigan asosiy tomonlari olingan edi. Bu usulning mohiyati bolalarni o‘yinga jalb etib (masalan, qarsak chalish, tarelkalar, qo‘ng‘iroqchalar, bubenlarni) urib tovush chiqarish, Bilim saviyalari turlicha darajadak bo‘lishiga qaramay barcha o‘quvchidar musiqiy ta’lim jarayoniga kirishib ketadilar. Biroq, ta’kidlash joizki, Gollandiya musiqa maktablari bolalarga kasbiy ma’lumot berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydi, balki o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli, quvnoq musiqiy kayfiyat bilan o‘tkazishni ta’minalashga xizmat qiladi.

Per van Xauve o‘z amaliyoti jarayonlarida sinovdan o‘tgan shaxsiy tajribalariga asoslanib har bir sinf uchun “Musiqa bilan o‘yinlar” nomi bilan qator darsliklar yaratdi. Darsliklarda ko‘plab musiqali pyesalar, mashqlar, o‘yinlar, qo‘shiqlar kiritilgan va aniq vazifalar berilgan bo‘lib, ularni bajara borib, o‘quvchi sekin-asta notalarni yozish va o‘qishni, nota asosida qo‘shiq kuylash va o‘yinlarni o‘ynashni o‘rganadi.

Per van Xauvening “Musiqa bilan o‘yinlar” nomli musiqiy tarbiya usuli nafaqat Gollandiyada, shuningdek, Zalsburgdagi Mosarteumda, Belgiya, Norvegiya, Fransiyada ham keng tarqalgan. Uning kitoblari turli tillarga tarjima qilingan. Jahonning ko‘pgina mamlakatlaridan Delft shahriga kelgan muallimlar musiqa pedagogikasi va metodikasi masalalariga bag‘ishlangan xalqaro seminarlarda uning tizimi bilan yaqinroq tanishish imkoniga ega bo‘ladilar.

Per van Xauvening "Musiqani tingleymiz" deb atalgan kitobi esa Gollandiya va Belgiyada nashr etildi. Bundan tashqari Gollandiyada gramplastinkalar chiqarilgan bo'lib, ulardan muallifning musiqiy tarbiya usullari va tizimi mazmun-mohiyatini aniq tushunish mumkin.

Musiqani shodlik ulashish vositasi, deb bilgan Per van Xauve hayotidagi asosiy shiori mazmunidagi hayotbaxsh g'oya - turli yoshdagi bolalar, shuningdek, o'zini o'rab turgan barcha kishilar bilan tezda til topa olish hamda zavq va quvonch ulashish kabi ezgu-maqсад nazarda tutilgandir.

### **Ruminiyada musiqa tizimi**

Ruminiya xalq musiqiy an'analarining rivojlanishi ham Zoltan Koday, Karl Orf, Emil Jak-Dalkroz musiqiy-pedagogik usullarini ijodiy o'rganish bilan uyg'unlashib ketgan. Buxarest konservatoriysi qoshidagi musiqali-pedagogik tadqiqotlar kabineti mamlakatda musiqiy tarbiya tizimini mukammallashtirishning qator loyihalarini ishlab chiqdi. Bu loyihalar umumta'lim va musiqa mashg'ulotlarini yagona o'quv tarbiyaviy jarayonda mujassam etishiga asoslangan.

Ruminiyadagi musiqiy tarbiya tizimining ijobiy tomoni shundan iboratki, o'quvchilarning estetik tarbiyasiga yaxlit munosabat ustuvor bo'lib, unda musiqaga yetakchi o'rinn ajratilgan, musiqiy tarbiyaning eng muhim tarkibiy qismi-xor qo'shiqchiligi bo'lib, bolalar uchun mos, qiziqarli va zavqli bo'lgan musiqa ijrochiligi hisoblanadi.

### **Chexiyada musiqa ta'limi**

Chexiyadagi musiqiy ta'lim-tarbiya tizimi hozirgi zamon musiqali – pedagogikasi ilmi hamda nazariyasi yutuqlari asosida rivojlanmoqda. Bu jarayonda havaskorlik musiqa ijrochiligi an'analarining tiklanishi, zamonaviy shaxsning musiqaviy ehtiyojlariga javob beradigan, madaniyatning tarkibiy qismi hisoblangan ommabop musiqaning yangi uslubini yaratish muhim omil hisoblanadi.

Hozirgi zamon chex musiqa pedagogikasi o'quvchilarning musiqiy-ijodiy faolligini oshirishga, ularning musiqiy tafakkuri, xayoli, xotirasi, musiqani his-tuyg'ular orqali idrok etish

imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Musiqiy tarbiyada bolalarning musiqali-ijodiy faolligini oshirish maqsadida musiqiy mashqlarning to‘rt turi amaliyatga joriy etilgan: kuylash (ovozni, musiqa o‘quvini rivojlantirish, mustaqil kuylash), musiqa cholg‘ularida ijro etish (biror musiqiy cholg‘uni o‘zlashtirish hamda ansambl ijrosi), tinglash (bolalarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish), o‘yin-raqs (nafis harakatni rivojlantirish).

Chexiyada bolalarning musiqaviy rivoji besh bosqichdan iborat. 4-6 yoshdagi bolalarga o‘yinga asoslangan musiqalar o‘rgatiladi. Boshlang‘ich sinflar (6-9 yosh) da musiqali o‘yin ma’lum qoidalar bilan to‘ldiriladi. 1-3 sinflarda musiqiy tarbiya darslariga haftada 1 soat ajratiladi.

O‘rta yoshli o‘quvchilarda xor jamoasida yoki biror cholg‘u ansamblida ishtirok eta olish malakalari shakllanadi. 4-6 sinflarda musiqiy tarbiyaga haftada 2 soat ajratiladi.

7-9-sinf o‘quvchilari musiqa bilan haftada 1 soat shug‘ullanadi. Bundan tashqari faqultativ asosida xor qo‘sinqchiligi va cholg‘u ansambli mashg‘ulotlari haftada 2 soatdan olib boriladi.

16-19 yoshdagilar musiqiy tarbiyani maxsus o‘quv yurtlari - to‘rt yillik gimnaziyalarda davom ettiradilar.

O‘qishning dastlabki ikki yili davomida musiqa darslari hamma uchun majburiy bo‘lib, estetik tarbiyasi darslari bilan navbatma-navbat olib boriladi. Uchinchi va to‘rtinchchi yilga kelib, musiqiy tarbiya fakultativ o‘quv fani sifatida o‘tiladi.

Bundan tashqari, har bir o‘quvchiga, xor jamoasi yoki cholg‘u ansamblida ishtirok etish yoki musiqa klublarida ishslash imkonи beriladi. Ushbu tizimdan tashqari, Chexiyada musiqiy istedodli bolalar uchun maxsus musiqa maktablari ham mavjud. Shuningdek, bolalar yakka tartibda, xalq san’ati maktablari, musiqa to‘garaklari, madaniyat uylari va xususiy musiqa o‘quv yurtlarida musiqa ta’limini olishlari mumkin.

Chexiyadagi musiqiy tarbiya-o‘zgarib turuvchi tizim bo‘lib, ta’lim o‘quv faniga, pedagogning maqsad va niyatlarini hamda o‘quvchining shaxsiy xususiyatlariga moslashtirilgan.

Musiqiy tarbiya darslari milliy folklor xorijiy mamlakatlar xalq musiqasi, mumtoz va zamonaviy musiqaga asoslangan. Badiiy asarni faol kuzatish, tasavvur qilish, undagi kechinmalarni boshdan kechirish va anglash orqali musiqaga yo‘l ochiladi. Musiqani o‘rgatishda audio-

vizual vositalari, Praga radiosining mактаб radio dasturlariga jalb etiladi.

Chexiya zamonaviy musiqiy tarbiya tizimi pedagogikaning shakllantiruvchi va faollashtiruvchi soha sifatida rivoj topmoqda.

### **Rossiyada musiqa ta'limi**

O'quvchi-yoshlar musiqa ta'lim-tarbiyasi sohasida Rossiya musiqa pedagogikasi ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi va jahon musiqa jamoatchiligining hurmat-e'tiboriga sazovor bo'ldi. Taniqli kompozitor, pedagog, musiqa va jamoat arbobi D.B.Kabalevskiy (1904-1982) musiqiy ta'lim-tarbiyasi tizimini yaratish va rivojlantirishda katta hissa qo'shdi.

Dmitriy Kabalevskiy ishlab chiqqan musiqa tarbiyasi tizimida ichki aloqalar birligi mezoni asosiy o'rinni tutadi. Uning fikricha musiqa darsining tarkibiy mushtarakligi mashg'ulotlar izchilligining asosini tashkil etishi kerak. Birlik mezoni bilan bir qatorda, dasturda, umumlashtirish qoidasiga ham muhim o'rinni ajratilgan. Ta'kidlash lozimki, tizimda bolalar bilim egallashida "xususiylikdan umumiylilikka" formulasi "umumiylidan-xususiylikka" qoidasi bilan almashtirilgan.

D. B. Kabalevskiy tizimining asosida "uch kit", "uch tayanch"-ya'ni qo'shiq, raqs, marsh musiqasi ustuvor. Ushbu oddiy janrlar bolalarda musiqa haqida tushuncha va tasavvurlarning shakllanishida ilk kadamdir. Musiqiy asar orqali ya'ni, qo'shiq, raqs, marsh janriga doir yozilgan asarlarni tinglab, ularni bir-biridan farqlash, aniqlash, idrok etishda fahmlay olishini maqsad qilib qo'yilgan.

Ta'limning keyingi bosqichda ushbu tushunchalar yanada takomillashtiriladi. ya'ni raqssimon, marshsimon, qo'shiqsimon asarlar bolalarga eshittirilib, ularning asarlar haqida erkin mulohaza yuritish malakalarini rivojlantirilishiga erishish ko'zda tutiladi.

Umuman, D. B. Kabalevskiy ishlab chiqqan musiqiy tarbiya tizimi, musiqiy asarlar orqali barcha bilim va malakalarini bolalar hamda o'smirlarga taqdim etish asosida tuzilgan. Shu bilan birga pedagogikaning muammoli o'qitish tizimi

D. Kabalevskiyning tizimida asosiy vositalardan biri bo'lib, o'quvchilar musiqiy materiallarni ongli-emotsional idrok etish, o'zlarini fikr yuritib muhokama qilish, o'qituvchining rahbarligida va

pedagogik boshqaruvida ma'lum bir bilim va malakalarga ega bo'lishligi musiqa tarbiyasi konsepsiyasining mohiyatini belgilaydi.

### **Estoniyada musiqa ta'limi**

Estoniyada musiqa tarbiya tizimining asosida qo'shiq, musiqa san'ati bayramlarining ko'p yillik xalq an'analari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu ulkan ishda, albatta eston xalqining yuksak xor san'ati an'analalarini saqlab qolishga intilgan musiqa o'qituvchilari, ijodkor ziyoli musiqachilarining ulkan tashabbuslari hamda ijodlari, musiqiy targ'ibot ishlari muhim rol o'ynadi.

Hozirgi zamon musiqiy tarbiyasining asosida Sankt-Peterburg konservatoriyasida professional musiqa ta'limini olgan birinchi eston kompozitorlari ijodi yosh avlod uchun musiqiy tarbiyaning nihoyatda zarurligini anglashlari va ular uchun xor asarlari, pyesalar hamda musiqiy to'plamlari shuningdek, maktablar uchun ko'plab qo'shiq majmualarini yaratishga e'tibor qaratganliklari turadi.

Estoniya musiqa hayotida qo'shiq bayramlarini o'tkazish katta madaniy voqeadir. Bu bayramlarni o'tkazishdan oldin har bir tumanda qo'shiq kunlari bo'lib o'tadi. Birinchi ommaviy qo'shiqlar bayrami 1869-yili Tartu shahrida o'tkazilgan. Bunda barcha vohalardan erkaqlar xor jamoalari (sakkiz yuz kishidan iborat) ommaviy ravishda qatnashish uchun to'planganlar.

Ushbu bayram bugungi kunga yetib kelgan an'analarga asos soldi. Bolalar xor jamoalari 1870-yildan boshlab (doimiy ravishda bo'lmasa ham) qo'shiqlar bayramida ishtirok etmoqdalar. Qo'shiqlar bayrami birinchi kundan boshlab, aholining hamma qatlamarini musiqa san'ati va uning targ'ibotiga jalb etishga qaratilgan edi.

Tarixiy manba ma'lumotlariga ko'ra 1947-yildagi umumrespublika qo'shiq bayrami 25000 dan oshiq qatnashchilarni yig'ini va umumxalq ommaviy bayramiga aylantirgan. 1947- yildan muktab xor jamoalari ham hamma qo'shiq bayramlarida ishtirok eta boshlashgan. Dastlab, bayramlarda muktab bolalar xor jamoalari, aralash va ayollar xor jamoalari shuningdek, damli cholg'ular jamoalari ishtirok etgan. 1960-yildan boshlab esa o'g'il bolalar xor jamoalari ham bayramlarga qatnasha boshlashgan. Bunda V.Laul boshchiligidagi o'g'il bolalar qo'shma xor jamoasi faoliyatini alohida ta'kidlash lozim.

1965 yili Estoniyada bиринчи маротаба республика ўosh скрипкачилар ансамбли тадбирларга исhtirok etib, qo'shiq bayrami an'analariga yangilik kiritdi. Maktab xor jamoalari faoliyatiga qiziqishning oshganligi va qatnashchilarining soni oshib borayotganligi munosabati bilan qo'shiq bayramlarini tashkil etishda paydo bo'lgan qiyinchiliklarni hisobga olib, umumrespublika miqyosida qo'shiqlar bayrami orasida mактаб o'quvchilari xor jamoalarining ko'riklarini o'tkazishga qaror qilingan. Ilk shunday bayram 1962 yilning yozida Tallin shahrida o'tkazilib, unda qatnashchilarning umumiyligi soni 20000 ga yaqin bo'lgan. 1963-yildan boshlab yozgi oromgohlarida o'tkazilgan xor ijrochilik jamoalarida umumiyligi musiqiy ta'lim-tarbiya ishi eng muhim va qiziqarli shakllardan biri bo'lgan.

Estoniyadagi qo'shiqlar bayramiga tayyorgarlik jarayonida seminar va yozgi yig'inlari o'tkazilgan bo'lib, seminarning alohida shakli-dirijorlarning respublika qo'shma xori bo'lib, uning tarkibiga 200 dan ortiq professional musiqa o'qituvchilari va xor dirijorlari kirgan.

Bu xor jamoasida eng yaxshi dirijorlari qatorida Gustav Emesaks, Yuriy Varistelar ham bo'lgan. Ularning xorni badiiy boshqaruvi borasidagi ulkan mahorati yosh xormeystrlarining kasbiy malakasini oshishiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Bularning barchasi bolalar va o'smirlarning musiqa madaniyatini rivojlanishida maktabdan tashqari musiqiy tarbiya ishlarining samaradorligini va yuksak natijalarga erishganligini ko'rsatadi.

Estoniyada bolalar va o'smirlar badiiy-musiqiy ijodiyoti ishlariga doimiy e'tibor berilib kelindi. 1951 yili Yuriy Variste rahbarligi ostida Tallindagi o'smirlar saroyi qoshida bolalar xor jamoasi tashkil qilingan. Keyinchalik ushbu jamoa xor mактabi darajasiga kengayib, hamma sinf o'quvchilarini qamrab olgan. Bu xor jamoasi bitta asosiy va uchta tayyorlov xor guruhlaridan iborat bo'lgan. 1964-yildan boshlab xor mактabi o'quvchilari nota o'qishning maxsus tizimiga o'tishdi. Yoshlar repertuarni muvaffaqiyat bilan egallab, notani juda yaxshi o'rganib, jamoaviy kuylash asarlarini to'g'ri va toza, ifodali kuylash singari malakalarni o'zlashtirishdi.

O'sib kelayotgan yosh avlodga musiqa-xor tarbiyasini amalga oshirishda respublikadagi eng yaxshi bolalar xor jamoalaridan biri "Ellerxeyne" ning rahbari X. Kalyustening hissasi kattadir. Bu

musiqiy jamoadagi ijrochilik faoliyatini madaniyatining yuqori saviyada ekanligi – bolalar va o’smirlar bilan musiqiy madaniyat ishlari yaxshi yo’lga qo‘yilib, faoliyatini samarali tashkil etilganishning bevosita natijasidir.

Shunisi muhimki, xor jamoasidagi mashg‘ulotlar natijalari faqat jamoa bo‘lib qo‘shiq ijro etish bilan chegaralanib qolmagan. Xor jamoasida qo‘shiq kuylash – o‘quvchi-yoshlarning his-tuyg‘ulari va aqliy salohiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan., ularning ma’naviy rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, musiqa bilan shug‘ullanish bolalarning musiqiy bilim darajasini kengaytirib, ularning san’atni estetik idrok qilishlariga yordam bergen. O‘quvchi-yoshlar estetik estetik tarbiyasining muhim tarkibiy qismlaridan bo‘lgan xor ijrochiligining asosiy mazmuni ham ana shundadir.

### **Litvada musiqa ta’limi**

Litvada bolalar va yoshlarga beriladigan musiqiy tarbiya uzoq va o‘ziga xos taraqqiyot yo‘liga egadir. Musiqiy tarbiya ko‘p yillar davomida folklor, avloddan-avlodga o‘tayotgan xalq an’analariga asoslangandir. Litva musiqa madaniyatini rivojlantirishga, ko‘p asrlar davomida maktab tarbiyasining asosini tashkil qilgan diniy musiqaning ta’siri ham bordir.

XX asrning ikkinchi yarmida bolalar musiqa tarbiysi sohasida ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. 1966 - yil umumiy ta’lim maktabi isloh qilindi. Bolalar musiqiy tarbiya uslubiyoti uning qoidalari va mazmuniga kiritilgan o‘zgarishlar musiqa sohasida yangi kitoblar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarining vujudga kelishi natijada respublikada musiqiy tarbiya tizimi saviyasini muayyan darajada oshirilishiga erishildi.

Litva musiqa ta’limi tizimida musiqani o‘qitish bo‘yicha eski dasturlarda bolalarning musiqiy tarbiyasida ayrim cheklanishlar mavjud. Masalan, umumta’lim maktablari dasturlaridan musiqa nazariyasi asosiy o‘rin olgan edi, Bu faoliyatga alohida e’tibor berilib musiqani tinglash, bolalarga musiqiy cholg‘ularda jo‘r bo‘lish malakalari esa o‘rgatilmas edi. Darslarning mazmuni va uslubiyoti ko‘p hollarda kasbiy musiqa ta’lim yo‘nalishlarini to‘g‘ridan - to‘g‘ri qaytarar edi.

Jahon musiqa tarbiyasi va ta'lim tizimlarini diqqat bilan o'rganib chiqqan litvalik mutaxassislar barcha tizimlarda ta'limning muayyan bir shakliga masalan, Zoltan Koday tizimida-solfedjio uslubida qo'shiq kuylash, Karl Orfda - bolalar cholg'ularida kuy ijro etish, Dmitriy Kabalevskiy tizimidan musiqani eshitish va u haqida suhbatlashish kabi yo'nalishlarga e'tibor berilgan, degan xulosaga keldilar. Shu bois ular "musiqiy tarbiya tizimi bir-biri bilan mazmuni va uslubi orqali mahkam birlashgan faoliyat turlarining izchilligiga asoslanishi kerak", - degan g'oyani ilgari surdilar.

Litvadagi musiqa darslarini tashkil etish, musiqiy faoliyatlarni amalga oshirish maqsadida faoliyat bosqichlari quyidagi qismlarga ajratiladi: musiqani eshitish, musiqa o'quvi asosida kuylash, solfedjio usulida kuylash, musiqiy-ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida jo'r bo'lish. Bu bosqichlar musiqiy tarbiya va ta'limda yagona, yaxlit bir tizimni tashkil etdi. Har bir qism o'zining maqsadiga ega bo'ldi.

Ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi musiqa tinglash - darsning muhim qismi sifatida e'tirof etildi. Musiqani tinglash orqali bolalar o'qib, bilim oladilar, kompozitorlar ijodi bilan tanishadilar, tuyg'ulari va salohiyatlari rivojlanib, o'quvchilarning ma'naviy kamolotiga omil bo'ladi. Shuningdek, musiqa bilan shug'ullanish bolalarning musiqiy bilim darajasini kengaytiradi, san'atni idrok etishlariga yordam beradi.

Xor madaniyati - ommaviy qo'shiqlar bayrami, yosh avlodni turli musiqa jamoalari orqali xor san'atiga jalb etishning miqdor va sifat jihatdan o'sib borishi Litva musiqa san'ati hamda ta'limining yetuklik darajasiga yetganligini anglatadi.

### **Polshada musiqa ta'limi**

Polshadagi musiqiy tarbiya tizimi Emil Jak-Dalkroz va Karl Orf g'oyalariga polyak pedagoglarining ijodiy uslubiy yondashuvi asosida rivoj topmoqda. To'liqsiz o'rta maktabda musiqiy tarbiya darsini 1-8-sinflarda haftada bir soat miqdorida majburiy o'quv fani sifatida, qolgan yuqori to'rt sinflarda esa faqat bir yilda majburiy, qolgan uch yilda esa faqultativ tarzida o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan.

Polyak maktab o'quvchilarining musiqiy tarbiya tizimida asosiy faoliyat- qo'shiq kuylashdir. Qo'shiq bilan bolalar bog'cha davridan boshlab tanishadilar. Asosiy diqqat-e'tibor musiqiy tarbiyaning yetakchi shakli hisoblangan - kuylashga qaratilgan.

Shuningdek, repertuar tanlashga ahamiyat beriladi, asarning badiiylik xususiyati, musiqa va she'riy matnlari o'zaro uzviy bog'liqlik darajasi bolalarning ijrochilik imkoniyatlari hamda ularning xilmashilligi hisobga olinadi. Musiqiy tarbiyaga oid o'quv dasturlari tahlili polyak xalq qo'shiqlarini o'rgatishga keng o'rinn ajratilganligini ko'rsatadi. Qo'shiq kuylashdan tashqari bolalar urma cholg'ular, fleyta, mandolina, gitara, akkordeon kabi musiqa cholg'ularida ham ijro etishni o'rganadilar.

Polyak pedagoglari, bolalarning musiqiy salohiyatini ijodiy tafakkurini kuchaytiradigan ijodiy amaliyatga alohida e'tibor beradilar.

Bolalar musiqiy-ijodiy amaliyotining eng ko'p tarqalgan ko'rinishlari quyidagilar:

1. O'zi yaratgan yoki berilgan kuy asosida erkin badiha etish;
2. Musiqa qonuniyatlariga buysunadigan hamda ongning nazoratini talab qiladigan badiha.

Polyak pedagoglari bolalarga beriladigan topshiriqlarning turli variantlaridan keng foydalanadilar: jumladan, muayyan ritmdagi badiha (masalan, maqol va matallarning turli vaznlari asosida) yoki polimetriya uslublarida kuylash, kuyni berilgan usulga yoki polyak xalq raqslari usullariga moslashtirish, ma'lum (masalan, rondo, variatsiya) kompozitsion shaklda badiha, she'r va hikoyalarga bag'ishlab musiqa bastalash.

Polyak maktablarida Emil Jak-Dalkroz asos solgan musiqa sadolari ostida ritmik mashqlar majmui keng qo'llaniladi. Tajriba maktablarining 1-4 sinflarida musiqiy-jismoniy mashqlarning quyidagi shakllari bajariladi:

- mashqlar va ritmik o'yinlar bo'lib, ularda muayyan vazifalar rejalashtiriladi, masalan, musiqa sur'ati, dinamikasi, ritmikasi o'zgarishiga bolalarning sezgirligi hamda ziyrakligini oshirish;
- usul va jismoniy harakatlardan iborat musiqa shakllari (uch qisqli, variatsiya va boshq.);
- tinglagan musiqa asarlariga izoh berish;
- ashula va raqs harakatlari.

Barcha sinflarda bir necha daqiqalar davomida musiqani tinglash faoliyati amalga joriy etilgan. Sakkiz yillik maktablar uchun fonotekalar tuzilib unga maxsus ishlab chiqilgan uslubiy ko'rsatmalar ilova qilingan. Mazkur qo'llanmalarda turli yoshdagi bolalarning

musiqiy-ijodiy tasavvurini rivojlantirish, diqqat va xotirani faollashtirish usullari ta’riflanadi. Yozib olingan musiqa asarlarining tahlili beriladi, kompozitor hamda ijrochilar haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Musiqani tinglash jarayoni boshlang‘ich sinflarda polyak tili dasturidagi muayyan musiqa mavzusiga, yuqori sinflarda esa tarix, geografiya, badiiy va fuqorolik tarbiyasi fanlari bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Polyak maktablari musiqiy tarbiya darslarida ayniqsa, musiqa bilan tasviriy san’atning o‘zaro uzviy bog‘liqligiga alohida e’tibor beriladi. Shu maqsadda darslarda musiqa va tasviriy san’atning uyg‘unlashgan shakllari, jumladan, audiovizual jihozlari yordamida kino, televidenie kabi turlari vosita sifatida qo‘llaniladi.

Xor qo‘sinqhiligi bolalarda tasavvur va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, qo‘sinq orqali olamni, go‘zallikni idrok etish, dunyo haqidagi bilimlarni egallash va boyitishning manbalaridan biri, insonparvarlik tarbiyasining tarkibiy qismlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Xor jamoasida qo‘sinq kuylash zamonaviy inson uchun zaruriyat va madaniyatlilik belgisi hisoblanadi.

Shuni ham ta’kidlash joizki, xorijdagi musiqiy tarbiya sohasidagi ayrim salbiy holatlar, ziddiyatlar, asosan, musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorlash jarayonida, shuningdek, umumta’lim maktablarda yagona o‘quv rejalarini va dasturlarining yo‘qligida namoyon bo‘ladi.

Jahon musiqiy tarbiya tizimi bugun izlanishlar bosqichidadir. Unda mavjud bo‘lgan turli maqsad va vazifalariga qaramasdan musiqiy tarbiyaning umumiylarini ham ko‘rsatish mumkinki — uning asosini ijodiy va asosan jamoaviy, ommaviy musiqa ijrochiligi tashkil qilishi kerak.

Bolalar musiqiy tarbiyaning eng yangi usullari bilan tanishish, tajriba almashish, uchrashuv, seminar, anjumanlar, bolalar xor jamoalari ko‘rik-tanlovlarni o‘tkazish va boshqa chora-tadbirlar bolalar musiqa ta’limi va tarbiyasi sohasida jadal rivojlanishga olib boradi.

Hozirda, ISME (Musiqa ta’limi bo‘yicha xalqaro jamiyat) dan tashqari, konservatoriya va musiqa akademiyalarining Yevropa Assotsiatsiyasi va Umumjahon xor federatsiyasi tashkil qilingan. Ushbu xalqaro tashkilotlar faoliyati musiqa pedagogikasi, musiqiy tarbiya nazariyasi va amaliyotining bundan keyinga rivojlanishi va

mukammallashuvi uchun zarur bo‘lgan ilg‘or uslubiyotini egallahda muhim o‘rin tutadi.

### ***Nazorat uchun savollar***

1. *Venger musiqa ta’lim-tarbiyasida Zoltan Kodayning tizimi mazmun-mohiyatini tushuntiring*
2. *Emil Jak Dalkrozning “Musiqali ritmika” metodi mohiyatini tushuntiring.*
3. *Karl Orfning “Ùulverk” metodi mazmuni nimadan iborat?*
- 4 *Bolgariyada musiqa ta’limi qaysi sinflarda va haftada necha soatdan o‘qitiladi?*
5. *Gollandiyada musiqa ta’limi timzimida Per van Xauvening musiqiy-pedagogik faoliyati mazmun-mohiyatini tushuntiring.*
6. *Chexiyada bolalar musiqiy rivoji bosqichlarini izohlang?*
7. *D. B. Kabalevskiyning musiqiy tarbiya tizimi mazmunini tushuntiring.*
8. *Estoniya, Litva va Latviyada musiqa ta’lim-tarbiya tizimining mazmun-mohiyatini bayon qiling.*
9. *Polshada musiqa ta’limi tizimining mohiyatini tushuntiring.*

## TEST SAVOLLARI

### 1. Musiqa madaniyati fanining maqsadi?

- A) O‘quvchilarda san’at, badiiy-estetik va ijtimoiy emotsiyal ko‘nikmalar, milliy, umummadaniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy fazilatlar, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish
- B) O‘quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalash
- C) O‘quvchilar musiqiy savodxonligini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish
- D) O‘quvchilar musiqa ta’lim-tarbiyasini amalga oshirish

### 2. Musiqa tarbiyasi tizimida yetakchi omil?

- A) Dars
- B) Sinfdan tashqari ishlar
- C) Musiqa va san’at maktabi
- D) Maktabdan tashqari ishlar

### 3. 1-sinf 1 -chorak mavzusi qanday nomlanadi?

### O‘rganishga necha soat ajratilgan?

- A) Xushnavo milliy cholg‘ularimiz – 8 soat
- B) Biz yoqtirgan kuy va qo‘shiqlar – 9 soat
- C) Musiqa savodiga sayohat – 10 soat
- D) Musiqa olamiga sayohat – 7 soat

### 4. 2- sind 1-chorak mavzusi qanday nomlanadi?

### O‘rganishga necha soat ajratilgan?

- A) Musiqa savodiga sayohat – 10 soat
- B) Bolalar bastakorlari – 8 soat
- C) Yakkavozlik va jo‘rnavozlik – 7 soat
- D) Kuy – 9 soat

### 5. Darsni loyihalashtirish, unga tayyorgarlik nimalarga bog‘liq?

- A) O‘qituvchi nutqi, iqtidori, salohiyatiga
- B) O‘qituvchi bilimi, tajribasi, darajasiga
- C) Pedagog malakasi, mahorati, kompetentligiga
- D) Mutaxassis talabchanligi, fanini chuqur bilishiga

### 6. Musiqa o‘qitish metodikasi qaysi fanlar bilan o‘zaro uzviy bog‘liqlikda rivojlanadi?

- A) Musiqashunoslik, pedagogika, psixologiya, fiziologiya
- B) Musiqa nazariyasi, musiqa tahlili, solfedjio, cholg‘ushunoslilik
- C) Musiqa nazariyasi, vokal, dirijorlik, garmoniya
- D) Musiqa tarixi, musiqa adabiyoti, polifoniya, musiqa asoslari

**7. Musiqa o‘qitish metodikasi fani nimani o‘rganadi?**

- A) Musiqa tarbiyasining shakli, vositalari va omillarini
- B) Musiqa tarbiyasining mazmun va metodlarini takomillashtirish maqsadida uning qonuniyatlarini
- C) Musiqa cholg‘ularida chalish, birgalikda kuylash va tinglashni
- D) Musiqiy qobiliyat, qiziqish va musiqa asarlarining tuzilishini

**8. Musiqa darslarining boshqa fanlardan o‘ziga xosligi nimada?**

- A) Badiiyligi, qiziqlarliligi, ijodiy- zavq, emotsiyal tuyg‘ular va obrazli kechinmalarni uyg‘otishi
- B) Musiqiyligi, badiiy vositalarga asoslanganligi, cholg‘u asboblarda olib borilishi
- C) Musiqiy faoliyati, jamoaviy aytim faoliyati, tinglash jarayoni
- D) Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarilishi, musiqiy savodxonlik bosqichi, o‘qituvchining musiqa tinglash bosqichidagi “kirish so‘zi”

**9. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi Davlat ta’lim standarti qachon tasdiqlandi?**

- A) 2017 yil 10 noyabr
- B) 2018 yil 5 yanvar
- C) 2017 yil 6 aprel
- D) 2019 yil 6 aprel

**10. “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonun qachon qabul qilindi?**

- A) 2021 yil 14 iyun
- B) 2021 yil 10 yanvar
- C) 2020 yil 23 sentabr
- D) 2020 yil 3 yanvar

**11. Bolaning jismoniy rivojlanishi uchun ahamiyatli bo‘lgan musiqiy faoliyat turi?**

- A). Bolalar cholg‘u asboblarida chalish.
- B) Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish
- C) Jamoaviy aytim
- D) Musiqa tinglash va tahlil etish

**12. Musiqa ta’limi jarayonida ko‘p qo‘llaniladigan metodlarni aytib bering**

- A) Ko‘rgazmali, ongli-emotsional, izchillik, tizimlilik
- B) Amaliy, qiyoslash, yozma, og‘zaki
- C) Taqqoslash, amaliy, ilmiy, tahlil etish
- D) Ko‘rgazmali, amaliy, taqqoslash, og‘zaki

**13. “Prinsip” atamasining ma’nosi?**

- A) Asos, qoida, talab
- B) Burch, majburiyat
- C) Ishtiyoq, mayl
- D) Ish uslubi, yo‘nalish

**14. Musiqa o‘qitishning og‘zaki metodlari?**

- A) Tushuntirish, uqtirish, eslatish
- B) Hikoya, suhbat, tushuntirish, savol-javob, izohlash
- C) Namoyish etish, ko‘rgazmalilik, baholash

D) Fikrlash, tahlil etish, savol-javob

**15. Amaliy metodlardan qaysi malaka-ko‘nikmalarni rivojlantirishda foydalaniladi?**

- A) Fanlararo o‘zaro bog‘lanishda, musiqa asarini takror tinglaganda
- B) Jamoaviy aytimda, musiqa asarlarini tinglashda, musiqa savodxonligi faoliyatida
- C) Vokal-xor malakalarini shakllantirishda, musiqa ifoda vositalarini tahlilida, janr va shakllarni aniqlashda, nota yozuvlarini o‘rganishda
- D) Musiqiy ritmik harakatlarni bajarishda, vokal-xor mashqlarini kuylaganda, musiqa tahlilida

**16. 1-sinf 3 chorak mavzusi qanday nomlanadi?**

**O‘rganishga necha soat ajratilgan?**

- A) Musiqa olamiga sayohat – 7 soat
- B) Biz yoqtirgan kuy va qo‘sishlar – 9 soat
- C) Musiqa savodiga sayohat – 10 soat
- D) Xushnavo milliy cholg‘ularimiz – 8 soat

**17. 1- sinf o‘quv yilida “Musiqa madaniyati” fanidan necha soat ajratilgan?**

- A) 33 soat
- B) 34 soat
- C) 32 soat
- D) 36 soat

**18. 1- sinfda dars**

**faoliyatlarining qaysi biriga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiq?**

- A) Musiqa savodxonligi, notalarning bo‘linishi.
- B) Jamoa bo‘lib kuylash, ovoz tarbiyasi
- C) Musiqa tinglash, ongли-emotsional idrok etish
- D) Musiqiy ijodkorlik va musiqa tahlili

**19. “Qo‘sishq aytish qoidalarini biladi, amal qiladi va ifodali kuylaydi”, - bu 2-sinf o‘quvchisining qaysi kompetensiyasiga kiradi?**

- A) O‘zini-o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi
- B) Amaliy rivojlanish kompetensiyasi
- C) Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi
- D) Musiqiy savodxonlik kompetensiyasi

**20. Mutatsiya davri necha yoshda boshlanadi va qancha davom etadi?**

- A) 10-11 yoshdan boshlanib, 14-15 yoshgacha
- B) 12-13 yoshdan boshlanib, 16-17 yoshgacha
- C) 11-12 yoshdan boshlanib, 13-14 yoshgacha
- D) 13-14 yoshdan boshlanib, 15-16 yoshgacha

**21. Bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish qanday faoliyat turi?**

- A) O‘rta sinf o‘quvchilarining musiqiy faoliyati
- B) Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining amaliy faoliyati
- C) Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jamoaviy ijrochilik faoliyati
- D) 5-7 sinf o‘quvchilarning musiqiy faoliyat turi.

**22. 3 -sinf musiqa ta’limida chorak mavzu nomlari?**

- A) Musiqada pauzalar, musiqa olamiga sayohat, ansambllar turlari, bolalar bastakorlari
- B) Kuy, bolalar bastakorlari, jo‘rnavozlik va jo‘rsozlik, musiqa savodiga sayohat
- C) Bolalar bastakorlari, ansambl turlari, kuy, musiqa savodiga sayohat
- D) Yakkanavozlik, jo‘rnavozlik, kuy, bolalar bastakorlari

**23. “Notalar bo‘linishini biladi, o‘lchovlarni biladi va amalda qo‘llay oladi”. Bu 3-sinf o‘quvchisining qaysi kompetensiyasiga kiradi?**

- A) Musiqiy savodxonlik kompetensiyasi
- B) Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi
- C) O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi
- D) Amaliy rivojlanish kompetensiyasi

**24.4- sinf 3- chorak mavzusi va unga ajratilgan soat?**

- A) Xalq cholg‘ulari – 8 soat
- B) Bayram va mavsum qo‘shiplari – 10 soat
- C) O‘zbek xalq aytimlari – 9 soat
- D) Xalq qo‘shiplari va raqslari – 7 soat

**25. “Xalq aytimlari va qo‘shiplarini to‘g‘ri kuylay oladi”, - bu 4-sinf o‘quvchisining qaysi kompetensiyasiga kiradi?**

- A) Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi
- B) Amaliy faoliyatni rivojlantirish
- C) O‘zini-o‘zi rivojlantirish
- D) Jamoaviy aytim kompetensiyasi

**26.5- sinfda o‘quv yili davomida o‘tiladigan chorak mavzularini toping.**

- A) Orkestrlar, xor san’ati, musiqada vokal-simfonik janrlar, sahnnaviy musiqa asarlari, opera san’ati, o‘zbek musiqasida opera janri
- B) Xalq musiqa ijodi, mahalliy ijrochilik uslublari, musiqa olamiga sayohat, bolalar kompozitorlari
- C) Mumtoz musiqa, sahnnaviy musiqa, musiqaning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri

D) Maqom musiqasi, an'anaviy musiqa, kino musiqasi, o'zbek estrada san'ati

**27. "Orkestr turlarini bir-biridan farqlaydi", - bu 5-sinf o'quvchisining qaysi kompetensiyasiga kiradi?**

A) Amaliy faoliyatni rivojlantirish

B) O'zini-o'zi rivojlantirish va asrash

C) Estetik madaniyat va ijodkorlik

D) Musiqiy savodxonlik

**28. 6-sinf 1-chorakda**

**o'rganiladigan mavzu va unga ajratilgan soat miqdori?**

A) Mumtoz musiqa va xalq musiqasining o'zaro bog'liqligi - 7 soat

B) Mumtoz musiqa va xalq musiqasining mahalliy uslublari haqida tushuncha - 9 soat

C) Sharq xalqlari mumtoz musiqasi – 10 soat

D) Yevropa mumtoz musiqasi haqida tushuncha – 8 soat

**29. 7 – inf o'quv yili davomida o'rganiladigan choraklar mavzusi**

A) Xalq musiqasining mahalliy uslublari, maqomlar haqida umumiy tushuncha, o'zbek musiqasining jahon musiqa san'atida tutgan o'rni, O'zbekistonning musiqa madaniyati.

B) Sharq xalqlari mumtoz musiqasi, orkestrlar, kuy, sahnaviy musiqa

C) Maqom musiqasi, sahnaviy musiqa, o'zbek xalq ijodi, bastakorlar hayoti va ijodi

D) Mahalliy ijrochilik uslublari, an'anaviy musiqa, mumtoz musiqa haqida tushuncha, kino musiqasi

**30. Har bir inf o'quv yilining yakunida o'quvchilarga qo'yiladigan kompetensiyaviy talablar qanday nomlanadi?**

A) Bolalar cholg'u asbobida chalish va ritmik harakatlar kompetensiyasi, xor bo'lib kuylash kompetensiyasi

B) Musiqiy savodxonlik kompetensiyasi, jamoaviy aytim kompetensiyasi

C) Musiqa tinglash va tahlil etish kompetensiyasi

D) Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi, o'zini-o'zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi, amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi

**31. "Metodika" so'zi qaysi so'zdan olingan va u nima ma'noni anglatadi?**

A) Fransuzcha "izlanish usuli", "bilish yo'li"

B) Inglizcha "o'rganish usuli", tadqiqot yo'li

C) Grekcha "tadqiqot yo'li", "bilish usuli"

D) Nemischa “tadqiqot yo‘li”, “bilish usuli”

**32. O‘quvchilarning vokal-xor malakalarini rivojlantirishda qaysi metod muhim vosita bo‘lib hisoblanadi?**

- A) Taqqoslash metodlari
- B) Amaliy o‘qitish metodlari
- C) O‘yin metodlari
- D) Ko‘rgazmali o‘qitish metodlari

**33. Mutatsiya nima?**

- A) Tovush paylarining cho‘zilish davri
- B) O‘g‘il bolalar tovushining o‘zgarish davri
- C) Bolalarda uchraydigan kasallik
- D) Tovush kasalligi

**34. Diksiya nima?**

- A) Qattiq so‘zlashuv
- B) Pala-partish so‘zlashuv
- C) So‘zlashuv orqali fikr bayon qilish
- D) To‘g‘ri talaffuz qilish

**35. “Xor” so‘zi qaysi tildan olingan va qanday ma’noni anglatadi?**

- A) Inglizchadan olinib, “kuylayman”
- B) Ruschadan olinib, “ashula aytaman”
- C) Yunoncha «choros» dan olinib, „yig’ilish“
- D) Arabchadan olinib, “qo‘sinq aytish”

**36. 4-sinf 1- chorak mavzusi va uni o‘rganishga ajratilgan soat?**

- A) Xalq qo‘sishqlari va raqslari – 7 soat
- B) O‘zbek xalq aytimlari – 9 soat
- C) Xalq cholg‘ulari - 8 soat
- D) Bayram mavzusidagi qo‘sishqlar – 10 soat

**37. Musiqa savodi qanday faoliyat?**

- A) Musiqa savodi barcha bilimlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat
- B) Musiqa savodi - tinglashni rivojlantiruvchi faoliyat
- C) Musiqa savodi ovoz sozlashni rivojlantiruvchi faoliyat
- D) Musiqa savodi-ijodkorlikni o‘stiruvchi faoliyat

**38. Musiqa ta’limi asosini qaysi faoliyat turi tashkil etadi?**

- A) Musiqa tinglash
- B) Musiqa savodxonligi
- C) Jamnoa bo‘lib kuylash
- D) Ovoz sozlash

**39. Musiqiy ta’lim jarayoni qanday shakllarda amalga oshiriladi?**

- A) Dars
- B) Dars va sinfdan tashqari
- C) To‘garaklar mashg‘uloti
- D) “Bolalar musiqa va san’at maktab”i

**40. Diqqat- e’tiborning barqaror darajada shakllanmaganligi va o‘yin**

**faoliyatiga moyillik qaysi sinf o‘quvchilariga xos xususiyat?**

- A) 3-sinf
- B) 1-sinf
- C) 2-sinf
- D) 4-sinf

**41. “Ustoz-shogird” an’analarida shogirdning qaysi sifatlari muhim rol o‘ynagan?**

- A) Tirishqoqligi, qiziquvchanligi, iste’dodi.
- B) Bilimi, odobi, musiqani tushunishi
- C) Topqirligi, kuchliligi, samimiyligi
- D) Ziyrakligi, topqirligi, tadbirdorligi

**42. Xalq musiqa pedagogikasiga qanday ta’rif beriladi?**

- A) Nafosat tarbiyasining ajralmas qismi bo‘lib, musiqiy pedagogikaning qonuniyatları yigindisi
- B) Matematik fan bo‘lib, muayyan o‘lchov, surat, vaznlardan iborat musiqiy ta’limotlar yig‘indisi
- C) Umumiy pedagogikaning uzviy ajralmas qismi bo‘lib, xalqni musiqiy-ma’rifiy, pedagogik xususiyatlarning yig‘indisi
- D) Donishmandlarning musiqa tarbiysi haqidagi ta’limotlar yig‘indisi

**43. Qo‘sinq, lapar va dostonlar musiqaning qaysi janriga xos.**

- A) O‘zbek xalq og‘zaki ijodi
- B) An’anaviy musiqa ijrochiligi
- C) Folklor yo‘nalishidagi musiqa ijodiyoti

D) Xalq og‘zaki va yozma ijodiyoti

**44. Jamoa bo‘lib kuylash nima uchun zarur?**

- A) O‘quvchilarda musiqa savodxonligini rivojlantirish uchun
- B) O‘quvchilarning musiqiy qobiliyatları hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun
- C) Ovozni tarbiyalash uchun
- D) Hordiq chiqarish uchun

**45. Bolalar ovozidagi o‘zgarish musiqiy tilda nima deyiladi?**

- A) Rasta.
- B) Soprano.
- C) Mutatsiya.
- D) Klavir.

**46. Jamoa bo‘lib kuylash malakalari**

- A) Ovozni sozlash, birgalikda kuylash, aytim mashqlari
- B) Kuylashdagi holat, ovoz hosil qilish, soz, talaffuz, ansambl
- C) Kuylashda bir- birini eshitish, unli bo‘g‘inlarni to‘g‘ri talaffuz etish, jo‘rlikda kuylash

D) Qo‘sinq mualliflarini bilish, birga boshlash va tugatish, avj qismlarini sof, toza kuylay olish

**47. Lapar qanday ijro etiladi?**

- A) Raqs bilan ko‘pincha ikki kishi tomonidan diolog shaklida

- B) Musiqa ohangi jo‘rligida  
ommaviy aytim shaklida
- C) Jo‘rsiz ikki va undan ortiq  
ijrochilar birgalikda ijro
- D) Yakka tarzda, kuy jo‘rligida  
soz biln ijro etiladi

**48. Diapazon nima?**

- A) Tembr
- B) Tovush kuchi
- C) Tovush balandligi.
- D) Tovush hajmi..

**49. O‘quvchilar diqqatini  
jamlash va asar haqida  
o‘qituvchining “kirish so‘zi”  
musiqiy faoliyatning qaysi  
turida qo‘llaniladi?**

- A) qo‘sish quylash
- B) musiqa tinglash
- C) musiqa savodi
- D) musiqa ijodkorligi

**50. “Surxandaryo -  
Qashqadaryo” musiqa uslubi  
haqidagi tushuncha nechanchi  
sinfda o‘tiladi?**

- A) 6-sinfda
- B) 4-sinfda
- C) 7-sinfda
- D) 5-sinfda

**51. Shashmaqomning Nasr  
(ashula) bo‘limi bиринчи гурӯҳ  
аятимлари қандай номланади?**

- A) Saraxbor, Talqincha Nasr,  
Ufor
- B) Saroxbor, Talqincha,  
Kashqircha, Nasr
- C) Ufor, Talqincha, Savt,  
Saraxbor
- D) Nasr, Savt, Talqincha

**52. Shashmaqomning Nasr  
(ashula) bo‘limi иккинчи гурӯҳ  
аятимлари қандай номланади?**

- A) Nasr, Mo‘g‘ulcha, Talqin,  
Saroxbor, Ufor
- B) Savt, Mo‘g‘ulcha, Talqincha,  
Kashqarcha, Soqinoma, Ufor
- C) Savt, Mo‘g‘ulcha, Saraxbor,  
Nasr, Ufor, Talqincha
- D) Saraxbor, Ufor, Talqin

**53. Buxoro “Shashmaqomi”  
ning taniqli va mashhur  
ijrochilari kimlar?**

- A) Ota Jalol Nosir, Ota G‘iyos  
Abdug‘ani, Domla Halim  
Ibodov, Levi Boboxonov
- B) Komil Xorazmiy, Matyoqub  
Xarritov, Xojixon Boltaev,  
Abduqodir Ismatov
- C) Matyoqub Xarritov, Matniyoz  
Yusupov, Abduqodir Ismatov,  
Muhiddin Najmiddinov
- D) Domlo Halim Ibodov,  
Komiljon Otaniyozov, Tavakkal  
Qodirov

**54. Musiqa haqida  
mulohazalar bildirgan Sharq  
allomalari?**

- A) Farobiy, Firdavsiy, A. Jomiy
- B) Aristotel, Farobiy, M.Udiy
- C) Beruniy, Jomiy, Chustiy
- D) Farobiy, Ibn Sino, A. Navoiy

**55. Besh jildlik “O‘zbek xalq  
musiqasi” hamda olti jildlik  
“Shashmaqom” to‘plamlari  
muallifi kim?**

- A) To‘xtasin Jalilov
- B) Yunus Rajabiy

- C) Faxriddin Sodiqov
- D) Muxtor Ashrafiy

### **56. Xorazm maqomlari qanday nomlanadi?**

- A) Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq
- B) Buzruk, Rost, Iroq, Dugoh, Segoh, Navo
- C) Navo, Dugoh, Segoh, Iroq
- D) Dugoh, Segoh, Buzruk, Iroq

### **57.“Sharq taronalari” festivali madhiyasining mualliflari?**

- A) H. Muhammad sheri, A.Mansurov musiqasi
- B) P. Mo‘min sheri H.Rahimov musiqasi
- C) U.Azim sheri D.Omonullayeva musiqasi
- D) A.Po‘lat she’ri, R. Abdullayev musiqasi

### **58. Turk maqomlarining tarkibiy qismlari?**

- A) Shur, Mohir, Segoh, Chorgoh, Rost, Panjgoh
- B) Rost, Dugoh, Segoh, Iroq, Navo, Buzruk
- C) Taqsim, Kor, Basta, Og‘ir samoiy, Sharqiylar, Uyruq samoiylar, Soz samoysi
- D) Segoh, Iroq, Dugoh, Kor, Rost

### **59. Turkman mumtoz musiqasining asosiy janrlari?**

- A) She’riyat, katta ashula, lirik qo‘shıqlar
- B) Dostonlar, yallalar, katta ashulalar, qo‘shıqlar

- C) Dostonlar, maqomlar, mumtoz qo‘shıqlar, lirik aytimlar
- D) Dostonlar, badiiy adabiyot namunalariga asoslangan ashulalar

### **60. Eron kasbiy musiqasining asosiy janri?**

- A) Dastgoh
- B) Maqom
- C) Mug‘om
- D) Mugam

### **61. Ashula nima?**

- A) Bu badiiy so‘z va kuy uyg‘unligida bastalangan asar
- B) Bu qo‘shıqqa nisbatan rivojlangan, shakl jihatidan kattaroq bo‘lgan avjli asar
- C) Bu kuplet va naqarat shaklida tuzilgan musiqiy asar
- D) Musiqaga solingan she’r matni

### **62. “Shashmaqom” qachon va qaerda shakllangan?**

- A) XVIII asrda Toshkentda
- B) XVII asrda Xorazmda
- C) XVIII asrda Buxoroda
- D) XIX asrda Farg‘onada

### **63. “Shashmaqom” tarkibida yirik shakldagi kuy va ashulalar soni qancha?**

- A) 150 dan ortiq
- B) 310 dan ortiq
- C) 200 dan ortiq
- D) 250 dan ortiq

### **64 .”Katta ashula” qaysi viloyat mahalliy ijrochilik uslubiga xos vokal janri?**

- A) Qashqadaryo

- B) Buxoro
- C) Xorazm
- D) Farg‘ona

**65. Xorazm maqomlari qachon va kim tomonidan notaga olingan?**

- A) XIX asrda “Xorazm tanbur chizig‘i” asosida
- B) XIX asrda Viktor Uspenskiy tomonidan
- C) XX asrda Abdurauf Fitrat tomonidan
- D) XVIII asrda Xorazm tanbur chizig‘i asosida

**66. Mumtoz musiqa nima?**

- A) Xalq ijodi va profesional yo‘nalishdagi yaratilgan asar
- B) Xalq ijodiyotining professional yo‘nalishga xos bo‘lgan eng sara musiqiy namunalar
- C) Professional musiqa janri eng sara namunalari
- D) Xalq ijodi va an’anaviy musiqasi

**67. Qadimdan mumtoz musiqa yoshlarga qanday urgatilgan?**

- A) Milliy sozlarni o‘rgatish orqali
- B) Nota yozuvi orqali
- C) “Ustoz-shogird” an’anasi orqali
- D) Og‘zaki o‘rgatish orqali

**68. Milliylik ohangi bilan sug‘orilgan o‘zbek operasi qaysi?**

- A) “Layli va Majnun”
- B) “Maysaraning ishi”

- C) “Zulmatdan ziyo”
- D) “Dilorom”

**69. Nota yozuvlari qanday yozuv?**

- A) rus yozuvi
- B) butun dunyoda bir xil yozuv
- C) eski yozuv
- D) arabcha yozuv

**70. O‘quvchilarda musiqa madaniyatining poydevori qachon shakllanadi?**

- A) Boshlang‘ich (1-4) sinflarda
- B) 5-7 –sinflarda
- C) 7-9 sinflarda
- D) “Bolalar musiqa va san’at maktab”larida

**71. Qo‘sinq, lapar va dostonlar musiqaning qaysi janriga xos**

- A) Xalq og‘zaki va yozma ijodiyoti
- B) An’anaviy musiqa ijrochiligi
- C) Folklor yo‘nalishidagi musiqa ijodiyoti
- D) O‘zbek xalq og‘zaki ijodi

**72. Bolalar ovozi musiqiy tilda qanday nomlanadi**

- A) Bas
- B) Tenor
- C) Diskant
- D) Bariton.

**73. Diskant bolalarning qanday ovozi**

- A) Yuqori ovozi.
- B) Pastki ovozi
- C) Kichik ovozi
- D) O‘rtal ovozi

**74. 2-sinf “Musiqa”**

**darsligining mualliflari kim?**

- A) Norxo‘jayev N., Mansurov A.
- B) Ibrohimov O.
- C) Norxo‘jayev N., G‘aniyeva G.
- D) Ibrohimov O, Mansurov A.

**75. Musiqa tinglash faoliyati necha bosqichda amalga oshiriladi?**

- A) 3 bosqichda
- B) 4 bosqichda
- C) 5 bosqichda
- D) 2 bosqichda

**76. 4-sinf “Musiqa”**

**darsligining mualliflari kim?**

- A) O.Ibroximov va boshqalar
- B) X. Nurmatov
- C) A. Mansurov
- D) S. Jalilov

**77. O‘zbek xalqi musiqa merosida mahalliy (lokal) uslublari nechta?**

- A) 3 ta
- B) 5 ta
- C) 6 ta
- D) 4 ta

**78. O‘zbek musiqa merosining ikki qatlami qanday nomlanadi?**

- A) klassik va zamonaviy musiqa
- B) xalq musiqasi va kasbiy musiqa
- C) klassik va xalq musiqasi
- D) Yalla va mumtoz

**79. 5-sinf “Musiqa”**

**darsligining mualliflari kim?**

- A) Mansurov A. va boshqalar

B) Begmatov S. va boshqalar

C) Mansurov A. va boshqalar

D) Ibrohimov V. va boshqalar

**80. O‘zbekistonda**

**maqomlarning qanday turlari mavjud?**

A) Farg‘ona maqomi, Samarqand maqomi, Toshkent maqomi

B) Buxoro shashmaqomi, Toshkent maqomi, Xorazm maqomi

C) Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg‘ona va Toshkent maqom yo‘llari

D) Toshkent maqomi, Samarqand maqomi

**81. “Shashmaqom”**

**bo‘limlarining nomlari?**

A) Nazm va Navo

B) Mushkulot va Nasr

C) Nazm va Nasr

D) Saraxbor, Iroq

**82. “Mushkulot” qismi qanday nomlanadi?**

A) Tarje, Navo, Dugoh, Irok, Segoh

B) Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas, Saqil

C) Buzruk, Rost, Segoh, Navo, Saqil

D) Navo, Saqil, Tarje

**83. Estoniyada musiqiy tarbiya tizimining asosini tashkil etuvchi omillar?**

A) Dars jarayoni

B) Sinfdan tashqari musiqiy faoliyat

C) Turli musiqiy- badiiy tadbirlar

D) Qo'shiq, musiqa san'ati bayramlari

#### **84. 7-sinf "Musiqa"**

##### **darsligining mualliflari kim?**

- A) Ibrohimov O., Sadirov J.
- B) Nurmatov H., Norxo'jaev N.
- C) Ibroximov O. , Nurmatov H.
- D) Mansurov A., Ibrohimov O.

##### **85. Gollandiyada musiqa tarbiyasi tizimi muallifi kim?**

- A) Karl Orf
- B) Per van Xauve
- C) Zoltan Koday
- D) Dmitriy Kabalevskiy

##### **86. Xalq qo'shiqlari, lapar, yalla san'ati to'g'risida ma'lumotlar nechanchi sinf darsligiga kiritilgan?**

- A) 2-sinf
- B) 4-sinf
- C) 4-sinf
- D) 6-sinf

##### **87. "Farg'ona-Toshkent" mumtoz musiqasi, katta ashula to'g'risidagi ma'lumot nechanchi sinf darsligiga kiritilgan?**

- A) 6-sinf
- B) 3-sinf
- C) 5-sinf
- D) 6-sinf

##### **88. O'quvchilar musiqani badiiy idrok etishlarida hikoya, suhbat va tushuntirish ishlari qaysi metodlar orqali amalga oshiriladi?**

- A) Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari

B) O'yin metodlari.

C) Taqqoslash metodlari

D) Ko'rgazmali o'qitish metodlari.

#### **89. "Musiqa bilan o'yinlar"**

##### **musiqiy tarbiya metodi muallifi?**

- A) Per van Xauve
- B) Zoltan Koday
- C) Karl Orf
- D) Boris Trichkov

##### **90. Davlat ta'lim standartlari o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan qanday darajani belgilaydi?**

- A) Eng past darajani
- B) O'rtacha darajani
- C) Eng yuqori darajani
- D) Eng quyi darajani

##### **91. Vengriyada musiqa ta'limi qanday tizimga asoslanadi?**

- A) Per van Xauve musiqa tarbiya tizimi
- B) Emil Jak-Dalkrozning musiqiy- ritmik tarbiya tizimi
- C) Karl Orfning musiqa tarbiya tizimi
- D) Zoltan Kodayning musiqa tarbiya tizimi

##### **92. Zoltan Kodayning musiqa ta'limi metodikasi nimaga asoslanadi?**

- A) Musiqani chuqr o'rganish, dirijorlik qoidalariga rioya qilish, musiqa tinglash
- B) Relyativ (nisbiy) solmizatsiya, qo'l harakatlariga, ko'rsatmalar, xor bo'lib kuylashga

C) Xor bo‘lib kuylash, musiqa tarixi, sol’fedjo elementlarini qo‘llash

D) Musiqani o‘rganishda san’atlar aro bog‘liqlikni ta’minlash

**93. Vengreyada boshlang‘ich sinflarda musiqa darsini kim o‘tadi?**

- A) Barcha fanlardan bilim berayotgan o‘qituvchi  
B) Mutaxassis o‘qituvchi  
C) Kompozitor, ijrochi  
D) Dirijor

**94. Zoltan Koday tizimi jahonning aksariyat mamlakatlarda keng miqyosda ommalashib ketganligining boisi nimada?**

- A) Barchaga tushunarli va qiziqarli ekanligi  
B) Oddiy tez o‘zlashtirilishi  
C) Turli milliy-madaniy an’analarga muqim ravishda moslanib borishi  
D) Zamonaviyligi

**95. Vengriyada yuqori sinf musiqa o‘qituvchilarini tayyorlaydigan o‘quv yurtida o‘qish muddati necha yil va qo‘srimcha qaysi mutaxassislik tayyorlanadi?**

- A) 4 yillik oliy o‘quv yurtlari (musiqa va tarix, musiqa va til va b.)  
B) 5 yillik universitet (musiqa va tasviriy san’at, musiqa va badiiy mehnat)

C) 5 yillik oliy o‘quv yurti (musiqa va jismoniy tarbiya, musiqa va matematika)

D) 4 yillik universitet (musiqa va amaliy san’at, falsafa)

**96. Emil Jak Dalkroz metodi qanday nomlanadi?**

- A) Musiqali obraz  
B) Musiqali harakat  
C) Musiqali o‘yin  
D) Musiqali ritmika

**97. Emil Jak Dalkroz musiqiy tarbiya tizimi mazmun-mohiyati?**

- A) Musiqiy pedagogik tizim bo‘lib, unda jamoaviy aytim faoliyati orqali hamjihatlik tuyg‘ulari shakllantiriladi  
B) Musiqiy pedagogik tizim bo‘lib, unda har bir musiqiy tushuncha tana qismlari harakati orqali o‘tkaziladi va tajribaga ega bo‘ladi  
C) Musiqiy pedagogik tizim bo‘lib, unda musiqa asarlarini tinglash orqali o‘quvchilar musiqa idroki rivojlantiriladi  
D) Musiqiy pedagogik tizim bo‘lib, musiqiy savodxonlik vositasida o‘quvchilar musiqiy dunyoqarashi rivojlantiriladi

**98. Nemis kompozitori va pedagogi Karl Orf tomonidan yaratilgan metod nimani anglatadi?**

- A) “Shulverk” metodi – harakatda ta’lim olish

- B) “Stolbitsa” metodi – musiqa savodi vositasida ta’lim olish  
 C) “Musiqani tinglaymiz” metodi – musiqa tinglash vositasida ta’lim olish  
 D) “Musiqa bilan o‘yinlar” metodi – o‘yinlar vositasida ta’lim olish

**99. Bolgariyada notaga qarab kuylash jarayoniga o‘tish kimning metodikasi asosida amalga oshiriladi?**

A) Emil Jak Dalkroz

- B) Karl Orf  
 C) Boris Trichkov  
 D) Per van Xauve  
**100. Bolgariyada boshlang‘ich maktabda musiqa darslarini kim olib boradi?**  
 A) Magistrlar  
 B) Maxsus musiqa fani o‘qituvchilari  
 C) San’at fanlari o‘qituvchilari  
 D) Barcha o‘quv fanlaridan mashg‘ulot olib boradigan pedagog

### TEST TOPSHIRIQLARINING JAVOBLARI

| Nº | 0 | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
|----|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 0  |   | A | A | B | D | C | A | B | A | D |
| 1  | C | B | D | A | B | D | C | B | C | A |
| 2  | B | C | A | D | B | C | A | C | B | A |
| 3  | D | C | B | A | D | C | B | A | A | B |
| 4  | B | A | C | A | B | C | B | A | D | B |
| 5  | C | A | B | A | D | B | A | C | C | D |
| 6  | A | B | C | D | D | A | B | C | B | B |
| 7  | A | D | C | A | C | B | A | D | B | A |
| 8  | C | B | B | D | A | C | B | A | A | C |
| 9  | B | D | B | A | C | A | D | B | A | C |
| 10 | D |   |   |   |   |   |   |   |   |   |

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. - T., 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “O‘zbekiston milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ - 3391-sonli qarori // Xalq so‘zi/. 2017. - 18 noyabr.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Xalqaro maqom san’ati anjumani” ning ochilish marosimidagi nutqi”. // Xalq so‘zi”. 2018 y. - 7 sentabr.
4. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T., O‘zbekiston. 2016. – B.14.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiyl o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 187-sonli Qarori.
6. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son. 2020-yil 23-sentabr. <https://lex.uz/>
7. Amanullayev D. Məktəbdə məsikə tarbiyasi metodikasidan leksiyalar möjmuvi (kursi) . - T., 1990.
8. Amanullayev D. Növbə bilən kuylaymır. -T, 1977.
9. Apraksina O.A. Методика музыкального воспитания в школе. - М., 1989.
10. Абдулин А.Б., Кабалевский Д. Б. Теория и практика музыкального обучения в общеобразовательной школе.- М.,1983.
11. Abu Nasr Forobiy. She’r san’ati. T., 1979. –B.11
12. Akbarov. Il. “Muzika lug‘ati”. T., G‘.G‘ulom nashriyoti 1987. – B. 209-210.
13. Bo‘lajak məsikə o‘qituvchisining pedagogik mahorati asoslari (maxsus seminar dasturi. Tuz. T.V.Shevchenko) -T., 1986.
14. Begmatov S. Məsikə. Darslik. 6-sinf. –T., 2017.
15. Dmitrieva Л.Г., Черноиваненко Н.М. Методика музыкального воспитания в школе. - М.,1989.
16. Hasanov A. Məsikə va tarbiya. -T., 1993.

17. Hasanov A.Sh. Maktabda ashula. Umumta’lim mакtablarining vokal to‘garagi rahbarlari uchun metodik qo‘llanma.- T. “O‘qituvchi”, 1981.
18. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. –T. “Fan va texnologiya”, 2009. – B. 188.
19. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati.- T., 1983.
20. Ibrohimov O. Musiqa. Darslik. 4 sinf. T., 2020.
21. Ibrohimov O., Sadirov J. Musiqa. Darslik. 7 sinf. 2017.
22. Ishmuhamedov R. Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar ( ta’lim tizimi xodimlari, metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma) . – T. “Nihol” 2013. -B 233.
23. Matyoqubov O. Og‘zaki an’anadagi professional musiqa asoslariga kirish. -T., “O‘qituvchi”, 1983.
24. Mansurov A., Karimova D. Musiqa. 5-sinf. Darslik. T.,2001.
25. Musiqa madaniyati fani o‘quv dasturi (1-7-sinf). T., 2017. – B. 41.
26. Musiqa o‘qitish metodikasi (Fan dasturi). T., 2020.
27. Mustafayev B. Musiqa madaniyati ta’limi islohotlari. “Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda madaniyat va san’atning o‘rni mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari to‘plami. Buxoro, 2017. 15 noyabr,- B. 223-225.
28. Mustafayev B. The role of ethical-aesthetic ideal in self-impovement of senior preschool children. XLVII international scientific and practical conference europian research: innovation in science, education and technology. (london, uk 06 december 2018. p 109-112)
29. Mustafayev. B. Umumiy o‘rta ta’lim mакtablarida musiqa . Buxoro – 2013. 3 b.t.
30. Mustafayev B. Некоторые вопросы развития профессиональных навыков учителя музыкальной культуры АCADEMY научно-методический журнал издательство- “Проблемы науки”. 1 11 (62), 2020 Российский импакт-фактор: стр. 47-50.
31. Norxo‘jayev N., G‘aniyeva G. Musiqa. Darslik. 1-sinf.- T., 2021.
32. Nurmatov H., Norxo‘jayev N. Musiqa. Darslik. 2-sinf. –T., 2018.
33. “Oliy ta’limda musiqa ta’limi fanlarini o‘qitish metodikasi” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Tuzuvchi - D. A. Karimova. - T., 2018.

- 34.Qodirov R.G. Boshlang‘ich mакtabda ko‘p ovozli kуylash. - T., 1997.
- 35.Qayumov A. "Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino. Toshkent. 1987. B.29.
- 36.Rasulov O‘. An’anaviy xonandalik o‘qitish metodikasi. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. – T., 2006 yil. - B.22.
- 37.Сизикова С. Хоровое пение в начальных классах (методическое пособие) Dushanbe, 1988.
- 38.Soipova D. Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi. O‘quv metodik qo‘llanma. – T., 2009.
- 39.Тельчарова Р.А. Уроки музыкальной культуры. - М., 1991.
- 40.Toshmatov U., Ismatova N., Omonova M. “O‘zbek xalq qo‘shiqchiligi” (o‘qituvchilar uchun uslubiy qo‘llanma). - T., 2015. – B. 33.
- 41.To‘rayev F. Musiqaga muhabbat. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. - T., 1996 y. 3-son. – B. 32.
- 42.Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. Musiqa madaniyati. T., 2021.
- 43.Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etish. O‘quv-seminar materiallari. – T., 2021 yil. 28-30 iyun.
- 44.Xo‘jayeva M. Umumta’lim maktablarida musiqa o‘qitish metodikasi. 2-nashri. O‘quv qo‘llanma - T., 2008.
- 45.O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim maktablarida musiqa ta’lim-tarbiyasi Konsepsiysi. //Ma’rifat. 1992, 25-noyabr.
- 46.O‘zb. S. Ensiklopediyasi, T. 1976, 7-tom. – B. 171.
- 47.O‘zbek musiqasi tarixi. Tuzuvchi T.E.Solomova. - T., 1981.
- 48.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild.-T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. – B. 396
- 49.G‘oziyev E. Psixologiya . Yosh davrlari psixologiyasi. -T., “O‘qituvchi”. 1994.
- 50.G‘ulomov A.K. O‘qitish prinsiplari va metodlari. - T., 1992.
- .

## MUNDARIJA

|   |           |
|---|-----------|
| <b>KIRISH.....</b>  | <b>3</b>  |
| <b>1-mavzu. Musiqa o‘qitish metodikasi kursi .....</b>  | <b>9</b>  |
| 1.1. Maktabda musiqa metodikasi fanining ahamiyati va mohiyati ..   | 9         |
| 1.2. Musiqa o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan o‘zaro bogliqligi .....   | 11        |
| 1.3. Musiqa o‘qitish metodikasi mazmuni va fanning oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar .....                               | 13        |
| <b>2- Mavzu. Shaxsni shakllantirishda musiqaning roli .....</b>   | <b>17</b> |
| 2.1 Shaxsni shakllantirishda musiqaning roli va xususiyatlari Musiqa san’atining tarbiyaviy ahamiyati. Estetik tarbiya..... | 17        |
| 2.2. Yosh avlodni tarbiyalashda musiqaning roli.....  | 21        |
| <b>3-mavzu. Musiqiy ta’limning maqsad, vazifalari va mazmuni ....</b>   | <b>23</b> |
| 3. 1. Musiqiy ta’limning maqsad, vazifalari va mazmuni .....  | 23        |
| 3.2. Musiqiy ta’limning ijodiy faoliyatlari, shakllari va turlari .....   | 25        |
| 3.3. Musiqa madaniyati darsining xususiyatlari va musiqa o‘quv xonasi .....   | 28        |
| 3.4. Musiqa o‘qitish texnologiyalari .....  | 34        |
| <b>4-mavzu. Umumiy musiqiy ta’limning tamoyillari.....</b>  | <b>42</b> |
| 4.1. Musiqa darslarida umumdidaktik prinsiplar. ....  | 42        |
| 4.2. Ilmiylik va tizimlilik .....   | 44        |
| 4. 3. Ko‘rsatmalilik tamoyili .....   | 46        |
| 4.4. Bilim va malakalarining mustahkamligi .....  | 47        |
| 4.5. Musiqa materialining o‘quvchilar bilimi va malakalariga mosligi.....   | 47        |
| 4.6. Musiqa darslarida bilim va malakalarning mustahkamligi .....   | 48        |
| 4.7. Emotsionallik va onglilikning birligi, musiqa obrazi hamda intonatsiya birligi prinsiplari.....                        | 49        |
| <b>5- mavzu. Umumiy musiqiy ta’limning interfaol uslublari .....</b>  | <b>51</b> |
| 5.1. Musiqiy ta’lim va tarbiyaning asosiy metodlari va uslublari....  | 51        |
| 5.2. Musiqa madaniyati darslarida metodlarni amalga oshirish yo‘llari.....  | 53        |
| <b>6 - mavzu. Musiqa idroki va tinglash madaniyatini shakllantirish texnologiya va uslublari .....</b>                      | <b>60</b> |
| 6.1. Musiqa tinglash madaniyati va qobiliyatlarini shakllantirish texnologiya va uslublari .....                            | 60        |
| 6.2. Musiqa asarini tinglashni tashkil etish texnologiyasi .....  | 64        |

|   |            |
|---|------------|
| <b>7- mavzu. Vokal- xor ijrochiligi madaniyati asoslarini shakllantirish.....</b>   | <b>66</b>  |
| 7.1.Vokal-xor ijrochiligi faoliyatining xarakteristikasi .....  | 66         |
| 7.2. Bolalar ovozi va uni rivojlantirish bosqichlari.....   | 68         |
| <b>8- mavzu. Musiqiy- ritmik faoliyatni shakllantirish.....</b>   | <b>71</b>  |
| 8.1. Musiqiy-ritmik faoliyat xarakteristikasi va vazifalari.....  | 71         |
| 8. 2. Musiqiy - ritmik faoliyatni shakllantirish metodikasi .....   | 74         |
| <b>9- mavzu. Bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish faoliyatini shakllantirish.....</b>   | <b>76</b>  |
| 9.1. Bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish faoliyati xarakteristikasi va vazifalari.....   | 76         |
| 9.2. Darsda bolalar cholg‘u asboblarida ijrochilikka o‘rgatishning musiqiy-tarbiyaviy ahamiyati .....   | 77         |
| 9.3. Bolalar cholg‘u asbobida jo‘r bo‘lish faoliyatini shakllantirish metodikasi .....  | 78         |
| <b>10- mavzu. Birinchi sinfda musiqa o‘qitishning vazifalari va mazmuni .....</b>   | <b>82</b>  |
| 10.1. Birinchi sinf o‘quvchilarining musiqiy- pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlari tavsifnomasi .....   | 82         |
| 10.2. Umumiy o‘rtta ta’lim muktabalarida musiqa madaniyati fani o‘quv dasturining birinchi sinf bo‘yicha o‘quv soatlari va mavzular rejasidagiicha: ..... | 85         |
| 10.3. Davlat ta’lim standarti (DTS) va o‘quv dasturining mazmuni va talablari .....   | 87         |
| <b>11-mavzu. Ikkinci sinfda musiqa o‘qitishning vazifalari va mazmuni .....</b>   | <b>93</b>  |
| 11.1. Ikkinci sinf o‘quvchilarining musiqiy- pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlari tavsifnomasi .....  | 93         |
| 11.2. Davlat ta’lim standarti ( DTS ), dasturning mazmuni hamda talablari .....   | 95         |
| <b>12- mavzu. Uchinchi sinfda musiqa o‘qitishning vazifalari va mazmuni .....</b>   | <b>101</b> |
| 12.1. Uchinchi sinf o‘quvchilarining musiqiy- pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlari tavsifnomasi .....   | 101        |
| 12.2. Uchinchi sinfda musiqa o‘qitishning vazifalari va mazmuni va talablari .....  | 103        |
| <b>13-mavzu. To‘rtinchchi sinfda musiqa o‘qitishning vazifalari va mazmuni .....</b>  | <b>107</b> |

|  |            |
|--|------------|
| 13.1. To‘rtinchi sinf o‘quvchilarining musiqiy- pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlari tavsifnomasi .....          | 107        |
| 13.2. Davlat ta’lim standarti (DTS) va o’quv dasturining mazmuni hamda talablari.....  | 108        |
| <b>14-mavzu. Beshinchi sinfda musiqa o‘qitishning vazifalari va mazmuni .....</b>  | <b>116</b> |
| 14.1. Beshinchi sinf o‘quvchilarining musiqiy- pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlari tavsifnomasi .....           | 116        |
| 14.2. O‘quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari. Musiqiy kuylash va tinglash malakalari darajasi hamda qiziqishlari ..... | 118        |
| <b>15-mavzu. Oltinchi sinfda musiqa o‘qitishning vazifalari va mazmuni .....</b>   | <b>127</b> |
| 15.1. Oltinchi sinf o‘quvchilarining musiqiy- pedagogik va psixologik-fiziologik xususiyatlari tavsifnomasi .....            | 127        |
| 15.2. Davlat ta’lim standarti (DTS) va o’quv dasturining mazmuni hamda talablari.....  | 129        |
| 15.3. O‘qituvchining asosiy vazifalari .....   | 134        |
| <b>16-mavzu. Yettinchi sinfda musiqa o‘qitishning vazifalari va mazmuni .....</b>  | <b>136</b> |
| 16.1. 7- sinfda musiqa o‘qitishning vazifalari va mazmuni .....  | 136        |
| 16.2. 7-sinf bitiruvchilariga musiqa madaniyati fani bo‘yicha qo‘yiladigan talablar .....                                    | 141        |
| <b>17-mavzu. Xorijiy mamlakatlarda musiqa ta’limi tizimi .....</b>   | <b>143</b> |
| 17.1. Har bir mamlakatning musiqa tarbiya tizimi g‘oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning ijtimoiy tuzumiga xizmat qilishi .....   | 143        |
| <b>Test savollari .....</b>  | <b>168</b> |
| <b>Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....</b>   | <b>182</b> |

